SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus
son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5SI4Y2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G‘aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo‘rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o‘g‘li — yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 4-maxsus son (May, 2025). - 295 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI 10-16

Atamuratova Dilafruz
TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI 17-22

Abdushukurova Iqbol
TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI 23-27

Redjapov Doniyor
JANUBIY OROLBO‘YI AHOLISI HARBIY SAN’ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA 28-31

Sultanov Samandar
QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA’ZI CHIZGILAR 32-35

Matyakubov G‘ayrat
XORAZM VOHASIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA’ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR)..... 36-39

Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o‘g‘li
MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA) 40-45

G‘aniyev Mirjalol
QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIY HAYOT 46-51

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Abdullaev Altinbek
KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 52-66

Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira
INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O‘RNI 67-71

Rustamova Sayyora
STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI 72-77

Буранова Лола, Арипова Азиза
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ 78-87

Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich
KORXONALAR BOSHQARUVIDA “YASHIL” IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO‘LLASH AHAMIYATI 88-94

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Saidov Xakim G‘afurovich
TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA 95-98

Kadirova Ziyoda
ILMIY IJODNING IJTIMOIY, MADANIY VA TARIXIY O‘LCHAMLARI 99-104

Muzaffarov Navruzxon Baxronovich
SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA
OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI 105-108

Raxmatova Mexrinoz Majitovna
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI
DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI 109-113

Karimova Lola Muzafarovna
IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI 114-119

Jumayeva Shahlo Suyunovna
JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK
MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 120-125

Djurayev G'olib
JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA
ERKINLIK MASALASI 126-130

Rajabov O'tkirjon
KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA
"TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI 131-134

Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi
GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI 135-139

Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza
MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI 140-144

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Abduganiyeva Djamila Rustamovna
MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS 145-151

Murtazayeva Xadicha
INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI 152-155

Несипбаева Саодатхан
ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ
И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА" 156-160

Axmedjanova Farida, Toirova Shohida
XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI 161-165

O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi
TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL
VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI 166-170

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Salaev Nodirbek
PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI 171-178

Турсунов Ойбек Батирович
МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА
ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ 179-184

Xakimova Inobatxon
XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI 185-191

Мардонов Амиржон Шерзод угли
ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА 192-202

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH 203-207

Xolmo‘minov Shavkat Jumaevich
EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA’MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 208-215

Khudayberganova Nigina To‘lqin qizi
THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW 216-221

Саидов Бобур Бахромжонович
МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ... 222-229

Normurodova Behro‘za Xolmo‘minovna
RAQAMLI DALILLARNI TO‘PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJRIBASI: O‘ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI 230-236

Qilichova Kamola Luqmonxon qizi
DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI 237-248

Shagilov Pulatbek Koptleuovich
BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI:
HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI 249-256

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Imomov Sirojiddin Ilxomovich
SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA’MINOTINING AHAMIYATI 257-263

Khayrova Madina Rasimovna
NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI 264-269

Mirkasimova Zilola Alisherovna
MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI 270-273

Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna
AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O‘ZARO TA’SIRI 274-278

Shakirova Dildora Abdumalikovna
NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH 279-285

Djurayeva Nargis Narkulovna
TABIIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO‘LLANILISHI 286-290

Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon
MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY 291-294

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

CREATION OF THE LEGAL FRAMEWORK OF MEDIA IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Mirsaid Abdurakhmonov
Navoi State University of Mining and Technology

Abstract. This article provides a legal and scholarly analysis of the formation process of the legal framework governing mass media activities in the Republic of Uzbekistan. The relevance of the topic is established, and the main legislative documents, along with the stages of their adoption, are outlined. Additionally, the current legislation that regulates mass media activities in Uzbekistan is compared with international standards, highlighting existing problems and shortcomings. Based on the research findings, specific recommendations are offered for improving the legislation in this area and enhancing the legal protection of mass media.

Keywords: mass media, legal framework, legislation, printed publications, freedom of the press, freedom of information, international standards.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI

Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi assistenti,
E-mail: mirsaidabduraxmonov854@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari shakllanish jarayoni ilmiy-huquqiy tahlil qilindi. Mavzuning dolzarbligi, asosiy qonuniy hujjatlar va ularning qabul qilinish bosqichlari bayon etildi. Shuningdek, O‘zbekistonda OAV faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik xalqaro standartlar bilan solishtirilib, mavjud muammo va kamchiliklar aniqlandi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish va ommaviy axborot vositalarining huquqiy himoyasini kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: ommaviy axborot vositalari, huquqiy asoslar, qonunchilik, bosma nashrlar, OAV erkinligi, axborot olish erkinligi, xalqaro standartlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N01

Kirish. Globallashuv jarayonining tezlashishi va raqamli texnologiyalarning yanada keng joriy etilishi zamonamizda axborot oqimining yuqori tezkorligi va ta’sirchanligini oshirdi. Shu bois, demokratik jamiyatlarda ommaviy axborot vositalari (OAV) nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki ijtimoiy boshqaruv, jamoatchilik nazorati va siyosiy hisobdorlikni ta’minlovchi institut sifatida tez-tez e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, so‘z erkinligini huquqiy asoslar bilan kafolatlash va OAV faoliyatini qonunchilik doirasida tartibga solish barcha huquqiy demokratik davlatlar uchun ustuvor vazifalardan biridir.

Ushbu maqolaning maqsadi – O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayonini tahlil qilish, mavjud qonunchilikni o‘rganish hamda rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1) O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi eng muhim normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish;

2) Ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari shakllanishining tarixiy bosqichlarini tahlil qilish;

3) Milliy va xalqaro qonunchilikni taqqoslash orqali mavjud muammolarni aniqlash;

4) Ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada erkin va shaffof yuritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari va ularning huquqiy asoslarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar belgilandi. Tadqiqot predmeti esa – ommaviy axborot vositalari faoliyatini huquqiy tartibga solish jarayoni, amaldagi qonunchilik va ularning ijrosi masalalari hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslari izchil o‘rganildi. Milliy qonunchilik va xalqaro standartlar taqqoslandi va tahlil qilindi, mavjud muammolar muhokama qilinib, ularga yechim topish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Adabiyotlar va metodlar tahlili. Ushbu maqolani yozish jarayonida O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini shakllantirish va rivojlantirishga oid qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, xalqaro huquqiy normalar hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik qo‘lga kiritilgach, milliy axborot bazasini yaratish va ommaviy axborot vositalari faoliyatini demokratik talablar asosida tartibga solishga doir bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqa boshladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [1], “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (1991) [2], “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi (2002) [3], “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi (2003) [4], “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (2007) [5] kabi ko‘plab qonunlar qabul qilinishi ommaviy axborot vositalari, so‘z erkinligining huquqiy asoslari yaratilishida muhim qadam hisoblanadi. Oxirgi yillarda, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) [6] doirasida OAV erkinligini ta’minlash, jurnalistlar huquqini himoya qilish, ochiqlik siyosatini yanada jadallashtirish va xalqaro axborot standartlariga mos qonunchilik bazasini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Qonunchilik hujjatlarini yaratish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi hukumati xalqaro tan olingan inson huquqlarini kafolatlovchi qonunlarni teran o‘rganib qonunchilik asoslarimizni yaratish jarayonida ular e’tirof etildi. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi [7] va Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro paktlarni [8] keltirishimiz mumkin.

Dunyo davlatlarining uzoq yillik boy tajribasidan ma’lum bo‘lmoqdaki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, jurnalistlarga yaratilgan keng imkoniyatlar va muhim huquqiy asoslar yaratilganligi mamlakatda inson huquqlari va davlatning xalq oldidagi hisobdorligini ta’minlashda hal qiluvchi omillardan ekanligi xalqaro miqyosda tan olinmoqda. Jumladan, Farrell va Jeyms 2024-yilda nashr qilingan tadqiqotida “OAV demokratik

jamiyatlarda fikr almashinuvi, jamoatchilik ishtiroki va siyosiy jarayonlar ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlaydigan asosiy institut hisoblanadi”[9] deya ta’kidlaydi. Xuddi shuningdek, AQSHning Oregon shtatidan bo‘lgan Soken-Huberty esa, “Erkin matbuot hokimiyat faoliyatini nazorat qilish, fuqarolarning haqiqatga asoslangan axborot olish huquqini kafolatlash va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi” [10] degan fikrni bildiradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari shakllanish va yaratilishi jarayoni, uning asosiy bosqichlari, xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlili hamda zamonaviy tamoyillar asosida rivojlanib borayotgan qonunchilik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Ushbu maqolani yozishda bir qator metodlar qo‘llanildi:

1) Huquqiy tahlil metodi – mavjud qonun hujjatlari va normativ-huquqiy asoslar tahlili;

2) Tarixiy-taqqoslash metodi – O‘zbekiston va xorij tajribasi asosida tarixiy davrlar qiyosiy o‘rganildi;

3) Solishtirish metodi – milliy va xalqaro me’yorlar o‘rtasidagi farq va umumiyliklar tahlil qilindi;

4) Tahlil va sintez metodi – mavjud ma’lumotlar tahlil qilinib, ilmiy xulosalar berildi.

Natijalar va muhokamalar. O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati ko‘lami oxirgi yillarda sezilarli darajada oshdi. Bunga ushbu sohaning asosiy huquqiy asoslari yaratilayotganligi har jihatdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Istiqlol yillarida yurtimizda ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyatiga jiddiy e’tibor qaratildi. Bosqichma-bosqich soha rivojiga hissa qo‘shish maqsadida sohaning huquqiy asoslari shakllantirila boshlandi. Hozirgi kunga kelib xalqaro axborot-huquqiy standartlar asosida yaratilgan qonun hujjatlari sohaning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingach, umuminsoniy demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan faoliyatning uzviy qismi sifatida qaraladigan bo‘ldi. O‘zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar, milliy qonunchilikni modernizatsiya qilish bilan chegaralanmay, balki umum e’tirof etilgan xalqaro standartlarga moslashtirishga harakat qilinmoqda. Ommaviy axborot vositalari faoliyati, erkinligi kabilarni ta’minlashda dunyo miqyosida to‘plangan boy tajriba O‘zbekiston Respublikasi uchun ham ayni muddao bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati 1991-yildan boshlab, ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy asoslar izchil ishlab chiqila boshlandi. Jumladan, 1991-yilda qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonun” va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi milliy o‘ziga xos qonunchilik asoslarining yangi shakli yaratilishida muhim qadamlar bo‘ldi. Ushbu me’yoriy-huquqiy qonun hujjatlari, ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta’minlash, so‘z erkinligini kafolatlash va jamoatchilik vakillarining axborot olish va tarqatishga bo‘lgan ehtiyojlarini sezilarli yaxshilashga qaratilgan edi. Biroq, bu qonunlar boshlang‘ich davrlarda ko‘proq rasmiy jihatlarga ko‘proq tayangan. E’tirof etish zarurki, amaliyotda ommaviy axborot vositalari erkinligini to‘liq ta’minlash borasida dastlabki bosqichda ba’zi kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Ammo, bu kamchiliklarning aksariyati oxirgi yillarda bartaraf etildi. Ayniqsa, 2023-yil 1-may kunidan boshlab kuchga kirgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonlarning fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari kafolatlari ta’minlanishi yangi bosqichga ko‘tarilganligini yaqqol namoyon etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining axborot erkinligi sohasidagi huquqiy tizimi faqatgina milliy ehtiyojlarga javob berishga qaratilmagan, balki xalqaro huquqiy tamoyillarni ham inobatga olgan holda shakllangan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt [11] va Ommaviy axborot vositalari deklaratsiyasi [12] kabi hujjatlar O‘zbekistonning qonunchiligida aks ettirilgan tamoyillarni shakllantirishda asosiy manba bo‘ldi. Bu xalqaro huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik tizimi bilan uyg‘unlikni ta’minlashda, demokratik va erkin, ijtimoiy jamiyat yaratishda muhim omil bo‘lgan. So‘z erkinligi**,** axborot olish huquqi va jurnalistlarning kafolatlangan himoyasi prinsiplari shakllanib, xalqaro huquqiy standartlarga monand holda ishlab chiqildi. Biroq, boshqa jihatlarda bo‘lganidek, xalqaro huquqiy tamoyillarni milliy tizimga to‘liq tatbiq etishning o‘ziga xos qiyinchiliklari bor. Masalan, bu jarayon ba’zi hollarda qo‘shimcha izohlar va modifikatsiyalarni talab qilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish jarayonida, ba’zan, milliy yuridik va ijtimoiy tizimning xususiyatlari hamda mavjud siyosiy muhitni inobatga olish zarurati paydo bo‘lgan.

Ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta’minlash bir qancha sabablarga ko‘ra muhimdir. Birinchidan, axborotning erkin tarqatilishi va fuqarolarning huquqlari ta’minlanishiga uzviy bog‘liq. Ikkinchidan, demokratik boshqaruvni ta’minlashda va jamoatchilik ishtiroki va nazoratini oshirishda hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tilgan olimlar Farrell va Jeyms tomonidan ommaviy axborot vositalarining demokratik boshqaruv tizimi va jamoatchilik ishtirokini ta’minlashdagi markaziy rolini ochib berishadi. Ularning tadqiqotida davlat hokimiyatining oshkoraligi va javobgarligi kabi jihatlar namoyon bo‘lishida zaruriy vosita sifatida ommaviy axborot vositalari ko‘rsatilgan. Bunday yondashuv nafaqat jurnalistlarning huquqlarini himoya qilishni, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy mas’uliyatini oshirishni ham o‘z ichiga oladi.

Ommaviy axborot vositalari erkinligi faqatgina axborot olish huquqini ta’minlash bilan cheklanmaydi, balki davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilish, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining faoliyatini ommaga yoritish, shuningdek, turli qatlamlarning o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratishda ham muhim vosita sifatida qaraladi.

Raqamli texnologiyalar olami va internet tarmog‘ining rivojlanishi, axborot makonining shiddat bilan o‘zgarishi, yangidan yangi huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Onlayn tarzda axborot tarqatuvchi vositalar hamda ko‘plab ijtimoiy tarmoqlar hozirda axborot tarqatishda, ma’lumotlarni tezda ulashishda asosiy vositaga aylanmoqda. Ushbu holatning bir nechta ijobiy jihatlari borligini inkor qilmaymiz. Biroq, yolg‘on va zararli axborotlarning tez tarqalishi, odamlarning bunday yolg‘on va zararli axborotlardan jabrlanayotganligi muammosini nazardan chetda qoldira olmaymiz. Ma’lumot olish xavfsizligini ta’minlashda yangi yondashuv va tamoyillardan foydalanish zaruratga aylanmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar va raqamli ommaviy axborot vositalari orqali axborotning tarqalishi, shuningdek, o‘zgaruvchan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga sezilarli ta’siri borligi ta’kidlangan. Shundan kelib chiqib, axborot maydonini tartibga solish, onlayn axborot vositalarini qonuniy asosda boshqarish, jamiyatni yolg‘on va zararli axborotlardan himoya qilish uchun zamonaviy huquqiy mexanizmlar yaratish zarurati oshmoqda.

Jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish, ularning axborot tarqatuvchi manbalarga erkin kirish huquqini kengaytirish, shaxsiy daxlsizligini ta’minlash hamda axborot xavfsizligini kafolatlash kabi muammolar zamonaviy OAV tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi F.I.Saidovning ta’kidlashicha, “Jurnalistlar faktlarni topish va tarqatish, voqealarni tahlil qilish va baholash uchun axborot erkinligidan foydalanadilar. Bu ularga ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajarish, jamoatchilik fikrini yaratish va siyosiy jarayonlarga ta’sir qilish imkonini beradi. Biroq jurnalist erkinligi faqat axborot tarqatish huquqi bilan cheklanib qolmaydi” [13]. Dunyo davlatlari (masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya) tajribasi ko‘rsatmoqdaki, jurnalistlarning huquqlarini himoya qilishda samarali mexanizmlar, nafaqat OAV erkinligini ta’minlash, balki ular uchun xavfsiz ish sharoitlarini yaratishni ham o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, jurnalistlarning axborot olish va tarqatish erkinligi faqat normativ hujjatlar bilan cheklanib qolmasdan, ularga real xavfsiz ish sharoitlarini yaratishni talab qiladi. Xalqaro tajriba, jumladan AQSH 1966-yilda qabul qilingan “Freedom of Information Act” da ma’lumotlarga erkin kirishni ta’minlash, xavfsiz axborot makonini yaratish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan [14]. Ushbu muhim hujjat O‘zbekiston Respublikasida xavfsiz axborot makonini yaratish uchun muhim hujjatlardan biri bo‘lishi mumkin. Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini yaratishda sezilarli yutuqlarga erishdi, ammo zamonaviy texnologiyalar va axborot olamidagi o‘zgarishlar yangi huquqiy muammolarni yuzaga keltirgan. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hukumati bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish, so‘z, matbuot erkinligini ta’minlashga oid dunyo tajribasidan kelib chiqib qabul qilingan qonunlarni misol keltirishimiz mumkin.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari izchil takomillashtirilmoqda degan xulosa qilishimizga to‘la asoslar bor. Ammo, mamlakatda mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga to‘liq moslash, jurnalistlarning haq-huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, ma’lumotlar olishda ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish dolzarb vazifa sanaladi. Ta’bir joiz bo‘lsa aytish kerakki, yuqoridagi vazifalarni hal qilish davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada jadallashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson huquqlarini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘ladi.

Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari istiqlol yillaridan boshlab davlatning siyosiy va huquqiy rivojlanish jarayonlari, shuningdek, erkin demokratik qadriyatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelmoqda. Dastlabki bosqichlarda asos solingan normativ-huquqiy hujjatlarda, jumladan, Konstitutsiya va “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonun kabilarda axborot erkinligi, so‘z va matbuot erkinligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy asoslar belgilab berildi. Keyingi bosqichlarda esa “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilinishi va ularning zamon talablari asosida yangilanib borilayotganligini misol tariqasida keltirsak bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida axborot siyosati oxirgi yillarda demokratik tamoyillarga moslashib bormoqda. Axborot makonini demokratik tamoyillar asosida tartibga solish yo‘lidagi izchil harakatlar faol tarzda amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Yangi

O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) doirasida ommaviy axborot vositalari erkinligini ta’minlash, jurnalistlarning shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatini himoya qilish, axborot olish ochiqligini kuchaytirish va xalqaro axborot standartlariga mos qonunchilik tizimini shakllantirish borasidagi islohotlar faol demokratik taraqqiyot jarayonida muhim bosqich bo‘ldi. Kelajakda ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish va boyitib borish bo‘yicha bir nechta muhim vazifalar bor.

Masalan:

- jurnalistlarning kasbiy faoliyati uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, ularning kasbiy faoliyatiga to‘sqinlik qilmaslik va xavfsizligini ta’minlashga doir huquqiy mexanizmlarni davr talablariga moslashtirish;
- globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan davrga monand internet va raqamli axborot olamida axborot olish erkinligini kafolatlash bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga doir normalarni ishlab chiqish va yanada takomillashtirish;
- davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida axborot almashinuvi, ochiqlik siyosati va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yanada samarali ishlashini ta’minlaydigan tizim yaratish;
- xalqaro axborot standartlari va ilg‘or xorijiy tajribani izchil o‘rganib, milliy qonunchilikni jahon standartlariga moslashtirib borish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari xalqaro huquqiy mezonlar va zamonaviy erkin demokratik talablarga mos tarzda takomillashib borayotgani mamlakatimizda ochiq, shaffof va keng jamoatchilik nazorati mavjud bo‘lgan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘lmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – 23-bet.
2. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.06.1991 yildagi 283-XII-son. URL: https://lex.uz/docs/-139006
3. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son. URL: https://lex.uz/docs/-52268
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.12.2003 yildagi 560-II-son. URL: https://lex.uz/docs/-83472
5. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son. 15.01.2007 yildagi O‘RQ-78-son. URL: https://lex.uz/docs/-1106870
6. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. URL:* https://lex.uz/uz/docs/-5841063
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. URL: https://constitution.uz/oz/pages/humanrights
8. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro paktlar. URL: https://www.un.org/en/global-issues/human-rights
9. Ferrell, D. M. (2024). “We are one, but we are many”: Conceptions of Australia’s sovereign people and the proposed voice to parliament. The Sydney Law Review, 46(4), 423–454 https://search.informit.org/doi/10.3316/informit.T20250425000002920126277798

10. Soken-Huberty, E. (2021). Why is freedom of the press important in a democracy? Human Rights Careers. https://www.humanrightscareers.com/issues/why-is-freedom-of-the-press-important-in-a-democracy/
11. Sultanovna, K. M. (2025). SO 'Z ERKINLIGI VA UNING HUQUQIY CHEGARALARI: KONSTITUTSIYAVIY HIMOYA VA REAL HAYOTDAGI TAHDIDLAR. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR*, *1*(8), 259-263.
12. Cramer∗, B. W. (2009). The human right to information, the environment and information about the environment: from the universal declaration to the Aarhus convention. *Communication Law and Policy*, *14*(1), 73-103.
13. Ibragimovich, S. F. (2025). AXBOROT ERKINLIGI JURNALIST KASBIY FAOLIYATINING HUQUQIY KAFOLATI SIFATIDA. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, *2*(1), 103-112.
14. Keen, M. F. (1992). The Freedom of Information Act and sociological research. *The American Sociologist*, *23*(2), 43-51.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

HISTORY OF TURKESTAN PRESS: END OF THE XIX CENTURY - BEGINNING OF THE XX CENTURY

Atamuratova Dilafruz Rashidovna
Associate Professor of Department of History of the Urgench State University
Named after Abu Rayhon Beruni
E-mail: atamuratovadilafruz@gmail.com

Abstract. Initially, printing houses and lithographs in Central Asia operated in such cities as Tashkent, Khiva, Bukhara, Samarkand, Andijan. The creation of a printing house opened the way to the printing industry. The creation of a number of newspapers in Turkestan in the late 19th - early 20th centuries marked the beginning of the history of the Uzbek press, and with it the history of book printing. The article presents some thoughts and comments on this issue.

Keywords: lithography, printing, press, newspaper, modern press.

TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI

Atamuratova Dilafruz Rashidovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Tarix kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Dastlab Markaziy Osiyoda bosmaxona va litografiyalar Toshkent, Xiva, Buxoro, Samarqand, Andijon kabi shaharlarda faoliyat olib bordi. Bosmaxona ishining yo‘lga qo‘yilishi matbuot sohasi uchun eshik ochib berdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda bir qator gazetalar nashri yo‘lga qo‘yilishi bosmaxona ishi tarixi bilan bir qatorda O‘zbekiston matbuoti ishi tarixini ham boshlab berdi. Maqolada bu borada ba’zi fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: litografiya, poligrafiya, matbuot, gazeta, jadid matbuoti.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N02

Kirish. O‘rta Osiyo tarixida matbuot bevosita bosmachilik ishi rivojining natijalaridan hisoblanadi. Kitob bosish ishining rivoji Sharq mamlakatlari uchun Eron va Turkiyadan negiz olsa-da, Turkistonda bu faoliyat turi ruslar bosqini natijasida rivoj topdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda viloyatlar markazlarining rasmiy organi sifatida faoliyat olib borgan bir qator matbuot namunalarini keltirish mumkin, Jumladan, Verniyda “Семиреченские областные ведомости”, Ashxobodda “Закаспийское обозрение”, Тошкентда “Русский Туркестан”, Samarqandda “Окраина” Jaridalari bunga misol. T.Ernazarov Turkiston vaqtli matbuoti tarixini o‘rganish jarayonida bu masalalarga alohida to‘xtalib o‘tadi. Jumladan, birinchi bosmaxona Turkistonda 1868-yilda Toshkent harbiy okrugi huzurida tashkil qilinib, kanselyariya materiallari, blankalar, buyruqlar va shu kabilarni bosishga ixtisoslashgan edi, biroq gazeta nashri uchun butunlay yaroqsiz hisoblangan. Shuning

uchun bo‘lsa kerak 1869-yilda boshqa bosmaxona faoliyati yo‘lga qo‘yilib, u yerda ishlash uchun Rossiyadan harf teruvchilar ham chaqiriladi. E’tiborli jihati faqat rus harflari emas, balki arab harflari ifodalangan shriftlar ham bo‘lib, bosmaxona faoliyati 1870-yildan boshlangan. Shu yiligina tipografiya “Туркестанские ведомости” gazetasining nashrini amalga oshirishga to‘liq tayyor bo‘ladi [7, c. 296]. Bu tipografiya 1899-yilda V.Ilyin qo‘liga o‘tadi [7, c. 297].

Tahlil va natijalar. XIX asrning oxirlarida dastlabki xususiy bosmaxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Jumladan 1877-yilda S.I.Laxtin bosmaxonasi bunga misol, bu bosmaxona litografiya jihozlariga ega bo‘lib, mahalliy tillarda kitoblar nashr qilardi [8, b.7]. 1899-yilda V.Ilyinning xususiy bosmaxonasi ishga tushadi. Bu bosmaxonada 1906-yil 27-iyunda “Taraqqiy” gazetasi, keyinchalik 1914-yilda U.Asadullaxo‘jayevning “Sadoi Turkiston” gazetalari bosilgan. Xususiy litografiya tashkil etish uchun chor hukumatidan ruxsat olish kerak bo‘lib, mahalliy aholi vakillari uchun bu masala mushkul muammo edi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, 1883-yil Toshkentda E.Husayinboyev litografiyasi ishga tushiriladi. 1888-yil S.A.Portsev bosmaxonasi ishlay boshladi. 1898-yilgacha Turkistonda 15 ga yaqin poligrafiya korxonalari vujudga keldi. Ulardan 6 tasi bosmaxona, qolganlari litografik bosmaxonalar edi. Uskunalar bosmaxonalar uchun Rossiya, Hindiston, Eron, Misr kabi mamlakatlardan olib kelingan. Xususan E.Husayinboyev litografiyasi uchun Rossiyadan maxsus asboblar olib kelingan. XX asr boshlarida sahhof-muqovachi bo‘lib ishlagan, toshbosma texnikasi bilan tanish bo‘lgan G‘.H.Orifjonov ham bosmaxona ochishga muvaffaq bo‘ladi, Toshkentga Moskvadan 4 ta litografik dastgoh olib keladi. G‘.H.Orifjonov bosmaxonasi 1902-yili o‘z faoliyatini boshlaydi [1, b. 30]. 1909-yilda Ishoqxon Ibratning Namanganning To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida “Matbaai Ishoqiya” deb nom olgan litografiyasi o‘z ishini boshladi. Bunday bosmaxona va litografiyalar Toshkent, Xiva, Buxoro, Samarqand, Andijon kabi shaharlarda faoliyat olib bordi. Turkistonda boshqa hududlarda bo‘lgani kabi kadrlar masalasi poligrafiya sohasi uchun taqchil hisoblangan. Mahalliy millat vakillaridan 72 kishi bo‘lsa, ularning 16 nafarigina maxsus malakaga ega bo‘lgan. Moddiy texnika bazasi masalasi ham ancha qiyin masalalardan hisoblanardi.

“Туркестанские ведомости” gazetasi Turkistondagi ilk bosma vaqtli matbuot nashri hisoblanadi. 1870-yil 28-aprel kuni nashri yo‘lga qo‘yilgan. Dastlab muntazam nashr qilinmagan, 1871-yildan haftasiga bir marta 1903-yildan 3 marta, 1907-yildan 4 marta, 1907-yil iyulidan kundalik gazetaga aylangan. Gazeta 1917-yilning 15-dekabriga qadar bosilgan. Umumiy hisobda jami 6406 soni bosilib, K.K.Palenning ma’lumotiga ko‘ra dastlab 100 nusxa, 1901-yildan 2500 nusxagacha bosilgan. Ba’zi siyosiy jarayonlar ta’sirida tiraj tushib ketib, 1909-yilda har son tiraji 853 nusxadan bo‘lgan.

T.Ernazarov Ichki ishlar ministrligi tomonidan chizib berilgan gazeta programmasini keltirib o‘tgan bo‘lib, u 4 moddadan iborat edi:

I. Oliy farmoyishlar, oliy telegrammalar, viloyat aholisiga taalluqli bo‘lgan mukofot va yordamlar, baland parvoz tantanali kunlar to‘g‘risida qisqa ma’lumotlar.

II. General-gubernator va harbiy gubernatorlarning o‘lka aholisiga taalluqli bo‘lgan farmoyishlari, mahalliy aholiga aloqador bo‘lgan rus sud organlarining hukmlari, Turkiston o‘lkasiga tarqalishi lozim bo‘lgan umum hukumat farmoyishlari.

III. Rus podsholarining hayotidan olingan qisqa hikoyalar, rus xalqi va boshqa davlatlarning hayotidan olingan, mahalliy xalq uchun qiziqarli bo‘lgan ajoyib voqealar, sanoat va qishloq xo‘jaligiga oid mahalliy axborotlar va boshqa har xil axborotlar.

IV. Turkiston o‘lkasidagi pochta-telegraf okrugi va boshqa hukumat muassasalarining e’lonlari hamda xususiy e’lonlar.

Mazkur dasturga asosan gazetada: rasmiy xabarlar, ichki axborot, xalqaro axborot, adabiyot, mahalliy axborot bo‘limlari tashkil etilgan [8, b. 16-19].

“Туркестанские ведомости” gazetasi qishloq xo‘jaligiga doir paxta yetishtirishga oid targ‘ibotlar, savdo-sanoat masalalari, Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoda olib borayotgan siyosati kabi masalalarga aloqador yangiliklar, xabarlar, maqolalar doimiy nashr qilingan. Jumladan, Xiva xonligining bosib olinishi bilan bog‘liq voqealar rivoji buning dalilidir. Yoki ba’zi voqealar gazeta ruknlaridan umuman joy olmas edi, xususan, Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida 1887-yildan 1898-yilgacha 668 marta dehqonlarning g‘alayonlari bo‘lib o‘tgan, ammo gazetada bu to‘g‘rida axborotlar uchramaydi, sahifalar ikkinchi darajali materiallar bilan to‘ldirilgan. 1907-yildan 1909-yilning ikkinchi yarmigacha gazeta sahifalaridan asosan general-gubernator farmonlari, rasmiy telegrammalar, e’lonlar joy olgan. Gazetaga 1870-yildan 1892-yilgacha N.A.Mayev, 1892-yil 20-noyabrdan 1899-yil 17-dekabrgacha A.P.Romanovich, 1899 – 1901-yillarda S.A.Geppener va 1901-yil 5-noyabrdan 1907-yil 9-yanvargacha N.G.Malitskiy muharrirlik qilgan 1917-yilning 24-dekabrida gazetaning so‘nggi 64-soni bosilib chiqadi [5, b. 139].

“Turkiston viloyatining gazeti” nashri 1870-yildan chop etila boshlangan bo‘lsa-da dastlab “Туркестанские ведомости” gazetasiga ilova tarzida chiqarilardi. Shuning uchun ilk sonlari ancha kam. 1871-yildan kichik hajmda oyiga 4 marta, ya’ni ikki marta o‘zbek ikki marta qirg‘iz tilida chiqarilgan. Chernyayevning № 29 1883-yil 30-yanvardagi buyrug‘iga asosan “Ilovalar” “Turkiston viloyatining gazeti”ga aylantirildi [1, b. 35]. Tashkiliy va rivojlantirishda “Turkiston viloyatining gazeti” nashrini tashkil qilishda va rivojlantirishda tarjimon Turkiston general-gubernatori Shaximardan Ibragimov va general-gubernatorlik kotibiyati tarjimoni Muhammad Hasan Chanishevlarning roli katta edi. 1872-yildan boshlab ushbu gazetaning muharriri Sh. Ibragimov bo‘lgan, keyin 1883-yildan boshlab qisqa muddat M. Chanishev ishlagan. Ushbu gazeta 1883-yil oxiridan 1917-yilgacha N.P. Ostroumov muharrirligida chop etilgan. 1872-yil 18-yanvar ma’lumotlariga ko‘ra, Abdullo Yaushev va Muhammad Kurmishev Turkiston general-gubernatori kotibiyatida va Turkiston viloyat gazetasi muharrirligida mashinist sifatida ishlagan [9, c. 581].

1908-1917-yillarda Toshkentda nashr qilingan ijtimoiy-siyosiy ruhdagi “Туркестанский куръер” gazetasi nashr qilinadi. Gazeta muharriri vazifasini turli davrlarda D.M.Remizov, 1917-yilning 5-sonidan A.L.Kirsnerlar bajarganlar. Bu gazeta “Ташкентский куръер” nomi bilan 1906-1908-yillarda faoliyatini olib borgan [4, c. 87].

1900-yildan chet elda ijtimoiy-siyosiy ruhdagi “Искра” gazetasi chiqa boshladi. Gazeta sonlari nafaqat Rossiya balki, Turkiston o‘lkasiga qadar kirib keldi. Keyinchalik “Вперед” “Пролетарий”, “Новая жизнь”, “Волна” gazetalari keng tarqaladi. Bu gazetalar bolshevistik kayfiyatda bo‘lib, ko‘pchiligi chet davlatlarda nashr qilingan, jumladan “Вперед” gazetasi 1905-yil yanvaridan Jenevada chop qilingan. T.Ernazarov ma’lumotlariga ko‘ra, siyosiy-targ‘ibot kayfiyatidagi gazetaning Turkistonda 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 13-, 14-, 15-, 16-, 17- va hokazo sonlari tarqalgan [8, b. 47]. “Iskra” kabi “Вперед” gazetasida ham Turkistondagi inqilobiy harakatlar to‘g‘risidagi maqolalar chop qilingan.

1904-1905-yillardagi siyosiy jarayonlar matbuot sahosida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmadi, chunki matbuot – haqiqiy qurolga aylanib bo‘lgan edi. Jumladan,

RSDRPning Turkistonda 1905-yilda sotsial-demokratik kayfiyatdagi ilk bosmaxonasi o‘z faoliyatini boshlaydi. Unga K.D.Litvishko boshchilik qildi. 1905-yil 20-sentyabrda O‘rta Osiyodagi ilk nolegal “Рабочий” gazetasining birinchi soni chop etiladi. Bundan tashqari Markazda va joylarda bolsheviklar legal ya’ni qonuniy yo‘l bilan ham gazetalar faoliyatini yo‘lga qo‘yishdi. Dastlabki bunday gazetalardan “Новая жизнь” bo‘lib, 1905-yil 24-oktyabrda uning ilk soni chop etildi. Turkiston tarixida bir necha kun faoliyatini olib borgan jaridalar ham bo‘lgan. Shundaylardan, 1906-yil 1-9-iyul kunlari Toshkentda A.G.Zurabova muharrirligida “Новый путь” nomli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy masalalarni yoritish ko‘zda tutilgandi [10, c. 69-70]. 10-iyulda hukumat talabi bilan yopilib, uning o‘rniga 20-iyuldan “Работник” gazetasi chiqa boshlaydi, ammo faqat 3 soni bilan Turkistonda nashri yo‘lga qo‘yilgan jarida sifatida tarixga kiradi. Bu gazetalar RSDRP ta’sirida chor hukumatiga qarshi faoliyat olib borishga intilgan ijtimoiy-siyosiy bolshevistik kayfiyatda bo‘lgan, ko‘pchiligining nashr faoliyati amaldagi qonunlarga qarshi edi. Bular jumlasiga “Искра”, “Вперед”, “Пролетарий”, “Новая жизнь”, “Рабочий” nashrlaridan tashqari 1906-yildan “Солдатский листок — Правда” gazetasi nashr qilinadi. Bu gazetaning ham 6 soni nashr yuzini ko‘rgan. Shunday bo‘lsa-da RSDRP ta’sirida rasman faoliyat olib borgan gazetalar ham bo‘lib, ular jumlasiga – “Самарканд”, “Русский Туркестан”, “Асхабод” gazetalarini kiritish mumkin. Taqdiri “Samarqand” jaridasi kabi bir necha marta nashri tugatilib qayta tiklangan “Русский Туркестан” gazetasi 1905-yilning noyabridan ishini boshlaydi. Muharriri sifatida M.V.Morozov ishlay boshlaydi, mazkur jarida ham RSDRPning Toshkentdagi organi sifatida faoliyat olib boradi. 1906-yil 18-iyuldan muharrirlik A.V.Xudashga o‘tib, noshirlik V.M.Morozovning o‘zida qoladi. Ba’zi sonlarida A.B.Boreysha muharrir vazifasini bajargan. Hajman 4-6 sahifa atrofida nashr qilinib, 1906-yilning 1-yanvaridan 24-avgustiga qadar jami 173 soni nashr qilinib, 5-oktyabrdan “Туркестан” nomida chop qilinadi. Bu gazeta ham Chor hukumati senzurasiga uchrashi natijasida yopib qo‘yiladi. 1907-yilning 7-yanvaridan “Русский Туркестан” nomi qayta tiklangan bo‘lsa-da, 15 soni chiqadi va butunlay faoliyati to‘xtatiladi. Demak, “Русский Туркестан” jaridasi faoliyati 4 marotaba to‘xtatilgan va qayta tiklangan, rasman hech bir tashkilotning nomidan nashr qilinmagan bo‘lsa-da, gazetaning 1906-yildagi sonida RSDRPning “Новая жизнь” gazetasi “Русский Туркестан” jaridasini “o‘z himoyasi ostiga oladi” mazmunidagi maqolaga qaraganda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarni yorituvchi gazeta emas, balki sotsial-demokratik kayfiyatdagi gazeta sifatida faoliyat olib borayotganligi talqin qilinadi. Davr matbuotining o‘ziga xos jihati Chor hukumatiga qarshi kurashning markazdan joylarga ko‘chish holati kuzatilib, o‘zlarini sotsial-demokratlar deb hisoblagan bolsheviklarning matbuot organlari hamda mensheviklar o‘rtasidagi kurash bilan xarakterlanadi. Jumladan, 1905-yilning 2-noyabridan 1908-yilning 13-martigacha Toshkentda kundalik “Среднеазиатская жизнь” gazetasi faoliyat yurita boshlaydi. Sotsial-demokratlarga qarshi konstitutsion-demokratik g‘oyalar tashviqotini amalga oshiradi. Aynan shunday formatda Samarqandda 1905-1908-yillarda nashr qilingan “Русская Окраина” va Yangi Marg‘ilonda faoliyat olib borgan, nashri 1906-yildan boshlanuvchi “Фергана”, “Голос народной свободы” gazetalari bo‘ldi.

Aynan mana shu davrdan, Turkiston jadidlari ham matbuot tizginini qo‘lga olib, istiqlolchilik g‘oyalari ta’sirida O‘zbekiston matbuoti tarixida yangi davrni boshlab berishdi.

1906-yilda Toshkentda “Taraqqiy” gazetasi chop etila boshladi. Bu gazeta 27-iyundan 20-avgustga qadar nashr qilindi. Garchi “Taraqqiy” gazetasi atigi 72 kun yashab, 20-son

bosilgan bo‘lsa-da [9, c. 584], Turkistonda milliy matbuot shakllanishida sezilarli va muhim rol o‘ynadi. Gazetaning 9-, 10-, 16-sonlaridagi materiallarga asosan, “Taraqqiy” Ivan Geyerning “O‘rta Osiyoning umrgizorligi taraqqiy” gazetasi o‘rniga nashr qilingan [2]. “Taraqqiy” gazetasining 16-sonida “Idoradin” sarlavhasi bilan “Gazetalar yetmagan eski va yangi mushtariylarimizdan reja qilurmizki, qo‘llaridagi kvitansiyalarini vaqti va no‘mrasi ila adreslarini ochiqcha yozib idorag‘a ma’lum qilsinlar” xabar beriladi [1, b. 85]. Tadqiqotchilar tomonidan o‘z nomidan kelib chiqib o‘z davrining taraqqiyparvar g‘oyalarini ilgari surgan davriy matbuot namunasi sifatida talqin qilinadi. Siyosiy-ijtimoiy masalalar mazkur gazetada ham ustunlik qiladi. Jumladan, mustamlakachi hokimiyat qarshi kurashi, istiqlol uchun harakatlar, davr uchun og‘riqli masalalardan dinga hurmatsizlik qattiq tanqid ostiga olinadi. Buni gazetaning birinchi sonidagi ilk sahifasi satrlaridan ham anglash mumkin: “Biz musulmonlarning xurriyatga haqlari bormu? Yo‘q! Qarindoshlar, yuz martaba yo‘q! … Bu ikki yil ichida hamma xalq tortishdi, kurashdi. Musulmonlar esa uxlashdi. Peterburg, Moskva va boshqa joylardagi tortishuvlar, mehnatkashlarning haq-huquq talashganini ko‘rib bizning bolalarimiz bizni vahshiylar deb atalar”. Gazetada Turkiston jadidlari faol bo‘lib, ta’lim-tarbiyaga oid maqolalar bilan ishtirok qilishgan, gazetaning “Xorijiya xabarlari”, “Mamlakat xabarlari”, “Rusiya xabarlari”, “Toshkent axbori” singari ruknlari bo‘lgan. Gazeta haftada 2 marta nashr qilingan. M.Babaxanov gazetaning jami 19 soni, T.Ernazarov va A.Akbarovlar 17 soni chiqqanligini qayd etishadi [4, c. 71]. Gazeta M.G.Vaxabov, A.I.Akbarov, T.E.Ernazarovlar ta’kidlaganidek jadidchilik ruhidagi gazeta hisoblangan [6, c. 442].

“Taraqqiy” jaridasi izidan Munavvarqori Abdurashidxonov noshirligida 1906-yil sentyabr oyidan “Xurshid” gazetasi (10 son) [4, c. 79] nashr etila boshlaydi. Bu gazeta “Taraqqiy” jaridasining izdoshi bo‘ldi. Gazeta “Jamiyati xayriya” tashkilotining targ‘ibotiga boshchilik qilgan bo‘lib, dastlabki 4 ta soni litografiyada, keyingilari esa mix bosmada bosilgan. Uning muharriri va noshiri Munavvarqori Abdurashidxonov bo‘lib, 1906-yilning 6-sentyabridan 12-noyabrigacha o‘zbek tilida Zanjirlik mahallasida G‘arif Oxun xonadonida bosilgan [4, c. 79]. Gazeta ta’limdagi islohotlar hamda kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq an’analarni yoritishga e’tibor qaratgan. Gazetaning 1906-yil 21-sentyabrdagi sonidagi maqolada, gazeta musulmonlar o‘rtasida birlik yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas degan qarashning yolg‘onligini isbotlashni maqsad qilganligi ta’kidlangan.

“Shuhrat” gazetasi ham 1907-yil dekabrdan Toshkent shahrida Abdulla Avloniy muharrirligida chiqa boshlaydi. Bu gazetalar chorizm senzurasi ostiga olinadi. Gazeta ma’rifatparvarlik g‘oyalarini o‘zida ifodalab, yangi usul maktablari, ilm-fan rivojini targ‘ib qilgan. Gazetaning 10 ta soni nashr yuzini ko‘rdi. Xuddi shunday holatga 1908 yil aprel oyidan gazetasi nashr etila boshlangan “Osiyo” (jami 6 soni) gazetasi ham tushadi. Bu gazetani tashkil etishda taniqli o‘zbek pedagogi A.Avloniy katta g‘ayrat bilan ishtirok etgan. Gazeta Toshkent shahrida o‘zbek tilida haftasiga ikki marta nashr qilish rejalashtirilgan. Noshiri Muhammadjon Bektemirov edi [6, c. 443]. Besh son nashr etilgandan so‘ng, chor ma’muriyati tomonidan yopildi [3, b. 9].

Xulosa. Umuman olganda, XIX asrning 70-yillarida Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’sirida matbuot tizimi shakllandi. Dastlabki gazeta va jurnallar chor hukumati manfaatlarini ifodalagan bo‘lsa-da O‘zbekiston matbuoti shakllanishida o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tadi. XX asr boshlarida jadidchilik g‘oyalari ta’sirida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan,

ammo senzura sabab uzoq muddat ishlay olmagan jadid jaridalari istiqlol g‘oyalari, ta’lim, tarbiya, ma’rifatparvarlikni targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). – Тошкент, «Академия», 2000.
2. Авлоний А. Олим ва журналист. “Ёш ленинчи”, 1989, 18 июль.
3. Авлоний А. Танланган асарлар. 1-жилд. Тошкент: «Маънавият», 1998.
4. Бабаханов М. Из истории периодической печати Туркестана. – Душанбе, Изд. Дониш, 1987.
5. Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – 1979.
6. Брагинский И.С. О природе среднеазиатского джадидизма в свете литературной деятельности джадидов. – В кн.: Из истории таджикской и персидской литературы. – М., 1972.
7. Добромыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент, 1912, стр. 296.
8. Эрназаров Т. Туркистонда вақтли матбуот (1870-1924 йиллар). – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1959.
9. Расулов А.Н. Татарские просветители и полиграфисты в Туркестане (конец XIX – первая четверть XX века) // Историческая этнология. 2024. Т. 9. № 4.
10. Симонов Н.Ф. Большевистская печать в Туркестане (1902-1907 гг.). – Т., 1940.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

METHODS OF ORGANIZING HISTORICAL QUESTS

Abdushukurova Ikbol Kuchkarovna
Gulistan State University,
Senior Lecturer, Department of History and Social Sciences

Abstract. Organization of quests in history lessons allows to maintain interest in the subject of pupils and students, solve problems of formation of competencies of the teacher, improves the quality of education. The article provides examples of organization of historical quest in game form.

Keywords: quest, interactive game, real event, logic, critical thinking, work in group, interest.

TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI

Abdushukurova Iqbol Kuchkarovna
Guliston davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: ikbol_ka_23@mail.ru

Annotatsiya. Tarix darslarida kvestlarni tashkil qilish o‘quvchi va talabalarda fanga qiziqishni saqlab qolishga, o‘qituvchida kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini hal qilishga imkon beradi, ta’lim sifatini oshiradi. Maqolada tarixiy kvestlarni o‘yin shaklida tashkil qilish misollari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kvest, interfaol o‘yin, real voqea, mantiq, tanqidiy fikrlash, guruhda ishlash, qiziquvchanlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N03

Kirish. Ta’lim jarayonining raqobatbardoshligini oshirish va jozibadorligini oshirish uchun o‘qitishning innovatsion tadqiqot usullaridan biri kvest hisoblanadi. Kvest katta rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, o‘qitish ahamiyatga ega bo‘lib, talaba-o‘quvchilarda bilim olish va tegishli kompetensiyalarni shakllantirish uchun motivatsiyani shakllantirish shartlaridan biridir [1, b.101].

Tarixiy kvest – bu interfaol o‘yin bo‘lib, unda ishtirokchilar real voqealarga asoslangan topshiriqlarni bajarishadi.

Tarixiy kvestlarning formati bir nechta bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- voqelikdagi kvestlar — biron-bir tarixiy davrni sahnalashtirish, autentik lokatsiyani yaratish, kostyumlar va rekvizitlardan foydalanish;

- shahar kvestlari – shahardagi tarixiy obidalarda, ko‘chalarda savollar va topishmoqlarga javoblar topish;

- ta’limiy kvestlar – tarix darsini hayajonli sarguzashtga aylantirish.

Bunday kvestlarda o‘qitish va o‘yin uyg‘unlashib, o‘quvchilarda darsga qiziqishini oshiradi. Tarixiy kostyumlar, dekoratsiyalar zamona haqida tasavvur hosil qiladi. Topshiriqlarni bajarish uchun ajratilgan vaqt mantiqiy fikrlashga undaydi. O‘quvchilar tarixiy voqealarda qatnashib, materialni tezroq o‘zlashtiradilar. Guruhda ishlash esa o‘yinni yanada

qiziqarli qiladi. Bunday kvest-o‘yinlar mantiqiy va tanqidiy fikrlashni talab qiladi, o‘quvchilar tarixiy faktlarni tahlil qilib, xulosa chiqarishga o‘rganadilar. Ularda diqqatlilik shakllantiriladi, har bir kichik syujet savolga javob bo‘lishi mumkin. Guruhda ishlashni o‘rgatadi, savolga javobni birgalikda topish, topshiriqni bajarish uchun birgalikda yechimni topish o‘quvchilarni jamoada ishlashga o‘rgatadi, o‘zaro do‘stlik, hamfikrlilikni tarbiyalaydi. O‘quvchilarda qiziquvchanlikni oshiradi, chunki bunday kvestlardan keyin tarixiy voqealarga qiziqish oshadi, vujudga kelgan savollarga kitoblardan va boshqa manbalardan javob izlashga undaydi, o‘quvchilar bilimini orttiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. N.N.Chernoivanova Volgograd shahri misolida o‘lkashunoslik kvest o‘yinining marshrut xaritasini keltiradi [4]. O.V. Nikiforov kvest yordamida muzeylar, me’moriy va arxeologik yodgorliklar, madaniy obyektlarni o‘rganib, o‘quvchi va talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni tavsiya qiladi [2]. So‘nggi yillarda o‘zbekistonlik olimlar va o‘qituvchilar ham kvest texnologiyalaridan foydalanishga harakat qilib, tajriba natijalarini ilmiy muhokamaga kiritishmoqda. Jumladan D.O‘.Qarshiyeva ““Kvest” texnologiyasi asosida maktab o‘qituvchilarining darslarni loyihalash kompetenligini rivojlantirish (Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi misolida)” mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha dissertatsiyasi yoqlagan [5]. Olimaning ta’kidlashicha, “Kvest” texnologiyasi asosida maktab o‘qituvchilarining darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish vositasi Yii 2.0 dasturiy ta’minot platformasida tinglovchilarning vebga moslashtirilgan o‘quv resurslari yordamida kvest darslarini loyihalash malakalarini oshirishga qaratilgan “Qvest.uz” axborot ta’lim muhiti va “Quest” mobil ilovasini yaratish yo‘lga qo‘yilgan. Shuni ta’kidlash joizki, kvest texnologiyasi foydalanish usullariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar ayniqsa xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha ko‘p yozilgan.

Muhokama va natijalar. Kvestlarning maqsadi va vazifalari: tarix o‘qituvchisining kreativligini rivojlantirish, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash, o‘quvchilarda o‘zaro aloqalarni shakllantirish, ijtimoiy kommunikatsiya usullarini diversifikatsiya qilishga yordamlashish, o‘quvchilar jamoasini muammolarni birgalikda yechishga o‘rgatish va hokazo.

Tarixiy kvestni yaratish uchun o‘qituvchi ma’lum mavzuga oid topshiriqlarni tuzishi kerak. Topshiriqlar oson, o‘rtacha va murakkab bo‘lishi mumkin. O‘quv xonasi va o‘tkazish vaqti tanlanadi. Odatda tarixiy kvestlar darsdan keyin yoki mustaqil ta’lim darslarida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Tarixiy kvest sayohat bilan bog‘lansa, shanba yoki yakshanba kuni sayohat o‘tkazish mumkin. Shuningdek, tarixiy-o‘lkashunoslik kvestlarini tuzishda uning ishtirokchilari O‘zbekiston tarixini mintaqaviy aspektda o‘rganishini, madaniy ma’rifatning faol subyektlariga aylanishini, muzeylar makonini, me’moriy va arxeologik yodgorliklarni o‘zlashtirishini, umuman xalqimizning moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganishini e’tiborga olish zarur bo‘ladi. Bu borada kvest mazmunini tanlash, g‘oyani yaratish, sharoitlarni o‘rganishda o‘qituvchida qiyinchilik tug‘dirishi mumkin [2]. Shuning uchun o‘qituvchi mutaxassis tarixchi va arxeolog olimlar bilan maslahatlashsa yaxshi bo‘ladi.

Kvest-o‘yinda topshiriqlar konvertsiz va konvertli bo‘ladi.

Konvertsiz topshiriqlar o‘tilgan o‘quv materialiga oid savollardan iborat bo‘lib, o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash va aql-idrokni rivojlantirishga qaratiladi. Bunda topshiriqni o‘qish uchun topshiriq matni yozilgan qog‘oz qismlarini topish va ko‘rsatilgan raqamlarga tayanib, ularni birlashtirish kerak bo‘ladi. Qog‘oz qismlari maktabning turli joylarida

yashiringan bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarga maktab rejasi yeki xaritasi beriladi, unda qog‘oz qismlarini yashiringan joylar ko‘rsatiladi. Yoki dars mavzusiga oid xarita yoki tarixiy obidaning rasmi qaychi bilan qirqilib, qismlarini to‘g‘ri joylashtirish kerak bo‘ladi. Qismlar orqasida topshiriqning alohida so‘zlari yozilgan bo‘ladi va tartib raqami ko‘rsatiladi. Matnni to‘g‘ri yig‘ib, topshiriq o‘qiladi va bajariladi.

Uchinchi usul shundan iboratki, mavzuga oid ma’ruza matnida ma’lum harflar qizil flomaster bilan ko‘rsatiladi. Ularni tartib bilan yozib olib, ma’lumot o‘qib olinadi.

To‘rtinchi usul: topshiriq matni Morze azbukasi yordamida yoziladi.

Konvertdagi topshiriqlar quyidagi usullarda bo‘lishi mumkin:

- krossvordni yechib, kalit so‘zini topish;
- voqealar yoki atamalarni xronologik tartibda joylashtirish;
- berilgan hikoyada ko‘rsatilgan joyni topish va xaritada ko‘rsatish, u yerda qaysi voqea sodir bo‘lganini topish.

O‘quvchilarni rag‘batlantirish:

- baho yoki ball qo‘yish;
- sertifikatlar berish;
- hajviy rag‘batlardan ham foydalanish mumkin: masalan, keyingi darsga biroz kechikib kelishga ruxsat berish, daftarni yoki kitobni esdan chiqarish, uy vazifasini bajarmaslikka ruxsat berish va hokazo.

Kvestlarni o‘tkazishda zaif tomonlar: o‘tkazish vaqti (darsdan keyin, darsda yoki mustaqil ta’lim darsida); topshiriq qismlarini topishda maktab atrofida harakatlanish xavfsizligini ta’minlash, maktab ma’muriyatiga bildirish; kvestni o‘tkazishda boshqao‘qituvchini yoki sinf rahbarini jalb qilish.

Tarix yo‘nalishi talabalari uchun O‘rta asrlar tarixidan quyidagi kvestni o‘tkazish mumkin:

1-xat.

- 732-yilda Puatye jangida arablarning Yevropaga yurishini kim to‘xtatdi?
- Agar bu Karl Martell deb o‘ylasangiz, 13 xonara boring.
- Agar bu Pipin Kalta deb o‘ylasangiz, 17 xonaga boring.
- Agar bu Karl Buyuk deb o‘ylasangiz, 18 xonaga boring.
- Agar bu Xlodvig deb o‘ylasangiz, 20 xonaga boring.

2-xat.

Ko‘rsatilgan xonalarda bitta stol ustidan ikkita kartochkani toping. Bitta kartochkada so‘zlar yozilgan, ikkinchisida – tabaqalar nomi yozilgan. Misol uchun:

- Atamalar berilgan kartochkalarni toifalar keltirilgan kartochkalar bilan moslang (qaysi so‘zlar qaysi tabaqalarga xos).
- O‘rta asrlarda Yevropadagi eng katta tabaqani toping.
- Ushbu tabaqa uchun so‘zlarni toping, ular bilan gaplar tuzing.

Tabaqalar va so‘zlar

Ritsarlar	Ommaj	Barshchina
Dehqonlar	Feod	Interdikt
Ruhoniylar	Obrok	Yepiskop

Vassalitet Borona Abbat

3-xat.

A) Katalaun dalalaridagi jang Rim imperiyasining qaysi yarmida bo‘lib o‘tgan? Sharqda bo‘lsa, 21-xonaga, G‘arbda bo‘lsa, 34-xonaga boring.

B) Buyuk Karlning nechta nevaralari imperiyaning Verden bo‘linishida qatnashgan bo‘lsa, o‘sha sondagi kabinetga kiring. Bu nevaralarning ismlari yozilgan kartochkani oling.

B) Vizantiya imperiyasida Nik qo‘zg‘oloni necha yil davom etgan? O‘sha sondagi kabinetga kiring. Tarixiy shaxslarning ismlari yozilgan kartochkani oling.

4-xat.

Kartochkalarda voqealarning nomlari yozilgan. Har bir kartochkada bitta katta harf bor. Voqealarni xronologik tartibda to‘g‘ri joylashtirsangiz, harflardan yozuv tuziladi.

Masalan, quyidagi tarixiy voqealar xronologik tartibda joylashtiriladi:

- Arab xalifaligida Abbosiylar sulolasi hokimiyat tepasiga keladi
- Buyuk Otton Muqaddas Rim imperiyasini qayta tiklaydi
- Verden imperiyasining bo‘linishi
- Buyuk Karl imperatorga bo‘ladi
- Franklar va arablar o‘rtasidagi Puatye jangi
- Arab xalifaligining tashkil topishi
- Rim imperiyasining Sharqiy va G‘arbiyga bo‘linishi
- Gotlar tomonidan Rimning bosib olinishi
- Vandallar tomonidan Rimning bosib olinishi
- Kataloniya dalalaridagi jang
- Imperator Yustinian hukmronligining boshlanishi
- Xlodvigning Galliyada Siagriy ustidan g‘alaba qozonishi
- Muhammadning Makkadan Madinaga hijrati
- G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi
- Konstantinopolda Nikning qo‘zg‘oloni

5- xat.

Savollarga javob bering:

- Erkin shaharning saylangan rahbarining nomi nima deb atalgan?
- Ritsarlarning musobaqalari qanday nomlangan?
- O‘zini o‘zi boshqarish huquqiga erishgan shahar qanday nomlangan?
- 455 yilda Rimni talon-taroj qilgan qabila.
- “Dangasa qirollar” o‘rniga barcha muammolarni hal qilgan Bosh vazir kim?
- Shahar kengashi a’zolari.
- Frank qirollarining Xlodvig asos solgan birinchi sulolasi.
- Shimoliy Frantsiyadagi mintaqa, IX-asrda Yevropaga bostirib kirgan shimoldan kelgan jangchilar sharafiga nomlangan.

6-xat.

Kartochkalarda tarixiy shaxslarning nomlari keltirilgan. Ularni xronologik tartibda joylashtirib, qayerda hukmronlik qilganini va qaysi sulolaga mansubligini yozing.

Xlodvig

Yustinian

Karl Martell

Muhammad

T.V.Pechnikova fishboun va klaster tuzish, ishchi varaqqa qarab, ma’ruza matniga savollar tuzish, “Blum romashkasi” o‘yini o‘tkazish kabi usullardan foylanishni tavsiya qiladi [3, b.30]. Kvest o‘yinida zukkolikni namoyon etish, xotirani va diqqatni rivojlantirish, topqirlik va tezkorlikni ko‘rsatish zarur. Tarixiy kvestlar o‘quvchi va talabalarga o‘z bilimlarini takomillashtirishga, o‘tilgan materialni eslashga va mustahkamlashga, yangi narsalarni bilib olishga ordam beradi.

O‘yin shartlari: O‘yinni yakunlash va finalga chiqish uchun ishtirokchilar har bir bosqichda xaritaning bir qismini olishlari kerak;

Xaritaning qismlari faqat har bir bosqich shartlari yuqori darajada bajarilgan taqdirdagina beriladi (yordamchining ixtiyoriga ko‘ra).

Xarita qismlari oxir-oqibat bitta mavzuga oid (hikoya) xaritasiga yig‘ilishi kerak bo‘lgan pazlning qismlaridan iborat bo‘lishi kerak.

Tarixiy kvestlarni barcha asosiy va yordamchi tarixiy fanlardan – Umumiy tarix, O‘zbekiston tarixi, O‘lkashunoslik, Toponimika, Arxeologiya, Numizmatika, Manbashunoslik va boshqalardan tuzish va o‘tkazish mumkin. Birgina Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid kvest topshiriqlarida bir nechta fan integratsiyasi ta’minlanishiga erishish mumkin. Bundan tashqari, bu mavzudagi kvestni o‘tkazish ma’naviy tarbiyada ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu kvestni hatto Samarqand shahriga ekskursiya uyushtirib o‘tkazish mumkin.

Xulosa. Kvestni ta’lim jarayoniga samarali kiritish mumkin, chunki u o‘qitish va o‘rganishning tizimli-faoliyatli tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi (bilimni passiv egallashdan ko‘ra talabalarning faol faoliyati tufayli) va muhim kognitiv ta’sirga ega (topshiriqlar turli xil mavzular, audio va video materiallar, kitoblar va boshqalar bilan individual va jamoaviy ishlarni o‘z ichiga olishi mumkin) va har qanday yosh toifasiga moslashtirilishi mumkin [1, b.105].

Shunday qilib, kvest o‘quvchilarning tarixga qiziqishini faollashtirishga, ularda muloqot qobiliyatlari va ijodkorlikni rivojlantirishga, an’anaviy va noan’anaviy manbalardan foydali ma’lumotlarni topish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Kvest texnologiyasi asosida axborotlarga tahliliy va tanqidiy munosabatini shakllantirish jarayonida ijodiy yondashuvga asoslanish zarurligi hamda talabalaring ijodiy o‘z-o‘zini namoyon etishiga asosiy e’tibor qaratiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдушукурова, И. (2024). КЛАССИФИКАЦИЯ КВЕСТ-ТЕХНОЛОГИЙ. *Interpretation and researches*, (24 (46)). – P.101-105. https://scholar.google.co.in/scholar?q=https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/70170&hl=ru&as_sdt=0,5
2. Никифоров О.В. Исторические квесты как опыт освоения национальной культуры. Ученые записки Новгородского государственного университета. 2018. №(2 (14), - С. 30.
3. Печникова Т. В. Образовательные квесты на уроках истории и обществознания // Образ действия. 2023. Вып. 3 «Реализуем ФГОС ОО. Социально-гуманитарное образование. Лучшие практики». - С. 28–32.
4. Черноиванова Н.Н. Применение квест-технологии при изучении исторического краеведения. // Информ-образование. 2023. Вып.1.
5. https://oak.uz/pages/10411

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

ABOUT THE HISTORICAL ROOTS OF THE MILITARY ART OF THE POPULATION OF THE SOUTHERN ARAL

Redjabov Doniyor Bakhtiyarovich
Independent Researcher at Urgench State University
named after Abu Rayhon Biruni
E-mail: www.doniredjapov@gmail.com

Abstract. In the mid-1930s, the Khorezm expedition led by S.P. Tolstov conducted large-scale archaeological research in the Lower Amu Darya, Uzboy and Sarykamyshbuy for half a century. As a result, they compiled a list of settlements reflecting the fruits of the harmony of life and creativity of our ancestors in the historical period from the Stone Age to the 15th century, put them on an archaeological map, carried out partial excavations in some of them, bringing the results of their research to the attention of the scientific community. During the Neogene stage of geological development, the Amu Darya, which absorbed the waters of the valleys flowing down from the sky-high mountains of southeastern Central Asia, divided the plain into right and left bank parts, directing its main flow north through the Karakum Desert. Thus, the geographical landscape of Khorezm, rich in legends 8-7 thousand years ago, is preserved to this day. The purpose of this article is to shed light on the history of people living in settlements in two regions, making tools from stone and bone, as well as their technological innovations in historical eras.
In the article is analyzed the historical roots of the military knowledge of the population of the Lower Amu Darya.

Keywords: Baratov P., Mamatkulov M., Rafikov A., Tolstov S.P., Vinogradov, Weinberg B.I., Itina M.A., Bijanov E.B, Avesta, Khorezm, Kyzylkum, Karakum, South Akchadarya, Tuyamuyin, Uzboy, Sarykamysh, Dzhonbos 4,5, Aidabol, Aktaylik, Isatay, Cascajal.

JANUBIY OROLBO‘YI AHOLISI HARBIY SAN’ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA

Redjapov Doniyor Baxtiyarovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. XX asrning 30-yillar o‘rtalarida S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm ekspeditsiyasining yarim asr mobaynida Quyi Amudaryo, Uzboy, Sariqamishbuyi, hududlarida keng qamrovli ravishda olib borgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida ajdodlarimizning tosh asridan boshlab, XV asrgacha bo‘lgan tarixiy davrda hayot va ijod uyg‘unligi samarasini aks ettirgan turar-joylarni ro‘yxatga oldi, ularni arxeologik xaritaga joylashtirdi, ba’zilarida qisman bo‘lsa ham qazishma ishlarni olib borganlar, ularning natijalarini tadqiqotlarni ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola qilganlar. Geologik taraqqiyotning neogen bosqichida O‘rta Osiyo janubi-sharqida ko‘kka yuksalgan tog‘lardan oqib tushgan jilg‘alar suvlarini qamrab olgan Amudaryo asosiy suv oqimini Qoraqum orqali shimoliy tomon yo‘naltirishi jarayonida tekislikni o‘ng va so‘l sohili hududlarga ajratgan. Shu tariqa, bundan 8-7 ming yil avvalo afsonalarga boy bo‘lgan Xorazmning geografik manzarasi hozirgi kunda davom etmoqda. Mazkur maqolada ikki hududda turar-joylarida istiqomat qilib, tosh, suyaklardan mehnat qurollari, ularni tarixiy davrda texnologik sohada innovatsiyalar qilishi tarixini yoritish nazarga olingan.
Maqolada Quyi Amudaryo hududida aholi harbiy bilimining tarixiy ildizlari tahlili amalga oshirildi

Kalit so‘zlar: Baratov P, Mamatqulov M, Rafiqov A, Tolstov S.P, Vinogradov, Vaynberg B.I, Itina M.A, Bijanov Ye.B, Avesto, Xvarizam, Qizilqum, Qoraqum, Janubiy Oqchadaryo, Tuyamuyin, Uzboy, Sariqamish, Jonbos 4,5, Aydabol, Oqtaylik, Isatay, Kaskajal.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N04

Kirish. Geologik jarayonlarning takrorlanib turishi natijasida tarkib topgan O‘zbekiston hududi birnecha o‘lkalardan iborat. Mana shunday o‘lkalardan biri muqaddas kitob “Avesto” da “Xvarizam” nomi bilan ma’lum bo‘lib, Qizilqum va Qoraqum o‘rtasida joylashib, boshqa hududlardan farqlanish xususiyatiga ega. Mazkur zaminning gidrologik xususiyatini Amudaryo o‘zanlari faoliyatlari bilan bog‘liq. Geografiya fani tadqiqotchilari nashrlarida bundan 25-10 million yillar tekislik bo‘lgan [1, b. 283]. Geologik taraqqiyotning neogen bosqichida O‘rta Osiyo janubi-sharqida ko‘kka yuksalgan tog‘lardan oqib tushgan jilg‘alar suvlarini qamrab olgan Amudaryo asosiy suv oqimini Qoraqum orqali shimoliy tomon yo‘naltirishi jarayonida tekislikni o‘ng va so‘l sohili hududlarga ajratgan. Shu tariqa, bundan 8-7 ming yil avvalo afsonalarga boy bo‘lgan Xorazmning geografik manzarasi hozirgi kunda davom etmoqda. Mazkur maqolada ikki hududda turar-joylarida istiqomat qilib, tosh, suyaklardan mehnat qurollari, ularni tarixiy davrda texnologik sohada innovatsiyalar qilishi tarixini yoritish nazarga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asr 30-yillar o‘rtalarida S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm ekspeditsiyasining yarim asr mobaynida Quyi Amudaryo, Uzboy, Sariqamishbuyi, hududlarida keng qamrovli ravishda olib borgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida ajdodlarimizning tosh asridan boshlab, XV asrgacha bo‘lgan tarixiy davrda hayot va ijod uyg‘unligi samarasini aks ettirgan turar-joylarni ro‘yxatga oldi, ularni arxeologik xaritaga joylashtirdi, ba’zilarida qisman bo‘lsa xam qazishma ishlarni olib borganlar, ularning natijalarini tadqiqotlarni ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola qilganlar. Xorazm ekspeditsiyasi o‘tgan asrning 30 yili oxirida Qizilqum sahrosi Yonboshqala antik davr yodgorligi yaqinida shu atamada balandlik yon qismida aholi qoldirgan madaniy izlarini o‘rganish paytida ular o‘rnashgan manzilgoh aniqlanib, olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida uning geografik o‘rni -24x17 m, 320 m^2. Manzilgoh madaniy qatlamidan loy kulolchilik ashyolari bilan chaqmoqtosh va kvarsit toshlardan ishlangan ikki yaproqli, kesishi tog‘larga ega bo‘lgan kamon o‘qlari urug‘ jamoalari a’zolari tomonidan ovchilikda ishlatilgan [3, c. 90-91.; 4, c. 59-66].

XX asr 40 yil o‘rtalaridan boshlab, Jonbos 4 manzilgohi urug‘ jamoalari a’zolarining (o‘ng sohil hududi Shuraxan va Sulton Uvays tog‘i o‘rtasini o‘zlashtirishi jarayonida yog‘och ustunli yer sathiga turar joylarni bunyod qilib, Sulton Uvays tog‘i yaqinidagi Burli ustaxonasida tog‘-kon ashyosidan ikki yaproqli kamon o‘qlari ahamiyati saqlanib qolgan. Uzboy, Sariqamishbuyi, Janubiy Oqchadaryo va Sirdaryo quyi havzalarida Neolit davri ovchi-termachilari faoliyatlarida kamon o‘qlari ovchilikda keng qo‘llaganlar [5, c. 70-71.; c. 100-120., c. 177].

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Amudaryo so‘l sohili hududida Neolit davriga mansub manzilgohlarida o‘rnashgan urug‘ jamoalari o‘ng sohil hududidagi aholi tomonidan qo‘llanilgan ovchilikda olib borgan kamon o‘qlari, kundalik faoliyatlarida qo‘llanilgan [8, c. 27-90.; c. 66-72].

O‘zbekiston tarixida Janubiy Orolbo‘yi neolit davri urug‘ jamoalarining tog‘-kon ashyosi kvarsit va chaqmoqtoshdan turli vazifani bajargan xususan kamon o‘qlardan foydalanganligi yagona emas. Ye.B. Bijanovning Ustyurt platosida Neolit davri urug‘ jamoalari Aydabul, Oqtoylik, Istatoy, Kaskajal kabi manzilgohlarda istiqomat qilib, tevarak-atroflarda ozuqa izlab yurgan hayvonlarni kamon o‘qlari yordami bilan kundalik ozuqa mahsulotlarini iste’mol qilib, etnik munosabatlarni olib borganlar. [10, c. 18-79.].

Tadqiqot metodologiyasi. Obyektivlik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, asoslash, umumlashtirish, mantiqiy xulosa. Arxeologiya, geografiya, harbiy adabiyotlar ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'tgan asr Xorazm ekspeditsiyasi, Qoraqalpog'iston respublikasi ilmiy markazlari arxeologik guruh xodimlari asarlarida ajdodlarimizning oddiy tosh qurollaridan bosqichma-bosqich tosh davri so'nggi bosqichidan-neolit davri modernizatsion jarayonlari tahlil qilindi.

Natijalarda esa quyidagilar qayd qilindi:

-Mil.avv. 40-12 ming yilliklarda ajdodlarimiz tomonidan mehnat qurollari kvarsit va chaqmoqtoshdan tayyorlash ishlari Burli ustaxonasida olib borilgan. Sulton Uvays tog'i kon ashyosi ajdodlarimizga xizmat qilgan.

-Mil.avv. IV ming yillik birinchi yarmida neolit davriga mansub Jonboz-4 manzilgohi ovchilari va termachilari tog'-kon ashyosidan tayyorlangan kamon o'qlarini kvarsit va chaqmoqtoshdan ikki qirrali, kesishi burama shaklda kamon o'qlari tayyorlangan.

-Mil.avv. III ming yillik ikkinchi yarmi va oxirida kamon o'qlari qirlari o'tkir holatda bo'lgan.

-Mezolit davrida insoniyatning texnika sohasida novatsiyalardan biri uzoq masofaga yo'naltirishga imkon beradigan kamon o'qi bo'lgan. Texnika sohasida buyuk ixtiro ovchilik xo'jaligini rivojlanishiga, kundalik ehtiyojlarida go'sht, teri, jun mahsulotlari vujudga kelgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa quyidagicha izohlandi:

-Insoniyat bu yorug' olamga chiqqan odamzod kundalik ehtiyojini ta'min qilish maqsadida ilk mehnat qurollari tayoq, sanchqi-nayza va yengil dumaloq toshlar bo'lgan.

-Harbiy san'at tarixining asosi tosh davri so'nggi bosqichida faoliyat olib borgan ajdodlarimiz tosh qurollari tog'-kon ashyosidan foydalanish boshlangan.

-Neolit davriga kelganda harbiy san'atning ilk belgisi kamon o'qlari ixtiro qilindi, bu jarayon takomillashish jarayoni kechgan.

Mavzu bo'yicha quyidagi takliflar izohlandi:

- XIII-XV asrlar Xorazm vohasi tarixida shaharsozlik madaniyati, markazlashgan davlatlar iqtisodiy madaniy jihatidan rivojlanish mezonining ahamiyati, inqiroz jarayonlariga to'lgan omillarni o'rganish alohida mavzu sifatida o'rganish;

-Amudaryoning aholi manfaatlariga ta'siri masalalarni izohlash.

-Madaniy-xo'jalik markazlarning ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanishida qishloq maqomiga ega bo'lgan turar — joylarning tarixiy o'rnini oydinlashtirish hanuzgacha ochiq qolgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Баратов П, Маматқулов М. Рафиков А. Ўрта осиё табиий географияси-Тошкент, 2002.
2. Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма (Основные итоги работ Хорезмской экспедиции ИИМК в 1939 г-М.:Наука, ВДИ № 1.
3. Толстов С.П. Хорезмская археологическая экспедицияи 1940 г //КСИИМК,:Наука, 1946 № 1.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм-М.:МГУ 1948.
5. Виноградов А.В. Новые неолитические находки Хорезмской экспедиции 1957 г. МХЭ-М.:Наука, 1960. Вып 4.
6. Виноградов А.В. Новые материалы для изучения Кельтеминарской культуры //МХЭ,:Наука, 1963, Вып-6.
7. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма-М.:Наука 1968. Вып 8.

8. Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры //Кочевники на границах Хорезма-М.:Наука, 1979-С.27.
9. Итина М.А. Памятники эпохи неолита и бронзы //Древности Южного Хорезма //ТрХАЭЭ-М.:Наука, 1991. Т. XVI.
10. Бижанов Е.Б. Неолитические памятники юго-восточного Устюрта //Древняя и средневековая культура юго-восточная Устюрта-Ташкент, Фан, 1978.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

LOWER ZARAFSHAN VALLEY: GEOGRAPHIC FEATURES AND PALEOECOLOGICAL PROCESSES

Sultanov Samandar Mahmud ogli,
a teacher of the "History" department
of Urdu State University named
after Abu Rayhan Beruni
E-mail: samandar194seq@gmail.com

Abstract. This article highlights the geographic location characteristics and ecological issues of the lower basin of the Zarafshan River.

Keywords: Baratov P., Vinogradov A.V., Itina M.A., Kes A.S., Kabirov Zh., Sagdullaev A.S., Ibragimov R.Z., Ghulomov Ya.Gh.,Islamov U.I., Askarov A., Vakturskaya N.N., Mamedov E.D., Kholmatov N.U., Khujanazarov M., Shimchak A., Bruneg F., Southern Aral Sea region, Lower Zarafshan, Kiziltepa, Kushtapa, Würm, Olduvai, Darbazakir, Chorbaqti, Uchashi-131.

QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR

Sultanov Samandar Mahmud o'g'li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
"Tarix"kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Zarafshon daryosi quyi havzasi geografik joylashish xususiyatlari va ekologiyasi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Baratov P, Vinogradov A.V, Itina M.A, Kes A.S, Kabirov J, Sagdullaev A.S, Ibragimov R.Z, G'ulomov Ya.G', Islomov U.I, Askarov A, Vakturskaya N.N, Mamedov E.D, Xolmatov N.U, Xujanazarov M, Shimchak A, Bruneg F. Janubiy Orolbo'yi, Quyi Zarafshon, Qiziltepa, Qushtepa, Vyurm, Olduvay, Darbazaqir, Chorbakti, Uchashi-131.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N05

Kirish. Quyi Zarafshon vodiysining hozirgi geografik holati, ekologiyasi xususiyatlarini inobatga olinsa, neolit davrida kechgan jarayonlardan tubdan farqlanishini kuzatish qiyinchilik tug'dirmaydi. Mazkur maqolani paleogeologik, paleogeografik va paleoekologik tadqiqotlar natijalarini asos qilib olgan xilma-xil atamalar adabiyotlarda qayd tarixiy ma'lumotlarni nazariy qiyosiy tahlil qilish asosida vujudga kelgan fikr-mulohazalarga asoslangan xolda yoritish mumkin.

Zarafshon daryosi quyi havzasi paleogeografiyasi xususiyatlari va ekologiyasi masalalarini o'tgan asrning 50-60-yillaridan keng ma'noda tadqiqotlar olib borilgan.

Janubiy Orolbo'yi hududi kabi Quyi Zarafshon vodiysi paleogeografik xususiyati va ekologiyasi Yer tarixi geologiyasi taraqqiyoti natijalariga bog'liq bo'lgan. Maqolada er geologiyasining To'rtlamchi davr bosqichlarida yuz bergan er osti tebranishlarini birnecha

marotaba takrorlanishi natijasida tarkib topgan O‘zbekiston birnecha tabiiy-iqtisodiy hududlardan iborat bo‘lgan. Shunday hududlarning geografik holati tog‘ va tog‘ oldi va tekisliklardan iborat bo‘lgan.

O‘zbekistonda geografiya fani taraqqiyotini aks ettirgan birnecha adabiyotlar axborot resurs markazlari juvonlarida mavjud. Mana shu geografik adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlildan hosil bo‘lgan xulosa asosida Quyi Zarafshon vodiysini paleogeografiyasi va ekologiyasi masalalarini mazkur maqolada yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Quyi Zarafshon vodiysini joylashish xususiyatlari paleogeografiyasi, ekologiyasi, masalalarni o‘rganish ishlari XX asr 50-90-yillarda hamda mustaqillik yillarida olib borilgan, ularning natijalari ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola qilingan. Quyi Zarafshon vodiysining joylashish xususiyatlari, qo‘shni hududlar bilan umumjihatlari, o‘ziga xos xususiyatlarini ixtiyorimizda mavjud bo‘lgan adabiyotlar ancha.

Tadqiqotchilar qayd qilishicha, 4-3,5 yillik yilliklarda Qizilqum va Orol dengizi oralig‘i tekislik bo‘lgan, balandlik, botiqlar, sun’iy tepaliklar, Sulton Uvays tog‘i, Quyi Zarafshonda esa geografik holatini Qiziltepa (362 m), Azkamar (372 m), Quyimozor (216 m), Qaynag‘och (322m), balandliklari, Qushtepa va Qumsulton tepaliklari tasvir qilgan. Shu bilan birga qorlar va yomg‘ir suvlari bilan maydonchalar suv havzalarini aylanib, ular sohil etaklari qamishzor, chakalakzor, atrofdagi hudud tuproqlari sof bo‘lib, tabiiy manbalarga ega bo‘lgan maysalar ekologik holatini tasvir qilgan [1, B.171] [2, C.290-291]. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha geologik taraqqiyotining Kaynazoy erasi to‘rtlamchi davrida Olduvay davridan Mindelgacha, undan Vyurm bosqichi oxirigacha Pleystotsen muzligi geografik manzarani belgilab bergan. [3, B. 1] [4, B.13].

O‘tgan asrning 50-60-yillarida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya Instituti arxeologiya guruhi xodimlari (Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida) Quyi Zarafshon vodiysi paleogeografiyasi holatini o‘zgartirgan Zarafshon daryosi suv oqimi loy qatlamlaridagi Mineral moddalarni yotqizishi natijasida suv havzalari organik dunyosiga boy bo‘lgan, ular sohili etaklariga o‘simlik va hayvonot dunyosi ekologik sharoitni hosil qilgan. Darbozaqir 1 manzilgohini o‘rganishga muvaffaq bo‘lgan [5, C. 21-116].

Tadqiqotchilarni qayd qilishicha Daryosoy o‘zanlari atrofida arxeologik va geografik tadqiqotlar natijalari Golotsen davri paleogeografiya ekologiyasini Darbozaqir manzilgohi namoyon qilgan. [6, C.411-412].

A.V.Vinogradov, E.D.Mamedov Chorbakti soyi atrofida joylashgan Chorbakti-26 manzilgohi geografik manzarasini tasvir qilib, ekologik vaziyat odamzodning kundalik faoliyatlarini olib borishga qulay vaziyatni hosil qilgan [7, C. 456-457].

XX asrning 70-yillari o‘rtalaridan boshlab, Samarqand Davlat Universiteti arxeologiya guruhi hozirgi Gazli atrofi geografiyasini tasvir qilgan Zarafshon daryosi Qadimiy o‘zani bo‘lgan Chorbakti vohasida 60 dan ziyod manzilgohlar geografik holati, antropogen landshafti xamda ekologiyasi arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘rganilgan [8, C.4-32]. Shu bilan birga, Zarafshon daryosi Daryosoy irmog‘i sohilida Uchaщi- 131 manzilgohida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida mil.avv. VI ming yillik ikkinchi yarmi yoki oxiriga oidligi aniqlangan, bu esa ilk neolit davridan boshlab Quyi Zarafshon vodiysi paleogeografiyasi va Ekologiyasi sharoiti vujudga kelgan [9, C.267-269].

N.U.Xolmatov tadqiqotlari natijasida Quyi Zarafshon vodiysida 5 ta irmoqlari sohili bo‘ylab ko‘psonli manzilgohlar, geografik manzarasini hosil qilganligi, ekologik vaziyat qulay bo‘lganligi bois aholi zich joylashganligidan dalolat beradi [10, C.44].

O‘zbekiston-Polsha va O‘zbekiston Fransiya ilmiy markazlari hamkorligida Qizilqum Saxroi sharoitida Neolit davri Ayoqagitma manzilgohlarida qazishma ishlarini olib borishi munosabati bilan olingan ashyolar Neolit urug‘ jamoalari xo‘jalik olib borganligi bois, antropogen landshaftda va Ekologiyasida o‘zgarishlar bo‘lgan degan xulosaga kelishgan [16, C.190-196] [12, C.244-250].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy – xolislik, tarixiy-xronologik tahlil, bahs, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, etnografiya, geografiya va geologiya fanlari natijalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. XX asrning 50-yillarida Quyi Zarafshon hududida Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida Mahondaryo arxeologik guruhi xodimlarining Zarafshon daryosi Maxondaryo va Go‘jayli irmoqlari suv oqimi yuqori darajada ko‘tarilishi natijasida etaklaridan oshib tushgan suvlarning Qizilqum To‘lqinsimon qum uyumlari oralig‘ida maydonchalar suv havzalariga aylangan ular sohili etaklari o‘simlik va hayvonot dunyosi paleogeografiyasi xamda ekologiyasini tasvir qilganlar.

XX asrning 90-yillari boshida M.J.Juraqulov rahbarligida Samarqand Davlat Universiteti arxeologiya guruhi Zarafshon daryosining Echkiliksoy, Daryosoy, Mahondaryo, Go‘jayli va Oyoqagitma manzilgohlarda olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolarni ilmiy tahlil asosida chop qilingan adabiyotlarda qayd qilingan paleogeografiya sharoiti ta’sirida ekologiya masalalari tahlil qilindi.

Natijalar sifatida quyidagilar izohlandi:

Quyi Zarafshon vodiysi Janubiy Orolbo‘yi hududi singari Qizilqum geografik umum holatini tasvir qilgan, lekin Oqchadaryo havzasi singari tog‘ orqali qismlarga bo‘lingan emas, uning geografik muhiti, ekologiyasini Zarafshon daryosi 5 ta irmoqlari paleogeografik va paleoekologiyasini belgilab bergan.

Janubiy Orolbo‘yini Aqchadaryo havzasi bilan geologik asosi yaxlitligi, Qizilqum sahrosini umumgeografik muhitini hosil qilganligi kabi natijalar qayd qilindi.

Xulosa va takliflar. Maqola mazmunini qamrab olgan tarixiy ma’lumotlar quyidagi xulosaga kelish imkonini berdi:

- Yer geologiyasi taraqqiyoti natijasida Turonning zaminning past tekisligi tarkibiy qismi sifatida Xorazm vohasi va Quyi Zarafshon vodiysi pasttekisligi tarkib topgan.

- To‘rtlamchi davr quyi bosqichi Neogen davrida Amudaryo suv oqimini nishoblashgan shimoliy tomon olib borishi natijasida Xorazm pasttekisligi o‘ng va so‘l sohili hududlariga bo‘lingan. Quyi Zarafshon vodiysida Qizilqum dashti qismlarga bo‘linmaydi, ammo Zarafshon daryosini 5 ta irmog‘i Qizilqum to‘lqinsimon qum uyumlari oralig‘ida botiqlar ko‘p sonli ko‘llar tizimi geografik holati, ekologik vaziyatni hosil qilgan kabi xulosalar ilgari surildi.

Takliflar quyidagi mazmunda izohlandi:

- Ikki hududning geografik holati. Ekologiyasida yuz bergan o‘zgarishlariga bo‘lgan omillarni o‘rganish;

- Oqchadaryo va Quyi Amudaryo hududlarning paleogeografiya, paleoekologiyasi jihatidan umumjihatlari, o‘ziga xos xususiyatlari izohlash.

- Hozirgi davrda Amudaryo va Zarafshon daryolarining Buxoro va Xorazm vohasi aholisining kundalik ehtiyojlarida foydalanishini yoritish dolzarb masalalardan biri ekanligi kabi takliflar ilgari surildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Баратов П. Ўзбекистон табиий-географияси-Тошкент,: “Ўқитувчи”, 1996.й
2. Виноградов А.В. Итина М.А, Кесь А.С.Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии //Первобытный человек и его материальная культура и природная среда в Плейстоцене и Голоцене-М:Наука, 1974.
3. Кабиров Ж, Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси-Тошкент,:”Ўқитувчи”, 1990.
4. Ибрагимов Р.З. Ўрта Осиё археологияси-Ташкент, 2020 й.
5. Гулямов Я.Г, Исламов У.И. Аскаров А. Первобытная культура и возникновение Орошаемого земледелия в Низовьях Зарафшана-Ташкент, Фан, 1966.
6. Вактурская Н.Н. Виноградов А.В, Мамедов Э.Д. Археолого-географические исследования в районе Дарьясая //АО 1968-М.:Наука, 1969.
7. Виноградов А.В, Мамедов Э.Д. Археолого-Геоморфологические работы в Юго-Западных Кызылкумах в 1984 г //АО, 1984-М.Наука, 1986.
8. Холматов Н.У. Новые неолитические памятники на староречьях Зеравшана //Новые открытие в Приаралье-М.:Наука,1991. № 1.
9. Виноградов А.В, Мамедов Э.Д., Супержицкий Л.Д. Первые радиоуглеродные даты для Неолита Кызылкумов //СА-М.:Наука,1977-№ 4.
10. Холматов Н.У. Мезолит и Неолит Нижнего Зарафшана-Ташкент,:Фан, 2007.
11. Хужаназаров М, Шимчак К. Работы Узбекско-Польской археологической экспедиции на памятника Аякагитма в 2002 году //Археологичекие исследования в Узбекистане 2002 г. Ташкент, 2003.
12. Хужаназаров М. Брунет Ф, Шимчак К. Археологические исследования Узбекско-Французской экспедиции на памятниках Кызылкумов //Археологические исследования в Узбекистане.2004-2005 гг-Ташкент, 2006.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

SOME QUESTIONS ON THE DEVELOPMENT OF SOCIO-ECONOMIC AND ETHNOCULTURAL RELATIONS IN THE KHOREZM OASIS (XIII-XVII CENTURIES)

Matyakubov Gayrat Karimberganovich
Independent Researcher
at Institute for Advanced Studies of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan
E-mail: utkir112@mail.ru

Abstract. The 13th-15th centuries became a period of rise of socio-economic and ethno-cultural relations in the Khorezm oasis, and these processes were analyzed on the basis of historical data recorded in Arabic written sources and publications of the Khorezm archaeological and ethnographic expedition and archaeological groups of local scientific centers, as well as in the works of researchers of the years of independence. That is, in the last quarter of the 6th century BC, the living conditions of the population in villages and cities along the banks of the Amu Darya and its tributaries (left bank) on the right and left banks of the Amu Darya River were analyzed, associated with the historical processes that took place in villages and cities, which formed the basis of the early, developed Middle Ages and its rise.
In the article is analyzed the history of socio-economic and ethno-cultural relations during the rise of society that developed on the right and left banks of the Amu Darya.

Keywords: Tolstov S.P., Gulemov Ya.G., Itina M.A., Manylov Yu.P., Turebekov M., Sobirov K., Ruzimov S., Askarov A., Khorezm, Katkala, Kas, Buronkala, Noibkala, Norinjon, Devkala, Kavatkala, Davkasgan, Shokhsanam, Katta Guldursun, Gurganch, Dargon, Khiva, Khazarasp.

XORAZM VOHASIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA'ZI ChIZG'ILAR (XIII-XV ASRLAR)

Matyakubov G'ayrat Karimberganovich
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. XIII-XV asrlarda Xorazm vohasida ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlarning yuksalish davri bo'lib, mazkur jarayonlar arab yozma manbalar va Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xamda mahalliy ilmiy markazlari arxeologik guruhlar xodimlari nashrlarida xamda mustaqillik yillari tadqiqotchilari asarlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar asosida tahlil qilindi, ya'ni mil.avv.VI asr so'nggi choragida Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida Amudaryo va uning irmoqlari (so'l sohil) chiqarilgan sug'orilish inshootlari sohili hududi bo'ylab qishloq va shaharlarda istiqomat qilgan aholining qishloq va shaharlarda kechgan tarixiy jarayonlarga bog'liq holatlari ilk, rivojlangan o'rta asr xamda uning yuksalish davrida asos bo'lganligi tahlil qilindi. Maqolada Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida rivojlangan jamiyatining yuksalish davrida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar tarixi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tolstov S.P, G'ulomov Ya.G', Itina M.A, Manылov Yu.P, Turebekov M, Sobirov Q, Ruzimov S, Asqarov A, Xorazm, Katqala, Kas, Buronqal'a, Noibqal'a, Norinjon, Devqala, Qavatqala, Davkasgan, Shoxsanam, Katta Guldursun, Gurganch, Darg'on, Xiva, Hazarasp.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N06

Kirish. XIII-XV asrlar davri Xorazm vohasi yuz bergan o‘zgarishlari mazmun va mohiyatida o‘z ma’nosini topganligi bilan O‘zbekiston tarixida o‘ziga xos tarixiy o‘ringa ega. Mazkur tarixiy davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlarning rivojlanishi, yuksalish davrini yoritishda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida xamda arab geograflari asarlarida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlildan kelib chiqqan umumiy xulosalar asosida ushbu maqolada yoritish e’tiborga olindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XI-XII asrlarda Xorazm vohasida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlar rivojlanish natijalari asosida XIII-XV asrlarda kechgan tarixiy rivojlanish jarayonlari kechgan.

Xorazm ekspeditsiyasi tadqiqotchilari asarlarida o‘rta asrning yuksalish rivojlanishi xamda arab yozma manbalarida qayd qilingan.

X asr birinchi yarmida kelgan al-Istaxriy Amudaryo o‘ng sohili hududiga ulangan tekislikda madaniy-xo‘jalik markazi bo‘lgan Katqal’a aholisi faoliyatiga oid qayd qilgan xulosalari diqqatga sazovor, ya’ni “Xorazm poytaxti Oksning shimolida joylashgan, mamlakatning bosh shahri Xorazm tilida Kot deyilgan. Jome’ masjidi qala orqasida joylashgan. Saroy uning yaqinida Xorazm sermeva shahar, oziq-ovqatga serob deb qayd qilingan [1, b.185]. Noma’lum arab geografi “Hudud ul-alam” asarida “Kosni G‘o‘z-Turk mulklarining darvozasi, Turkiston Movarounnahr va Xazardan keluvchi savdo karvoni to‘planadigan joy, aholi G‘azo talab va jangovarlar, deb izohlagan [2, c. 186]. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari asarlarida aholi turar-joylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga asoslanib, XIII-XV asrlarda jamiyatda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishiga imkon bergan sug‘orilish inshootlari, ular sohili hududida aholi tomonidan bunyod qilingan qishloq va shaharlar to‘g‘risida ma’lumotlarni qayd qilgan. [Buranqal’a, Noibqal’a, Norinjon, Qaqatqal’a, Dauanqal’a, Devqal’a, Qizilqala, Jampiqqal’a, Qavatqala, Katta Guldursunni qayd qilgan [3, c. 154-170].

Tadqiqotchini XX asrning 60-yillari boshida nashrida Ko‘xna Urganchda olib borilgan qazishma ishlari natijalarini asos qilib, siyosiy markaz maqomi ahamiyati pasayganligiga oid xulosalari qayd qilingan [4, c. 269-273]. Xorazm vohasi sug‘orilish tarixini batafsil yoritilgan. Ya.G‘ulomovni monografiyasida Xorazm vohasida faoliyat olib borgan Magistral sug‘orilish inshootlari o‘ng sohilda Kat, Kardar, so‘l hududda esa Xazorasp, Xeykanik Madra, Buva qalalari, ular atrofida joylashgan qishloq va shaharlar xaritacha joylashtirilgan [5, b. 139-143].

Ye.Ye.Nerazik tadqiqotida ulug‘ Xorazmshohlar davrida arxeologik yodgorliklar IX-XI asrlarda ma’lum emasligi, Sug‘d-saljuqiy harbiy harakatlar davrini qayd qilib, aholi turar-joylari ilk o‘rta asrlar qatlamlari qoplab olganligi, ular to‘g‘risida qisqa tarixiy ma’lumotlar al-Istahriy va al-Muqaddasiy asarlarda mavjudligini qayd qilgan.

Tadqiqotchi IX-XI asrlarda kechgan iqtisodiy-madaniy munosabatlar XII-XIII asrlarda jamiyat taraqqiyotiga asos bo‘lganligini to‘g‘ri qayd qilgan.

Shu bilan birga, tadqiqotchi, o‘ng sohil hududi (hozirgi To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlari) Katta Guldursun yodgorligida madaniy hayot davom etganligi (31 ga), so‘l sohili hududida esa Shaxsanam (Suburna), Davdon-qala va Zamaxshar oralig‘ida aholi zich joylashganligi, janubi-g‘arbidan shimoli-sharqiy hududida Shaxsanem, Qizilcha-qala, Daudanqala va Zamaxshar shaharlar sifatida tasvirlaydi. M.A.Itina Xorazm qishloq jamoalari tarixini o‘rganishda Qavatqala vohasida XIII-XV asrlarda kechgan tarixiy jarayonlar tarixiga oid mulohazalariga e’tibor bergan. Voha Gavxare sug‘orilish tizimida uzunligi 15 km, kengligi 2-3 kmni tashkil

qilgan. Mazkur hududda asosan Qavatqala (xajmi 2,98 gektar),uning atroflari 8 kv.km bo‘lib, 90 ta “Ko‘shk” lar joylashganligi, aholi zich bo‘lganligini qayd qilgan. [6, c. 67-87].

Yu.P.Manilov xulosasiga ko‘ra, Amudaryo o‘ng sohilida Katqal’ada moddiy xo‘jalik hayot bosqichma- bosqich rivojlanish jarayon XI-XV asrlarda davom etgan. [7, c. 49-56] .

Turabekov M. ma’lumotiga ko‘ra, Mizdahqon yodgorligida xo‘jalik-madaniy hayot, uning atrofida o‘n ikki ming “Ko‘shk” lar aholi turar-joylarida mavjud aholi zich joylashganligidan dalolat beradi [8, c. 153-155]

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Katqal’a (so‘l sohil), Xazorasp va Xiva shaharlarida madaniy hayot XII-XIII asr boshlari, undan keyingi tarixiy davrlarda dehqonchilik vohalarining markazlari bo‘lgan [9, c. 52-53,10-c.108-109. 2, c. 165-168].

Gurganch (Jurjoniya) Qalajiq yodgorliklari dehqonchilik vohalarining bosh shaharlari, ma’muriy-hududiy markazlari vazifasini bajarganligi, Gurganch shahri siyosiy markaz maqomini X asrdan boshlab, saqlab qolganligi natijalari ilgari suriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida quyidagilar qayd qilindi.

-Mil.avv.VI asr so‘nggi choragi-V asr oxiri Xorazm vohasini qamrab olgan urbanistik jarayon natijalari antik, ilk va rivojlangan o‘rta asr jamiyatlari rivojlanishiga asos bo‘lgan.

-Ilk va rivojlangan o‘rta asrda Amudaryo suv ta’minoti barqaror bo‘lgan davrda o‘ng sohil hududida Kaltaminor, Tozabog‘yob va Amirobod, ulardan ikki yon tomonga chiqarilgan sug‘orilish inshootlari suv oqimi yetib bormagan hududlarda aholi turar-joylarni tashlab ketgan (Burliqala, Ayozqala 1. Jonbozqal’a va x.k.) ayrimlarida madaniy hayot qisman davom etgan. (Burgutqala, Katta Guldursun, Tuproqqala, Qizilqala, Quyuqqala va h.k.) ularda kechgan iqtisodiy etnik munosabatlar yuksalgan rivojlanish davrida davom etgan.

-Amudaryo va uning Dovdon irmog‘idan chiqarilgan yangi sug‘orilish inshootlari (Kardaranxos, Xazorasp, Madra, Buva, Vadoq va faoliyatni davom etgan sug‘orilish inshootlari Xeykanik, Yormish, Savkan va h.k.)

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik tahlil, nazariy-qiyosiy tasnif, munozara, asoslash, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, etnografiya, geografiya fanlari materiallaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. XIII-XV asrlarda Xorazm vohasida ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlarning yuksalish davri bo‘lib, mazkur jarayonlar arab yozma manbalar va Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xamda mahalliy ilmiy markazlari arxeologik guruhlar xodimlari nashrlarida xamda mustaqillik yillari tadqiqotchilari asarlarida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlar asosida tahlil qilindi, ya’ni mil.avv.VI asr so‘nggi choragida Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarida Amudaryo va uning irmoqlari (so‘l sohil) chiqarilgan sug‘orilish inshootlari sohili hududi bo‘ylab qishloq va shaharlarda istiqomat qilgan aholining qishloq va shaharlarda kechgan tarixiy jarayonlarga bog‘liq holatlari ilk, rivojlangan o‘rta asr xamda uning yuksalish davrida asos bo‘lganligi tahlil qilindi.

X asrdan boshlab, arab geograflari al-Istaxriy al-Muqaddasiy, Ibn Rusta, Ibn Xavkal, Ibn Fadran, Yoqut, Juvayniy asarlarida Xorazm vohasida faoliyat olib borilgan. Sug‘orilish inshootlari to‘g‘risida ma’lumotlarga e’tibor bergan Ya.G‘ulomov Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi tarkibida ajdodlarimizning sug‘orilish inshootlaridan foydalanishi tarixiga bag‘ishlangan monografiyasida batafsil tahlil qilgan.

Natijalar. XI-XIII asr boshlarida Xorazm vohasida shaharsozlik madaniyati taraqqiyoti zamirida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishi yuksalish jarayoniga ega bo‘lganligi qayd qilindi.

-Aynan yuqorida qayd qilingan tarixiy davrda Amudaryo suv ta’minoti yetarli darajada bo‘lganligi bois, Xeykanik, Madra, Buva, Xardaranxos, Xazorasp, Dovdon irmog‘idan chiqarilgan Yormish, Savkan sug‘orilish inshootlari suv ta’minoti barqaror bo‘lganligi bois, aholining yashab turgan hududlarini obod va Gulshan diyorga aylantirgan.

- XII-XV asrlarda o‘ng sohilda Janbiqqala, Katqala, So‘l sohil xududida Davkasgan-Vazir Sadvar, Jigarband, Mizdaxkon, Xiva, Xazarasp, Darg‘on, Zamaxshar. Ijtimoiy-iqtisodiy va etnik munosabatlar rivojlanishi yuksalish darajada bo‘lgan kabi xulosalar ilgari surildi.

Takliflar:

1**.** XIII-XV asrlarda Xorazm vohasida siyosiy munosabatlarning rivojlanishi tarixini yozma manbalar va arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish asosida yoritish;

2. Mazkur tarixiy davr jamiyatining yuksalish jarayoniga Amudaryoning tarixiy o‘rni, uning hozirgi vaqtdagi faolyati bilan nazariy-qiyosiy tahlil tadqiqotlar olib borish;

3. Maqola mazmunida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlar Xorazmning yer egaligi munosabatlari ustunlik qilganligi aks ettirgan qishloq va shaharlar tarixi o‘rganish, yakuniy xulosalar chiqarish kabi takliflar ilgari surildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Митт-М.Л,:Наука, 1939.Т.Л.
2. Митт-М.:Наука, 1939.Т. Т-1.
3. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи-Ташкент “Фан”, 1959.
4. Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв). Из истории жилища и семьи-М, Из.Вост. Лит.Наука 1976.
5. Манылов Ю.П. К изучению городища Кят (Вестник городища Кят //Вестник ККФАН УзССР-нукус, 1965. № 2.
6. Толстов С.П. Древний Хорезм-М, :МГУ,1948.
7. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта-М.:Изв. Вост.Лит, Наука, 1962.
8. Туребеков М. Исследование Цитадели Гауркалы городища Миздахкан //Археологические исследования в Узбекистане 2001.-Ташкент.: 2002.
9. Собиров Қ. Хорезмийская фортификация на фоне городища Каткала //ККОАНУз-Нукус, 2006. № 1.
10. Собиров Қ, Рузимов С. Археологические работы в Хазараспе //Вестник ККО АН РУз-Нукус, 2003. С. 108-109.
11. Аскаров А. Хива шахар маданиятининг шаклланиши ва унинг асосий босқичлари.Инсониятнинг илмий ва маданий мероси.Учинчи минг йилликка.Бухоро ва Хива шахарларининг 2500 йиллигига бағишланган Халқаро симпозиум тезислари-Тошкент.: 1997.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

THE BAZAARS OF CENTRAL ASIA (THROUGH THE EYES OF 19TH-CENTURY EUROPEAN TRAVELERS)

Eshkuvatov Muhammad Keldiyor ogli
Gulistan State Pedagogical Institute
2nd-year Master's student in the field of
Teaching Methods of Social and Humanitarian Sciences (History)

Abstract. This article analyzes the central markets of certain cities that served as administrative centers of the Central Asian khanates, based on the accounts of European travelers and envoys who visited the region during the relevant period. The research highlights the architectural structure of these markets, the types of goods sold, the pricing system, and, to some extent, the mechanisms of market supervision, all grounded in historical source analysis.

Keywords: V. Murkroft, A. Burnes, Curzon, F. Bernabi, calico, Karakul, Skayler, Mangyshlak and Karakun, “Silkworm Palace,” “Zakot Palace”.

MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA)

Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi(tarix)
yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
E-mail: mukhammadeshkuvatov16@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xonliklarining markazlari bo‘lgan ayrim shaharlardagi markaziy bozorlar shu davrda hududga kelgan yevropalik sayyoh va elchilarning manbalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Markaziy Osiyo bozorlarining qurilish strukturasi, undagi sotiladigan mahsulotlar, narx-navo tizimi va qisman bozor nazorat tizimi manbashunoslik asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: V. Murkroft, A. Byorns, N. Kerzon, F. Bernabi, kaliko, Qorako‘l, Skayler, Mangishloq va Qoraqo‘n, “Ipak qurti saroyi”, “Zakot Saroyi”.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N07

Kirish. Markaziy Osiyo xonliklari – Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixini o‘rganish mintaqaning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini anglashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ushbu davlatlarda bozor munosabatlari ichki tuzilmani shakllantirish va tashqi munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda muhim rol o‘ynagan. Bu o‘rinda har bir shaharning o‘z aholisi, joylashuvi, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatiga qarab bozorlar bo‘lgan. Bu yerga tashrif buyurgan turli xil yevropalik sayyohlar mazkur hududdagi bozorlarning qurilish arxitekturasiga alohida bergan. Xususan, Xiva xonligiga tashrif buyurgan yevropalik sayyoh Fred Bernabi Xiva shahridagi bozorning tuzilishi haqida gapirar ekan, bozorning tor ko‘chada tashkil etilib

xaridorlarni quyosh nuridan himoya qilish uchun usti yog‘och to‘sinlar va somon bilan qoplanganligini ta’kidlaydi. [3; B.237]

Shuningdek, yana bir sayyoh Kerzon ham Buxoro shahridagi bozor tuzilishiga tarif berar ekan, Chorsu, ya’ni Buyuk Bozorning 30-40 ta alohida bozor, 24 ta karvonsaroy va 6 ta tim (doira shaklidagi gumbazli binolar) joylashgan juda katta maydonni egallaganligini o‘z kundaligida yozib qoldirgan. Uning yozishicha, bu timlardan quyoshdan himoyalangan gilam yoki matlar bilan soyasimon yo‘laklar tarqalgan bo‘lib, ularning har biri eshakda, ot ustida yoki piyoda yurganlar odamlar bilan to‘lib-toshgan. [7; B.185]

Qo‘qon xonligiga sayohat qilgan Eugene Skayler Qo‘qondagi bosh bozorni o‘zining Markaziy Osiyoda ko‘rgan bozorlardan eng chiroyli qurilgani deb ta’riflagan. Skaylerni, boshqa bozorlardan farqli ravishda, Qo‘qon bosh bozorining juda muntazam, to‘g‘ri burchak ostida kesishadigan ko‘chalarning mavjudligi, ko‘plab do‘konlarning pishiq g‘ishtdan qurilganligi hamda bozor ichidagi ko‘chalar keng ekanligi hayratga solgan. Skayler bozordagi sotuvchi va xaridorlar uchun yaratilgan qulaylikka ham to‘xtalib o‘tib, butun bozor usti uylar ustidagi baland ustunlarga tayangan tom bilan yopilganligi, bu esa bozordagi savdogar va xaridorlarni quyoshdan soyada saqlab, bir vaqtning o‘zida yaxshi shamollatishni ta’minlaydi. Taxminan ikki yil avvalgi yong‘indan so‘ng bozorning bir qismi yanada mukammal shaklda qayta qurilgan.[6; B.14]

Qo‘qon xonligiga tashrif buyurgan ayol sayohatchi Ella Kristi ham Skaylerning Qo‘qon bozorlari Markaziy Osiyodagi ba’zi shaharlardagilarga qaraganda yaxshiroq qurilgan deb o‘z kundagiligida aytib o‘tgan. Bu ayol sayohatchi o‘zining sayohatnomasida Buxoro shahridagi bozor tuzilishi haqida ham qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan. Uning yozishicha, bozor ko‘chalariga hech qanday tosh yotqizilmagan, shuning uchun yomg‘irli kunlarda sirg‘aluvchan loyda yurish juda og‘ir bo‘lgan. Muhim bozor ko‘chalarining usti arkalar bilan yopilgan bo‘lib, tomdagi yumaloq teshiklar orqali yorug‘lik tushib turgan. Labirintsimon tor ko‘chalar esa terak yoki tol shoxlaridan yasalgan tom bilan yopilgan, uning ustiga esa maysa, qamish yoki gilam singari materiallar qo‘yilgan – bularning barchasi qattiq quyosh nurini to‘sish uchun mo‘ljallangan va shu yo‘l bilan ichki qism yoqimli salqin holatda saqlashga yordam bergan. U bozor hududidagi chang ko‘tarilishini oldini olish uchun g‘ayrioddiy ibtidoiy uslubni – bir kishi yelkasiga suv solingan xom teri idishni olib yurishi hamda og‘zidan suvni mahorat bilan purkash orqali changni bostirishini o‘z kundaligida qayd etgan. [5; B.121-122]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Markaziy Osiyoning asosiy shaharlaridagi bozorlarda sotilayotgan tovarlar turlari haqida ham ko‘plab yevropalik sayohatchilar, elchilarning sayohatnomalarida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Masalan, mazkur hududga kelgan ayol sayohatchi Ella Kristi Xiva xonligida sotiladigan mahsulotlar haqida to‘xtalar ekan, sifatli gilamlar, egarlik sumkalari, qorako‘l terilari, ranglari nihoyatda mohirlik bilan uyg‘unlashtirilgan belbog‘ sifatida ishlatiladigan ipak matolar, mahalliy to‘qilgan ipak matolar (qizil hamda yashil ranglari sifatli, chunki ular anilin bo‘yoqlari bilan bo‘yalmagan), jigarrang, yashil va ko‘k ranglarda bezatilgan juda ko‘p yassi likopchalar va kosalar, sifati Buxoronikidan pastroq misdan yasalgan idishlar sotilishini qayd etgan. Xiva xonligi aholisi odatda zargarlik buyumlarini sotib olishdan ko‘ra o‘zida mavjud tilla yoki kumushdan o‘zlariga ma’qul zeb-ziynatlarni yasattirishni afzal ko‘rishgan. [5; B.84-85]

Shuningdek u Buxorodagi bozorlar haqida ma’lumot berar ekan, ularni joylashuvi bo‘yicha birma-bir sanab o‘tgan: rang-baranglik bo‘yicha alohida o‘rin tutgan egar-buyumlar

bozori (old tomoni baland, qizil lak bo‘yoq bilan qoplangan, naqshli yog‘och egarlar, otlarga burunidan dumigacha taqiladigan charm bezaklar, guruch va kumush metall bilan bezatilgan rangli tugmalar, bonchuklar, patlar), uning yonida esa oyoq kiyimi bozori (qizil va och sariq rangdagi yumshoq charm etiklar, erkaklar, ayollar va bolalar uchun mo‘ljallangan, yumshoq taglikli charm yamoqli etiklar (Qo‘qon etiklari)) bozor chekkasidagi tor ko‘chalarda bo‘yoqchilar do‘konlari, pichoqlari do‘konlari (kichik uchli pichoqlar yog‘och yoki charm qinlar, juda o‘tkir po‘lat pichoqlar), tamaki do‘konlari, uning yonida esa Qashqadaryo (Samarqand janubida) va Nurota tog‘laridagi konlardan keltiriladigan tuz do‘konlari, ipak bozori (betakror rangdagi kashtalari, baxmal matolari, yumshoqligi bilan tengi yo‘q ipak ro‘mollar, qo‘lda tikilgan atirgul naqshli, qizil va yashil rangli devor osmalari). Ammo Xiva xonligidagi kabi zargarlik buyumlarini past ekanligini takidlaydi. [5; B.122-125]

Sayohatining oxirida Qo‘qon xonligiga borgan Qo‘qon bozoriga to‘xtalar ekan, sayyoh ayollar bezaklari uchun, xususan, soch tasmalariga bag‘ishlangan alohida rastalar borligini qayd etadi. Shuningdek, oldinlari suv sifati va guruch somonining tufayli taraqqiy etgan, ammo bosmaxona paydo bo‘lishi tufayli inqirozga yuz tutgan qog‘oz ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari sotilgan. Yozuvchi oziq-ovqat rastalaridagi tandirlar tizimini Yevropadagi “Oldershot pechi” nomi bilan tanilgan pishirish usulining kelib chiqish manbai bo‘lishi mumkin deya taxmin qilgan. [5; B.207-208]

Bernabi o‘z sayohatnomasida devordagi tokchalar Xiva shahridagi bozor rastalari vazifasini o‘tashini, ularda uzum, quritilgan mevalar va tarvuzlar sotuvda turishini, shuningdek, Rossiyadan keltirilgan mis lavhalardan yasalgan suv idishlari hamda trubkalar, turli xil yorqin rangli kalikolar (paxta matolar) va ipak g‘altaklar sotuvga qo‘yilganligi qayd etgan. [3; B.237]

Buxoro shahriga tashrif buyurgan Kerzon o‘z kundaligida Buxoro bozorlarida qurolsozlik mahsulotlari, tokarlik ustaxonalari (bu yerda ishchi oddiy charxpalakni kamon simi yordamida aylantiradi), yorqin qizil va yashil rangda bo‘yalgan yog‘och egarlari sotuvchilari, fildan ishlangan bezakli egarliklar, qirmizi baxmalga oltin va kumush iplar bilan naqsh berilgan, usti yaltirab turgan shabraklar (Buxoroning mashhur mahsuloti), Qorako‘lning jingalak qora qo‘y terilari, pichoq taqilgan charm kamarlar, mahalliy aholi og‘zi bilan chaynaydigan yashil rangli tamaki yoki na’s (kichik idishlarda saqlanadi), qo‘pol lekin betakror bezakli sopol buyumlar, chilimlar (bronzali idishdan ikki quvur chiqadi: biri ko‘mir va tamaki uchun, ikkinchisi chekuvchi og‘zi uchun) va yirik gul naqshli, asosan qirmizi ipakdan oq paxta fonida tikilgan kashtalar, egarlik buyumlari, gilamlar, arpobop arqonlar, temir va metall buyumlar, teri, quritilgan mevalar va dorivor moddalarning alohida bozorlarini ko‘rish mumkinligini qayd etadi. Bozorning oxirgi rastalarida dorilar bilan birga ayollar uchun qosh va kiprik bo‘yoqlari, yuz va tirnoq uchun surmalar ham sotiladi. To‘liq ko‘chalar paxtadan tayyorlangan matolar, rang-barang Buxoro baxmal va ipak to‘qimalari savdosiga bag‘ishlangan. Bu yerdan qizil bo‘yoqqa bo‘yalgan va oldi ipak bilan naqshlangan charm chavandoz shimlari (chumbar) topish mumkin. Yashil charm etiklar (bir butun shaklda) yoki uchlari yuqoriga qayrilgan, to‘rlari juda o‘tkir va kulgili poshnali uzun chavandoz etiklari ham savdoda bor. Rus samovarlarini esa juda ko‘p miqdorda uchratish mumkin; deyarli har bir do‘konda bir samovar jizillab turadi, chunki bu yerda choy Yaponiyadagi kabi doimiy ichimlik bo‘lib, Istanbuldagidek qahva o‘rnini egallaydi. Zargarlik buyumlari menga unchalik boy va chiroyli ko‘rinmadi. Biroq mis va guruchdan ishlangan buyumlar alohida bozorda sotiladi va butun kun davomida bolg‘a ovozlari eshitilib turadi. Ular o‘ziga xos va chiroyli edi. Bu yerdan kungan (guruchdan yasalgan chiroyli

idishlar), turli shakldagi kosalar, ba’zida usti qalay bilan qoplangan bo‘lib, ustiga naqsh tushirilgan yoki chizilgan mis buyumlarni topish mumkin. [7; B.186-188]

Buxoro shahri bozoriga ancha oldinroq tashrif buyurgan sayohatchi A. Byorns bo‘lib, u o‘z kundaligida shaharning Registon bozoridagi choy savdosiga alohida urg‘u berib, choy sotuvchilari rastalaridan aholining choyni shakar bilan yoki shakarsiz, sut bilan yoki sutsiz, hatto yog‘ yoki tuz bilan iste’mol qilishini, bundan tashqari, muzli uzum sharbatini (qishda muzlar chuqurlarga ko‘miladi va bahor-yoz davomida hatto kambag‘allar uchun ham arzon narxda sotiladi. Hech kim suvni muzsiz ichmaydi, va hatto tilanchilar ham, sadaqa so‘rab yurib, muzli suv xarid qilishini) qayd etadi. U Buxoroning Registon bozorlarida turli xil mahsulotlar bilan (dag‘alroq Yevropa zargarligi va pichoqlari, Xitoy choyi, Hindiston shakari, Maniladan kelgan ziravorlar) shug‘ullanuvchi savdogarlar rastalari, shuningdek, turkiycha va forscha kitoblar sotiladigan rastalarning borligini o‘z kundaligida qayd etgan. [4; B.278-279]

J. Volf Buxoro xonligi bozorlarida go‘sht rastalariga e’tibor qaratib, qo‘y go‘shti asosiy oziq-ovqat ekanligi, otlar va ho‘kizlar ham boqilishini, lekin ho‘kiz go‘shti faqat kambag‘allar tomonidan iste’mol qilishlarini yozib qoldirgan. [2; B.271]

Qo‘qonga kelgan yevropalik sayyoh Skayler shaharning bosh bozoridagi mahsulotlarning turi, sifati Toshkentdagilaridan katta farq qilmasligini, Qo‘qonda faqat otqamchilar sifatliroq ekanligini ta’kidlab o‘tgan. [6; B.14]

Muhokama. Bu o‘rinda mazkur bozorlardagi moliyaviy jihatlarni muhokama qilish o‘rinli hisoblanadi. Kerzon esa Buxoro bozorlarida pul tizimi eng oddiy hisob-kitob uchun ham hisob taxtasidan foydalanishlarini, konvertatsiya jarayoni (pul almashtirish) jarayoni ham sekinligini qayd etgan bo‘lsa ham, mahalliy aholini Qohira yoki Istanbul bozorlaridagi odamlarga qaraganda ancha halol va aldovdan yiroq deb deb ta’riflaydi. U o‘z sayohatnomasida A. Jenkinsonning Buxoro pul tizimi haqidagi ta’rifini yodga olib o‘tib, xonlikning pul birligi kumush va mis ekanligi, oltin muomalada yo‘qligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u o‘sha davrdagi pulning qadrsizlanishini aytib o‘tadi. Masalan, Jenkinson kelgan paytda bir kumush tanga ingliz pulida 12 pensga teng, “pul” deb ataladigan 120 ta mis tanga mis pullar esa 12 pensga teng ekanligi va mis pullarning ko‘proq ishlatilishini, ammo o‘z safari esa kumush tangalar (“tanga”) taxminan 5 pensga va 65 ta mis pul (fulus) to‘g‘ri kelganligini taqqoslaydi. [7; B.188-189]

V. Murkroft o‘z kundaligida Qarshi shahri bozorlaridagi narx-navoni aniq qayd etgan: arpa – 12 funt (taxminan 5,4 kg) uchun 6 pens, somon – ot yukiga qarab 8 pensdan 1 shillinggacha, somon – tuya yuki uchun taxminan 1 rupiy, qaynatilgan sariyog‘ – 3 funt (1,36 kg) uchun 1 rupiy, qo‘y yog‘i – 5 funt uchun 1 rupiy, bug‘doy uni – 1 funt uchun 1 pens, guruch – 8 funt (3,6 kg) uchun 1 shilling 6 pens, uzum sharbati (bu yerda shakar o‘rnida ishlatiladi) – 1 funt uchun 3 pens, qo‘y go‘shti – 1 funt uchun taxminan 4 pens, bir dona bug‘doy noni (ikki donasi bir odamga yaxshi taom bo‘ladi) – bir hind paisasi (yarim pensdan ham arzonroq) [1; B.503-504]

Skayler Qo‘qon xonligi bozorlarini daromad manbasidan biri deb hisoblagan va “Ipak qurti saroyi” (Cocoon Sarai) atigi olti-yetti hafta ishlatilganda 1800 tilla (taxminan 810 funt sterling) daromad keltirishini, o‘zi yashagan Zakat Saroyidagi xonalar esa yiliga 200 tillaga (90 funt) ijaraga berilganligini o‘z kundaligida qayd etgan. [6; B.15]

Xiva xonligiga kelgan J. Volf esa musulmon savdogarlar import qilinadigan tovarlar uchun 2,5%, boshqa xorijiy importchilar esa 5% boj (suv yo‘lida Mang‘ishloq va Qoraqo‘n portlarida) to‘lashini yozib qoldirgan. [2; B.272]

Markaziy Osiyo xonliklariga kelgan ayol sayohatchi Kristi Xiva shahrining savdo-sotiq jarayonlarida asosan mahalliy aholi raqamlari, 100 mingdan keyin esa rus raqamlari ishlatilishini yozgan. [5:83-bet] Shuningdek, Buxoroda xonligi bozorlarida rasmiy valyuta sifatida rus tangalari ishlatilayotganligi, ammo koʻpincha shakli buzilgan mis va guruch tangalar ham muomalada boʻlganligini, mahalliy yagona qimmatbaho tanga – “tilla” boʻlib, u paytda taxminan oʻn uch shillingga teng boʻlishini yozib qoldirgan. [5; B.22]

Rossiya bosqinidan maʼlum vaqt oʻtib kelgan Bernabi Xiva va Urganchda rus qogʻoz pullari va mahalliy pullarning muomalada boʻlganligini qayd etgan. [3; B.237]

Natijalar. Yevropalik sayyoh va elchilarning kundaliklari, qaydlaridan shular maʼlum boʻladiki, markaziy Osiyo bozorlarining xavfsizlik tizimi ham mavjud boʻlgan. A. Byorns esa Buxorodagi Registon markaziy bozorining shom tushganda xonning nogʻorasi chalinib, shaharning har tarafida javob nogʻoralar bilan yangragach bozor yopilishini, shahar politsiyasining juda samarali ishlashi orqali tunda doʻkonlarda matolar ochiq holda qolsa ham hech narsa yoʻqolmasligini yozgan. [4; B.279]

Skayler bozorning zich tuzilishi bois yongʻin va oʻgʻrilikdan himoya qilish uchun qoʻshimcha choralar koʻrilganligi (ikkita yongʻinga qarshi mashina – biri Rossiyada ishlab chiqarilgan, ikkinchisi esa mahalliy ustalarning dagʻal nusxasi boʻlgan), har kecha soat yettida yopilib askarlardan iborat qorovul tomonidan qoʻriqlanishini yozgan. [6; B.15]

Xulosa. Umuman olganda, yevropalik sayyohlarning kundaliklari, esdaliklaridan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, Markaziy Osiyo xonliklaridagi bozorlarda arxitektura mahalliy iqlim va shaharsozlik anʼanalariga mos tarzda shakllangan. Xiva bozorlarida tor koʻchalar usti yogʻoch va somon bilan yopilib, quyoshdan himoya taʼminlangan. Buxoroda esa bozor keng hududni egallagan boʻlib, karvonsaroylar, timlar va soyabop yoʻlaklar mavjud boʻlgan. Qoʻqon bozori chiroyli va tartibli arxitekturasi, pishiq gʻishtli doʻkonlari va keng koʻchalari bilan ajralib turgan. Ayrim bozorlarda yomgʻirli kunlarda yurish qiyinlashgani, changni bostirish uchun ibtidoiy usullar qoʻllanilgani ham qayd etilgan. Bozor arxitekturasi xaridor va savdogarlar uchun qulaylik va salqinlik yaratishga qaratilgan boʻlgan.

Ikkinchidan, XIX asrda Markaziy Osiyo xonliklari shaharlaridagi bozorlarda savdo ancha rivojlangan boʻlib, har bir hudud oʻziga xos mahsulotlar bilan ajralib turgan. Xiva bozorlarida gilamlar, ipak matolar, qorakoʻl terilari, mis idishlar, chiroyli sopol buyumlar va Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar sotilgan. Zargarlik buyumlari tayyor emas, balki buyurtma asosida yasattirilgan.

Buxoro bozorlari xilma-xilligi va tashkiloti bilan ajralib turgan: egar-bozor, etikbozor, pichoqbozor, tamakibozor, tuzbozor, ipakbozor kabi ixtisoslashgan bozorlar mavjud boʻlgan. Qoʻpol sopol idishlar, fildan ishlangan egarlik buyumlari, qimmatbaho baxmal va kashtalar, charm shimlar, samovarlar, dorivor moddalar, choy va kitoblar savdosi rivojlangan. Ayniqsa, choy madaniyati muhim oʻrin egallab, hatto kambagʻallar ham muzli choy ichgan.

Qoʻqon bozorlarida esa gʻishtdan qurilgan rastalar, soch tasmalariga ixtisoslashgan bozorlar, yirik tandir tizimlari, yuqori sifatli otqamchilar va qogʻoz mahsulotlari bilan ajralib turgan. Savdogarlar orasida ayollar uchun goʻzallik buyumlari, dorilar, naʼs, turli milliy hunarmandchilik mahsulotlari keng tarqalgan.

Uchinchidan, XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyo xonliklarida pul tizimi murakkab va turli tangalarga asoslangan boʻlib, bozorlarda asosan mis, kumush tangalar hamda ayrim hollarda

rus tangalari muomalada bo‘lgan. Oltin kamdan-kam ishlatilgan. Pul almashinuvi sekin kechgan bo‘lsa-da, savdolarda halollik kuzatilgan. Turli sayohatchilar bozorlardagi narx-navoni aniq qayd etib, mahsulotlar arzon bo‘lganini bildirganlar. Ayrim savdo markazlari, masalan, Qo‘qon xonligidagi “Ipak qurti saroyi”, muhim daromad manbai bo‘lgan. Import bojxona stavkalari savdogarlarning kelib chiqishiga qarab farq qilgan. Raqamlar tizimi va muomaladagi pullar hududga qarab turlicha bo‘lgan.

To‘rtinchidan, yevropalik sayyohlar A. Byorns va Skaylerning qaydlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo bozorlarida samarali xavfsizlik tizimi mavjud bo‘lgan: Buxoroda bozorlar nog‘ora signali bilan yopilgan, tunda ochiq qolgan tovarlarga tegilmagan, Qo‘qonda esa yong‘in va o‘g‘rilikdan himoya uchun maxsus mashinalar va qorovullar joriy etilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. William Moorcroft, George Trebeck. Travels in the Himalayan Provinces of Hindustan and the PanjaB. Vol. 1. Ed. H. H. Wilson. London: John Murray. 1841.
2. Jozeph Wolff. Narrative of a Mission to Bokhara. London: J. W. Parker. 1845
3. Burnaby, Frederick Gustavus. A Ride to Khiva: Travels and Adventures in Central Asia. London: Cassell, Petter & Galpin, 1876.
4. Burnes, A. (1834). Travels into Bokhara. London: John Murray. Vol.1-3
5. Ella R. Christie. Through Khiva to Golden Samarkand. Second edition. London: Seeley, Service and Co. Limited, 196 Shaftesbury Avenue. 1925
6. Schuyler, Eugene. Turkistan, Notes of a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja, vol. II, New York: Scribner, Armstrong & Co., 1877.
7. Hon. George N. Curson, M.P. Russian in Central Asia in 1889. London. Longmans Green and Co. New York. East 16th Street. 1889.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

SOCIAL LIFE AMONG THE ANCIENT TURKS

G‘aniyev Mirjalol Faxridin o‘g‘li
2nd-Year Master's Student
Department of Methodology of Teaching Social and Humanitarian Sciences (History),
Gulistan State Pedagogical Institute
E-mail: mirjalolganiyev14@gmail.com

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the social and economic life of the Turkic steppe culture, with a particular focus on the social structure, forms of governance, and economic activities of ancient Turkic society. The research is based on primary historical sources such as the Orkhon Inscriptions and Dīwānü Lugāt it-Turk, as well as the works of prominent scholars like Bahaeddin Oğel, İbrahim Kafesoğlu, and Ahmet Taşağıl. The concept of "Bozkır Culture" is explained in its geographical context, highlighting its connections with language, religion, customs, education, and economy. The social structure is analyzed step by step — from the family (ogush), clan (urug), tribe (boy), tribal confederation (bodun), to the state (il). The article scientifically examines the complex socio-economic system of the ancient Turkic steppe society, shedding light on its social organization, cultural values, and state-building processes based on historical sources.

Keywords: Turkic, steppe culture, society, family, clan, tribe, lineage, state.

QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIY HAYOT

G‘aniyev Mirjalol Faxridin o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi(tarix) yo‘nalishi
2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turk dasht madaniyatining ijtimoiy va iqtisodiy hayoti chuqur tahlil qilingan bo‘lib asosiy e’tibor qadimgi turk jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi, boshqaruv shakllari va iqtisodiy faoliyatlariga qaratilgan. Tadqiqotda Orxun bitiklari, Devonu Lugot it-Turk kabi birlamchi tarixiy manbalar, shuningdek, Bahaeddin O‘g‘el, Ibrohim Kafeso‘g‘li, Ahmad Tashağıl kabi olimlarning asarlari asos sifatida ishlatilgan. Maqolada “Bozkir madaniyati” tushunchasi geografik izohlanib, madaniyatning til, din, urf-odat, ta’lim va iqtisod bilan bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Ijtimoiy tuzilma bosqichma-bosqich — oila (oguş), urug‘, qabila (boy), qabilalar birligi (bodun) va davlat (il) shaklida tahlil qilingan. Maqola qadimgi Turk dasht jamiyatining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimini manbalar asosida tahlil etib, o‘sha davrdagi ijtimoiy strukturani, madaniy qadriyatlarni va davlat qurilishi jarayonini ilmiy asoslangan tarzda yoritadi.

Kalit so‘zlar: Turk, dasht madaniyati, jamiyat, oila, urug‘, qabila, nasl, davlat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N08

Kirish. Ushbu tadqiqotning asosiy muammosi – Turk dasht madaniyatida ijtimoiy va iqtisodiy hayot qanday unsurlar asosida shakllanganini aniqlab ko‘rsatishdir. Shu maqsadda Orxun bitiklari, Devonu Lug‘ot at-Turk kabi asosiy manbalardan foydalanilgan. Bundan tashqari, Bahaeddin O‘g‘el, Ibrohim Kafeso‘g‘li, Salim Koja, Ahmad Tashag‘il va Ilhami Durmush kabi muhim shaxslarning ishlari adabiyot sifatida o‘rganilgan, so‘nggi yillarda chop etilgan maqolalar ham tahlil qilingan.

“Bozkir Kulturu” ya’ni “Dasht madaniyati” so‘ziga qaralganda, u geografik atama bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi “qurg‘oqqa chidamli o‘tlardan iborat, mo‘tadil va issiq iqlim hududlarida keng tarqalgan, daraxtsiz tabiiy mintaqa” degan ma’noni anglatadi. Bu ta’rif asosida dasht geografiyasi – chorva hayvonlari uchun yaylov bo‘la oladigan keng va ochiq maydonlarni anglatadi. Shu jihatdan dasht hududi cho‘l va dehqonchilik yerlaridan, shuningdek o‘rmonli hududlardan farqlanadi [1;23-b.].

“Kultura” so‘zi asosan lotin tilidagi “Cultura/ae” so‘ziga borib taqaladi va turkchada “ekish, dehqonchilik, yer ishlash” ma’nolarini bildiradi [1;19-b]. Ushbu so‘z turk tiliga G‘arbiy Yevropa tillaridagi shakli orqali “yuqori umumiy bilim” degan ma’noda kirib kelgan [2;16-b]. Eng oddiy ifoda bilan aytganda, madaniyat – bu bir xalqning o‘ziga xos xulq-atvori, e’tiqodi, fikrlash tarzlari va hayot uslubidir [3;14-b]. Yana bir ta’rifga ko‘ra, madaniyat – bu jamiyatda umumiy qabul qilingan va an’ana shaklida davom etadigan barcha e’tiqod, san’at, turmush tarzi, til, fikr va tuyg‘ular majmuasidir [4;17-b.]. Madaniyat insonlarning birgalikda yashashidan kelib chiqadigan xatti-harakatlarning jamlanmasi bo‘lib, u geografiya, shaxs va jamiyat bilan bog‘liq holda doimo o‘zgarib, rivojlanib kelgan. Madaniyatni til, din, urf-odat va an’analar, ta’lim, axloq, san’at, iqtisod kabi unsurlar tashkil etadi [5;439-b.].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. *Jamiyat Tuzilishi* Islomdan oldingi Turk jamiyatiga qaraganda, jamiyatda har qanday sinfiy tabaqalanish yo‘q edi. Jamiyatni boshqaruvchilar (ak tamag bodun=biylar) va boshqarilganlar (kara tamag bodun=xalq) deb ikki guruhga ajratilgan. Bular sinfiy ajrim emas edi. Ak tamag faqat jamiyatni boshqarishga mas’ul shaxslar bo‘lgan. Mansab, Qabilalik va nasab ijtimoiy hayotda sinfiy farq yaratmagan. Muvaffaqiyatli, mehnatsevar, qobiliyatli va aqlli shaxslar uchun ko‘tarilish yo‘li har doim mavjud bo‘lgan. Oddiy bir fuqaro bo‘lib turib, o‘zining foydaliligini ko‘rsatish orqali harbiy va ma’muriy birliklarda qo‘mondonlik va biy lavozimlariga ko‘tarilish har doim mumkin bo‘lgan. Turk dasht madaniyatida hamkorlik juda muhim bo‘lgan. Turklar hamkorlik va yordam orqali bir-birlari bilan yashaganlar. Bu holat birlashish va hamjihatlikni keltirib chiqargan, xalq ehtiyoj tug‘ilganida deyarli bir oilaga aylangan. Jamiyatda moddiy va ma’naviy jihatdan zaif bo‘lgan hech kim ezilmagan [3;8-b.]. Jamiyatni boshqaruvchi ak tamag, kara tamagning yordamiga erishish va uning ishonchini qozonish uchun qilgan ishlarini Orxon yozuvlarining Kültigin yodgorligining sharqiy yuzasining 28- va 29-satrlari quyidagicha ta’riflaydi: Men o‘zim xoqonlik taxtiga o‘tirganimda, har yerga tarqalib ketgan xalq halok bo‘ldi, yo‘qoldi yoki piyoda, yalang‘och qaytib keldi. Xalqni boqish uchun shimolda O‘g‘uz qavmiga, sharqda Xitoy, Tatabi qavmiga, janubda Xitoyga qarab o‘n ikki marta katta qo‘shinimni yubordim, jang qildim. Shundan keyin, Tangri marhamat qilgani uchun, davlatim bor bo‘lgani uchun, nasibam bor bo‘lgani uchun, o‘ladigan xalqni tiriltirib boqdim. Yalang‘och xalqni kiyimli, kambag‘al xalqni qabila qildim. Kam xalqni ko‘p qildim [6;19-b.].

Oguş (Oila) Eski Turk jamiyatida birinchi ijtimoiy tuzilma bo‘lgan oila, butun ijtimoiy tuzilmaning asosiy markazi hisoblanadi. Oila, qon akrabaligi asosiga asoslanadi). Oila, jamiyat bo‘lish tushunchasining boshlanishi bo‘lgan. Turk jamiyat hayoti oila va akrabalik irsiyati asosida shakllangan. Turk oilasi nafaqat Turk jamiyatining, balki Turk davlatining ham eng kichik namunasini tashkil etgan [7;10-b.]. Oguş so‘zi Yakut tilida “us” shaklida uchraydi. Us, turmush qurish imkoni bo‘lmagan shaxslar tomonidan tashkil etilgan tuzilmadir. Eski Turklar o‘rta oilaga ega bo‘lsalar ham, umumiy oila tuzilmasi “yadro oila”dan iborat bo‘lgan. Aksariyat holatlarda Turk ijtimoiy hayoti va oila tuzilishi keng oila tuzilmalariga imkon bermagan [1;129-

b.]. Har bir jamiyatning o‘ziga xos, oila ichidagi o‘zaro ta’sirlarning ijtimoiy va huquqiy jihatdan jamiyatning turli sohalarida kuzatilishi ma’lum. Bu nuqtai nazardan, Turk oila tuzilishi alohida ahamiyatga ega. Turk oila tuzilmasining asoslari eski Turk siyosiy, ijtimoiy har bir tashkilot va odamlarning xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatgan [2;220-b]

Ko‘chmanchi jamiyatlarning barcha jihatdan rivojlanishiga hissa qo‘shadigan va transport vositasi sifatida ta’sir ko‘rsatuvchi unsur, albatta, otdir. Ko‘chmanchi jamiyatlar, yaratilgan mahorat yoki bilimni otning tezligi orqali boshqa joylarga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lishgan. Shu tariqa ot, qisqa vaqt ichida ko‘chmanchi jamiyatlar hayotida katta ahamiyat kasb etib, “otli madaniyat” deb atalgan madaniyat bosqichlaridan birining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Osiyo ichkarisida yashovchi ko‘chmanchi jamiyatlarning o‘rgatilgan hayvonlaridan eng muhim bo‘lgani ot, bu muhitda hukmronlik qilgan jamiyatlarning tarixida amaliy va muhim rol o‘ynagan. Turk bozkir madaniyati, aslida, ko‘chmanchi hayot bilan ifodalanadigan bo‘lsa, bu sivilizatsiyaning tarkibidagi eng muhim unsur “ot” ekanligini ko‘rish mumkin. Mashhur arab sayohati El Câhiz, turklarning otni ishlatishdagi mahorati haqida, “Badaviylar ot ustida o‘q otishni mashhur qilmagan. Turklar esa yovvoyi hayvonga, qushga, belgilangan maqsadga, yuqoriga, pastga o‘q otar”, deb yozgan [9;99-b.]. Eski turklar yetuk hayvonlarga asosan “ot”, “yund” va “göçüt” nomlarini berishgan. Bu nomlardan eng ko‘p ishlatilgani ot bo‘lgan. Bozkirda katta sura guruhlarining boshqarilishi, hayvonlarning ma’lum bir joyda saqlanishi, yayloq chegaralarining avvaldan belgilanishi va nazoratda bo‘lishi kabi barcha faoliyatlar, davrning eng tez vositasi bo‘lgan ot yordamida amalga oshirilgan. Bozkir turklari, cheksiz bozkir geografiyasini ot yordamida oshib, katta ko‘chishlar va bosqinlar ot orqali amalga oshirilgan. Rasonyi, otli ko‘chmanchi madaniyatni dehqonchilikdan yuqori qobiliyat deb ta’kidlagan [10;79-b.]. Otning birinchi o‘rgatilishi va xususiyati bo‘lgan otli chorvachilik madaniyatining davom ettirilishi to‘liq tarzda Ichki Osiyoda yashovchi bozkir turklariga tegishlidir [11;6-b.].

Urug (Oilalar Birligi/ Nasl) Urug atamasi ijtimoiy tuzilishda nima anglatishi aniq emas. Ehtimol, “oilalar birligi” ma’nosida ishlatilishi kerak. Oilalar birligi ma’nosini anglatadigan “urug”ning funksiyasi to‘liq tushunilmagan [12;25-b.]. Turk ijtimoiy tuzilmasida oiladan kattaroq, qabiladan kichikroq tuzilma uchun “nasl” atamasi ishlatilishi mumkin. Eski Turkchada naslga qarshi “urug” atamasi mavjud. Ammo bu so‘z bitiklarda faqat o‘zi ishlatilmagan. Bundan tashqari, bu so‘z uzoq yoki yaqin qon-qarindoshlardan tashkil topgan ma’lum bir jamiyatni ifodalash uchun ham ishlatilgan. Urug so‘zi ba’zi manbalarda nasl, avlod, nevaralar ma’nolarida ham ishlatilgan. Nasl atamasi bugungi kunda ba’zi o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, “sulola” shaklida tashkil topgan tuzilmani ko‘rsatadi.

Boy (Qabila) Qabila atamasi Devonu Lug‘ot at-Turkda “bod” shaklida ifodalangan [13;98-b.]. Oilalar va uruglar birlashganda, “Qabila” paydo bo‘lgan va boshida bo‘ydagi ichki birdamlikni ta’minlash, adolatni ta’minlash va zarur bo‘lganda qabilaning manfaatlarini qurol bilan himoya qilish bilan mas’ul bo‘lgan “Bey” mavjud bo‘lgan. Oilalar va nasllar birlashib, bir qabilaning beyini tanlaganlar. Bu tanlovlar, qabilani tashkil etgan oila va nasl vakillarining to‘g‘riligi, iqtisodiy kuchi, jasorati asosida shakllangan. Islomdan oldingi Yevrosiyo dashtlarida, Turklarning eng yaqqol xususiyati qabila federatsiyasi shaklida yashashlari bo‘lgan. Turk qabilalari, yuqorida zikr etilgan hududni vatan tutib, hayotlari dashtlarning chuqurliklarida, suv bo‘ylarida, yaylovlar va vodiylarda o‘tgan. Turklar; Xun, Ko‘kturk, Uyg‘ur kabi ulkan davlatlar qursalar ham, qabilalar har doim mavjudligini saqlagan. Har bir qabila o‘zining beyi

boshchiligida ijtimoiy, idoraviy va siyosiy tuzilishga ega bo‘lgan. Qabilaning boshida turgan bey; yurtni himoya qilish, soliqlarni yig‘ish, ko‘chish vaqtida qabilaning intizomini va boshqa qabilalar bilan munosabatlarni belgilash, o‘z qabilasiga mansub oilalar yoki qo‘rg‘onlar orasidagi muammolarni hal qilish va xavfsizlikni ta’minlash kabi barcha masalalarda yagona so‘z egasi bo‘lgan. Har bir qabilaga tegishli yurt, yaylak va qishloq qabila beyi tomonidan himoya qilinardi.

Bodun/Budun (Qabilalar Birligi) Dasht madaniyatida qabilalar tashkil etgan tuzilmaga “Bodun” deyilgan. Mahmud Qoshg‘ariyda juda eski bir maqolda uchraydigan bodun ifodasi “millat” ma’nosida qabul qilingan. Shu atama Orxun bitiklarida ham millat tushunchasi uchun ishlatilgan. Budunning boshida umumiy ravishda yerning kengligi va aholi soniga qarab “yabgu, shad, ilteber” kabi unvonlarni olgan boshqaruvchilar bo‘lgan. Budunlarda umumiy ravishda til va nasl birligi talab qilinmagan. Budunlar mustaqil bo‘lishi mumkin edi, lekin bir “il”ga tobe bo‘lishi ham mumkin bo‘lgan. Budunlar davlatni tashkil etuvchi asosiy unsurlar bo‘lgan, shuning uchun siyosiy xususiyatga ega bo‘lgan. Biroq davlat yagona bir bodundan tashkil topmagan. Qabilalar til va nasl birligiga ega bo‘lishlariga qaramay, bodunlar umumiy ravishda qabilalarning yaqindan hamkorlik qilishidan tashkil topgan siyosiy tuzilmalarga aylanib qolgan. Orxun bitiklarida uchraydigan Turk, Sir, Dokuz O‘g‘uz, Ikki Ediz, Tardush, On Ok, Az, Kırg‘iz, O‘g‘uz, Çik, Turgiş, Qarluq va O‘ttiz Tatar nomlarining har biri bir bodun sifatida ko‘rsatilgan. Hatto Ikki Ekiz, O‘ttiz Tatar, On Ok va O‘ttiz Tatar nomlarining boshida turgan raqamlar qabila sonlarini bildiradi va bu, bu tuzilmalar bodun bo‘lishlarini ko‘rsatadi [1;135-136-b.]. Ba’zi manbalarda bodunlarning mavjudligini saqlab qolish va davom ettirish uchun zarur shartlar; davlatga ega bo‘lish “illig bodun” va xoqonlarga ega bo‘lish “kaganlıg bodun” sifatida belgilangan. Davlat mustaqilligini yo‘qotishi budunlarning mavjudligini xavf ostiga qo‘ygan.

Il (Davlat) Qadimgi Turklar uchun davlat tushunchasi “il” yoki “el” so‘zlari bilan ifodalangan. V. Thomsenning fikriga ko‘ra, qadimgi turkchada “il” so‘zi “siyosiy jihatdan mustaqil, tartibli tashkil etilgan millat” degan ma’noni anglatadi. Gabainning fikriga ko‘ra, “il” so‘zi “mamlakat, imperiya, hokimiyat, hukumat” degan ma’noni anglatadi; Giraudning fikriga ko‘ra esa “tashkil etilgan davlat, imperiya, siyosiy hukmronlik” degan ma’noni anglatadi; Clausonning fikriga ko‘ra esa “bir mustaqil hukmdor tomonidan boshqarilgan siyosiy birlik” degan ma’noni anglatadi. “Il”ning haqiqiy ma’nosi — tashkil etilgan siyosiy tuzilma yoki davlatdir. Tashkil etilgan xalqning huquqiy ismi ham davlat deb atalgan. “Il”ning mavjudligi hokimiyatning mavjudligiga bog‘liq bo‘lib, hokimiyatning manbai esa xalq sifatida ko‘rilgan. Turklar, davlat tuzishni “illemek”, davlatni boshqarishni “il tutmak”, davlatni tartibga solishni “il itmek” va davlatsiz qolishni “ilsiremek” kabi iboralar bilan ifodalaganlar. Bozkir madaniyatida davlat doimo “to‘ra” bilan birga o‘ylangan. Boshqa so‘zlar bilan aytganda, turklarda töresiz davlat bo‘lmagan. Turklarning eng aniq xususiyatlaridan biri kuchli tashkilotchilik tushunchasiga ega bo‘lishidir. Yashash tarzi ularni ozodlik va mustaqillikka moslashtirganligi sababli tarixning hech qanday davrida davlatsiz bo‘lmaganlar. Haqiqatan ham, eng kamida ikki ming besh yuz yillik tarixlarida turklar davlatsiz qolmagan yoki mustaqilliklarini butunlay yo‘qotmaganlar. Turklarga ko‘ra, davlatning asli omili butun millatning o‘zi hisoblanadi. Millat bo‘lsa, davlat bo‘ladi, davlat bo‘lsa, millat tushunchasi hukmron bo‘lgan. Hukmron davlat bo‘lsa, bu davlatni tuzgan bir millat albatta mavjuddir. Millat o‘z mustaqilligini yo‘qotmaguncha, davlat mavjud bo‘lgan. Davlat millatga asoslanadi. Millat

doimiy bo‘lgani uchun davlatda davomiylik davom etgan. Qadimgi turklar uchun davlat, bir-birini to‘ldiradigan to‘rt unsurdan iborat bo‘lgan xalq, mamlakat, hokimiyat va tashkilotdan iborat edi: a) Xalq: qadimgi turkchada “kun” deb atalgan xalq bodun ma’nosida ishlatilgan. Turklar davlatni, boshqaruvchi qatlam bilan birga harakat qiladigan keng xalq ommasining hissa va sa’y-harakati natijasida shakllangan. b) Mamlakat: Turklar davlat qo‘lida tutgan va ustida yashaydigan yerlarni “ulus” yoki “yurt” deb ataganlar. “Ulus” yer va xalqni anglatgan, “yurt” esa “vatan” tushunchasi kabi muqaddas bir ma’no tashigan. c) Hokimiyat: Qadimgi turk davlatlarida hokimiyat, “erkinlik” yoki “egemonlik” nomlari bilan atalgan va ikki shaklda namoyon bo‘lgan. Bular “ichki egemenlik” va “tashqi egemenlik” bo‘lgan. Ismlaridan ham ko‘rinib turibdiki, ichki egemenlik xalq ustida ta’sirini ko‘rsatgan, tashqi egemenlik esa mustaqillikni anglatgan. d) Tashkilot: Turklar uchun tashkilot tushunchasining tug‘ilishi va rivojlanishi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. O‘tloqlar oldindan topilib, saqlanishi, ayniqsa katta qo‘ylarni boshqarish va yuritish, turklarning tashkilotchilik xususiyatini muhim holatga keltirgan. Bu holat davlat tuzilmalariga ham ta’sir qilgan, turklar tashkilotchilik xususiyati tufayli davlat qurishda qiynalmaganlar [1;81-90-b.]

Ijtimoiy Hayot. Ijtimoiy hayot kundalik hayotdan tortishlar, marosimlar, bayramlar va dafn marosimlarigacha ko‘plab turli unsurlarni o‘z ichiga oladi. Turk dasht madaniyatida ham ijtimoiy hayotga oid ko‘plab unsurlar mavjuddir. Turk dasht madaniyatining jamiyat tuzilishi haqida hozirgacha yaratilgan tasniflar, nomlanishlar hamda tuzilish jihatidan bir-biriga mos kelmaydi. Bu masalada foydalanilgan asosiy manba Orxun bitiklaridir. Orxun bitiklarida Turk dasht jamiyatining tuzilishi; Og‘ush/Oila, Urug‘/Oilalar Birligi, Elat/ Qabila, Budun/Qabilalar Birligi, Il/Davlat deb nomlangan.

Iqtisodiy Hayot. Biz bilganimizdek, iqtisodiyot; dehqonchilik, chorvachilik, konchilik, savdo, hunarmandchilik, sanoat va boshqa turli tarmoqlarga bo‘lingan. Iqtisodiyot turlarining shakllanishi va rivojlanishida, shaxslarning ichki tabiiy omillari va iqlim xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi. Yashash joyi o‘zgarmagan jamiyatlarda iqtisodiy omillar asosan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoga asoslanadi, bozkir geografiyasida va muhitida yashovchi ko‘chmanchi jamiyatlarda esa chorvachilik faoliyati rivojlangan. Ammo hech qanday iqtisodiy omil jamiyatning ehtiyojini bitta soha bilan to‘liq qondira olmaydi, shuning uchun boshqa iqtisodiy faoliyatlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Dasht iqtisodiyotida chorvachilik ustun bo‘lsa ham, temirchilik, dehqonchilik, savdo, hunarmandchilik va sanoat faoliyatlari ham mavjud bo‘lgan

Xulosa. Ushbu maqolada qadimgi turklar ijtimoiy va iqtisodiy hayotining asosiy jihatlari tarixiy manbalar asosida chuqur o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turk dasht jamiyati murakkab, lekin o‘zaro bog‘langan ijtimoiy tuzilmaga ega bo‘lgan: oila (oguš), urug‘, qabila (boy), qabilalar birligi (bodun) va davlat (il) kabi bosqichli ijtimoiy birliklar mavjud bo‘lgan. Bu birliklar mustahkam ichki hamkorlik va tenglik tamoyillari asosida shakllangan. Iqtisodiy hayotda esa chorvachilik yetakchi rol o‘ynagan bo‘lsa-da, dehqonchilik, temirchilik, savdo va hunarmandchilik faoliyatlari ham ahamiyatli o‘rin egallagan. Otda yurish madaniyati va tashkilotchilik qobiliyati qadimgi turklar taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Maqola qadimgi turklarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi mukammal va barqaror bo‘lganini isbotlab beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Durmuş, İlhami (2009). “Bozkır Kültür Çevresi Türk Tarihi Araştırmaları ve Kronoloji”.

2. Kafesoğlu, İbrahim. “Tarih İlmi Ve Bizde Tarihçilik”. Tarih Dergisi, c. 13, sy. 17-18, 2017, ss. 1-16.
3. Kafesoğlu, İbrahim (2017). Türk Milli Kültürü. İstanbul: Ötüken Neşriyat.
4. Koca, Salim (2002). Eski Türklerde Sosyal ve Ekonomik Hayat. Türkler Ilhami Durmuş Türk Kültürüne Giriş Ankara. 2016.
5. Ansiklopedisi içinde. 8
6. Salim Koca - Fatih Demir, “Tevârîh-i Âl-i Selçuk [Oğuznâme-Selçuklu Tarihi] (Giriş-Metin-Dizin)”, Littera Turca Journal of Turkish Language and Literature, c. 3, S. 4, Ekim 2017, ss. 265-272. (Yayın Değerlendirme)
7. Osman Turan: History as politics (англ.). Дата обращения: 27 октября 2017. Архивировано 28 октября 2017 года.
8. Yuvalı, A. (1996). Anadolu’da Türk Kimliğinin Oluşması İle İlgili Bazı Tespitler. Erdem, 8(23), 439-450.
9. El Câhiz (2017). Fezâilü'l Etrak (Türklerin Faziletleri. (çev.: Ramazan Şeşen). İstanbul:
10. Ergin, Muharrem (1969). Dede Korkut Kitabı. İstanbul: Milli Eğitim Basımevi. Ergin, Muharrem (2009). Orhun Abideleri. İstanbul: Boğaziçi Yayınları. (Ergin, 2009: 19).
11. Yuvalı, Abdulkadir ve Demirci, Hikmet (2021). Türk Dünyası’nın Ortak Kültür Tarihinde Aile ve Kadın. İstanbul: Selenga Yayinlari,
12. Mandaloğlu, Mehmet (2013). “Eski Türklerde Sanayi, Ticaret ve Maliyenin Ekonomik
13. Rasonyı, Laszıo (1993). Tarihte Türklük. Ankara: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü
14. Taşağıl, Ahmet (2018a). Bozkırın Kağanlıkları. İstanbul: Kronik Kitap Yayınları. Taşağıl, Ahmet (2018b). Kök Tengri'nin Çocukları. İstanbul: Bilge Kültür Sanat Yayınları)
15. Kaşgârlı Mahmud (1986). Dîvânu Lugâti't-Türk (Yayına Haz.: Besim Atalay). Ankara: Türk

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

IMPROVING THE METHODOLOGY OF THE CAPITAL BUDGET OF FLOUR PRODUCT PRODUCTION PROJECT IN ENTERPRISES

Abdullaev Altinbek Yangibayevich,
TSAU, Professor of the «Accounting, analysis and audit» department,
doctor of economic sciences, professor

Investitsiya faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishi bevosita qaror qabul qilish jarayonining to‘g‘riligiga bog‘liq. Bu jarayon esa strategik tahlil va prognozlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Investitsion qarorlar odatda katta hajmdagi moliyaviy resurslarni o‘z ichiga oladi va uzoq muddatli natijalarga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ushbu qarorlarni qabul qilishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi: Bozorni chuqur tahlil qilish. Bozorning holati, raqobatchilar faoliyati, iste’molchilarning talab va ehtiyojlari aniqlanadi[4; 9-11-b].

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisobga olish. Inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, valyuta kurslari va iqtisodiy siyosat tendensiyalari baholanadi.

Ichki salohiyatni aniqlash[7; 3-4-b]. Korxonaning moliyaviy holati, kadrlar salohiyati, texnologik imkoniyatlari o‘rganiladi. Risklarni tahlil qilish. Siyosiy, iqtisodiy va texnologik risklar aniqlanib, ularni boshqarish strategiyalari ishlab chiqiladi. Strategik yondashuv asosida investitsion qarorlar optimallashtiriladi va ularning amalga oshirish darajasi ortadi. Shu orqali sarmoyaning qaytimi oshirilib, foyda olish darajasi kafolatlanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan strategiyalar sezilarli darajada samaradorlik kasb etmoqda[5; 11-14-b]. Xususan:

Investitsion qonunchilik soddalashtirildi;

Soliq va bojxona imtiyozlari joriy etildi;

Xorijiy investorlar huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro bitimlar imzolandi;

“Yagona darcha” tamoyili asosida ruxsatnomalar va litsenziyalar berish soddalashtirildi. Bu strategiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga — energetika, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi, IT va transport-logistika sohalariga yirik investitsiyalar oqimini ta’minladi. Masalan, 2023–2024 yillarda Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va Yevropa davlatlaridan yirik loyihalar O‘zbekistonda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda[6; 21-24-b].

Xorijiy investitsiyalar strategiyasining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun quyidagi shartlar muhim:

Davlat tomonidan kafolatlar berilishi;

Sud-huquq tizimi mustaqilligi;

Moliyaviy axborotlarning ochiqligi va shaffofligi;

Siyosiy barqarorlik.

Raqamli iqtisodiyot davrida investitsiya strategiyasini shakllantirish tamoyillari ham o‘zgarib bormoqda. Endilikda an’anaviy sarmoya yo‘nalishlari bilan bir qatorda quyidagilar ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda:

Raqamli texnologiyalar (AI, big data, IoT) — ushbu sohalarga sarmoya kiritish biznes jarayonlarini tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Kiberxavfsizlik — moliyaviy axborotlar va investitsiya jarayonlarining xavfsizligi uchun sarmoya zarur[8; 3-5-b].

Elektron tijorat va moliyaviy texnologiyalar — fintech loyihalar orqali yangi daromad manbalari shakllantiriladi.

O‘zbekistonda ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli investitsiya loyihalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu, o‘z navbatida, zamonaviy investitsiya strategiyalarini shakllantirishda muhim bosqichdir.

Har qanday strategiya uning natijalariga qarab baholanadi. Investitsiya strategiyasining samaradorligini aniqlash uchun quyidagi asosiy mezonlar qo‘llaniladi:

ROI (Return on Investment) – investitsiyadan olinadigan daromad foizi;

NPV (Net Present Value) – investitsiyaning hozirgi qiymatdagi foydasi;

IRR (Internal Rate of Return) – ichki daromadlilik darajasi;

Payback period – sarmoyaning o‘zini oqlash muddati.

Yuqoridagi mezonlar yordamida nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlar, balki strategiyaning umumiy iqtisodiy ta’siri, ish o‘rinlari yaratish darajasi, eksport hajmi va innovatsion rivojlanishga qo‘shgan hissasi ham baholanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda investitsiya strategiyasi har qanday iqtisodiy tizimda, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning asosiy vositasidir. Strategik yondashuvga ega bo‘lgan investitsiya siyosati resurslardan oqilona va samarali foydalanish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Investitsiya strategiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda menejmentning roli beqiyosdir. Zero, har bir qaror, har bir sarmoya, uning taqsimoti va istiqboldagi natijalari puxta tahlil va rejalashtirishga asoslangan bo‘lishi zarur. Bunda investitsion risklar, ichki va tashqi muhit omillari, bozor tendensiyalari va siyosiy-iqtisodiy barqarorlik darajasi e’tiborga olinishi kerak.

O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan investitsion iqlimni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar, xorijiy va ichki sarmoyadorlar uchun qulay

shart-sharoitlar yaratmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotda strategik investitsiya yondashuvlarini yanada takomillashtirish va amaliyotda samarali qo‘llashni taqozo etadi.

Investitsiya strategiyasi nafaqat iqtisodiy o‘sishning negizi, balki mamlakatning global bozorlar bilan integratsiyalashuvi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va iqtisodiy suverenitetni ta’minlash omilidir. Shu bois, har qanday boshqaruv darajasida strategik investitsion yondashuvni shakllantirish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi rasmiy ma’lumotlari – https://www.invest.gov.uz
4. Sharipov M.Q. Investitsiyalar iqtisodiyoti. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.
5. Abdukarimov A., Shodmonov Sh. Investitsiyalar: nazariya, amaliyot va strategiyalar. – T.: Iqtisodiyot, 2019.
6. Moliya vazirligi statistik byulletenlari (oxirgi yillardagi sonlar) – https://www.mf.uz
7. Ризаев И. И., Муминова З. О. Профессиональная подготовка личности: оздоровление и духовное воспитание //Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. – 2021. – С. 264-268.
8. Mavlanovna A. M. Problems of transforming a healthy worldview and creativity into a nationwide movement in society //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 7. – С. 32-36.
9. NURMATOVA U. J. SYNERGETIC CHARACTERISTICS OF READING PHENOMENON //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 70-75.
10. Yuldasheva D. Legal protection of women is the basis for the development of uzbek society //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 24. – С. 1011-1014.
11. Юлдашева Д. Ю. Цифровые технологии в учебном процессе в условиях пандемии //Конференция состоялась. – 2022. – Т. 5. – С. 100.
12. Nasirdinovich U. F., Rakhmatullaevna U. L. History and contemporary social and moral approach to rationalism //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – С. 1796-1801.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

STRATEGIC MANAGEMENT - THE BASIS OF COMPETITIVE ADVANTAGE

Rustamova Sayyora Khatamovna
Senior Lecturer, Department of "Economics"
Andijan State University,
Doctor of Philosophy (PhD)

Abstract. This article discusses the competitive advantage of companies, the strategies they use during their life cycle. The literature on strategic management is analyzed, and through the research of scientists and the author, similar and different strategies of companies, their competitive advantages are presented. The criterion of loyalty and its maintenance among customers are discussed.

Keywords: strategy, strategic management, loyalty criterion, competitive advantage, differential strategy, customer proximity.

STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI

Rustamova Sayyora Xatamovna
Andijon davlat universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
I.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompaniyalarning raqobat ustunligi, hayotiylik davri davomida qo‘llaydigan strategiyalari haqida fikrlar yuritiladi. Strategik boshqaruvga berilgan adabiyotlar tahlil qilinib, olimlarning va muallif izlanishlari orqali kompaniyalarning o‘xshash va farqli strategiyalari, raqobatdagi ustunliklari haqida izlanishlar keltirilgan. Sodiqlik mezoni va uni xaridorlar orasida saqlab qolish haqida so‘z ketgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, strategik boshqaruv, sodiqlik mezoni, raqobat ustunligi, differensial strategiya, mijoz yaqinligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N11

Kirish. Korxona va tashkilotlar o‘z hayotiylik davrini uzoqroq davom etishi uchun faoliyatini rejalashtirgan bo‘lsada, rejani doimiy takomillashtirib, uni strategik ahamiyatini yana ham oshirib borishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Resurslarning cheklanganligi asnosidagi jamiyatimizdagi mavjud resurslardan oqilona foydalanib, bozorda raqobat sharoitida omon qolish uchun korxona rahbarlaridan strategik qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish korxonaning uzoq istiqbolini belgilab beradi.

Dj.March menejerlarga xos va qaror qabul qilishga ta’sir ko‘rsatuvchi ong chegarasi (diqqatning chegaralanishi, aqliy imkoniyatlarning chegarasi, o‘z fikrini afzal bilish), siyosiy va tashkiliy chegaralanishni tushuntirib bergan. U tashkilotlarda qaror qabul qilish jarayoni va unda oqilonalikning chegaralanishi tushunchasini kiritgan.[1, 28-b] Kompaniyalarning nufuzini belgilab beruvchi omillar sirasiga kompaniya faoliyat yuritayotgan mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy institutlarning o‘rni bilan birgalikda, kompaniya rahbarlarining uzoq muddatni oldindan ko‘ra olish qobiliyati ham muhim hisoblanadi. Korxonalar raqobatli

ustunlikka erishishi uchun ayni damdagi raqiblari bilan emas, yaqin kelajakda unga qaysi tarmoq va sohalar raqib bo‘lishi mumkinligi haqida batafsil o‘ylashi lozim. Chunki hozirgi transformatsiya va sun’iy intellektning rivojlanishi jarayonida mavjud kompaniyalar o‘z vaqtida zamonga moslasha olmasalar, raqobat ummonida g‘arq bo‘lishi turgan gap.

Korxonaning kelajakdagi barqarorligini baholash uchun rivojlanish tendensiyasini (trendini) ifodalovchi kompleks integral ko‘rsatkich ishlatiladi; chuqurroq tahlil qilish va zaxiralarni aniqlash uchun ko‘rsatkichlarning kengaytirilgan tizimidan foydalaniladi. Shunday qilib, korxonaning kelajakdagi barqarorligini baholash — korxona faoliyatining turli tomonlarini baholashni nazarda tutadi, buning ustiga, bunday baholash dinamiklikda va makonda amalga oshiriladi.[2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Strategiya so‘zini qo‘llash qadimgi yunonlarga borib taqaladi, uni harbiy ma’noda ham, biznes ma’nosida ham dastlab qadimgi yunonlar ishlatishgan. Biznes strategiyasi konsepsiyasiga oid ilk zamonaviy qarashlar 1947-yilda Jon Fon Neyman hamda Morgensternlarning o‘yinlar nazariyasida tilga olingan. Keyingi davrda konsepsiyaning rivoj topishi va biznesda strategiya tushunchasiga berilgan ta’rifning sayqallanib borishiga P.Druker, A.Chandler, I.Ansoff, D.SHendel, J.Maknikols, J.Makkarti, H.Mintzberg va boshqalar ulkan hissa qo‘shgan.[3]

I.Ansoff strategik boshqaruvning mohiyatini: “tashkilot maqsadlari va vazifalarining qo‘yilishi, o‘z maqsadlariga erishish imkoniyatini beruvchi va ichki imkoniyatlarga mos holda tashqi talablarga sezuvchanlikni ta’minlovchi tashkilot va tashqi muhit o‘rtasidagi bir qator munosabatlarni qo‘llab-quvatlash bilan bog‘liq strategik boshqaruv bo‘yicha faoliyat”[4] deb ta’riflagan. Bundan tashqari Ansoff korxonalarni strategiyasini “Ansoff matritsasi” orqali baholashga e’tibor qaratgan.

Maykl Porter kompaniyalarning uzoq muddatli strategiyasini raqobat ustunligi nazariyasi bilan izohlagan.

O.S. Vixanskiy strategik menejmentni “tashkilot asosini tashkil qiluvchi inson potensialiga tayanuvchi, ishlab chiqarish faoliyatini iste’molchilar talablariga yo‘naltiruvchi, tashkilotdagi o‘zgarishlarga sezuvchan va unga mos tarzda o‘zgarishlarni amalga oshiruvchi, tashqi muhit talablariga javob bera oladigan va raqobat afzalliklariga erishish imkoniyatini beruvchi … tashkilotni boshqarish usuli” [5, 63-b] deb ta’riflagan.

Ushbu maqolada strategik boshqaruv bo‘yicha iqtisodchi tadqiqotchi olimlarning maqolalari o‘rganilgan. Soha vakillarining fikrlarini mulohaza qilish asosida tizimli tahlil va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Angliyada paxta tolasidan mato olish jarayonida foydalanilgan dastlabki charxpalak, bug‘ mashinasi kabilardan foydalanish orqali sanoat inqilobining yuzaga kelishi va bunday ixtirolardan samarali foydalanishga ishtiyoqmand tadbirkorlarga yangi g‘oyalarini amalga oshirishga turtki bo‘ldi. XIX asrda AQSH dunyoda boshqa mamlakatlarga nisbatan nafaqat siyosiy, balki innovatsiyalarni joriy qilish bo‘yicha ilg‘or mamlakat hisoblangan.

AQShning o‘zida 1 093 ta, dunyo bo‘yicha esa 1 500 ta patent olish bilan jahon rekordini o‘rnatgan Edison [6] kabi ixtirochilar uchun ularni patentlarini boshqa insonlarga pullash maqsadida foydalanishni oldini olish uchun o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘yish orqali patentlaridan o‘zlari foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqbul yechim hisoblangan.

1818-yilda AQShda umumiy aktivlari 160 mln dollarni tashkil qilgan 338 ta bank ishlagan bo‘lsa, 1914-yilga kelib banklar soni 27 864 taga, ularning umumiy aktivlari hajmi esa 27.3 mlrd dollarga yetadi.[7] O‘z biznesini boshlashga mablag‘i bo‘lmagan amerikalik ixtirochilar uchun bu juda qulay imkoniyat bo‘lishi bilan birgalikda AQShdagi banklar orasidagi kuchli raqobat ixtirochilar uchun past foizlarda kreditlar olish imkonini berdi. Ko‘plab kichik biznesini yo‘lga qo‘yish istagidagi g‘oyalari bor tadbirkorlarning kreditlardan maqsadli foydalanishi evaziga AQSH dunyoda sanoati rivojlangan yetakchi davlatdan biriga aylanishiga zamin yaratdi.

Amerikalik professor M.Stern o‘zining “AQShdagi eng tezkor rivojlanuvchi kompaniyalar” deb nomlangan monografiyasida muvaffaqiyatli tadbirkorlarning quyidagi shaxsiy xislatlarini alohida ta’kidlab o‘tadi:

1. ularda ko‘ra bilish yoki orzu mavjud. Bu haqida ular har kuni eslab turadi;
2. o‘z mahsuloti yoki xizmatiga ishonchning kuchliligi va sodiqlik;
3. ixtirochilik;
4. doimo vaqt yetishmasligi sababli ular sabrsiz va sezgir;
5. muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltirilgan faoliyatini bir necha yil oldin rejalashtiradilar;
6. hamma narsani qaytadan boshlashga qo‘rqmaslik;
7. pul ular uchun asosiy va yagona harakat omili emas;
8. ular bozor o‘zgarishini yaxshi payqay oladilar;
9. ularni qo‘rqitish qiyin;
10. ular yolg‘izlikka o‘rganib qolishgan;
11. injiq va o‘jar shaxslar;
12. xususiy biznesni amalga oshiradigan faoliyat texnologiyasi, buxgalter hisobi hamda moliyaviy tahlilni yaxshi biladigan yuqori malakali ta’sischilar guruhining mavjudligi[8].

Har qanday tarmoqda faoliyat yuritishi bilan korxonalar uchun yangi raqobatchilarning paydo bo‘lish va tarmoqda mavjud raqobatchilar bilan kurashishi xavfi mavjud bo‘ladi. Mavjud korxonalar o‘z mijozlarini saqlab qolishi uchun o‘z mahsulotlariga xaridorlar sodiqligiga erishishi zarur. Bunga erishish uchun korxonalar boshqa raqobatchilariga nisbatan mutlaq ustunlikka erishishga urinishi kerak. Sifat, qadoqlash va yetkazib berishda raqobatchi korxonalarga nisbatan differensial strategiyani qo‘llash orqali o‘z ustunliklariga erishishi mumkin bo‘ladi. Kirib kelayotgan yangi korxonalar esa xaridorlarni raqobatchi korxonalarga sodiqligini yengish uchun katta texnologik, iqtisodiy investitsiyalar kiritishi lozim bo‘ladi. Xaridorlar quyidagi hollarda nomdor korxona mahsulotlariga sodiq bo‘lishadi:

- tovar yoki xizmatning sifati boshqa raqobatchilarga nisbatan yuqori bo‘lganda;
- tovar yoki xizmatdan foydalanayotgan mijozlarning boshqa firma xizmati yoki mahsulotlarini o‘zlarida sinab ko‘rishga qo‘rqishligi, ya’ni yangiliklarni qabul qilishga qo‘rqishlik;
- mijozlarni yangi korxona xizmati va mahsulotlarini qo‘llashda o‘zi uchun yuzaga keladigan noqulayliklarga moslasha olmasligi;

Eng katta xizmat ko‘rsatish sohasi banklarning xizmatlaridan uzoq muddat mobaynida foydalanishlariga qarab mijozlar quyidagi guruhlarga guruhlanadi, bunda bankka bo‘lgan ishonch va sodiqlik eng muhim omil sanaladi:

1) «sodiqlik» darajasi yuqori bo‘lgan mijozlar (bank xizmatlaridan foydalanish muddati uch yildan ko‘p);

2) o‘rtacha «sodiqlik» darajasiga ega mijozlar (bir yildan uch yilgacha bo‘lgan davrda bank xizmatlaridan foydalanuvchilar);

3) «sodiqlik» darajasi o‘rtacha darajadan past bo‘lgan mijozlar (bank xizmatlaridan bir yilgacha bo‘lgan davrda foydalanganlar);

4) «sodiqlik» darajasi past.[9]

Nomdor kompaniya bozorda o‘z pozitsiyasini ushlab turishi uchun xaridorlarning sodiqligi mustahkamlashi zarur. Yangi kirib kelayotgan kompaniyalar raqib kompaniya mijozlarining sodiqlik mezonini sindirish yoki o‘ziga og‘dirish uchun katta investitsiya qilish orqali bozorda o‘z o‘rnini egallab olishi mumkin.

2023 yil 27-oktyabrdan boshlab O‘zbekistonda mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamini ko‘chirish xizmati (MNP) ishga tushirildi [10]. Abonentlar mobil aloqa operatorlarining xizmat ko‘rsatish sifatiga qarab o‘z raqamini saqlagan holda istalgan kompaniyani (hozirda GSM mobil operatorlari — Beeline, Mobi.uz, Ucell, Uzmobile, Humans abonentlari tomonidan taqdim etiladi) tanlashi mumkin.

MNP xizmati allaqachon Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlarida, Singapur, AQSH, Kanada va qo‘shnilarimiz Qozog‘iston, Rossiya, Ozarbayjonda ham mavjud. Chet el aloqa bozorining tahlillariga ko‘ra, xizmat ishga tushganda so‘ng dastlabki 1-2 yil muddat ichida ko‘chirilgan raqamlar 5% ni tashkil qilishi mumkin.[11]

Juda ko‘plab adabiyotlarda strategiyaga yondashishning keng tarqalgan 5 ta varianti mavjud bo‘lib ular quyida keltirilgan:

1. Xarajatlar bo‘yicha ilg‘orlik strategiyasi.
2. Keng tabaqalashtirish strategiyasi.
3. Optimal xarajatlar strategiyasi.
4. Fokuslangan strategiya.
5. Ifodalangan strategiya yoki mahsulotni tabaqalashtirishga asoslangan bozor uyasi strategiyasi.

Biz quyida berilgan jadvalda dunyodagi eng yirik ikki kompaniyalar ”IKEA” kompaniyasi va McDonald’s ovqatlanish shoxobchasining biznes strategiyalarini taqqoslab, ular orasidagi o‘xshash va farqli jihatlarini qanday strategiyalardan foydalanilganini tahlillar asosida bir joyga jamladik.

1-jadval.

”IKEA” kompaniyasi va McDonald’s ovqatlanish shoxobchasining biznes strategiyasi [12]

Strategiyalar	”IKEA” kompaniyasining biznes strategiyasi	McDonald’s ovqatlanish shoxobchasi
Asosiy strategiya	Mebelni yig‘ilmagan holda sotish Oddiy qadoqdan foydalanish	Asosiy qoidalaridan biri MSOQ-”madaniyat, sifat, ozodalik, qulaylik” Ovqatlanib o‘tirganlar atrofida doimo pol yuvib yoki derazalari artib yurayotganlar
Joylashuv strategiyasi	shahar chetida do‘konlar ochish	Odamlar gavjum joylar, chorrahalarda, universitetlar yaqiniga restoranlar qurishadi
Xaridni ko‘paytirishga urinishda vaqtdan foydalanish strategiyasi	xarid vaqtini ortga surish do‘konni labirintga aylantirish mijozlarga xarid ro‘yxatini tuzib olishni taklif qilish	xaridor kartoshka, ichimlik, muzqaymoq yoki qahvaga buyurtma berganida (60 soniyada buyurtma berish lozim) uning miqdorini aytmasa, eng katta porsiya olib kelinadi. Bolalar uchun o‘yin maydonchalari, arzon narxlarda tug‘ilgan kunlar o‘tkazish, ota-onalari bilan navbatda turgan kichkintoylarga sovg‘alar berish
Xaridni ko‘paytirishga urinishda joylashtirish strategiyasi	qimmat buyumlar oldida kichik buyumlarni joylashtirish ko‘rgazma zalida derazalarning yo‘qligi polga ko‘rsatkich belgilar chizib qo‘yish	Qattiq stullar va noqulay divanlar Tezkor musiqa Stollar orasidagi tor yo‘laklar
Sotuv hajmini ko‘paytirishda sotuvchilik madaniyati	do‘konda qahvaxonaning mavjudligi dolchinli bulochka	sotuvchilar hech qachon inkor qo‘shimchasini ishlatmaydilar
Shaxsning hurmatga doir ehtiyojlarini hisobga olinishi	hamma joyda ko‘zgular qo‘yilishi	Erkaklarni e’tiborini jalb qilmasliklari uchun ishchi ayollarni erkakcha kiyintirib qo‘yish.

Bundan tashqari mijoz yaqinligi strategiyasini “Ritz-Carlton” mehmonxonasida ham ko‘rishimiz mumkin. The Ritz-Carlton — “lyuks” toifasidagi mehmonxonalar xalqaro tarmog‘i. Tarmoq dunyodagi eng yirik Marriott International mehmonxonalar xoldingining shu’ba korxonasi bo‘lgan The Ritz-Carlton Hotel Company kompaniyasiga tegishli. Tarmoqning shtab-kvartirasi Merilend shtatida (AQSh) joylashgan. Kompaniya dunyoning yirik shaharlarida 90 dan ortiq mehmonxonalarni boshqaradi.[13]

Alohida mijozlar ehtiyojini aniqlashgandan so‘ng, “Ritz- Carlton” mehmonxonasi xodimlari mehmonxonaning kir yuvish xizmati mehmon jo‘nab ketishidan oldin uning kiyimidagi dog‘ni ketkiza olmasa, mehmonxona menejeri mehmonning uyiga borib, shaxsan kostyumning narxidagi pulni qaytarib beradi. “Ritz-Carlton” menejerining so‘zlariga ko‘ra, agar bu tarmoq biror bir mehmonga qarashli uy hayvonini suratini olsa, rasmni nusxani ramkaga solib, qachondir o‘sha mehmon tashrif buradigan bo‘lsa, rasmni uning xonasiga osib qo‘yildi. Ana shunday mijozlarga xizmat ko‘rsatish borasidagi qahramonliklar natijasida, jo‘nab ketayotgan mehmonlaring 95 foizi bu mehmonxonada bo‘lganliklarini chinakam esda qolarli tajriba deb bayon qiladi. “Ritz-Carlton” 90 foizdan ortiq mehmoni yana qaytib keladi.[14] Shu

kabi xatti-harakatlar mijozlarni kompaniyalarga sodiqligini oshiradi. Uyidagidek yoki yaqin insonidek g‘amxo‘rlik qilish mijozlarga yaqinlik va iliqlik hissini beradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida quyidagilarni aytish mumkin:

- kompaniyalar raqobat ustunligiga erishish uchun tarmoqdagi va hududdagi o‘ziga xoslikni hisobga olib, firma strategiyasini tuzishi lozim;
- mijozlardagi sodiqlikni saqlab qolishi uchun o‘z mahsulot va xizmatlariga katta investitsiya kiritish;
- korxona barcha faoliyatiga innovatsiyalar kiritib turish uning kelajakda kompleks samaradorligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. А.Н.Холиқулов, В.Бердиқулов, К.М.Ибодов. “Таққослама менежмент” ўқув қўлланма Тошкент “Иқтисод-молия” 2021й 28-б
2. Nasimov B.V. Korxonalar faoliyatini strategik boshqarish samaradorligi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil
3. Э.Абдусатторов. Стратегик менежмент концепциясининг назарий-методологик асослари ва тарихий эволюцияси. SYNERGY: JOURNL OF ETHICS AND GOVERNANCE Volume: 02 Issue: 12 | December- 2022 ISSN: 2181-2616
4. Ансофф И. Стратегическое управление: Сокр. пер. с англ. // Науч. ред. и авт. предисл. Л.И. Евенко. – М.: Экономика, 1989
5. Виханский О.С. Стратегический менеджмент. – М.: Юрист, 2002 63 с
6. Ажамўғли Дарон, Робинсон Жеймс А. “Мамлакатлар аназзули сабаблари: қудрат, фаравонлик ва камбағаллик манбалари” инглиз тилидан Сиротуллохон Муҳаммадсолиев таржимаси. Тошкент: “Ofset-print” МЧЖ, “Nihol” nashriyoti, 2021. 676 бет
7. Ажамўғли Дарон, Робинсон Жеймс А. “Мамлакатлар аназзули сабаблари: қудрат, фаравонлик ва камбағаллик манбалари” инглиз тилидан Сиротуллохон Муҳаммадсолиев таржимаси. Тошкент: “Ofset-print” МЧЖ, “Nihol” nashriyoti, 2021. 676 бет
8. А.Х. Холов. Ўзбекистон ёшларида тадбиркорлик ижтимоий масъулиятини ошириш. Ўқув қўлланма/ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Фан ва технологияларни ривожлантиришни мувофиқлаштириш қўмитаси. –Т.: Akademiya. 2014 йил. 282 б.
9. О.М. Пардаев, А.Я. Абдуллаев. Банк фаолиятининг молиявий барқарорлиги ва ривожланиш истиқболларини баҳолаш. [Матн]: дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ. Нашриёти, 2023 – 344 бет
10. https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/27/mnp/
11. https://kun.uz/kr/news/2023/10/18/raqamni-saqlagan-holda-mobil-operatorni-ozgartirish-u-qanday-ishlaydi
12. Kun.uz ma’lumotlari va N.O. Raxmatullayeva. Strategik menejment.-T.: «Fan va texnologiya», 2019 o‘quv qo‘llanmasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi
13. https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/20/ritz-carlton-tashkent/
14. N.O. Raxmatullayeva. Strategik menejment.-T.: «Fan va texnologiya», 2019 o‘quv qo‘llanma

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF A TOOL FOR PRE-TRIAL RESOLUTION OF TAX DISPUTES

Buranova Lola Vakhobovna
Associate Professor of the Department
"Taxes and taxation"
Tashkent State University of Economics
E-mail: l.buranova@tsue.uz

Aripova Aziza
assistent of the Department
"Taxes and taxation"
Tashkent State University of Economics
E-mail: a.aripova@tsue.uz

Abstract. The article is devoted to the development of a tool for pre-trial resolution of tax disputes. An analysis of regulatory legal acts providing for mandatory pre-trial dispute resolution is conducted. The article examines the positive and negative aspects of settling tax disputes, which not only ensures the protection of taxpayer rights, but also avoids unnecessary financial, time and reputational losses.

Keywords: Tax dispute, pre-trial settlement of tax disputes, protection of taxpayers' rights, regulations for consideration of tax disputes, appeal.

РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ

Буранова Лола Вахобовна
доцент кафедры "Налоги и налогообложение"
Ташкентского Государственного Экономического Университета

Арипова Азиза
преподаватель кафедры "Налоги и налогообложение"
Ташкентского Государственного Экономического Университета

Аннотация. Статья посвящена развитию инструмента досудебного разрешения налоговых споров. Проведен анализ нормативно-правовых актов, предусматривающих обязательный досудебный порядок урегулирования споров. Рассматриваются положительные и отрицательные стороны урегулирования налоговых споров, которые позволяет не только обеспечить защиту прав налогоплательщика, но и избежать излишних финансовых, временных и репутационных потерь.

Ключевые слова: налоговый спор, урегулирование налоговых споров в досудебном порядке, защита прав налогоплательщиков, регламент рассмотрения налоговых споров, обжалование.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N12

Введение. Развитие инструмента досудебного разрешения налоговых споров в Узбекистане представляет собой важный элемент налоговой реформы, направленный на снижение конфликтности между налогоплательщиками и налоговыми органами, а

также повышения доверия бизнеса к государству. Минимизация конфликтных ситуаций с налогоплательщиками является важной задачей, поставленной перед Налоговыми органами и Палатой налоговых консультантов Узбекистана. Национальный стандарт налогового консультирования (НСНК №4) «Представительство интересов клиента (доверителя) в ходе досудебного урегулирования налогового спора и в суде» [2] включает следующие направления услуг по налоговому консультированию на представительство интересов клиента (доверителя) в ходе досудебного урегулирования налогового спора:

- Анализ соответствия требованиям законодательства материалов налоговой проверки, порядка их рассмотрения, а также решения органа государственной налоговой службы по результатам рассмотрения материалов налоговой проверки;
- Разработку правовой позиции для обжалования решения органа государственной налоговой службы;
- Подбор документов, подтверждающих позицию клиента (доверителя);
- Составление и подачу жалобы на решение органа государственной налоговой службы в вышестоящий орган государственной налоговой службы;
- Представление интересов клиента (доверителя) в вышестоящих органах государственной налоговой службы при рассмотрении жалобы на решение органа государственной налоговой службы.

Данный порядок подачи устанавливает ведение регламента рассмотрения налоговых споров, механизм уведомления сторон. Также имеется Постановление министерства финансов №16 и Государственного налогового комитета № 2019-09 «Об утверждении Регламента рассмотрения налоговых споров Советом досудебного урегулирования налоговых споров между налогоплательщиками и органами государственной налоговой службы при Министерстве финансов Республики Узбекистан» от 21 февраля 2019 года [5, 6] утверждающий регламент рассмотрения налоговых споров Советом досудебного урегулирования налоговых споров между налогоплательщиками и органами государственной налоговой службы.

В ходе исследования мы рассмотрели Постановления Кабинета министров Республики Узбекистан № 812 «Об организации деятельности совета досудебного урегулирования налоговых споров между налогоплательщиками и органами государственной налоговой службы при Министерстве финансов Республики Узбекистан» от 09.10.2018 года [4] где утверждается состав Совета досудебного урегулирования налоговых споров между налогоплательщиками и органами государственной налоговой службы основными функциями которого являются рассмотрение жалоб налогоплательщиков, выдача рекомендаций налоговым органам и экспертиза налоговых решений.

Актуальность исследования заключается в том, что досудебное разрешение налоговых споров:

Во-первых – снижает нагрузку на судебную систему – разрешение конфликтов на ранней стадии;

Во-вторых – минимизация финансовых и временных затрат для ведения деятельности хозяйствующих субъектов;

В-третьих – повышение налоговой дисциплины и доверия к налоговым органам;

В-четвёртых – создание прозрачной и справедливой налоговой среды;

В-пятых – предотвращение банкротства компаний из-за ошибочных начислений налогов.

Для дальнейшего анализа рассмотрим досудебный порядок урегулирования налоговых споров направленные на раскрытие как действующих нормативно-правовых актов, так и практических проблем его организационно- правового обеспечения.

Анализ изученности проблемы. На данный момент в Налоговом Кодексе Республики Узбекистан отсутствует понятие «Налоговый спор». Однако используются такие термины, как «Налоговое обжалование» и «Жалоба», которые закреплены в статьях 230–236. Несмотря на это, многие исследователи продолжают работу над точным определением данного понятия.

С.Овсянников рассматривает налоговый спор, как протекающий в установленный законом форме и разрешаемый компетентными государственными органами юридических споров между государством и налогоплательщиками связанные с исчислением и уплатой налогов [9].

Исследователь Д.Белоус рассматривает, досудебное урегулирование налоговых споров, как способ защиты прав налогоплательщиков в эпоху цифровизации, где актуальности уделяет порядку досудебного урегулирования налоговых споров, который позволяет не только обеспечить защиту прав налогоплательщиков, но и избежать излишних финансовых, временных и репутационных потерь [10].

Вопросы порядка и способов разрешения налоговых споров рассматриваются чаще всего через призму защиты прав налогоплательщиков. Российские исследователи такие как Ю.А. Крохина, С.Г. Пепеляев, А.А. Тедеев, Н.И. Химичева в своих трудах изучали проблемы налоговых споров.

Зарубежный опыт в сфере досудебного разрешения налоговых споров показывает, что в некоторых зарубежных странах досудебное урегулирование налоговых споров обязателен, и соответственно, большинство налоговых споров в этих странах рассматриваются в досудебном порядке.

Узбекский исследователь Т.Исмаилов рассматривал на законодательном уровне закрепить процедуру апелляционной жалобы и механизм его урегулирования, а также предложил установить процедуру досудебного рассмотрения налоговых споров обязательным [7].

А.Хайрулина исследовала применение некоторых видов альтернативного разрешения налоговых споров в Узбекистане, перспективы развития, а также текущее состояние данного института. Ею отмечается, экспертное заключение обычно происходит быстрее и экономичнее, чем судебный процесс или арбитраж, что в очень сложных экономических условиях, в которых находится мир, может быть особенно привлекательным для сторон спора [8].

Это дает дополнительные преимущества, так как позволяет коммерческим отношениям продолжаться без обычных разрывов, которые часто возникают, когда стороны участвуют в официальных разбирательствах по спорам друг с другом.

Методология исследования. В процессе исследования, были использованы комплексные методы, включающие как общенаучные, так и специальные методы

исследования. Основу статьи составили сравнительно-правовой анализ, системный анализ позволяющий охарактеризовать инструменты досудебного разрешения налоговых споров Узбекистана, выявить ключевые проблемы и направления совершенствования и сравнить их с международным опытом.

Анализ и результаты. Повышение эффективности налогового администрирования отражается в стремлении государства в развитие инструмента досудебного разрешения налоговых споров. В Узбекистане за последние годы были предприняты значительные шаги в этом направлении, как важное направление реформ налоговой системы, которое направлено на оперативное, гибкое и недорогое урегулирование разногласий между налоговыми органами и налогоплательщиками без необходимости обращения в суд. То есть, Налоговое законодательство предусматривает возможность решать споры по налоговым делам, не обращаясь в суд. Тем более, что любые действия и акты ненормативного характера должностных лиц налоговых органов, затрагивающие интересы налогоплательщика, могут быть обжалованы ч. 1 ст. 230 НК.

Рисунок-1. Этапы развития досудебного урегулирования налоговых споров

К примеру, по результатам проверки налоговый орган решил доначислить налоги, пени и штрафы в размере 138 млн сум. Предприятию было отказано в налоговых вычетах по НДС и учете расходов по налогу на прибыль, так как у налогового органа были следующие претензии:

- наличие хозяйственных отношений с контрагентами, обладающими признаками компаний-однодневок;
- фиктивный документооборот;
- отсутствие признаков реальности сделок.

Предприятие самостоятельно инициировало налоговый спор. Главный бухгалтер с налоговым консультантом и адвокатом изучили документы проведенной проверки и обоснованность акта проверки налогового органа. Собрали дополнительные доказательства реальности сделок в виде первичных документов, записей номеров

машин на проходной предприятия, которыми вывозился товар, показаний водителей этих машин, указали факты оправданности расходов, подготовили письменные возражения.

Территориальный налоговый орган, изучив документы и возражения, выслушал представителей организации, опросил водителей машин, после чего согласился с доводами налогоплательщика о необоснованности части предъявленных претензий и отказался от 75 % доначислений.

Но налогоплательщик не согласился с частичным снятием обвинений. Поэтому в вышестоящий налоговый орган была направлена жалоба и приложены все документы, доказывающие правоту проверяемого налогоплательщика. По итогам рассмотрения жалобы вышестоящим налоговым органом решение территориальной налоговой было отменено полностью. Так предприятию удалось еще на досудебной стадии урегулировать спор, защитить свои активы и не тратиться на оплату госпошлины и судебных издержек.

Как мы видим, есть реальная возможность решать споры по налоговым делам, не обращаясь в суд.

Главная сложность для бухгалтера и особенность разрешения налоговых споров заключаются в том, что одной из сторон конфликта всегда является государство в лице налогового органа. Несмотря на то, что бремя доказывания обстоятельств, свидетельствующих о налоговом правонарушении, и виновности лежит на налоговом органе, тот факт, что налоговый орган представляет интересы государства, усложняет весь процесс как для бухгалтера, так и для предприятия в целом. Поэтому к таким спорам, если вопрос сложный, целесообразно привлекать налоговых консультантов и квалифицированных юристов, специализирующихся на налоговом законодательстве.

Конфликты, инициированные налоговыми органами, чаще всего связаны с неуплатой, не полной уплатой или нарушением сроков уплаты налогов, а также с неправильностью определения налогооблагаемой базы, реже – с правильностью применения льгот и различных преференций. Субъекты предпринимательства, как налогоплательщики, имеют гораздо больше оснований для инициирования налоговых споров.

На практике налогоплательщики, как правило, просят:

- признать акт ненормативного характера незаконным;
- отменить вынесенное решение об уплате налогов, штрафов и пени;
- признать незаконными действия или бездействие налоговых органов;
- возместить причиненный ущерб незаконной проверкой или нарушениями порядка проведения проверки;
- привлечь к ответственности должностных лиц налогового органа за незаконное вмешательство в предпринимательскую деятельность.

Таким образом, инициировать спор могут как налогоплательщики, так и налоговые органы.

Рисунок 2. Преимущества досудебного урегулирования налоговых споров для налогоплательщика

Досудебный порядок урегулирования налоговых споров можно разделить на несколько этапов:

направление жалобы заявителем в налоговый орган, решение которой обжалуется. Такой порядок обязателен в случае обжалования результатов выездной проверки или налогового аудита ст. 232 НК. В иных случаях жалобу можно подать напрямую в вышестоящий налоговый орган с обязательным извещением налогового органа, решение или действия которого обжалуются ст. 231 НК;

направление налоговым органом, решения которого обжалуются, поступившей жалобы со всеми материалами в вышестоящий налоговый орган в течение 3 дней со дня ее поступления ст. 232 НК;

сообщение заявителю, если жалоба оставлена без рассмотрения. Решение об этом принимается в течение 5 дней и направляется налогоплательщику в 3-дневный срок.

подготовка к рассмотрению жалобы. В рамках подготовки налоговый орган может по своей инициативе или по ходатайству обращающегося лица организовать его заслушивание ст. 235 НК;

предоставление налогоплательщиком при необходимости дополнительных материалов или документов с обязательным пояснением причины, почему он не сделал этого раньше ч. 5 ст. 235 НК;

рассмотрение жалобы налоговым органом и принятие по ней обоснованного решения ст. 235 НК;

информирование заявителя о принятом решении в 3-дневный срок со дня принятия решения ст. 235 НК.



К форме и содержанию жалобы предъявляются определенные требования, несоблюдение которых влечет отказ в ее принятии.

Жалоба и прилагаемые к ней документы могут быть направлены налоговому органу в письменном или электронном виде ст. 233 НК. Жалоба подписывается директором или его представителем, представительство которого должно быть надлежаще оформлено, и копия доверенности приложена к пакету документов.



Рисунок 3. Основные требования содержания жалобы предоставляемая в налоговые органы

Налоговый орган рассматривает жалобу по существу и принимает по ней окончательное решение не позднее ст. 235 НК:

месяца с возможностью дополнительного продления срока не более чем на 15 рабочих дней, если обжалуется решение по результатам выездной проверки или налогового аудита;

15 дней с возможностью дополнительного продления срока не более чем на 15 рабочих дней – во всех остальных случаях.

Урегулирование налоговых споров завершается одним из следующих возможных вариантов ст. 235 НК:

- ✓ жалоба остается без удовлетворения;
- ✓ акт налогового органа ненормативного характера отменяется;
- ✓ решение налогового органа отменяется полностью или частично;
- ✓ решение налогового органа отменяется полностью и по делу принимается новое решение;
- ✓ действия (бездействие) должностных лиц налоговых органов признаются незаконными и выносится решение, по существу.

Если хозяйствующий субъект не удовлетворен решением вышестоящего налогового органа, то может с этим спорным вопросом обратиться в суд.

Но, необходимо знать, что Вышестоящий налоговый орган оставляет жалобу без рассмотрения, если установит, что ст. 234 НК:

жалоба не подписана лицом, подавшим жалобу или его представителем, либо не представлены оформленные в установленном порядке документы, подтверждающие полномочия представителя на ее подписание;

жалоба подана после истечения срока, предусмотренного для ее подачи, и не содержит ходатайства о восстановлении пропущенного срока либо в этом ходатайстве отказано;

до принятия решения по жалобе от подавшего ее лица поступило заявление об отзыве жалобы полностью или частично;

ранее подана жалоба по тем же основаниям;

жалоба подана на решение налогового органа, которое ранее уже было обжаловано;

жалоба подана с нарушением определенного порядка ст. 232 НК;

жалоба не оформлена в соответствии с определенными требованиями ст. 233 НК;

жалоба подана в рамках возбужденного уголовного дела или при обращении налогоплательщика в суд по вопросу жалобы.

Таблица -1

Динамика урегулирования налоговых споров за 2022-2024 годы

Годы	Количество жалоб	Общая сумма споров (млрд сумов)	Удовлетворено в пользу налогоплательщиков (кол-во / сумма)	Решения налоговых органов оставлены в силе (кол-во / сумма)	В процессе рассмотрения (кол-во / сумма)
2022	198	813	28/79	150/620,1	20/114
2023	211	875	25/92	175/669,3	11/113,4
2024	946	946	30/106	180/710,2	15/130,1

Анализ тенденций.

1. Рост количества жалоб: наблюдается постепенное увеличение числа обращений, что может свидетельствовать о повышении правовой грамотности налогоплательщиков и доверии к институту досудебного урегулирования.
2. Увеличение общей суммы споров: Рост сумм может быть связан с расширением бизнеса и увеличением масштабов хозяйственной деятельности.
3. Стабильность в удовлетворении жалоб: Процент удовлетворённых жалоб остаётся относительно стабильным, что указывает на последовательность в принятии решений.
4. Снижение количества нерешённых дел: Снижение числа жалоб в процессе рассмотрения говорит о повышении эффективности работы ГНК [2].

Данные за 2022–2024 годы демонстрируют положительную динамику в развитии досудебного урегулирования налоговых споров в Узбекистане. Увеличение количества обращений и рост сумм споров свидетельствуют о возросшей активности налогоплательщиков и доверии к системе. Стабильность в удовлетворении жалоб и снижение количества нерешённых дел указывают на эффективность работы налоговых органов в этом направлении.

Заключение и предложения. Досудебный механизм урегулирования налоговых споров выгодно отличается от судебного процесса своей гибкостью, оперативностью и экономической целесообразностью. Важнейшей задачей остается повышение уровня осведомленности налогоплательщиков, в том числе в правовой, финансовой и цифровой сферах. Достичь этого можно за счет образовательных программ, распространения информации через СМИ и внедрения современных цифровых решений, направленных на защиту прав налогоплательщиков и минимизацию спорных ситуаций.

Досудебное урегулирование налоговых споров играет ключевую роль в повышении прозрачности и эффективности налоговой системы.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Налоговый Кодекс Республики Узбекистан https://lex.uz/uz/docs/4674893#4695700
2. Национальный стандарт налогового консультирования (НСНК №4) «Представительство интересов клиента (доверителя) в ходе досудебного урегулирования налогового спора и в суде» ПРИЛОЖЕНИЕ к приказу министра финансов Республики Узбекистан от 14 октября 2013 года N 95, рег. МЮ РУз 18.11.2013 г. N 2526
3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3802 "О мерах по коренному совершенствованию деятельности органов государственной налоговой службы", от 26.06.2018 г.
4. Постановления Кабинета министров Республики Узбекистан № 812 «Об организации деятельности совета досудебного урегулирования налоговых споров между налогоплательщиками и органами государственной налоговой службы при Министерстве финансов Республики Узбекистан» от 09.10.2018
5. Постановление министерства финансов №16 и Государственного налогового комитета № 2019-09 «Об утверждении Регламента рассмотрения налоговых споров Советом досудебного урегулирования налоговых споров между налогоплательщиками и органами государственной налоговой службы при Министерстве финансов Республики Узбекистан» от 21 февраля 2019 года

6. Постановление Государственного налогового комитета № 2019-09 «Об утверждении Регламента рассмотрения налоговых споров Советом досудебного урегулирования налоговых споров между налогоплательщиками и органами государственной налоговой службы при Министерстве финансов Республики Узбекистан» от 21 февраля 2019 года
7. Исмаилов Т. (2016). Совершенствование досудебного урегулирования налоговых споров на опыте зарубежных стран. Экономика и инновационные технологии, (3), 170–177. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/8801
8. Хайрулина, А. (2022). Альтернативные способы разрешения споров: современные механизмы защиты прав граждан в законодательстве Узбекистана. Общество и инновации, 3(6/S), 167–179. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss6/S-pp167-179
9. Овсянниокв С.В. Налоговые споры в арбитражном суде: общая характеристика // Правоведение. 1996. №3. С. -143-155
10. Белоус Д.М. Досудебное урегулирование налоговых споров, как способ защиты прав налогоплательщиков в эпоху цифровизации // Международный научный журнал «Флагман науки» №6(17) июнь 2024. www.flagmannauki.ru DOI 10.37539/2949-1991.2024.17.6.029

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF APPLYING THE PRINCIPLES OF THE "GREEN" ECONOMY IN ENTERPRISE MANAGEMENT

Makhkamov Navruzjon Tukhtamishovich
Senior Teacher at the Samarkand Regional Branch
of the Academy of Public Policy and Administration
under of the President of the Republic of Uzbekistan,
(PhD),
E-mail: n.makhkamov@dba.uz

Abstract. This article explores the process of implementing the principles of the "green" economy in enterprises and their significance in enterprise management. It analyzes the core principles of the green economy, the challenges faced in their practical application, and the opportunities they present. Special attention is given to the economic, social, and environmental impacts of adopting these principles. Additionally, the article examines both national and international experiences that support the development of a green economy. The main objective is to identify the key directions necessary for adopting and effectively utilizing green economy principles.

Keywords: green economy, ecological safety, social protection, environmental sustainability, energy efficiency, energy saving, economic stability.

KORXONALAR BOSHQARUVIDA "YASHIL" IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH AHAMIYATI

Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
Samarqand hududiy filiali katta o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash jarayoni va uning korxona boshqaruvidagi o'rni o'rganiladi. Maqolada «yashil» iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, ularni amaliyotga tatbiq etishda duch kelinayotgan muammolar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ushbu tamoyillarni qo'llashning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada shuningdek, «yashil» iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beruvchi milliy va xalqaro tajribalar ham o'rganilgan. Maqsad, «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini o'zlashtirish va ulardan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashdir.

Kalit so'zlar: «yashil» iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy himoya, ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi, energiya tejamkorligi, iqtisodiy barqarorlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N13

Kirish. Jahon iqtisodiyotida ekologik toza ishlab chiqarish va barqaror rivojlanish tamoyillari ko'lamli qo'llanila boshladi. «Yashil» iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash jarayoni nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga ham xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etishga katta e'tibor qaratmoqda. «2022-yil 2-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

PQ-436-son «2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorda 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida «yashil» va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsad qilingan». [8, 1-b]

«O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yil 30-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 800-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasi, jumladan quyidagilarni nazarda tutadi:

«yashil» iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish asoslari;

milliy shaffoflik tizimining maqsadlari va tamoyillari;

milliy shaffoflik tizimini joriy etishda institutsional va tashkiliy chora-tadbirlar;

milliy shaffoflik tizimida ochiq ma’lumotlar almashinuvi va resurslar ta’minoti». [9, 1-b]

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasining II bo‘limi «Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash» deb nomlanib, unda 6 ta maqsad «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etishga qaratilgan. Jumladan,

«yashil iqtisodiyot»ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish;

«yashil energiya» texnologiyalarini keng joriy qilish;

ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish;

«yashil makon» umummilliy loyihasini kengaytirish;

Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish;

iqlim o‘zgarishi salbiy ta’sirining oldini olish». [10, 13,16,24-26-b]

Adabiyotlar tahlili. «Yashil» iqtisodiyot tamoyillari sohasida xalqaro va mahalliy olimlarning bir qancha tadqiqotlari mavjud. Bu olimlarning izlanishlari «yashil» iqtisodiyotning nazariy asoslarini yaratishda va uning amaliyotga tatbiq etilishini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro miqyosda eng ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘lgan manbalardan biri sifatida, «Yashil iqtisodiyot: Xalqaro nazariya va amaliyot» (UNEP, 2025) hisobotini keltirish mumkin. Bu hisobotda «yashil» iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘rta va kichik biznesda «yashil» iqtisodiyotning tatbiq etilishi bo‘yicha xalqaro tajribalar ko‘rsatilgan». [11, 14-b]

Xalqaro tadqiqotlarda, masalan, «Stern tomonidan yozilgan «Stern hisoboti»da iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Sternning fikricha, «yashil» iqtisodiyot o‘sishning yangi shaklini taklif etadi, u ekologik barqarorlikni ta’minlash bilan birga iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi. Agar mamlakatlar «yashil» iqtisodiyotga

asoslangan rivojlanishga intilsalar, bu ularning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi». [7, 44-b]

Mahalliy tadqiqotlarda ham «yashil» iqtisodiyot tamoyillarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinmoqda. O‘zbekistonlik olimlar, O‘zbekiston sharoitida ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslarni boshqarishning ahamiyatini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, o‘zbek olimlari tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar, O‘zbekistonda «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilishdagi asosiy muammolarni aniqlashga qaratilgan. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta’minlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun «yashil» iqtisodiyotning tatbiq etilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari «yashil» iqtisodiyotga o‘tish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, izlanishlar, mamlakatda resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha yillar davomida amalga oshirilgan tadbirlar o‘z mevasini bera boshlaganini, ammo tizimli o‘zgarishlarga erishish uchun hali ko‘proq ishlar qilinishi kerakligini ko‘rsatadi.

M.Porter va S.Van Der Lindelarning fikricha: «Yashil» strategiyalar korxonalarga resurslarni tejash va yangi bozorlarni egallash imkoniyatini beradi». [6, 130-b]

L.Chjan, M.Syuy, X.Chen, I.Li va S.Chenlarning fikricha: «O‘rmonlar, texnologik yutuqlar, energiya samaradorligi, sanoatning o‘sishi, iqtisodiy ochiqlik va bular kabi boshqa elementlar iqlim o‘zgarishiga ta’sir qilishi mumkin. Xalqaro savdo, texnologik rivojlanish va sanoatlashtirish energiya bilan bog‘liq issiqxona gazlari emissiyasining asosiy omillari hisoblanadi». [14, 8-b]

YE.Rogatnix, M.Serdunlar ta’kidlashicha: «Yashil iqtisodiyotga o‘tish allaqachon aniq belgilangan rivojlanish tendensiyasiga aylangan. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan ularning yashil o‘sish yo‘lidagi harakatlarini qay darajada tashkil eta olishi bilan belgilanadi. Yashil o‘sishga o‘tish nafaqat yangi ekologik toza texnologiyalarni yaratishni, balki milliy va xalqaro darajada ekologik qonunchilikni ishlab chiqishni ham talab qiladi, uning qoidalari inklyuziv bo‘lib, dunyoning barcha mamlakatlari va mintaqalari iqtisodiyotining rivojlanish ehtiyojlarini hisobga oladi». [2; 30-b.]

S.Kozlovga ko‘ra: «Yashil» iqtisodiyotni rivojlantirish vositasi bo‘lgan «yashil» investitsiyalar, bir paytning o‘zida, jarayonni sekinlashtiruvchi omil ham bo‘lishi mumkin. Chunki, bunday investitsiyalarni jalb qilish uchun yaratilgan va “yashil” iqtisodiyot talablariga javob beradigan loyihalar sarmoyani qaytarishning shubhali shartlari tufayli investorlar uchun jozibador ko‘rinmaydi». [12, 62-63-b]

A.Isadjanovning fikricha: «Katta e’tibor “ekologik innovatsiya”larga qaratilishi lozim, ya’ni ishlab chiqarish, mahsulot yaratishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari, shartlari va boshqaruvida hamda biznes yuritish usullarida atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish yoki resurslardan optimal foydalanishdir». [1; 17-b.]

M.Abdurashidovaning fikricha: «yashil» texnologiyalarni ommaviy joriy etish uchun umumiy institutsional muhit qulay emas. Sohaga yo‘naltirilayotgan mablag‘larni ko‘paytirish uchun resurslar ajratish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini boshqarishni takomillashtirishga e’tibor qaratish zarur. Ko‘proq investorlar va loyihalarni o‘z ichiga olishi va yangi toza qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun yanada qulay shart-sharoitlarni ta’minlash uchun subsidiyalar, narxlar va boshqa rag‘batlantirish vositalari qayta ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lishi mumkin». [5, 78-b]

E.Muminova ta’kidlaydiki, «har bir mamlakat o‘z iqtisodiy, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqib o‘z “yashil” iqtisodiyotini yaratadi, chunki hozirgacha universal “yashil” iqtisodiyot modeli mavjud emas. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, innovatsion tarmoqlarni rivojlantirish sharoitida “yashil” iqtisodiyotning o‘rnini yuqori baholash mumkin. Respublikamizning quyosh energiyasi bo‘yicha yalpi salohiyati 50 973 million tonna neft ekvivalentiga, shamol energiyasining yalpi salohiyati esa 2,2 mln. tonna neft ekvivalentga teng deb baholangan». [3; 22-b.]

F.Umarov o‘z tadqiqotlarida bildirishicha: «Yashil iqtisodiyot tomonidan taklif qilingan maqsadlarga erishish uchun taklif etilayotgan muqobil omillar zarur iqtisodiy resurslarni taqsimlash, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini yanada qat’iylashtirish, subsidiyalar yaratish, atrof-muhit bilan do‘stona faoliyat yuritish orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qabul qilinishi va hududni rejalashtirish jarayonlarini optimallashtirishi kerak». [4; 88-b.]

SH.Egamnazarovning fikriga ko‘ra: «rivojlanayotgan Yashil investitsiya bozoridan kapital jalb qilish uchun Yashil obligatsiyalar chiqarilishi O‘zbekistonning atrof-muhitga zararli ta’sirini kamaytirish, yanada samaraliroq o‘sish orqali sezilarli va aniq o‘sishga yo‘naltirilgan barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga erishishga intilishining yana bir tasdig‘idir». [13, 71-b]

Shunday qilib, xalqaro va mahalliy tadqiqotlar, «yashil» iqtisodiyotning iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq, bu tamoyillarni joriy etish uchun ko‘p hollarda innovatsion yondashuvlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarur bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini korxonalarda qo‘llash jarayonini o‘rganish uchun bir nechta ilmiy metodologiyalar qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi ikki asosiy yo‘nalishga bo‘lingan: hujjatlarni tahlil qilish va so‘rovnoma o‘tkazish.

Hujjatlarni tahlil qilish usuli orqali mamlakatimizda va xalqaro miqyosda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, qarorlar va davlat dasturlarining mazmuni o‘rganildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish dasturlari va boshqa tegishli qonun hujjatlari tadqiqotning asosiy manbasi bo‘lib xizmat qildi. Ushbu hujjatlar asosida «yashil» iqtisodiyot tamoyillarining mamlakatimizda qanday qo‘llanilishi va amaliyotga tatbiq etilishi tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usulidan foydalanib, O‘zbekiston tajribasi xalqaro tajribalar bilan solishtirildi. Bu jarayonda Xitoy, Koreya, Germaniya, Rossiya kabi mamlakatlarning «yashil» iqtisodiyotga o‘tishdagi muvaffaqiyatlari va ularning iqtisodiy va ekologik natijalari o‘rganildi. Xalqaro tajriba orqali O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligini baholashga imkon yaratildi.

So‘rovnoma va intervyular usulidan ham foydalanildi. Mahalliy korxonalarda faoliyat yuritayotgan menejerlar va soha mutaxassislari orasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada qatnashgan shaxslar «yashil» iqtisodiyot tamoyillarining tatbiqi, mavjud imkoniyatlar va muammolar haqida fikr bildirdilar. Ushbu usul yordamida korxonalarda «yashil» iqtisodiyotning amaliyotga tatbiq etilishi bo‘yicha real holat va muammolar o‘rganildi.

Statistik tahlil usulidan foydalanib, olingan ma’lumotlar tahlil qilindi. Bu usul yordamida so‘rovnoma va intervyulardan olingan javoblar o‘rganilib, ularning natijalari umumlashtirildi

va tahlil qilindi. Bu tahlil O‘zbekistondagi korxonalarda «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llash jarayonining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston korxonalarida «yashil» iqtisodiyot tamoyillarining qanday qo‘llanilayotganini va bu jarayonning samaradorligini baholashdir. Tadqiqot natijalari, bir tomondan, hukumatning «yashil» iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha qabul qilgan qarorlari va strategiyalarining amaliyotdagi ahamiyatini ko‘rsatgan bo‘lsa, boshqa tomondan, korxonalar tomonidan yuzaga kelayotgan muammolarni ham ochib berdi.

Korxonalarda «yashil» iqtisodiyot tamoyillarining tatbiqi bo‘yicha so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, korxonalar ekologik xavfsizlikni ta’minlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. Biroq, so‘rovnomada ishtirok etganlarning 60% dan ortig‘i, «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etishda moliyaviy va texnologik cheklovlar borligini ta’kidladi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari ekologik texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarni jalb qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Bundan tashqari, tahlil qilingan davlat dasturlari va qarorlar asosida, «yashil» iqtisodiyotga o‘tishning samaradorligi yuqori darajada ekanligi ko‘rindi. O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilgan ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashdagi qadamlar samarali natijalarga olib kelmoqda. Masalan, «Yashil iqtisodiyot konsepsiyasini 2030 yilgacha joriy etish» dasturi doirasida energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha muhim yutuqlarga erishildi.

Xalqaro tajribani hisobga olgan holda, O‘zbekistonda «yashil» iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi nafaqat ekologik barqarorlikka, balki iqtisodiy o‘sishga ham olib kelishi mumkin. Masalan, Germaniya va Koreya Respublikasi tajribasidan kelib chiqqan holda, ekologik infrastrukturani rivojlantirish va yangi, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha amalga oshirilgan loyihalar iqtisodiy jihatdan foydalidir. Biroq, O‘zbekistonda bu jarayonni yanada tezlashtirish uchun moliyaviy resurslarni ko‘paytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarur.

Korxonalarda mavjud muammolar orasida eng katta qiyinchiliklardan biri — ekologik texnologiyalarni joriy etishdagi yuqori boshlang‘ich xarajatlar va zarur bo‘lgan investitsiyalarni jalb qilishdagi qiyinchiliklardir. Ko‘plab korxonalar «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq qilishda moliyaviy resurslarning yetishmasligi, texnologik infratuzilmaning zaifligi va mutaxassislarning yetishmasligi kabi muammolarga duch kelmoqda.

Shu bilan birga, korxonalarda ekologik innovatsiyalarni qo‘llashning afzalliklari ham mavjud. Masalan, ekologik toza texnologiyalarni tatbiq etish orqali korxonalar resurslardan samarali foydalanishni va chiqindilarni kamaytirishni amalga oshirishmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga imkon yaratadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llash jarayoni tobora muhimroq bo‘lib bormoqda. Ushbu jarayon nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatda «yashil» iqtisodiyotga o‘tishning samaradorligini ta’minlash uchun hukumat tomonidan qabul qilingan dasturlar va strategiyalar

ijobiy natijalarga olib kelmoqda. Biroq, bu jarayonni yanada tezlashtirish va samarali amalga oshirish uchun ko‘plab chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Xulosa: Birinchidan, O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan «Yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha dastur» va boshqa ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan qarorlar, «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishda ijobiy natijalarga olib keldi. Davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy yordam, korxonalarning ekologik texnologiyalarni tatbiq etishdagi muvaffaqiyatini ta’minlamoqda.

Ikkinchidan, korxonalarda «yashil» iqtisodiyot tamoyillarining tatbiqi nafaqat ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy o‘sishni ta’minlamoqda. Ko‘plab korxonalar resurslardan samarali foydalanishni va chiqindilarni kamaytirishni amalga oshirgan, bu esa ularning xarajatlarini qisqartirgan va raqobatbardoshligini oshirgan.

Biroq, tadqiqotda aniqlanganidek, korxonalar ekologik texnologiyalarni joriy etishda yuqori boshlang‘ich xarajatlar va zarur bo‘lgan investitsiyalarni jalb qilishdagi qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu muammoni hal qilish uchun davlat tomonidan qo‘llaniladigan subsidiyalar, imtiyozlar va moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish zarur.

Takliflar. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish: «Yashil» iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirish uchun davlat tomonidan korxonalarga ekologik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha yanada ko‘proq moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish zarur. Bu uchun ekologik loyihalarni moliyalash uchun maxsus kreditlar va subsidiyalar yaratish mumkin.

Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish: «Yashil» iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etishda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot institutlarini qo‘llab-quvvatlash kerak. Bu texnologiyalar nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishga yordam beradi.

O‘quv va malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish: Korxonalarda ekologik texnologiyalarni tatbiq etishning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun xodimlarning bilim va malakalarini oshirish zarur. Shu sababli, ekologik boshqaruv va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish muhimdir.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: O‘zbekistonning xalqaro hamkorligi, ayniqsa, ekologik innovatsiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, O‘zbekiston uchun tashqi investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni import qilish bo‘yicha yangi strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirish: «Yashil» iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llash jarayonida ekologik xavfsizlik bilan birga ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga alohida e’tibor qaratish kerak. Bu orqali iqtisodiyotning barcha sohalarida barqaror rivojlanish ta’minlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. А.А.Исаджанов, “Яшил иқтисодиёт”: хусусиятлари ва ривожланиш омиллари. Иқтисодиёт ва таълим / 2020 № 1, 12-18 б.
2. Е.Рогатных, М.Сердунь, Зеленая экономика и ее влияние на экономическое развитие в XXI веке // Российский внешнеэкономический вестник. 2022. №3. 18-32 с. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-i-ee-vliyanie-na-ekonomicheskoe-razvitie-v-hhi-veke. doi:10.24412/2072-8042-2022-3-18-32
3. Э.Муминова, Яшил иқтисодиёт барқарор ривожланиш механизми сифатида // Экономика и финансы (Узбекистан). 2023. №1 (161). 16-22 б. URL:

https://cyberleninka.ru/article/n/yashil-i-tisodiyot-bar-aror-rivozhlanish-mehanizmi-sifatida.
4. Ф.Умаров, Ўзбекистонда яшил иқтисодиётда яшил инвестиция самарадорлигини оширишнинг умумий жиҳатлари // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 24, 2023, 83-88 б. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-yashil-i-tisodiyotda-yashil-investitsiya-samaradorligini-oshirishning-umumiy-zhi-atlari.
5. М.Абдурашидова, Переход топливно-энергетического сектора к условиям «зеленой» экономики. Biznes-Эксперт. № 10, 2021. УДК: 332.142.4. с. 76-79.
6. M.E. Porter, C. van der Linde, «Green and Competitive: Ending the Stalemate», Harvard Business Review, September-October, 1995, pp. 120–134.
7. Обзор доклада Николаса Стерна «Экономика изменения климата» / Кокорин А. О., Кураев С. Н. WWF, GOF. – М.: WWF России, 2007. – 50 с. chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/ https://infoclimate.org/wp-content/uploads/2009/11/stern-energy-screen.pdf
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 декабрдаги ПҚ-436-сон «2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислоҳотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори, https://lex.uz/docs/6303230
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 30 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикасида «яшил» иқтисодиётга ўтишда миллий шаффофлик тизимини жорий этиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 800-сон қарори, https://www.lex.uz/docs/7245895
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида» ПФ-158-сон Фармони, https://lex.uz/ru/docs/6600413
11. Программа ООН по окружающей среде. 2025. Мы все в этом вместе - Ежегодный отчет 2024. https://wedocs.unep.org/20.500.11822/47082
12. С.Козлов, «Зеленая» экономика, как фактор устойчивого развития региона // Вестник НГИЭИ. 2020. №4 (107). 55-65 с. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-kak-faktor-ustoychivogo-razvitiya-regiona doi:10.24411/2227-9407-2020-10036
13. Sh.Egamnazarov, Яшил иқтисодиёт концепцияси ва унинг шаклланиш хусусиятлари // Central Asian Journal of Education and Innovation, vol. 3, no. 6-2, 2024, 67-72 б. doi:10.5281/zenodo.12187419 URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yashil-i-tisodiyot-kontseptsiyasi-va-uning-shakllanish-hususiyatlari.
14. Zhang L, Xu M, Chen H, Li Y and Chen S (2022) Globalization, Green Economy and Environmental Challenges: State of the Art Review for Practical Implications. Front. Environ. Sci. 10:870271. doi: 10.3389/fenvs.2022.870271

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

THE EDUCATION OF STUDENTS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM IS A PRIORITY OF STATE POLICY

Saidov Khakim Gafurovich
Associate Professor,
Department of National Idea and Philosophy
Urgench State Pedagogical Institute

Abstract. The article highlights the relevance of educating young people in the spirit of patriotism, its central role in state policy, the key aspects of ongoing reforms in this area, as well as the traditional and modern methods of fostering military-patriotic education among youth in the context of globalization.

Keywords: educating in the spirit of patriotism, state policy, youth, reforms, Strategy directions, youths union, military-administrative sector, globalization, morale, traditional and modern methods.

TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA

Saidov Xakim G‘afurovich
Urganch davlat pedagogika institute
Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi dotsenti
E-mail: saidovakim654@gmail.som

Annotatsiya. Maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasining dolzarbligi, davlat siyosati markazida turganligi, bu borada olib borilayotgan islohotlarning muhim jihatlari hamda globallashuv jarayonida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning an’anaviy va zamonaviy usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, ruhida tarbiyalash, davlat siyosati, yoshlar, islohat, harakatlar strategiyasi, yoshlar ittfoqi, harbiy-ma’muriy sector, globalizatsiya, ahloq, an’anaviy va zamonaviy usullar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N14

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Barchamizga yaxshi ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi” . Har qanday ishda vatanparvarlik hissi namoyon bo‘lishi kerak. Chunonchi, davlatimiz ramzlari, milliy qadriyat va an’analarimiz, tarixiy obidalar va qadamjolarimiz shular jumlasidandir. Demak, vatanparvarlik – o‘z Vatani va ona yeriga muhabbat; uning tarixi, madaniyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilish; har bir insonning o‘z kuchiga ishonchi va butun jamiyatning birdamligi; o‘z mamlakati tarixiga aloqadorligi va kelajagi uchun mas’uliyatni his etishi; bir so‘z bilan aytganda o‘z ona Vatani uchun jonbozlik ko‘rsatishidir. Bunday jonbozlik esa yoshlarda ta’lim jarayonida singdiriladi.

Darhaqiqat, bugungi kunga qadar yoshlar orasida vatanparvarlik hissini shakllantirish keyingi o‘rinlarga tushib ketgan edi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Mavzuning o‘rganilganlik darajasi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak avval Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev asarlarida, farmonlarida o‘z aksini topgan va Erkin Yusupov, B.To‘xtayev, A. Xolboyev singari o‘zbek olimlari ish olib borganlar. Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, “Xalq va armiya — bir tan-u, bir jondir!” degan ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas’ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda[1;]. Mamlakatimiz kelajagini belgilashda shijoatli, qat’iy, maqsadni aniq qo‘yib, shu asosda harakat qilayotgan yoshlarning o‘rni katta. Kelajak egalarining barkamol bo‘lib voyaga etishi, ilm-u fan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta egallashi, davr talablari asosida ta’lim va tarbiya olishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishi uchun etarlicha sharoitlar muhayyo etilyapti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi” [2;].

Darhaqiqat, vatanparvarlik yoshlarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas’uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini, faol hayotiy pozitsiya va qat’iy e’tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Bundan unumli foydalangan holda yoshlarimizda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, Ona-yurt taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash, ularni o‘z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rishimizni taqozo qilmoqda.

Vatan ravnaqi g‘oyasi Vatanga daxldorlik hissi mazmunini, har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo‘lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g‘oyadir. U milliy istiqlolning oliy maqsadi O‘zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog‘liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi. Vatanni ardoqlash, e’zozlash va unga xizmat qilish Konstitutsiyamizning 64-moddasida ham mustahkamlab qo‘yilgan. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” [3; Б.25.].

Muhokama va natijalar. Tadqiqotda farmon va qarorlar, o‘zbek olimlarining ilmiy ishlariga, jumladan I.Saidov , S.Samarov, K. Sattarov, G.Maslou va boshqa olimlarning ishlari asosida yondashuvlar keltirilgan.

Vazirlar Mahkamasining 29.06.2023-yildagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-son qarori qabul qilindi.

Hujjat bilan 2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish Kontseptsiyasi tasdiqlangan. Unga ko‘ra yosh bo‘yicha guruhlardan kelib chiqqan holda tadbirlar 5 ta bosqichda amalga oshiriladi:

- I bosqich– 3–7 yosh;

- II bosqich– 7–10 yosh;
- III bosqich – 11–17 yosh;
- IV bosqich– 18– 21 yosh;
- V bosqich – 22 – 30 yosh. [4;].

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash doirasida ular uchun turli musobaqalar, koʻrgazmalar va mas'ul tizim va idoralar vakillari bilan uchrashuvlar tashkillashtiriladi.

Shuningdek:

-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini muvofiqlashtirish uchun hududiy shtablar tashkil etiladi;

-harbiy xizmatchilar tomonidan mahallalarda tashviqot ishlari olib boriladi;

-"Vatan himoyasi" yoshlar va oʻsmirlar harakati hamda harbiy qismlarda Yoshlar ittifoqini faoliyati takomillashtiriladi;

-Uyushmagan va huquqbuzarlik sodir etishga moyil yoshlar uchun "Harbiy qismda bir kun" kabi tadbirlar oʻtkaziladi;

-"Vatanparvar" tashkilotlarida ochiq eshiklar kun oʻtkaziladi;

-sogʻlom turmush tarzi, yot gʻoyalar va jinoyatchilikka qarshi kurashni targʻib qiluvchi hujjatli va badiiy filьmlar namoyish etiladi. Vatanparvarlik ta'limi — bu davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining yoshlar orasida yuqori vatanparvarlik ongini, Vataniga sodiqlikning yuksak tuygʻusini shakllantirish, oʻz fuqarolik burchini bajarishga tayyorlik, eng muhim konstitutsiyaviy Vatan manfaatlarini himoya qilish boʻyicha majburiyatlardir. Vatanparvarlik tarbiyasi jarayonini ona zaminni oʻrganmasdan tasavvur etib boʻlmaydi. Yurtimizdagi turli muzeylariga ekskursiyalar, sayyohlik sayohatlari va piyoda sayohatlar, Vatan va ona zamin tarixi, folklor merosi, tabiat boyligini oʻrganish — bularning barchasi qiziquvchan bolaning ongi uchun juda qiziq, shuningdek, maktab oʻquvchilariga yoshligidan imkon beradi ularning Vatani yer yuzidagi eng yaxshi joy ekanligini, bu yerda tugʻilganligingizdan chinakam faxrlanishingizni anglash. Bugungi kunda vatanimiz oldida turgan eng dolzarb vazifamiz bu mustaqillikni asrash, xalqimiz tinchligini, osoyishtaligini saqlashdir. Tarixda yurt ozodligi, mustaqilligi yoʻlida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur va Bobur kabi milliy qahramonlarimizning jasoratini yoshlarimiz ongiga singdirish ularda vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish va vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Yoshlarda vatanparvarlik va milliy gʻururni shakllantirish kompaniyabozlik bilan hal etiladigan vazifa emas, u tinmay izlanishni, yangi-yangi ish usullarini, vositalarini topishni, jamiyat potentsialidan, ma'naviy-axloqiy tarbiya borasidagi tajribalaridan samarali foydanishni toqazo etadi. Ijtimoiy borliqning dinamik xususiyati, modernizatsiyaga moyilligi va hayotga yangi avlodlarning kirib kelishi kabi jarayonlar vatanparvarlik va milliy gʻurur tuygʻusini tarbiyalashga ham uzluksiz, permanent voqelik sifatida yondashishga undaydi. Yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy ongidagi oʻzgarishlarning ziddiyatli xarakteri, ular qiziqishlarining u yoki bu tomonga evrilib, tranformatsiyaga uchrab turishi muammolarni dolzarblashtiradi va yangi yondashuvlarni toqazo etadi [5;C.190-199.]. A.G.Maslouning yozishicha, ta'lim-tarbiyaning bosh vazifasi yoshlarni "kreativ shaxs" qilib shakllantirish, bu fazilat esa ularga "tabiat tomonidan berilgan mohiyat emas" [6;C.85.]. Kreativ shaxsni shakllantirish esa shu zahoti "inson tabiatini, xarakterini transformatsiya qilish, insondagi, uning dunyoqarashi, hayotiy

falsafasi, hayot yo‘li, axloqiy kodeksi, ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq barcha insoniy narsalarni to‘la ro‘yobga chiqarish masalasini kun tartibiga qo‘yadi” [6;C.85.]. Yoshlarda Vatanparvarlik va milliy g‘urur faqat vatanga sodiqlik haqidagi qasam ichish, hatto harbiy xizmatni intizomli bajarishgina emas, ular insondan, yoshlardan ijtimoiy borliq uchun mas’ullikni o‘z bo‘yniga olgan ijodkor, kreativ faol shaxs bo‘lishni ham talab etadi.

Xulosa. Xulosamiz shuki, vatanparvarlikdek ulug‘ hisni balandparvoz shiorga emas, o‘zimizning kundalik odatimizga aylantirsakgina bugungi kunimiz ham, kelajagimiz ham obod va farovon bo‘lib boraveradi. Chunki, buning uchun Ollohning nazari tushgan bizning sevimli O‘zbekistonimizda hamma imkoniyatlar bor. Bir qarashda harbiy xodimlarda vatanparvarlik va milliy g‘ururni shakllantirish, tarbiyalash shart emas. Ya’ni harbiy xizmatga shunday fazilatlarga ega shaxslar qabul qilinadi, ularda bu fazilatlarni tarbiyalash uchun vaqt sarflashga hojat yo‘q. Biroq harbiy xodimlar ham yoshi, tajribasi va emotsional psixologik tuzilishlari, tashqi ta’sirlarga turlicha reaktsiya qilishi bilan oddiy fuqarolardan farq qilmaydi. Ularga ham tartiblarni unutish, oilaviy tashvishlarga berilish, kasallanish, iztirob chekish, hatto qasamyodini unutish kabilar xos. Shuning uchun harbiy xodimlar ichida ma’naviy-axloqiy va ma’rifiy ishlar, tadbirlar olib boriladi. Bundan tashqari, ichki va tashqi xavflarning rang-barangligi, ko‘pincha tasodifan yuzaga kelishi ulardagi ma’naviy-ruhiy va kasbiy tayyorgarlikni mudom yangilab, boyitib, zamonaviy usullar bilan to‘ldirib turishni taqozo etadi. Ushbu omillar professiogrammaga ta’sir etmay qolmaydi.

Agar biz ahil bo‘lsak, el-yurt manfaati yo‘lida bir tanu bir jon bo‘lib yashasak, o‘zimizdan sotqin chiqmasa, o‘zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ишлари самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2023 йил 29 июндаги 267-сон қарори.
2. Мирзиёев Ш.М. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. 247 (6741)-сони. – 2017. 7 декабрь.
3. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси –Тошкент, Ўзбекистон, 2017, -Б. 18.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ишлари самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2023 йил 29 июндаги 267-сон қарори.
5. Маслоу А.Г. Дальние пределы человесеской психики. Москва: Евразия, 1997. С.190-199.
6. Маслоу А.Г. Дальние пределы человесеской психики. Москва: Евразия, 1997. С.85.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

SOCIAL, CULTURAL, AND HISTORICAL DIMENSIONS OF SCIENTIFIC CREATION

Kadirova Ziyoda Rakhimdzhanovna
Candidate of Philosophy, Associate Professor, etc.
International school of finance technology and science institute

Abstract. This article examines the social, cultural, and historical dimensions of scientific creativity. It emphasizes that scientific creativity is not merely a product of individual ability but rather a process deeply intertwined with society, culture, and historical realities. The research findings demonstrate that scientific creativity is directly linked to social institutions, cultural factors, and historical development, thereby reinforcing the role of science in societal progress. Drawing on international studies and scholarly sources, the article analyzes the relationship between scientific innovations, cultural creativity, and scientific discoveries within their historical context.

Keywords: creativity, scientific creativity, historical processes, culture, social processes, innovation, scientific conservatism, historical developments, invention, activity.

ILMIY IJODNING IJTIMOIY, MADANIY VA TARIXIY O‘LCHAMLARI

Kadirova Ziyoda Raximdjanovna
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent v.b.
International school of finance technology and science instituti
E-mail: kadirovaziyoda1982@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy ijodning ijtimoiy, madaniy va tarixiy jihatlari tahlil qilinadi. Ilmiy ijod nafaqat individual qobiliyat mahsuli, balki jamiyat, madaniyat va tarixiy voqeliklar bilan bog‘liq jarayon ekanligi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy ijod ijtimoiy institutlar, madaniy omillar va tarixiy rivojlanish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqolada ilmiy innovatsiyalar, madaniy ijod va ilmiy kashfiyotlarning tarixiy muhit bilan aloqadorligi xalqaro tadqiqotlar va ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijod, ilmiy ijod, tarixiy jarayonlar, madaniyat, ijtimoiy jarayonlar, innovatsiya, ilmiy konservatizm, tarixiy jarayonlar, ixtiro, faoliyat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N15

Ilmiy ijod inson tafakkurining eng yuqori shakllaridan biri bo‘lib, u yangi nazariyalar yaratish, amaliy innovatsiyalarni rivojlantirish va jamiyatning ijtimoiy, madaniy hamda tarixiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatish orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayon ilmiy metodologiya, tajriba va tanqidiy-tahliliy tafakkur bilan mustahkamlangan bo‘lib, insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ilmiy ijodiy faoliyat nafaqat yangi bilimlarni yaratish, balki ularni amaliyotga tatbiq etish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada ilmiy ijodning turli o‘lchamlari – ijtimoiy, madaniy va tarixiy jihatlari tahlil qilinadi.

Ijtimoiy o‘lcham. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy ijod shaxsning ichki qobiliyatlaridan ko‘ra, uni jamiyat tomonidan, ya’ni fan jamoasi, ijtimoiy institutlar tomonidan tan olinishi bilan belgilanadi. Tadqiqotlar natijasi ilmiy ijod jamiyatning ijtimoiy tuzilishi orqali

shakllanishini ham ko‘rsatib beradi. Masalan, Kasavin fikricha, ilmiy innovatsiyalar yakka holda emas, balki ijtimoiy-madaniy qatlamlarning muayyan darajasida shakllanadi [1; 19-29.].

Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda noaniq mehnat sharoitlarida ishlovchi prekariat guruhlarning ijodiy faoliyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Ilmiy innovatsiyalar aynan ilmiy prekariat tomonidan tezroq rivojlanishini ko‘rsatadi [2; 28.]. Ilmiy prekariat — bu ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan, ammo doimiy yoki barqaror ish sharoitlariga ega bo‘lmagan, odatda yosh olimlar, loyihalar, shartnoma asosida ishlovchilar yoki shartnoma shartlari bilan faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilar yoki shaxslar. Bu guruh odatda ilmiy tizimda innovatsiyalar va yangi bilimlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ko‘pgina yangi tadqiqotlar va ilmiy innovatsiyalar uchun o‘tish nuqtasidir. Ilmiy faoliyatda ularning ahamiyati ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishi uchun yangi g‘oyalar va tadqiqotlar olib kelishi; innovatsiyalarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda yordam berish; ilmiy va texnologik sohalarda yangi qobiliyatlarni shakllantirish hamda ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy rivojlanishda muhim poydevor bo‘lishi bilan izohlanadi. Ammo, prekaratlik holati, ya’ni norasmiy va barqaror ish sharoitlari, ilmiy prekariatning innovatsiyalarni ishlab chiqish va rivojlantirishdagi imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Bu muammo jamiyat va ilm-fan fidoiylarining e’tiborini tortmoqda, chunki barqaror va muvozanatli sharoitlar ilg‘or ilmiy faollik uchun muhimdir.

Shuningdek, ilmiy ijodning shaxsiy xususiyatlar va intellektual qobiliyatlar bilan bog‘liqligi ilmiy ijodda psixologik jihatlarning ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi [3; 46-54]. Ijtimoiy nuqtai nazaridan, ilmiy ijod – bu doimiy ravishda yangilanib boradigan va madaniy muhitga moslashadigan jarayondir. Ilmiy ijodning epistemologik jihatlari esa ilm-fandagi konservatizm va innovatsiya o‘rtasidagi muvozanat orqali tahlil qilinadi. Ilmiy konservatizm — bu keng qamrovli atama, u jamiyat va madaniyatda an’analariga va vorisiylikka asoslangan turli xil g‘oyaviy va madaniy oqimlarni anglatadi. Schneider fikricha ilmiy konservatizm ijodiy innovatsiyalarga to‘siq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi va fan taraqqiyotida muhim element sifatida saqlanib qolishini ham tan oladi [4; 145-147.]. Bunda mavjud tizimni saqlab qolish va uning barqarorligini ta’minlashga intilish namoyon bo‘ladi. Har bir g‘oyaning paydo bo‘lishi va tugashi mavjud bo‘lib, ilmiy konservatizmda jamiyat rivojiga ta’sir etuvchi fikrlarning evolyutsiyasi ham nazarda tutiladi. Ilmiy konservatizmning kelajagi texnologik va ilmiy yutuqlar bilan uyg‘unlashib, mavjud bilimlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. U innovatsiyalar bilan muvozanatda turib, ehtimoliy tahdidlarni oldini olish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga yordam beradi. Kelajakda, ilmiy konservatizm ekologik muammolar, axloqiy masalalar va texnologik xavfsizlik kabi sohalarda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Shu bilan birga ilmiy taraqqiyot ham jamiyatning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ilm-fan va texnologiyaning taraqqiy etishi inson hayotining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatib, yashash sharoitlarini yaxshilashga, sog‘liqni saqlash, ta’lim va iqtisodiyot sohalarining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Masalan, tibbiyot sohasidagi ilmiy izlanishlar umr ko‘rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2022-yilgi hisobotiga ko‘ra, so‘nggi 50 yil ichida inson umrining o‘rtacha davomiyligi 20 yilga oshgan bo‘lib, bu asosan tibbiyotdagi innovatsiyalar natijasidir [5; 3-7.]. Ta’lim sohasida esa sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini optimallashtirib, talabalarning individual ta’lim olish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda. UNESCO 2021-yilgi hisobotida

aytilishicha, raqamli ta’lim texnologiyalari joriy qilingan davlatlarda bilim olish samaradorligi 30 foizga oshgan [6; 4-8.].

Iqtisodiyot sohasida esa ilmiy-texnologik innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, yangi ish o‘rinlari yaratishga sabab bo‘lmoqda. Masalan, Jahon Bankining 2023-yilgi tadqiqotiga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tarmoqlari global ishlab chiqarish hajmining 15 foizini tashkil etmoqda [7; 9-13.]. Shuningdek, ilmiy yutuqlar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish yoki aksincha, uni yanada keskinlashtirib yuborishi ham mumkin. Masalan, sog‘liqni saqlash va ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasida farq qiladi, bu esa global ijtimoiy muvozanatga ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi.

Madaniy o‘lcham. Ilmiy ijod va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar murakkab va ko‘p qirrali. Ilmiy ijod, shuningdek, madaniyatning o‘zi, insonning dunyoga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Ilmiy tadqiqotlar madaniy kontekstda amalga oshiriladi va unga ta’sir ko‘rsatadi, yangi bilimlarni yaratishga yordam beradi, yangi g‘oyalar va texnologiyalarni shakllantiradi. Madaniyat ilmiy ijodning asosidir, chunki u odamlarga dunyoni tushunish va o‘zgartirish uchun o‘zaro aloqa va kommunikatsiya qilish usullarini taklif etadi. Ilm-fan va madaniyatning uyg‘unligi jamiyatning rivojlanishiga turtki beradi. Madaniyat ilmiy ijodga katta ta’sir ko‘rsatadi: madaniyat insonlarning dunyoqarashini, axloqini va fikrlash tarzini shakllantiradi, bu esa ilmiy metodlarni va yondashuvlarni belgilaydi; madaniyatning o‘ziga xos qadriyatlari, tushunchalari va tushuncha tizimlari ilmiy fikrlash va innovatsiya uchun poydevor bo‘ladi; madaniyat qadriyatlari va ehtiyojlari ilmiy izlanishlarning yo‘nalishini aniqlaydi; madaniyat ramzlari, an’analari va dunyoqarashlari ilm-fan natijalarini jamiyatda qabul qilish va qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi; madaniyat ilmiy ijod uchun ilhom manbai, yo‘nalish va tahlil tushunchalarini shakllantiruvchi asos hisoblanadi. Ilmiy yutuqlar jamiyat madaniyatini boyitib, yangi tafakkur shakllarini yuzaga keltiradi. Masalan, Kopernikning geliotsentrik nazariyasi nafaqat astronomiyani, balki jamiyatning dunyoqarashini ham o‘zgartirdi. Kvant fizikasining rivojlanishi esa san’at va falsafada yangi oqimlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Ilm-fanning ta’siri zamonaviy innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotga qiziqishni oshiradi. Ilmiy g‘oyalar madaniyatga singishi natijasida jamiyatda innovatsion fikrlash shakllanadi va yangi texnologiyalar tezroq qabul qilinadi. Ilmiy ijod va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar har qanday jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ilm-fan doimiy ravishda yangi g‘oyalar va innovatsiyalarni ilgari surib, madaniyatning evolyutsiyasiga sezilarli hissa qo‘shadi. Xususan, biologiya, gen injiniringi va biotexnologiya kabi sohalardagi ilmiy yutuqlar zamonaviy san’atda shakllanayotgan madaniy jarayonlarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonlarda san’atkorlar ilmiy kashfiyotlardan ilhomlanib, o‘z asarlarida texnologik jarayonlar va fantastik sahnalarni tasvirlaydilar, shuningdek, yangicha borliq va obrazli elementlarni namoyon etadilar. Bundan tashqari, ular yangi materiallar va ilg‘or texnologiyalardan foydalanishga intiladilar, bu esa zamonaviy fan va san’atning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Madaniyat ilmiy bilimlarni turli usullar bilan shakllantiradi:

1. Madaniyat odamlarga ilmiy faoliyat uchun qabul qilingan axloqiy qoidalarni belgilaydi, bu esa ilmiy izlanishlarni ma’naviy asosda olib borishga yordam beradi.

2. Madaniyatning til va ifoda usullari ilmiy fikrlarni aniq, tushunarli va keng tarqalishga yordam beradi. Madaniyat, shuningdek, ilmiy terminologiya va kommunikatsiya mexanizmlarini rivojlantiradi.
3. Madaniyatning tarixi va an'analari orqali ilmiy bilimlar avloddan-avlodga o'tadi. Ta'lim tizimi va madaniy normalar orqali yangi avlodlar bilimlarni o'zlashtiradi va rivojlantiradi.
4. Madaniyat ilmiy ijod uchun muhim muhit va infrastrukturani yaratadi, misol uchun kutubxonalar, laboratoriyalar, aksiyalar va konferensiyalar.
5. Madaniyat odamlarga tabiat va inson haqidagi qarashlarni shakllantiradi, bu esa ilmiy izlanishlarning istiqbolini belgilaydi.

Umuman olganda, madaniyat ilmiy bilimlarni nafaqat uzatadi, balki uni rivojlantirish va yangi natijalarga erishishda asosiy rol o'ynaydi. Lekin ilm-fan va madaniyat o'rtasida ba'zan ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Masalan: Madaniyatdagi an'anaviy qadriyatlar va ilmiy yondashuvlar orasida ba'zan qarama-qarshilik yuzaga keladi, chunki ilm-fan yangi bilimlar va texnologiyalarni olib keladi, bu esa ba'zida eski qadriyatlar bilan to'qnashadi. Ba'zi ilmiy kashfiyotlar, masalan, genetik muhandislik yoki sun'iy intellekt, madaniyatdagi axloq normalariga zid kelishi mumkin. Ba'zan jamiyatlar yoki madaniyatlar ilm-fan yutuqlarini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa madaniyat va ilm-fan o'rtasida tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu bilan birga, ziddiyatlar rivojlanish va yangi tushunchalarni kashf etish uchun imkoniyatlar yaratadi. Doimiy dialog va tushunishni rivojlantirish muhim. Ilmiy ijod va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik madaniy jarayonlar va innovatsion san'at yo'nalishlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Madaniy va tarixiy omillar shaxsda ijodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. S.N.Jurayeva va hamkasblari madaniy va tarixiy kontekstning innovatsion fikrlashni shakllantirishdagi o'rnini tahlil qilganlar [8; 67-73.]. Ushbu tadqiqotlar ijodning nafaqat individual, balki madaniy va ijtimoiy mahsulot ekanligini ko'rsatadi. Masalan, ilmiy eksperimentlar asosida tashkil etilgan interaktiv ko'rgazmalar va ilmiy-fantastik asarlar odamlarda ilm-fanga qiziqishni uyg'otadi, bu esa yangi avlodning intellektual rivojlanishiga yordam beradi [9; 21-25.]. Bunday tadbirlar orqali kelajakda yaratiladigan madaniyat va ilm-faning yangi xususiyatlari shakllanadi. Shu bilan birga media muhiti ham ilmiy ijodning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir [10; 43-47.]. Shuningdek, shaxslarning tarbiyaviy va tarixiy tajribasi ilmiy ijodiy salohiyatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [11; 716-529.].

Ilmiy ijod va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, insoniyat tarixining ajralmas qismidir. Ularning o'zaro munosabatlari zamonaviy dunyoda bilim va ijodning birligini, shuningdek, jamiyat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, ilm-fan va madaniyat o'rtasidagi bu aloqani yanada mustahkamlash va rivojlantirish zarurdir.

Tarixiy o'lcham. Ilm-fanning rivojlanishi tarixiy jarayonlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir davrning ilmiy yutuqlari jamiyatning umumiy taraqqiyotini belgilaydi. Masalan, sanoat inqilobi ilmiy taraqqiyotning asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, uning ta'siri hozirgi texnologik rivojlanish jarayonlarida ham kuzatilmoqda [12; 74-80,13; 99-107.]. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish hajmini sezilarli oshirdi va urbanizatsiya jarayonini tezlashtirdi. Shu bilan birga, kvant mexanikasi va nisbiylik nazariyasi ilm-fan tarixidagi eng muhim paradigmalar sifatida baholanadi [14; 24-29.]. Kvant fizikasining rivojlanishi elektronika va kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, bu esa jamiyatning axborot

texnologiyalari asosida o‘zgarishiga olib keldi. Ushbu misollar ilmiy taraqqiyotning tarixiy jarayonlardagi muhim rolini ko‘rsatadi. Masalan, sanoat inqilobi jamiyat tuzilishiga va iqtisodiy tizimga tub burilish yasagan bo‘lsa, axborot texnologiyalarining rivojlanishi hozirgi global jamiyatning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Buyuk olimlarning ilmiy izlanishlari nafaqat o‘z davrida, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim o‘rin tutadi. Yangi g‘oyalar va kashfiyotlar jamiyatda yangi qabul qilinishlarni, qadriyatlar va fikrlar tizimini o‘zgartiradi. Masalan, biologiya va genetika sohasidagi yutuqlar, genetik muhandislik va biotexnologiyaning rivojlanishi, sog‘liqni saqlash sohasida yangi choralar ko‘rish imkoniyatlarini yaratdi. Ushbu yangiliklar inson hayotini uzaytirish va kasalliklarni davolashda yangi ufqlarni ochdi.

Shuningdek, ilm-fanning rivojlanishi ta’lim tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ta’limga yangiliklar kiritilishi, zamonaviy pedagogik uslublar va texnologiyalarni joriy etish, kelajak avlodlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Davlatlararo ta’lim dasturlari va ilmiy hamkorliklar natijasida yosh avlodlar global miqyosda fikr almashish va innovatsion g‘oyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Biroq, ilm-fan rivojlanishining o‘ziga xos xavflari ham mavjud. Bir tomondan, yangi texnologiyalar jamiyatda anglanmagan xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan, sun’iy intellekt va uning ijtimoiy va axloq bilan bog‘liq muammolari. Boshqa tomondan, ilmiy yutuqlar ba’zi jamiyatlarda tengsizlikni kuchaytirishi mumkin, chunki texnologiyalarga kirish imkoniyati hamma uchun bir xil emas. Shu sababli, ilm-fan taraqqiyotini ta’minlashda nafaqat ilmiy ishlanmalarga, balki ularning insoniyat uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunishga ham e’tibor qaratish zarur. Natijada, ilm-fanning rivojlanishi jamiyatning barcha jabhalarida chuqur ta’sir ko‘rsatadigan kompleks jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda hamkorlik, yangiliklarni yaratish va ulardan foydalangan holda kelajak avlodlar uchun qulay sharoitlar yaratish muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy izlanishlar, yangi g‘oyalar va innovatsiyalar orqali, insoniyat imkoniyatlarini kengaytirib, o‘z taraqqiyotini davom ettirishi uchun zarur asoslarni ta’minlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy ijod faqat individual qobiliyat bilan cheklanmay, balki ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ilmiy ijodning jamiyat tomonidan tan olinishi, madaniy omillar bilan uyg‘unlashuvi va tarixiy jarayonlar bilan birgalikda shakllanishi uni o‘rganishda kompleks yondashuvni talab qiladi. Ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi global muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etib, jamiyatning uzluksiz taraqqiyotini ta’minlaydi. Masalan, ekologiya sohasidagi innovatsiyalar, jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalarining keng joriy etilishi, antropogen omillarning salbiy ta’sirlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan yechimlar qashshoqlikni kamaytirish, ta’lim tizimini rivojlantirishda, hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish imkonini bermoqda. Jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishga ilm-fanning ta’siri tobora ortib borishi, texnologik innovatsiyalar yangi kasblarning paydo bo‘lishi va ish o‘rinlarini yaratilishiga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ilmiy bilimlarni keng joriy etish orqali jamiyat barqarorligiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Kelajakda ilmiy izlanishlarning ahamiyati yanada ortib, yangi texnologiyalar va fan yutuqlari insoniyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ilmiy ijodning har bir jabhasini chuqur o‘rganish va uni qo‘llab-quvvatlash jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kasavin I.T. Creativity in Science as a Social Phenomenon. Epistemology & Philosophy of Science. 2023. № 1. B. 19-29.
2. Касавин И. Т., Сахарова А. В. КРЕАТИВНОСТЬ - НЕ СУЩНОСТЬ, А СУЩЕСТВОВАНИЕ! // Epistemology & Philosophy of Science. 2023. №1. 28 p.
3. Voronina N. N., Feigelman A.M. Towards Open Science: The Precariat as a Subject of Scientific Creativity. Epistemology and Philosophy of Science. 2023. №3. B. 46-54.
4. Kirsch, C., Lubart, T., de Vries, H., & Houssemand, C. (2021). Scientific creativity in psychology: A cognitive-conative approach. In Research anthology... 2021. B.145-167.
5. World Health Organization. *World Health Statistics 2022*. B. 3–7.
6. UNESCO. Education and Digital Technology Report. 2021. B. 4–8.
7. World Bank. Annual Report 2023. B. 9–13.
8. Jurayeva S.N. va boshq. Cultural and Historical Prerequisites for Innovation. 2021. B. 67–73.
9. Science Museums Group. Public Engagement Report. 2022. B. 21–25.
10. Savchuk V.V., Ocheretyany K.A. Media and Scientific Creativity. 2021. №2. B. 43–47.
11. Wai J., Brown M.I. Developmental Histories in Science. Front. Psychol., 2021. B. 716–529.
12. Sharma A., Singh B.J. Evolution of Industrial Revolutions: A Review. IJITEE. 2020. Vol. 9(11). B. 74–80.
13. Ivaldi S., Scaratti G., Fregnan E. Fourth Industrial Revolution Competence. J. Workplace Learn. 2020. B. 99–107.
14. Ball P. The Tumultuous Birth of Quantum Mechanics. APS, 2023. B. 24–29.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF SHEIKH KHUDAYDOD VALI'S VIEWS ON THE RELATIONSHIPS OF HUMANS AND THE UNIVERSE

Muzaffarov Navruzkhon
independent researcher
University of Economics and Pedagogy

Abstract. This article analyzes the philosophical essence of the relationship between the Creator, man and the universe. Based on religious and philosophical sources, examples of Eastern and Western thought, the idea of creation, the role and responsibility of man in existence, as well as the spiritual and enlightening aspects of the universe are highlighted. The author philosophically analyzes the role of the Creator in existence and the tasks facing humanity through the criteria of harmony between man and the universe, thought, spirituality and purposefulness. The article may be useful for researchers conducting scientific research at the intersection of modern philosophy, religious studies and anthropology.

Keywords: Creator, Sheikh Khudoydad Vali, man, universe, philosophy, existence, thought, religious and philosophical views, spirituality, the idea of creation, anthropology, consciousness, existence.

SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI

Muzaffarov Navruzxon Baxronovich
Mustaqil tadqiqotchi
Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti
Samarqand Kampusi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yaratuvchi, inson va olam o‘rtasidagi munosabatlarning falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Diniy-falsafiy manbalar, Sharq va G‘arb tafakkuri namunalari asosida yaratilish g‘oyasi, insonning borliqdagi o‘rni va mas’uliyati, shuningdek, olamning ma’naviy-ma’rifiy qirralari yoritiladi. Muallif inson va olam o‘rtasidagi uyg‘unlik, tafakkur, ma’naviyat va maqsadlilik mezonlari orqali Yaratganning mavjudlikdagi o‘rni va insoniyat oldidagi vazifalarni falsafiy tahlil qiladi. Maqola zamonaviy falsafa, dinshunoslik va antropologiya yo‘nalishlari kesishmasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Yaratuvchi, Shayx Xudoydod Vali, inson, olam, falsafa, borliq, tafakkur, diniy-falsafiy qarashlar, ma’naviyat, yaratilish g‘oyasi, antropologiya, ong, mavjudlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N16

Kirish. Yaratuvchi, inson va olam o‘rtasidagi munosabatlar qadimdan falsafa, din va ilohiyotning markaziy mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Bu munosabatlar mavjudlikning manbai, insonning borliqdagi o‘rni va olamning ma’nosini anglashga bo‘lgan intilishning ifodasidir. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlarining, jumladan, Shayx Xudoydod Vali kabi tasavvufiy tafakkur egalari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar bu borada chuqur falsafiy asosga ega. Shayx Xudoydod Vali o‘z asarlarida Yaratuvchini Absolyut Haqiqat sifatida talqin etadi va insonni ana shu Haqiqat sari yo‘l oluvchi ruhiy-ma’naviy mavjudot deb biladi. Unga ko‘ra, olam esa bu Haqiqatning tajallisi, ya’ni zohir bo‘lishidir.

Ushbu maqolada Shayx Xudoydod Vali qarashlari asosida Yaratuvchi, inson va olam o‘rtasidagi munosabatlarning falsafiy tahlili amalga oshiriladi. Bunda diniy-tasavvufiy manbalar, Sharq falsafiy merosi hamda zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola, bir tomondan, mavjudlikning ilohiy mohiyatini ochib berishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, Shayx Xudoydod Valining tasavvufiy qarashlarining falsafiy mohiyati insonning ruhiy kamolot sari intilishida bu tushunchalarning tutgan o‘rnini yoritishga qaratilgan.

Shayx Xudoydod Vali – Markaziy Osiyo tasavvufiy-tafakkur maktabi namoyondalaridan biri bo‘lib, uning ta’limotida Yaratuvchi (Haq), inson va olam munosabati markaziy o‘rin tutadi. Uning falsafasi tasavvufiy-irfoniy dunyoqarashga asoslangan bo‘lib, insonning ma’naviy kamoloti va uning olamdagi o‘rni haqida chuqur mulohazalarni o‘z ichiga oladi.

Shayx Xudoydod Vali insonni Yaratuvchi va olam o‘rtasidagi bog‘lovchi mavjudot deb bilib, uning kamolotiga katta e’tibor bergan.

Inson – ilohiy nurning aksidir – tasavvufda insonni «Kamol topgan inson» (Inson-ul-Kamil) deb atashadi. Shayx Xudoydod Vali ham insonni shaxsiy ma’naviy sayqal orqali Yaratuvchiga yaqinlashishga qodir zot sifatida ko‘radi. Inson Allohni bilish uchun yaratilgan – bu fikr sufiylikning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, inson o‘z nafsini poklash orqali haqiqatga erishishi mumkin[1; 7-8-b]. Inson o‘z nafsi bilan kurashishi lozim – nafsni yuksaltirish orqali inson haqiqat yo‘liga kirishi mumkin. Bu borada Naqshbandiya tariqatidagi «xilvat dar anjuman» (jamiyat ichida xilvat) tamoyili Shayx Xudoydod Vali falsafasi bilan uyg‘un keladi.

Va aytar edilarki: Xudovand taolo lutf-u karami ila oyat va hadislar bilan o‘zining zoti vahdoniyatini bizga ma’lum qildi. Jumladan, shunday marhamat qildi: أَنَاْ إِلاَّ إِلَـهَ لاَ “La ilaha illa ana”, ya’ni “(Ey, payg‘ambarlarim! Insonlarni) ogohlantiringlarki, Mendan o‘zga iloh yo‘q” (Nahl, 2) [2; 8-9-b]. Va Hazrati Payg‘ambar alayhissalom ham bu ma’noni Xudoning so‘zi (hadisi qudsiy) orqali xabar berdilar: سوای ربا فلیطلب برضائی یرض لم من“Man lam yarza birizoi falyatlub Rabban sivoya”, “Kimki meni roziligimga – taqdirimga rozi bo‘lmasa, o‘ziga mendan boshqa Xudo topsin”, ya’ni Xudoyi taoloning qazoyi qadariga rozi bo‘lish farzdir. Chunki, undan o‘zga Iloh bo‘lishi mumkin yemas.

Oli Imron surasining شَهِدَ اللهُ أَنَّهُ لاَ إِلَـهَ إِلاَّ هُوَ وَالْمَلاَئِكَةُ “Shahidollohu annahu la ilaha illa huva val maloikatu”, ya’ni “Adolatda (barqaror) turib, Alloh guvohlik beradi: «Allohdan o‘zga iloh yo‘qdir». Farishtalar va ilm egalari ham (buni ta’kidladilar). (Albatta,) qudratli va hikmatli Allohdan o‘zga iloh yo‘qdir.” (Oli Imron, 18) oyati guvohligida bizni mushriklik va gumrohlik da’vosidan qutqardi[3; 11-53-b].

Chunonchi aytadilar, bayt:

Sen mening ko‘nglimda, demasam hech mouman,

Sensizin bo‘lsam, manga ko‘p qotilur dushvorlar.

بِالْقِسْطِ قَآئِمَاً الْعِلْمِ وَأُوْلُواْ “Va ulul ilmi qoimam bil qist” (va ilm egalari ham (buni ta’kidladilar)) (Oli Imron, 18) oyati bilan o‘z Zotining yakka-yu yagonaligi yo‘lida to‘g‘ri va sobitqadam ayladi.

يَعْقِلُونَ لِّقَوْمٍ لَآيَاتٍ ذَلِكَ فِي إِنَّ “Inna fi zalika laoyotil laqavmin ya’qiluna” “Albatta, bunda anglaydigan qavm uchun alomatlar bordir (Ra’d, 4) oyatining xushxabari bilan falaklarning aylanishida, yer olamining o‘zgarishida, quyosh va oyning ziyo taratishida, Zuhra va yulduzlarning nur sochishida oqillar uchun dalil va hujjatlar bor, deb bizni o‘z inoyati bilan oqillar qatoriga qo‘shdi va bizga o‘zining yakkayu yagona zotini idrok qilish bashoratini yetkazdi[4; 2-9-b]. Bayt:

Jon chu dar tan raftu tan z–o‘ zinda shud,

Aql dodash, to bad– o‘ binanda shud .

Aytar edilar: Men bu aqliy va xabariy bashoratga qoniqib qolganim yo‘q, balki “Laysal xabaru kal muoyana”, ya’ni “Eshitilgan xabar ko‘rilgandek bo‘lmaydi” hikmatiga amal qilib ilmimni ko‘paytirishni istadim. O‘zimdagi aqliy va naqliy ilm-u ma’rifatimga qanoat qilmasdan, فَمَن كَانَ يَرْجُو لِقَاء رَبِّهِ “Famon kona yarju liqoa Rabbihi” (Bas, kimki Parvardigori bilan muloqotda bo‘lishdan umidvor bo‘lsa... (Kahf,110) oyati hikmatidan umid qilib sa’yu harakatlar qildim va benazir Xoliq jamoli mushohadasini orzu yetdim[5; 2-7-b]. Chunonchi aytadilar, bayt:

Pir boyad, rohro tanho marav,

Az sari umyo darin daryo marav.

(Mazmuni: Pir kerakdur tanho yo‘ldan yurmagil, ko‘r-ko‘rona yurib, bu daryodan kechmagil!)

Murshidi komil buyrug‘i bilan va فَلْيَعْمَلْ عَمَلاً صَالِحاً “Fal ya’mal amalan solihan” (...u holda ezgu amal qilsin... Kahf,110) farmoniga ko‘ra qalbni isloh qilishga va botil nafsdan fasod (yomonlik)larni yo‘qotishga urindim. Chanqoqlik va ochlik sharbatini ichdim. Va وَلَا يُشْرِكْ بِعِبَادَةِ رَبِّهِ أَحَداً “Vala yushrik biibodati Rabbihi ahado” (...va Parvardigoriga ibodat qilishda hech kimni (Unga) sherik qilmasin! Kahf,110) tanbehiga asosan boshqaga ibodat va bandalik qilishni o‘z ko‘nglimdan yiroq qildim. Zot mushohadasida mosuvolarni sherik qilishdan o‘zimni xalos yetdim[6; 2-5-b]. Himmatimga yarasha Zoti ahadiyat inoyati bilan mushohada va muoyana maydonida g‘avg‘oyu-to‘polon (harakat) qildim.

Yuqoridagi kabi baytlarni Shayx Xudoydod Vali ijodida ko‘plab uchratish mumkun. Shayx Xudoydod Vali ta’limotida inson — faqat jismoniy mavjudot emas, balki metafizik haqiqatni anglashga layoqatli, ontologik o‘qituvchidir. Unga ko‘ra, inson yaratilishining g‘oyaviy maqsadi — Allohni bilish (ma’rifatullah) va Unga intilishdir. Bu jarayon tasavvufda sayr ila Alloh (Alloh sari yurish) va sayr fi Alloh (Allohda yurish) tushunchalari orqali tavsiflanadi. Shayxning ta’limoti Naqshbandiya tariqatining asosiy tamoyillari — “xilvat dar anjuman”, “yod kard”, «buzkush murod» kabi irfoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda rivojlanadi. Bu esa insonning jamiyat ichida yashar ekan, ichki olamida Alloh bilan bog‘liqligini uzmaslik g‘oyasini anglatadi[7; 2-4-b].

Shayx Xudoydod Valining asosiy ontologik yondashuvi — vahdati vojud (mavjudlikning yagonaligi) konsepsiyasi bilan uyg‘unlikda talqin etiladi. Unga ko‘ra, mavjudlik faqat bir haqiqat — Allohning zoti bilan bog‘liq bo‘lib, qolgan barcha mavjudotlar faqat nisbiy haqiqatdir, ya’ni zohiriy tajallilardir. Inson esa shu tajallining eng komil namunasi sifatida olamda maxsus o‘rin tutadi. Bunday falsafiy dunyoqarashda inson — makrokosm va mikrokosm o‘rtasidagi ko‘prik, ya’ni ilohiy va moddiy olamlar o‘rtasidagi mujassam vositadir[8; 9-3-b].

Shuningdek, Shayx o‘z asarlarida Qur’oni karim oyatlari va hadislardan ilhomlanib, ilohiy bilishning ikki shakli — naqliy (vahiy va rivoyat asosidagi) va aqliy (aql, tafakkur va mushohada asosidagi) bilishni muvozanatda olib boradi. U bu ikki yo‘lni bir-birini to‘ldiruvchi emas, balki bir-biriga yetaklovchi vosita sifatida talqin qiladi. “Eshitilgan xabar – ko‘rilgandek bo‘lmaydi” degan tamoyil orqali Shayx insonni bevosita tajriba — qalbiy idrok, ya’ni mushohada orqali haqiqatni topishga da’vat etadi. Bu esa uni faqat bilim egasi emas, balki ruhiy tajriba sohibi bo‘lishga undaydi[9; 2-2-b].

Xulosa. Yaratuvchi, inson va olam o‘rtasidagi munosabatlar har bir davrda falsafa, ilohiyot va tasavvufning markaziy muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Shayx Xudoydod Vali ushbu mavzuni o‘ziga xos tasavvufiy-irfoniy tafakkur asosida yoritib, insonni ilohiy haqiqatga

eltuvchi markaziy vosita sifatida talqin qiladi. Unga koʻra, inson — bu ilohiy nurning zohiri, ya’ni borliqdagi eng komil mavjudot boʻlib, oʻz nafsini poklash, qalbini isloh etish orqali Allohga yaqinlashishi mumkin.

Shayxning ta’limotida Qur’oni karim oyatlari, hadisi qudsiylar va sufiylikning asosiy prinsiplariga tayanib, Haqning yagonaligi, olamdagi har bir hodisaning ilohiy moʻjizaligi, insonning oʻzligini anglash yoʻli orqali haqiqatga erishishi muhim falsafiy jihat sifatida ilgari suriladi. “Laysal xabaru kal muoyana” degan hikmatga asoslanib, u ilmni faqat eshitish, oʻrganish bilangina emas, balki qalban his qilish, ruhiy tajriba orqali anglash zarurligini ta’kidlaydi.

Demak, Shayx Xudoydod Vali qarashlari asosida shakllangan falsafiy xulosaga koʻra, Yaratuvchi, inson va olam oʻrtasidagi bogʻliqlik — bu nafaqat teologik tushuncha, balki insonning ruhiy yetilishi, komillikka erishish yoʻlida amal qilinadigan amaliy-ma’naviy yoʻldir. Bu ta’limot bugungi global ma’naviy izlanishlar fonida ham dolzarbligini yoʻqotmagan, balki insoniyatni oʻz mohiyatiga qaytaruvchi manba sifatida katta ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Shayx Xudoydod Vali. Risolai Xudoydod Vali. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
2. Nasr, S. H. Islom metafizikasi va ilohiy falsafa asoslari. – Toshkent: Sharq, 2010.
3. Azizmuhamedov, E. Tasavvuf va ma’naviyat. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2006.
4. Toshpulatov, I. Inson va olam: falsafiy mushohadalar. – Toshkent: Fan, 2013.
5. Gʻafurov, B. Tasavvuf: mohiyati va tarixiy taraqqiyoti. – Samarqand: Imom Buxoriy nomidagi nashriyot, 2019.
6. Qur’oni Karim va tarjimai ma’nosi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017.
7. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 45-48.
8. Bastug M. The structural relationship of reading attitude, reading comprehension and academic achievement //International Journal of Social Sciences and Education. – 2014. – Т. 4. – №. 4. – С. 931-946.
9. Юлдашева Д. Ю. Цифровые технологии в учебном процессе в условиях пандемии //Конференция состоялась. – 2022. – Т. 5. – С. 100.
10. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.
11. Alikulov S. A., Rizaev I. I. METHODOLOGICAL PROBLEMS OF RESEARCH OF SOCIAL SYSTEMS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 717-720.
12. Mavlanovna A. M. Problems of transforming a healthy worldview and creativity into a nationwide movement in society //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 7. – С. 32-36.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

THEORETICAL, LEGAL, AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF STATE POLICY ON ENHANCING THE SPIRITUAL POTENTIAL OF YOUTH

Rakhmatova Mekhrinoz Majitovna
Associate Professor, Tashkent University of Social Innovation

Abstract. This article comprehensively examines the theoretical, legal, and philosophical foundations of state policy aimed at enhancing the spiritual potential of youth, based on a systematic approach. Special emphasis is placed on historical experience in studying this issue. State policy in the sphere of youth spirituality is explored in full context through philosophical analysis.

Keywords: policy, process, dynamics, spirituality, youth, potential, historical experience, legal basis, philosophical analysis, critical reflection.

YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI

Raxmatova Mexrinoz Majitovna
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish borasidagi davlat siyosatining nazariy-huquqiy va falsafiy asoslari tizimli yondashuv asosida keng yoritilgan. Mazkur muammoni o'rganishda tarixiy tajribaga alohida urg'u berilgan. Yoshlar ma'naviyati sohasidagi davlat siyosati falsafiy tahlil asosida to'liq kontekstda yoritilgan.

Kalit so'zlar: siyosat, jarayon, dinamika, ma'naviyat, yoshlar, salohiyat, tarixiy tajriba, huquqiy asos, falsafiy tahlil, tanqidiy mulohaza.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N17

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish sohasida mutlaqo yangi tizim yaratilmoqda. "Yoshlarga oid davlat siyosati bu – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir"[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish borasidagi davlat siyosatining nazariy-huquqiy va falsafiy asoslariga oid manbalar A.Xursandovning O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslari // Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2020. №3. –B.26, T.Alimardonovning "Jamiyatda siyosat va axloq muvozanati muammolari", I.Saifnazarovning "Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat", M.Quronovning "Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim", A.Erkayevning "Ezgulik sari yo'naltirilgan iroda", R.Galeyevning "Duxovniy potensial kak obyekt issledovaniya i

upravleniya”, E.Yusupovning “Inson kamolotining ma’naviy asoslari”, shuningdek, Sh.Mirziyoyevning barcha asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiy tajriba, analiz, sintez, tanqidiy tahlil, kompleks yondashuv, tizimlilik, umumlashtirish, analogiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Global inqiroz sharoitida iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlash, joylardagi mavjud muammolarni manzilli hal etish, ko‘makka muhtoj yurtdoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarimizning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish – Prezidentdan boshlab, barcha darajadagi rahbarlarning bosh vazifasi bo‘lmog‘i darkor. Ana shu o‘ta muhim vazifalarni amalga oshirishda asosiy talab – davlat va jamiyat institutlari o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlash, bu jarayonda natijadorlik va sifatni oshirishdan iborat”[2]. Shu ma’noda, yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirish borasidagi davlat siyosatining nazariy-huquqiy va falsafiy asoslarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etib, bu quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

birinchidan, ijtimoiy hayotda fikrlar plyuralizmi nuqtai nazaridan milliy yuksalishimiz jarayonida yoshlar ma’naviy salohiyati masalasi mavjud davlat dasturlari orqali tahlil qilinadi va hozirgi zamon talablariga mos holda yangicha dunyoqarash tarzini ifodalaydi;

ikkinchidan, yoshlar ma’naviy salohiyati yuksalishining jamiyat rivojidagi o‘rni, ahamiyati zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi davlat va jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy manfaatlari o‘zaro dialektik aloqadorlikda o‘rganilmoqda;

uchinchidan, yoshlar ma’naviy salohiyatining mazmun-mohiyati va ijtimoiy hayotdagi roli masalalarini so‘rovnomalar asosida tahlil etib, mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish. Bizningcha, amaliy faoliyat mazkur konkret ma’naviy sohada hal etilishi zarur bo‘lgan muammolarning yechimiga qaratilsa, natija albatta, ijobiy bo‘ladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish maqsadida yurtimizda iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni tarbiyalash va qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy vosita va usullaridan foydalanish, bunda siyosiy institutlar, ta’lim muassasalari yetakchi mutaxassis-xodimlarining yoshlar ma’naviy-siyosiy qiyofasini o‘zgartirish masalalarini kompleks tashkil etish borasidagi faoliyati izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Bu strategik islohotlar pirovardida esa, intellektual salohiyatli, siyosiy uyg‘oq va ma’nan barkamol avlodni kamol toptirish vazifalari yetakchilik qiladi.

Shuningdek, yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatini hayotga izchil tatbiq etish borasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining yosh avlod vakillarining huquq va erkinliklarini xalqaro miqyosda kafolatlash maqsadida bir qator universal normativ hujjatlarni ratifikatsiya qilganligini alohida qayd etishimiz zarur. Jumladan, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt singari bir qator universal hujjatlar shular jumlasiga kiradi. bu boradagi jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirish borasidagi davlat siyosatining nazariy-huquqiy va falsafiy asoslarini tahlil qilish zaruriyati yurtimiz uchun o‘ziga xos jihatlarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

birinchidan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti bosqichida yoshlarning roli va salmog‘i tobora ortib bormoqda;

ikkinchidan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq har bir jarayonning uzviyligi va vorisiyligi ta’minlanmoqda;

uchinchidan, yoshlar ma’naviy salohiyati mamlakatimiz ilm-fan yutuqlari bilan bog‘liq bo‘lib, ilm-ma’rifatni egallash umummadaniy, ma’rifiy darajasi orqali jamiyat hayotida o‘z aksini topmoqda.

“Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar belgilangan:

ochiqlik va shaffoflik;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;

ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;

yoshlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi”[3].

Yoshlarga oid davlat siyosati mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlar va ularning orzu-maqsadlarini aks etishi, umuman olganda, xalqimizning farovon va barqaror rivojlanishga erishishi uchun poydevor bo‘lishi lozim.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Yurtimizda Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo kengash tashkil etildi. Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzildi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi. Farzandlarimizning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qoladi”[4].

Ushbu ezgu maqsadlarni amaliy hayotdagi tasdig‘ini yurtimizda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimining yo‘lga qo‘yilayotganligi, yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrab olinish imkoniyatlarining kengayib borayotganligi, ta’lim tizimini isloh qilish borasidagi islohotlar, pedagogik kadrlar ilmiy salohiyatini kuchaytirish, ularni nufuzli xorijiy ta’lim muassasalariga tajriba almashishida imkoniyatlarning yaratilayotganligi misollarida ko‘rishimiz mumkin. Respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida ommaviy sport va jismoniy tarbiyaga jalb etish sohasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarning sportga qiziqishini oshirish va ommalashtirishda uch bosqichli sport musobaqalari “Umid nihollari” – “Barkamol avlod” – “Universiada” o‘yinlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[5]gi Qarori asosida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yuksaltirish dasturining qabul qilinishiga poydevor bo‘ldi. Mamlakatimizning besh yillik rivojlanish yo‘lini belgilagan Harakatlar strategiyasida 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish dasturi doirasida yurtimizda sport maktablarining moddiy-texnik bazasini yangilash uchun 167 ta sport inshooti, shundan, 77 ta suzish havzasi va 90 ta sport majmuasini qurish rejaga kiritilgan.

E’tiborli jihati, davlatimiz yoshlarga oid davlat siyosatini nafaqat mamlakatimiz hayotiga tatbiq etmoqda, shuningdek jahon hamjamiyatiga o‘zining bir necha tashabbus va takliflari bilan faol qatnashib kelmoqda. Buning amaliy tasdig‘i, Prezident Shavkat Mirziyoyev

tomonidan dunyo hamjamiyatiga “Bolalar va yoshlar huquqlari bo‘yicha Vakil instituti”ni tashkil etish zarur ekanligi borasidagi taklifni ilgari surilganligidir.

Bundan tashqari, yurtimizda iqtidorli va iste’dodli yoshlarning bilimi va intilishini moddiy-ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish maqsadida “Nihol” davlat mukofoti (2006), “Kelajak bunyodkori” medali (2017), “Yosh kitobxon” tanlovi (2018), “Mard o‘g‘lon” mukofoti (2018), “Ilhom” mukofoti (2020), shuningdek oliy ta’lim muassasalari iqtidorli talabalari uchun Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek, Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyalari joriy etilganligini alohida qayd etishimiz o‘rinlidir. “Bugun yurtimizda turli sohalarda mehnat qilib, xalqimiz hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lgan zamonamiz qahramonlarining faoliyati hududlarimizdagi barcha yoshlarga o‘rnak bo‘lib kelmoqda. O‘z kasbi bo‘yicha yuksak natijalarga erishgan turli soha vakillari faoliyatini targ‘ib qilish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritish, ularni yoshlarga namuna sifatida yetkazish va keng targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega”[6]. Hozirgi globallashuv davri ehtiyojlaridan kelib chiqib, yurtimizda yoshlarning tezkor va ishonchli huquqiy axborot hujjatlari bilan tanishishi uchun huquqiy axborot internet sahifasidan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Buni mamlakatimiz qonun hujjatlarining ma’lumotlar milliy bazasi “lex.uz” internet tarmog‘ining yaratilgani misolida ko‘rishimiz mumkin.

Bugun yosh avlod vakillarini nafaqat moddiy, shuningdek, ularni ma’nan barkamol bo‘lishi, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o‘zida tarbiyalashi uchun ularning aql-salohiyati, ongi va ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirish masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Umuman olganda, yurtimizda Konstitutsiya asosidagi mazkur Qonun va qonunosti hujjatlarning qabul qilinishi bir tomondan yosh avlodning o‘z huquq, erkinlik va maqsadlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini yaratsa, boshqa tomondan ularning siyosiy faolligi hamda ma’naviy salohiyatining yuksalishiga xizmat qilmoqda. Yoshlar har qanday davlat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatning muhim obyektini tashkil etuvchi ijtimoiy qatlam hisoblanar ekan, bu davlat va jamiyat yuksalishining natijasi va uning kuchi, mamlakatdagi munosib avlodning kamol topishi bilan uzviy bog‘liq. Chunki demokratik davlat dastlab ta’lim taraqqiyoti, yoshlarning zamonaviy kasb doirasidagi kuchli bilim va tajribaga ega bo‘lishini kafolatlaydi. Shu bilan bir qatorda, yoshlar uchun ma’naviy-axloqiy, siyosiy-huquqiy munosabatlarda zarur imkon va sharoitlarni yaratadi.

Bizningcha, mamlakatimizda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari olib borilayotgan yoshlarning g‘oyaviy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy tarbiyasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Barchangiz yaxshi bilasiz, biz bugun o‘z oldimizga ulkan marralarni qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli, ushbu sohalarda tub islohotlarni izchil amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar”[7]. Yoshlarning hukumat dasturlarining tatbiqi jarayonidagi faol ishtiroki mamlakat taraqqiyotidagi eng ishonchli yo‘l hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xursandov A. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslari // Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2020. №3. –B.26.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // https://adolat.uz/uzbekiston/murozhaatnoma-2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-sonli Qonuni // Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, 9-son.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // https://president.uz/uz/lists/view/3824.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli Qarori // https://lex.uz/docs/3226019?query.
6. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harkatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. –B.208.
7. Mirziyoyev Sh. Yoshlar - O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi // https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662.
8. Sobirovich, T. (2025). New Uzbekistan and Political Reform: The Role of National Strategies In Strengthening Governance. Indonesian Journal of Public Administration Review, 2(2), 12-12.
9. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

HISTORICAL ANALYSIS OF APPROACHES TO THE THEORY OF SOCIAL MOBILITY

Karimova Lola Muzafarovna
Bukhara State Medical Institute
Associate Professor of the Department of Social Sciences, PhD

Abstract. This article presents a historical analysis of theoretical approaches to social mobility. The study begins with the foundational work of Pitirim Sorokin, who introduced key classifications such as vertical and horizontal mobility. The article examines structural-functionalist perspectives (e.g., Talcott Parsons, Kingsley Davis), conflict theories (e.g., Karl Marx), and critical approaches, particularly those of Pierre Bourdieu, who emphasized the role of cultural capital in mobility processes. Furthermore, the paper explores empirical research by John Goldthorpe and others, which demonstrate that absolute equality of opportunity remains a myth in most societies. The author argues that social mobility should be understood not only as a result of individual effort, but also as a complex phenomenon shaped by systemic structures and socio-economic policies. The article contributes to sociological theory and is relevant for scholars studying social stratification, inequality, and educational policy.

Keywords: social mobility, sociology, Sorokin, structuralism, conflict theory, cultural capital, inequality, empirical research, education, social structure.

IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI

Karimova Lola Muzafarovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy mobillik tushunchasiga turli ilmiy-nazariy yondashuvlarning tarixiy shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Ilk nazariy asoslar Pitirim Sorokinning ijtimoiy va madaniy mobillik toifalari orqali yoritiladi. Maqolada strukturalistik, konfliktologik va tanqidiy qarashlar — jumladan, Talkott Parsons, Kingsli Devis, Karl Marks, Per Burdyo kabi mutafakkirlarning fikrlari solishtirma tahlil etiladi. Shuningdek, zamonaviy empirik tadqiqotlar (masalan, Djon Goldtorp ishlari) asosida ijtimoiy mobillikning murakkab va ko‘p omilli xarakteri ochib beriladi. Muallif ijtimoiy mobillik faqat shaxsiy harakat emas, balki tuzilmaviy imkoniyat va siyosiy-iqtisodiy siyosatlarga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Maqola sotsiologiya, ijtimoiy siyosat va ta’lim sohalarida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy mobillik, sotsiologiya, Sorokin, strukturalizm, konflikt nazariyasi, madaniy kapital, tenglik, empirik tadqiqotlar, ta’lim, ijtimoiy tuzilma.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N18

Kirish. Ijtimoiy mobillik — har qanday jamiyatdagi asosiy ijtimoiy jarayonlardan biri bo‘lib, shaxs yoki ijtimoiy guruhning bir ijtimoiy maqomdan boshqasiga o‘tishi bilan bog‘liq. Ushbu tushuncha nafaqat shaxsiy yutuqlar yoki muvaffaqiyatlar, balki ijtimoiy tuzilmadagi dinamik o‘zgarishlarni ham aks ettiradi. Ijtimoiy mobillikning ilmiy-nazariy tahlili XX asr sotsiologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ijtimoiy mobillik nazariyasiga ilk marotaba jiddiy nazariy yondashuvni italiyalik sotsiolog **Pitirim Sorokin** (1937) o‘zining «Social and Cultural Mobility» nomli asarida taqdim etdi. U ijtimoiy mobillikni vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda tasniflab, jamiyatdagi ijtimoiy iyerarxiya va tabaqalashuv bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Sorokinning yondashuvida mobillik — jamiyatdagi muvozanat va dinamiklik mezoni sifatida baholandi. XX asrning o‘rtalarida ijtimoiy mobillikni **jamiyat tuzilmasining bir qismi** sifatida o‘rganish tendensiyasi kuchaydi. Masalan, **Talkott Parsons** va **Kingsli Devis – Vilbert Mur** kabi strukturalistlar ijtimoiy mobillikni jamiyatning funksional barqarorligini ta’minlovchi mexanizm sifatida ko‘rdi. Ularning fikricha, qobiliyatli va mehnatkash shaxslar yuqori maqomlarga ko‘tarilishi — jamiyat samaradorligini oshiradi.

Bu nazariya tanqidchilar tomonidan “meritokratiyani ideallashtirish” va imkoniyatlar tengsizligini inkor etishda ayblangan. **Karl Marks** va uning shogirdlari ijtimoiy mobillikni sinfiy kurash kontekstida ko‘rdi. Ularning fikricha, kapitalistik jamiyatda mobillik cheklangan bo‘lib, iqtisodiy resurslar va ijtimoiy mavqe avloddan avlodga o‘tadi. **P. Burdyo**, o‘z navbatida, **madaniy kapital** tushunchasini kiritib, ta’lim, nutq madaniyati va madaniy muhit ham shaxsning mobillik salohiyatiga ta’sir qilishini ta’kidladi.

Bu yondashuvlarda ijtimoiy tengsizlik va qulay pozitsiyalarning irsiylashuvi mobillikning faqat formal imkoniyat bo‘lib qolishini ko‘rsatadi.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida ijtimoiy mobillik sotsiologiyasida **empirik tadqiqotlar** ustuvor bo‘ldi. Masalan, **Djon Goldtorp** va hamkorlari Buyuk Britaniyadagi avlodlararo ijtimoiy harakatlanishni tadqiq etib, hech bir jamiyatda “absolyut teng imkoniyatlar” mavjud emasligini isbotladi. U shuningdek, “tug‘ma afzalliklar” va “strukturaviy to‘siqlar”ning mavjudligini nazariy va amaliy jihatdan asosladi.

Yangi zamon tahlillarida, shuningdek, **gender**, **millat**, **inklyuzivlik**, **raqamlashuv** va **globallashuv** omillari ijtimoiy mobillikning yangi o‘lchamlarini belgilamoqda.

Natijalar va muhokama. Zamonaviy dunyo ko‘rinishida jamiyatda yashayotgan kishilar doim harakatda, jamiyat esa rivojlanishda bo‘ladi. Bu holat jamiyat ijtimoiy strukturasining doimiy o‘zgaruvchanligini anglatadi.

Insoniyat tarixida alohida bir shaxsning ijtimoiy hayotdagi pozitsiyasining o‘zgarishi bilan emas balki, butun bir ijtimoiy guruhlar ijtimoiy pozitsiyasining o‘zgarishini ham kuzatiladi. Bunga katta yer egalari aristokratiyasining o‘rniga moliyaviy burjuaziyaning kelishi, tor doiradagi bilim va ko‘nikmalarga ega kichik ishlab chiqaruvchilar, ya’ni hunarmandchilik o‘rniga injenerlarning, dasturchilarning (programistlar), robototexnika orqali boshqariladigan ishlab chiqarishlarning, operatorlarning aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, rivojlangan innovatsion ilmiy texnikaning kelishi yoki XIX-XX asrlarda yuz bergan urushlar va inqiloblar natijasida ba’zi bir davlatlar iqtisodiyotining rivojlanib ketishi, ba’zilarining esa inqirozga yuz tutgani tarixdan bizga ma’lum. Mana shunday o‘zgarishlar O‘zbekistonda ham yuz berganining guvohi bo‘lamiz. Mustaqillikdan so‘ng katta mulk egalari bo‘lgan mulkdorlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlar elitasining jamiyat hayotiga kelishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi va mamlakatda yangi davlat va yangi jamiyat qurilishi natijasida O‘zbekiston jamiyatining modernizatsiyalash davrida ijtimoiy mobillik muammolari alohida dolzarblik kasb etdi. Mustaqillik sharoitida O‘zbekistonda, ijtimoiy mobillik (harakatchanlik) konsepsiyasining jadal amal qilishi uchun qulay sharoit yuzaga keldi.

Mamlakat mustaqillikka erishish va mustaqillikni mustahkamlash uchun olib borilgan harakatlar va siyosiy kurashlar tugatilib, endi insoniyat yuqori intellektual taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ydi. Ijtimoiy taraqqiyotning bu bosqichi yangi, jamiyatning o‘ziga xos qonuniyatlar asosida qurilishi ayni haqiqat bo‘ldi. Abu Rayhon Beruniy ta’kidlaganidek, «Aslida ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydo bo‘ladi. Xalq haqqoniy tarixini bilib o‘zlikni anglay boshladi» .

Bugungi kunda mamlakatimiz olimlari ijtimoiy-kasbiy va iqtisodiy harakatchanlikni, shu jumladan, uning subyektiv jihatini tahlil qilish, zamonaviy O‘zbekiston jamiyatining turli qatlam va guruhlari ijtimoiy mobilligining tendensiyalarini ko‘rib chiqish hamda zamonaviy sharoitlarda ijtimoiy mobillikning turli ko‘rinishlarini empirik o‘lchash metodikalarini ishlab chiqish bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

Mamalakatimiz aholisi hayotida eng jadal ijtimoiy mobilliklar qisman 14 yoshdan va to‘liq 16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan davrda ro‘y beradi. Ayollarning ijtimoiy mobillik darajasi yuqori bo‘lgan ijtimoiy-demografik guruhga aylantiradigan omillarga quyidagilar kiradi:

1. Ta’limdan mehnat faoliyatiga o‘tish, individning jamiyatdagi ijtimoiy-kasbiy tuzilishiga integratsiya bo‘lishi, mustaqil iqtisodiy maqomga ega bo‘lish. Qator tadqiqotchilar mehnat faoliyatiga o‘tish vaqtini Ayollar yoshining eng past chegarasi, deb biladi. «Ayollar deganda, — deb ta’kidlaydi M.Rutkevich, – odatda a’zolari o‘z jismoniy va ma’naviy kamolotida, bolalar va o‘smirlardan farqli o‘laroq, jamiyat hayotida, avvalo ishlab chiqarishda faol, mustaqil ishtirok etishga tayyor bo‘lgan ijtimoiy-demografik guruh tushuniladi». Shunga o‘xshash fikrni F.Filippov ham ilgari surib, uning nazarida Ayollarning ijtimoiy tabiati ko‘p jihatdan mehnat faoliyati bilan belgilanadi .

2. Odatda, 30 yoshga to‘lishga qadar insonning shaxsiy yutuqlari natijasida uning bo‘lajak xizmat karyerasi uchun zamin yaratiladi va u o‘sib boruvchi vertikal harakatchanlikni amalga oshiradi.

3. Ayollarning o‘z mehnat faoliyatini boshlashi turli qatlamlardan chiqqan odamlar uchun ota-onalar erishgan ijtimoiy yutuqlarni taqqoslash, ijtimoiy kelib chiqishning bo‘lajak kasbiy va boshqa muvaffaqiyatlarga ta’sir darajasini hamda avlodlararo ijtimoiy mobillikning boshqa jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

4. 30 yoshga to‘lishga qadar Ayollar o‘z oilasini quradilar va o‘z farzandlarini dunyoga keltiradi [3, 141-144-b].

Shu tarzda boshqa guruhlarga qaraganda aynan ayollarga o‘sib boruvchi ijtimoiy mobilliklar, faollik hamda ijtimoiy mobilligida asosiy o‘rinni egallaydi. Bularning barchasi ayollarni eng jadal guruh sifatida ta’riflash imkonini beradi hamda ushbu ijtimoiy-demografik guruh ijtimoiy mobilligini tartibga solish mexanizmlarini tadqiq etishning dolzarbligini izohlaydi.

«Ayollar ijtimoiy mobillik» tushunchasi keng ma’noda ijtimoiy mobillik – bu Ayollarning ijtimoiy dinamikasi, ya’ni ayollar, ularning alohida guruhlarining turli omillar ta’siri ostida ijtimoiy harakatlanishidir. Jamiyat tuzilishi ko‘plab ijtimoiy pozitsiyalarni o‘z ichiga olishi ijtimoiy harakatlanish jarayonlarining xilma-xilligini izohlaydi.

Harakatlar yo‘nalishi, ular ro‘y beradigan jamiyat hayotining sohalaridan, ishtirokchilar miqdori va boshqa mezonlardan kelib chiqib ayollar ijtimoiy mobillik oliy qatlamlar, sinflar,

stratalarga o‘tish (o‘sib boruvchi mobillik) va past qatlamlar, sinflar, stratalarga o‘tish (pasayib boruvchi mobillik)ga bo‘linadi.

Ijtimoiy voqelikda faqat vertikal harakatlanish keng tarqalmagan hamda ko‘p jihatdan ideal tip bo‘lib, ushbu jarayonlarni tadqiq etishda fandan chekinish bilan izohlanadi. Individlar, oilalar, ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy pozitsiyalarini tabaqalashtirish (daromad darajasiga ko‘ra) murakkab emas. Aholini ta’lim jihatidan tabaqalashtirish ham oson ish. Lekin, bu ikki o‘lchamni bir tizimga solishga urinilsa, yuqori daromad doim ham yuqori ta’lim darajasining sababi emasligi, ko‘p hollarda teskari, ya’ni sarmoyalar ta’limning hajmi va sifatini belgilashi ayon bo‘ladi.

Siyosiy va kasbiy tabaqalashtirish ham aynan bir natijani bermaydi. Individlar va ijtimoiy guruhlarning bir ijtimoiy pozitsiyadan boshqasiga, lekin shu darajadagi pozitsiyaga (teng mavqega ega bo‘lganiga) o‘tishi gorizontal harakatchanlikni tashkil etadi. Ayni paytda shuni e’tiborda tutish lozimki, obyektiv jihatdan teng bo‘lgan ijtimoiy pozitsiyalar qo‘shimcha omillar ta’siri ostida subyektiv jihatdan foydaliroq yoki foydasiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli, bir diniy konfessiyadan boshqasiga, bir davlat fuqaroligidan boshqasiga o‘tish, bir nikohdan boshqasiga o‘tish, bir kasbdan boshqasiga o‘tish va hokazo ijtimoiy harakatlar sof gorizontal harakatlar hisoblanmaydi, chunki ko‘p hollarda iqtisodiy, siyosiy, shaxslararo mavqeyining o‘zgarishiga ham olib keladi.

Yosh insonning mavqeyini o‘zgartiradigan moliyaviy harakatlar iqtisodiy harakatchanlikning mohiyatini tashkil etadi. Zamonaviy sharoitlarda, bu turli ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bilan ham tasdiqlanmoqda, individning iqtisodiy mavqeyi uning daromadi, u mehnat qilayotgan korxona mulkchilik shakli, mulkka bo‘lgan munosabati kabi eng muhim ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi .

Ayollarning o‘sib boruvchi ijtimoiy mobilligining omillari sifatida quyidagilar xizmat qiladi: siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, jamiyatdagi harakatchanlik doirasi kengligi, ota-onaning ta’lim darajasining yuqoriligi, moddiy farovonlik, shaharlik bo‘lish, tijorat yoki xususiy tadbirkorlik sohasida band bo‘lish, ma’lum shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lish (tirishqoqlik, intiluvchanlik, muloqotga kirishish, egiluvchanlik, o‘zgarishlarga tayyorlik). Pasayib boruvchi mobillikning omillari – jamiyat ijtimoiy tuzilishining keskin o‘zgarishi, siyosiy va iqtisodiy tanazzullar, ma’lum kasbdagi mutaxassislar tayyorlash hajmining mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelmasligi, ota-onada oliy ma’lumotning yo‘qligi, moddiy ta’minlanganlikning o‘rtacha darajadan pastligi, qishloq joylarda istiqomat qilish, budjet sohasida band bo‘lish, yosh xodimlarning boshlang‘ich mehnat haqi pastligi, sustlik, tashabbussizlik, intiluvchan bo‘lmaslik va hokazo.

Siyosiy harakatchanlik individlar yoki ijtimoiy guruhlardagi o‘zgarishlarni izohlaydi. Siyosiy mavqe u yoki bu insonda bo‘lgan, uning o‘zi hal qiladigan hokimiyat vakolatlari bilan izohlanadi. Ayni paytda nafaqat davlat boshqaruvi tizimidagi mansabdor shaxslar, balki siyosiy partiyalar yetakchilari, harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi organlar boshqaruvchilari, yirik korporatsiyalar, OAV rahbarlari va hokazolar yuqori siyosiy mavqega egadir [2, 1448-1452-b].

Hokimiyat vakolatlarining ortib borishi xizmat pillapoyalaridan tepaga harakatlanishning ajralmas jihati, kasbiy harakatchanlikning ko‘rsatkichlaridan biridir. Shu bois, siyosiy stratifikatsiya va siyosiy harakatchanlik modellari katta noaniqlik bilan izohlanadi.

Individlar yoki ijtimoiy guruhlarning kasbiy pozitsiyalarining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi harakatlar kasbiy harakatchanlikda namoyon bo‘ladi. Ayollar kasbiy harakatchanligining

turlaridan biri ish joyini o‘zgartirishidir. Ushbu harakatchanlik lavozim yoki ixtisoslikning o‘zgarishi bilan birgalikda yoxud bu alomatlarni saqlab qolish bilan kechishi mumkin. Kasbiy harakatchanlikning ahamiyatli ko‘rsatkichlaridan biri xizmat karyerasidir – ijro etuvchi ishdan rahbarlik ishiga o‘tish. Kasbiy harakatchanlik individ malakasining ortishi, kasbiy mahoratining yuksalishi, shu orqali kattaroq razryadga, unvonga, ilmiy darajaga va hokazolarga ega bo‘lish bilan izohlanadi [1, 17-23-b].

Zamonaviy jamiyatlarda individga xos bo‘lgan eng muhim jihatlardan biri unda ta’lim darajasining bo‘lishidir, uning o‘zgarishi esa ta’lim harakatchanligidir. O‘zbekistonda insonning ta’limga doir mavqeyi unda asosiy, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim darajasi mavjudligi bilan izohlanadi. Ta’lim hamda kasbiy harakatchanlikka ta’sir qiluvchi qo‘shimcha omil kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslaridir. Ayollar ta’lim harakatchanligining yo‘nalishlaridan biri sifatida bir o‘quv muassasasidan, o‘quv maskanining nufuzidan kelib chiqib boshqasiga o‘tish, bunday harakatlar inson ta’lim mavqeyini yuksaltirishi yoki pasaytirishi mumkin.

Jamiyat hayotining turli sohalarida Ayollar ijtimoiy mavqeyi ularning ota-onalari mavqeyiga nisbatan o‘zgarishi esa avlodlararo harakatchanlikni tashkil etadi. Avlodlararo harakatchanlik ijtimoiy o‘zgarishlarning muhim omili hamda individlarning ijtimoiy faolligini namoyishidir. Farzandlar ijtimoiy mavqeyining ota-onalar ijtimoiy mavqeyiga nisbatan o‘zgarishi – jadal rivojlanib borayotgan jamiyatning ko‘rsatkichlaridan biridir.

Ishtirokchilar miqdoridan kelib chiqib ijtimoiy mobillik yakka tartibdagi harakatchanlik (alohida individlarning harakatlari) va jamoaviy harakatchanlikka (ijtimoiy guruhlar, sinflar holatining o‘zgarishi) bo‘linadi. Individlar va guruhlar harakatchanligiga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, avvaldan belgilangan va erishilgan mavqega qaratilayotgan ahamiyatda namoyon bo‘ladigan tabaqalashish tizimi. Jamiyat institutlari belgilangan mavqega katta e’tibor qaratganda, jamoaviy yoki guruhli harakatchanlik tendensiyalari vujudga keladi. Erishilgan mavqega katta e’tibor qaratiladigan jamiyatlarda yakka tartibdagi harakatchanlik tendensiyasi ustunlik qiladi [5].

Ikkinchidan, ijtimoiy kelib chiqishi (irq, millat, yosh va h.) yakka tartibdagi harakatchanlikka to‘sqinlik qiladigan omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ayrim ijtimoiy qatlamlar guruh a’zolarining avvaldan belgilangan mavqeyi ularning muvaffaqiyatiga to‘sqinlik qilmasligi uchun jamoaviy harakatchanlikka intiladi. Bunga turli harakatlar, jumladan, milliy va irqiy kamchiliklarning huquqlarini tiklash va saqlab qolish uchun kurashuvchilar, xotin-qizlarga ko‘proq huquq berish uchun kurashuvchilar va hokazolar misol bo‘la oladi. Bu harakatlarning muvaffaqiyati jamoaviy sa’y-harakatlar natijasida avvaldan belgilangan mavqeni o‘zgartirish mumkinligidan dalolat beradi .

Uchinchidan, ijtimoiy guruhlar holatining o‘zgarishiga turli ijtimoiy beqarorliklar (inqilob, urush, harbiy isyon, davlat to‘ntarishlari, mitinglar, namoyishlar va h.) ta’sir ko‘rsatadi [4].

Ijtimoiy harakatlarga davlatning ta’sir darajasidan kelib chiqib ijtimoiy mobillik betartib va uyushgan bo‘ladi. Uyushgan harakatchanlik ikkita usul orqali amalga oshiriladi:

a) odamlar roziligi bilan;

b) ularning roziligisiz.

Tor ma’noda «ayollar ijtimoiy mobillik » tushunchasi ikki ma’noda qo‘llanadi. Birinchidan, u subyektning, avvalo yosh insonning o‘z ijtimoiy mavqeyini o‘zgartiradigan ijtimoiy harakat. Ikkinchidan, bu tushuncha ayollar ijtimoiy dinamikasi jarayonining bosqichlaridan birini, ya’ni harakat qilish qobiliyatini anglatadi.

Demak, Ayollar o‘z ijtimoiy harakatini amalga oshirish uchun o‘zi harakat qilishi hamda davlat va jamiyatning ayollarning ijtimoiy harakatiga yetarlicha sharoit yaratishiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, ijtimoiy harakatlar uchun ota-onaning farzandlariga kiritgan kapitaliga va farzandlarni esa shu kiritilgan kapitalni o‘zlashtirish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa. Ijtimoiy mobillikning nazariy tahlili jamiyatdagi imkoniyatlar tengligi, resurslarga kirish, ta’lim va iqtisodiy siyosatlar bilan chambarchas bog‘liq. Agar P. Sorokin bu tushunchani ilk sistemali ravishda asoslab bergan bo‘lsa, keyingi qarashlar mobillikning ichki mexanizmlari va cheklovlarini ochib berdi. Bugungi kunda ijtimoiy mobillik faqat shaxsiy harakat va qobiliyat emas, balki tuzilmaviy o‘zgarishlar va davlat siyosatlarining tugma qismi sifatida baholanmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimova L. M. SOCIAL PROCESSES SOCIAL MOBILLIKNING MOVEMENT QUALITATIVE STREET //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 17-23.
2. Mukhlisa A., Amanovna H. A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF WORKING WITH DISORDERED YOUTH //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 1448-1452.
3. Шарипов А., Мухаммадиева Г. И. Some theoretical aspects moral and legal education of schoolchildren //Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Гуманитарные науки. – 2019. – №. 3 (60). – С. 141-144.
4. Sharipov A. A PHILOSOPHICAL ASPECT OF THE NEW INNOVATION AND INVESTMENT ENVIRONMENT: PHILOSOPHICAL ASPECT OF THE NEW INNOVATION AND INVESTMENT ENVIRONMENT //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.
5. Sharipov A. A Actual Tasks of Ensuring Harmony of Uzbek Philosophy and Development Strategy: Actual Tasks of Ensuring Harmony of Uzbek Philosophy and Development Strategy //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

SPECIFIC FEATURES OF THE CLARIFICATION OF THE ISSUES OF FREEDOM AND LONELINESS IN JEAN-PAUL SARTRE'S EXISTENTIAL PHILOSOPHY

Jumayeva Shakhlo Suyunovna
Senior lecturer at the Economic and Pedagogical University
E-mail: jumayevashaxlo507@gmail.com

Abstract. When discussing the features of existential anthropology, an important place is occupied by the issues of human freedom and loneliness in the existential philosophy of Jean-Paul Sartre. According to him, man himself determines his existence and has no predetermined essence. Freedom occupies a central place in Sartre's philosophy: man himself shapes his life through his choices and actions. At the same time, this freedom leads to loneliness, since each person must make decisions independently. The article analyzes the thoughts of J.P. Sartre on this matter.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Gender zo‘ravonligiga qarshi kurash choralari deganda, ayollar va qizlarga nisbatan jinsga asoslangan tazyiq tahdid, zo‘rlik, kamsitish yoki haqorat kabi har qanday salbiy harakatlarning oldini olish, kamaytirish va ularni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy, ta’limiy va madaniy chora – tadbirlar tushuniladi.

Mazkur masala doirasida faoliyat olib borayotgan tashkilotlar ham dunyoda yuzaga kelayotgan muammolar, turli bosimlar, inqirozlar ta’sirida qolayotgan ayollarni himoya qilishga asosiy e’tiborni qaratib kelishmoqda. “BMT Ayollar” Birlashgan Millatlar Tashkilotining gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirishga bag‘ishlangan tashkiloti

mavjud bo‘lib, mazkur sohada samarali faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholi jamg‘armasi, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) gender zo‘ravonligi bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib boradi va doimiy hisobotlar e’lon qiladi.

Mamlakatimizda ham Respublikada oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni hamda “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘linmalari tashkil etilgan.

Muhokama. Gender zo‘ravonligining asosiy ko‘rinishlari mavjud**.** Gender zo‘ravonligi – bu insonning jinsi yoki ijtimoiy roli asosida unga nisbatan ko‘rsatiladigan salbiy munosabat va tazyiq shakllarining yig‘indisidir. Bu turdagi zo‘ravonlik ko‘pincha yashirin tarzda ro‘y beradi va ko‘pchilik uni oddiy holat yoki “shaxsiy ish” deb qabul qilgani sababli o‘z vaqtida aniqlanmaydi. Quyida gender zo‘ravonligining asosiy shakllari keltiriladi:

Jismoniy zo‘ravonlik — bu zo‘ravonlik turi eng ko‘zga ko‘rinadigan va tan olinadigan shakldir. Unga urish, itarish, kaltaklash, tanaga jarohat yetkazish kabi harakatlar kiradi. Ko‘pincha oilaviy muhitda er-xotin orasida yoki ota-ona tomonidan bolalarga nisbatan sodir etiladi. Bunday harakatlar inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi va ba’zida o‘lim bilan ham yakunlanishi mumkin.

Ruhiy (psixologik) zo‘ravonlik — ruhiy tazyiq ko‘pincha jismoniy zo‘ravonlikka qaraganda ko‘proq yashirin bo‘ladi. Bunga haqorat qilish, kamsitish, tahdid qilish, qichqirish, doimiy nazorat ostida saqlash, izolyatsiya qilish kabi harakatlar kiradi. Bu shakldagi zo‘ravonlik insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi, depressiya, xavotir, hatto o‘z joniga qasd qilish holatlariga olib kelishi mumkin.

Jinsiy zo‘ravonlik — bu shaxsning roziligisiz unga nisbatan jinsiy harakatlarni amalga oshirishdir. Bunga jinsiy tajovuz, nikohda bo‘lganiga qaramay aloqaga majburlash, jinsiy tahdidlar, kamsituvchi izohlar kiradi. Bu turdagi zo‘ravonlik odatda jamiyatda yopiq mavzu sifatida qabul qilinadi, natijada jabrlanuvchilar ko‘pincha jim yurishga majbur bo‘ladilar.

Ijtimoiy zo‘ravonlik – shaxsning ijtimoiy hayotdagi erkinligini cheklashdir. Do‘stlar bilan uchrashish, ta’lim olish, ishga kirish, internetdan foydalanish kabi huquqlarning cheklanishi bu shakldagi tazyiqdir. Ayrim hollarda oilaning, jamiyatning yoki hatto diniy qarashlarning bosimi ostida odamlar o‘z shaxsiy hayotini erkin tashkil eta olmaydilar.

Gender zo‘ravonligiga qarshi kurash choralari bor. Gender zo‘ravonligiga qarshi kurashish – bu nafaqat huquqiy tizim, balki butun jamiyat zimmasiga yuklangan muhim vazifadir. Zo‘ravonlikka qarshi chora-tadbirlar tizimli, barqaror va ko‘p yo‘nalishli bo‘lishi zarur. Gender zo‘ravonligiga qarshi samarali kurashning eng muhim yo‘llaridan biri – bu qonunchilikni kuchaytirish va mavjud qonunlarni amalda qo‘llashdir. Zo‘ravonlikka qarshi maxsus qonunlar, jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlar, himoya orderlari va tezkor aralashuv mexanizmlari jabrlanuvchini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini gender masalalari bo‘yicha muntazam o‘qitish kerak [1; 2-6-б.].

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-sonli qarorida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ular mazkur sohadagi normativ-huquqiy bazani shakllantirish va takomillashtirish, mazkur sohadagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar madaniyatini shakllantirish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda xotin-qizlar va erkaklarning teng ishtirok etishini ta’minlash kabilarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, mehnatga oid va oilaviy majburiyatlarni birga bajarishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash, oilani, bolalikni ijtimoiy jihatdan himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash, mas’uliyatli onalik va otalikni shakllantirish, jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishga qaratilgan axborotdan jamiyatni himoya qilish davlat siyosating asosiy yo‘nalishi etib belgilangan [2; 3-4-б.].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” SQ-297-IV-sonli Qarori mavjud bo‘lib, unda gender strategiyasining maqsadi va vazifalari keltirib o‘tilgan. Gender strategiyasining asosiy vazifalari xotin-qizlarning yer va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo‘llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq salbiy qarashlarni o‘zgartirish, aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish o‘rinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo‘lgan imkoniyatlarini kengaytirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari qarorda xotin-qizlar va erkaklarni butun umri davomida o‘qishga bo‘lgan imkoniyatlarini rag‘batlantirish, ularning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish va reproduktiv salomatligini mustahkamlash, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini yuksaltirish, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish, tazyiq va zo‘ravonlikni oldini olish, ularni aniqlash va barham berish bo‘yicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish asosiy vazifa etib belgilangan.

Natijalar. Jamiyatda gender tengligi g‘oyasini shakllantirish uchun maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab, oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda genderga oid bilimlar berilishi lozim. O‘quvchilar va talabalar orasida gender stereotiplari, zo‘ravonlik oqibatlari va inson huquqlari mavzularida ochiq suhbatlar, treninglar tashkil etilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarning o‘zi ham ushbu masalada ma’rifatli bo‘lishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” SQ-297-IV-sonli Qarorida bu sohada uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, xotin-qizlar va erkaklarni butun umr davomida o‘qishga bo‘lgan imkoniyatlarini rag‘batlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni oliy ta’lim bilan qamrab olinishini kengaytirish, xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalarini, innovatsion g‘oyalarini, ixtirochilik, ratsionalizatorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy pedagogik

texnologiyalar va uslublarni hisobga olgan holda maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlariga gender mavzusini joriy etish orqali fuqarolarning genderga oid savodxonligini yuksaltirish kabi vazifalar ustuvor qilib belgilangan.

Shuningdek, ehtiyoji yuqori bo‘lgan sohalarda mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalariga o‘qishga va malaka oshirishga xotin-qizlarni jalb qilish, mavjud va kelajakda yaratiladigan maktab darsliklari, o‘quv-uslubiy materiallar va boshqa nashrlarning jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik prinsipiga muvofiq gender ekspertizadan o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy himoyaga muhtoj, notinch oilalardan bo‘lgan xotin-qizlarni ta’lim olishiga ko‘maklashish va ularni kasbga yo‘naltirish kabi vazifalar ham muhim ahamiyat kasb etadi [3; 3-32-б.].

Zo‘ravonlik qurbonlariga faqat huquqiy yordam emas, balki psixologik qo‘llab-quvvatlash ham muhim. Maxsus ishonch telefonlari, maslahat markazlari, psixologik reabilitatsiya markazlari orqali jabrlanuvchilar bilan doimiy aloqada bo‘lish, ularga ruhiy turg‘unlikni tiklashda yordam berish kerak. Shuningdek, vaqtinchalik boshpana markazlari (shelterlar) orqali ularni xavfsiz joyga joylashtirish muhim choralardan biridir. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar gender tengligini targ‘ib qilishda kuchli vosita bo‘la oladi. Gender zo‘ravonligi holatlari haqida xabardorlikni oshirish, real hayotiy misollar asosida ijtimoiy roliklar tayyorlash, mashhur shaxslar orqali zo‘ravonlikka qarshi pozitsiyani ifoda etish jamiyatga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Gender zo‘ravonligi – bu zamonaviy jamiyat uchun hal qilinishi zarur bo‘lgan muhim ijtimoiy muammo hisoblanadi. U nafaqat jabrlanuvchining jismoniy va ruhiy salomatligiga, balki butun jamiyatning axloqiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Gender asosida sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarni bartaraf etish uchun birinchi navbatda bunday holatlarni tan olish va ularga befarq bo‘lmaslik lozim. Gender zo‘ravonligiga qarshi kurashish faqat davlat organlarining vazifasi emas, balki har bir fuqaroning ijtimoiy mas’uliyatidir. Aholi orasida bu borada yetarli tushunchaning shakllanishi, ta’lim muassasalarida gender tengligi va inson huquqlari haqida tizimli targ‘ibot olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali jamiyatda genderga asoslangan zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhiti yaratish zarur.

Huquqiy asoslarni kuchaytirish, himoya markazlari faoliyatini kengaytirish, psixologik va ijtimoiy yordam xizmatlarini rivojlantirish, gender tengligini targ‘ib etuvchi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish gender zo‘ravonligining oldini olishda samarali vosita bo‘la oladi. Shunday ekan, gender zo‘ravonligiga qarshi kurashish bo‘yicha harakatlar muntazam davom etishi, jamiyatda har bir inson o‘zini xavfsiz, qadrlangan va teng his qiladigan muhit yaratilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, barqaror, adolatli va taraqqiy etgan jamiyatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. “Genderga doir kompleks yondashuv gender tenglikka erishishning samarali vositasi sifatida” mavzusidagi Xalqaro konferensiya materiallari to‘plami / “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. – 172 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-sonli qarori., https://lex.uz/docs/-4494849.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” SQ-297-IV-sonli Qarori., https://lex.uz/docs/-5466673.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF A SPIRITUALLY PERFECT PERSON AND ITS ESSENCE

Khudoykulov Azamat Beshimovich
associate professor of the Department of History and Social Sciences
University of Economics and Pedagogy

Beshimova Aziza Azamat kizi,
master's student of the History Department
University of Economics and Pedagogy

Abstract. This article presents reforms carried out on the basis of the national education system. Opinions and comments are presented on the achievements achieved as a result of reforms and issues of integration of the global educational space.

Keywords: Perfect human being, the meaning of human life, "small world", "beautiful with human decency", spirituality, science, personality, hereditary units (genes).

MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Xudoykulov Azamat Beshimovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Beshimova Aziza Azamat qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
tarix bo'limi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola barkamol avlodni tarbiyalashda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlar, ta'lim tizimi, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalarni uyg'un holda rivojlanishini amalga oshirish maqolaning ilmiy yangiligi; ularning uzviyligi, bir-biri bilan mutanosibligini ta'minlashni o'rganish maqolaning ilmiy-amaliy ahamiyati hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Komil inson, inson hayotining mazmuni, "kichik olam", "Inson odobi bilan go'zal", ruhiyat, ma'naviyat, fan, shaxs, irsiy birliklari (gen).

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N22.1

Ma'naviy barkamol va komil inson tushunchalarini to'liq anglashdan oldin, avvalo inson, shaxs va fuqaro tushunchalarining mazmun-mohiyatini tushunib olish zarur bo'ladi.

Inson — juda murakkab, ko'p qirrali va ko'p o'lchamli mavjudot bo'lib, uning mohiyatini tushunish borasida turli nazariyalar va fikrlar ilgari surilgan. Sharq falsafasi tarixida esa inson masalasi doimo markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan.

Masalan, Forobiy o'z falsafasida insonni butun borliq taraqqiyotining natijasi sifatida tushuntiradi. U insonning yuksak fazilatlari aynan ilm orqali shakllanishini, hayotning mazmuni esa baxtli yashash va boshqalarni ham baxtli etishga intilishdan iboratligini ta'kidlaydi. Bu maqsadga esa faqat ilm va ma'rifat orqali erishish mumkinligini ko'rsatadi. Beruniy va Ibn Sino

insonning boshqa mavjudotlardan ustunligini uning aql-zakovati va tafakkuri orqali asoslashga harakat qilganlar. Abu Homid G‘azzoliy esa bu ustunlik insonning qalbida mujassam ekanini ta’kidlagan. Ulug‘ mutasavvuf Abduxoliq G‘ijduvoniy esa insonni “kichik olam” deb atagan.

Hayot go‘zaldir, — deydilar shoir va mutafakkirlar, lekin hayot inson bilan go‘zaldir. Inson go‘zalligini belgilovchi asosiy mezon uning ma’naviyligi, ya’ni axloq va odobi hisoblanadi. O‘zbek xalqining “Inson odobi bilan go‘zal” degan maqolining mohiyatida chuqur falsafiy ma’no yotadi.

Konfutsiy insonni o‘z mohiyatini ma’naviy-axloqiy fazilatlari va kamoloti orqali ifodalovchi mavjudot sifatida ta’riflaydi. Unga ko‘ra, insonning insonligi tabiiy ehtiyojlari, his-tuyg‘ulari va instinktlarini ma’naviyatga bo‘ysundira olishidadir. Ma’naviy mas’uliyat esa faqat insonlarga nima qilish va nima qilmaslik kerakligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, insonning ma’naviyati uning faoliyatiga maqsad, yo‘nalish va mazmun beradigan asosiy omil hisoblanadi.

Bugungi kunda faylasuflar insonni uchta buyuk qudrat – tana, ruhiyat va ma’naviyatning uyg‘unlashgan yig‘indisi sifatida tasvirlamoqdalar. Insonning biologik jihatlari ovqatlanish, himoya qilish, avlod qoldirish, sharoitga moslashish kabi xususiyatlarni o‘z ichiga olsa, uning ijtimoiy jihatlari til, muomala, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste’mol qilish, boshqarish, o‘zini o‘zi boshqarish, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar bilan ishlash kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Psixik jihatlari esa ruhiy holatlar, hayrat, g‘am-tashvish, iztirob, zavq olish, kayfiyat va shunga o‘xshash kechinmalardan iboratdir.

Inson o‘z hayoti davomida tana va ruhning ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Tana ehtiyojlarini qondirish hayotning asosiy va muhim sharti bo‘lsa-da, hayotning mazmuni faqat moddiy ne’matlardan bahramand bo‘lish, qorin to‘ydirish, zavqlanish yoki boylikka intilish bilan cheklanmaydi. Inson ruhi ham o‘ziga xos oziqqa muhtojdir. Bu ehtiyoj insonda ma’rifatparvarlik, odamiylik, adolat, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, oliy maqsadlar sari intilish va vatanparvarlik kabi ma’naviy fazilatlarning rivojlanishiga olib keladi.

Ma’lumki, tarbiya - inson shaxsi, ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Ta’lim esa axloqli, odobli shaxsga hunar o‘rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiya va ta’lim bir-biri bilan uzviy bog‘langan jarayondir. Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi haqida shunday yozadi: «Dars (ya’ni ta’lim) ila tarbiya orasida biroz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir. Chunki dars oluvchi - tarbiya oluvchi, amal qiluvchi demakdir»[6; 15-16-b.].

Inson shaxsi shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Umuman aytganda, tarbiya ta’lim berish jarayonining barcha ma’rifiy majmuasini ham vazifasini ham o‘z ichiga oladi. Har qanday ta’lim, tarbiya bilan uyg‘unlashgandagina yetuk ma’naviyatga zamin bo‘ladi.

Yuksak ma’naviyat insonni ruhiy jihatdan tozalaydi va uning iymon-e’tiqodini mustahkamlaydi. Faqat yuksak ma’naviyat inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolatni ta’minlab, saxiylik va oliyhimmatlikka erishishga yo‘naltiradi. Yuksak ma’naviyatda insonning haqiqiy mohiyati aks etadi.

Shaxs — alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy, ma’naviy mohiyatni o‘zida mujassamlashtirgan individ. Kishilar shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo‘lib shakllanadi va rivojlanadi.

Inson ta’lim-tarbiya, mehnat, o‘zaro muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy-ma’naviy me’yorlar, siyosiy qarashlar ta’siri ostida faoliyat yuritadi,

ularni o‘zlashtiradi va shu jarayonda asta-sekin ijtimoiylashib boradi, ya’ni shaxs bo‘lib shakllanadi. Natijada insonda irsiy bo‘lmagan yangicha fazilatlar paydo bo‘ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak shakli va oliy darajasidir. U o‘zida insonning mohiyatini va uning mavjudot sifatidagi qadriyatlarini aks ettiradi.

Insonning olijanob fazilatlari yetuk shaxslar obrazida o‘z ifodasini topadi. Insonga xos bo‘lgan barcha xususiyatlar shaxsning faoliyatida, jamiyatdagi o‘rnida, uning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishda hamda belgilangan g‘oyalarni amalga oshirishda aniq ko‘rinadi.

Kishi o‘zining ma’naviyati ustida ishlashi yoki boshqalarda chiroyli fazilatlarni shakllantirishi uchun, eng avvalo tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatayotgan insonning asl mohiyati bilan tanish bo‘lishi lozim.

Inson bioijtimoiy maxluqotdir. Boshqacha qilib aytganda, u ham biologik, shu bilan bir qatorda ham ijtimoiy mohiyatga ega.

Uning biologik mohiyatiga, uni boshqa jonzotlardan biologik tur sifatida ajratib turuvchi tik yurishi, tanasining o‘lchamlari, bosh, oyoq va qo‘llarining shakl-shamoyili, fikrlay olish qobiliyati, nerv sistemasining tuzilishi, qonining issiqlik darajasi va kimyoviy tarkibi hamda boshqa bir qator biologik ko‘rsatkichlari kiradi.

Kishining ijtimoiy mohiyati deganda, ajdodlardan unga meros bo‘lib o‘tgan irsiy birliklari (gen)dagi axborotlar bilan uning shaxsiy hayoti davomida orttirgan bilimi, ko‘nikma, malaka va ma’naviyatining murakkab majmui tushuniladi. Qur’oni karimning Baqara surasida insonning boshqa maxluqotlardan ajratib turuvchi sifatlari to‘g‘risida quyidagi oyatlar mavjud (31-33-oyatlar): “Va U zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o‘rgatdi. So‘ngra ularni farishtalarga ro‘baro‘ qilib dedi: “Agar xalifalikka biz haqdormiz degan so‘zlaringiz rost bo‘lsa, mana bu narsalarning ismlarini menga bildiring!”

Ular aytdilar: «Ey pok Parvardigor, biz faqat Sen bildirgan narsalarnigina bilamiz, Albatta, Sen o‘zing ilm-u hikmat sohibisan“. (Alloh): Ey Odam, bularga u narsalarning ismlarini bildir“, dedi“. Bu oyatlardan odamzod boshqa maxluqotlardan o‘zining bilimi bilan ajralib turishi, shuning uchun ham, u Tangrining Yerdagi eng ardoqli yaratig‘i ekani yaqqol sezilib turibdi.

Kishining qanchalik bilimi ko‘p va turli-tuman bo‘lsa, uning ma’naviy dunyosi shunchalik boyib, shaxs sifatida har tomonlama yuksalib boradi. Buning uchun u, izlanishda, tinmay bilim olish jarayonida bo‘lishi kerak. Bu esa undan, dunyoning mayda ne’matlari hisoblangan va juda ko‘p vaqt hamda mablag‘ talab qiladigan yaxshi yeb-ichish, shohona hayot kechirish, o‘yin-kulgi va to‘y-tomoshalarga bo‘lgan moyilliklarini amalga oshirishni iqtisodiy ta’minlanganligidan kelib chiqishlikni talab qiladi. U turli bilimlarni egallab, o‘zining takomili ustida tinmay ishlar ekan, pirovard natijada najot topib, buyuk ne’mat hisoblangan barkamollikka erishadi. Shunda u Xudoga yaqin bo‘lib, uning nafaqat bu dunyosi, balki, u dunyosi ham obod bo‘ladi. Zero, barcha bilimlar manbai Tangri taolodir. “Olim odamlar Allohga yaqin kishilardir“ degan hadisning purhikmat ma’nosi ham fikrimizning qanchalar haqiqat ekanligidan dalolat beradi. Muhammad payg‘ambarimiz(s.a.v.) hadislarida “Mo‘min va mo‘minalar, beshikdan to qabrgacha bilim egallashlari shart“ va “Boy bo‘lay desang tijorat qil, faqat u dunyoni o‘ylasang ibodat qil, u dunyo-yu bu dunyoning obod bo‘lsin desang bilim egalla“, deyilgan.

O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida tub sifat o‘zgarishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq ekani inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqat. Bu ishlarni ro‘yobga chiqarish uchun, fuqarolarimiz, o‘zlarining oldilariga barkamol shaxs bo‘lishlikni astoydil maqsad qilib qo‘yishlari, aqliy faolliklarini oshirishlari, bilim darajalarini ko‘tarishlari va barkamollikka xalal berayotgan barcha odatlardan voz kechishlari lozim bo‘ladi. Ilm sohiblari – olimlar esa, keng aholiga ma’naviy o‘zligini anglash, kishi ma’naviyatini tarkib topish tartiblari va ma’naviy takomillashuv bosqichlarini tushuntirib berishlari lozim. Bu masala shu kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan.

Qur’oni karim “Baqara“ surasining 188-oyatida “Mol-dunyolaringizni oralaringizda nohaq-harom yo‘llar bilan yemangiz! Va (gunoh qilayotganingizni) bilib turib, odamlarning mollaridan bir qismini harom yo‘l bilan yeyish uchun (mol va pullaringizni pora qilib) hokimlarga uzatmang!” deya ogohlantirilgan.

Qur’onning boshqa suralarida ham razil ishlar qilmaslikka undovchi ko‘pdan-ko‘p oyatlar mavjud. Fikr yurituvchi odamlar uchun bu oyatlarda ko‘p hikmatlar bor.

Jamiyat va shaxs rivoji uchun faqat foydali bilim, ya’ni (hikmat)lar kerak. Foydali bilimlarni egallashdan maqsad, avvalo o‘ziga, so‘ng yaqin kishilariga va butun jamiyatga naf keltirishdir. Kishi muayyan foydali bilimlarni egallab, o‘z hayotida ko‘p marotaba qo‘llashi natijasida ular sekin-asta vujudiga, keyin esa, ruhiga singib hayot tarziga, ya’ni axloq va odobiga, boshqacha qilib aytganda, ma’naviyatiga aylanib ketishini yuqorida ko‘rdik.

Barkamol shaxs deganda, turli-tuman bilimlarni egallagan, bir qator go‘zal fazilatlarni vujudida jo etgan, zamona talabiga javob beruvchi ma’naviy yuksak inson siymosi tushuniladi. Barkamol shaxsga misol keltiradigan bo‘lsak, ularga xalq ichida yuqori obro‘ga ega bo‘lgan o‘qimishli odamlarni, xalqqa nafi tegib, ular uchun sevimli bo‘lib qolgan rahbarlarni, butun umr mehnat qilib, shu kunda shariat talablarini to‘liq bajarib yurgan nuroniy otaxonlarni tushunish mumkin.

Ma’lumki, “komil inson“ tushunchasi Tangri taoloning odamni yaratishdan ko‘zlagan maqsadiga to‘liq javob bera oladigan hamda odamlar doimo orzu qilib kelayotgan ideal shaxsga nisbatan ishlatiladi. Bularga, Payg‘ambarlarni va birinchi navbatda Muhammad (s.a.v.)ni Payg‘ambarlarimiz, valiy hamda aziz avliyolarni va shularga yaqinlashib qolgan shaxslarni misol qilib olish mumkin.

Muhtaram Prezidentimizning yoshlar o‘qisin, bizdan ko‘proq olimlar chiqsin, O‘zbekistonni dunyoga tanitsin, shon-shuhratini oshirsin degan da’vatiga javoban, farzandlarimizning bilim olishi uchun yaratib berilgan shart-sharoitlarga qaramay, bizdan hadsiz ko‘p zo‘r olimlar chiqishi mumkin bo‘lgan bir sharoitda, yoshlarimizning ko‘pchiligi jamiyatning, ya’ni “Yuqori Men“ning etagidan tutib, uning an’ana va udumlarini bajarish bilan ovora bo‘lib qolmoqdalar. Zigmund Freyd aytganidek, bu jamiyatning, ya’ni ’”Yuqori Men“ning shaxs rivojiga ko‘rsatgan salbiy ta’siridir. Yakka shaxslar rivojlanmasa, shubhasizki, butun jamiyat ham rivoj topmaydi. Zero jamiyat, alohida olingan shaxslar majmuidan tarkib topgan bo‘ladi.

Ushbu maqolada bildirmoqchi bo‘lgan fikrlarni umumiy maxrajga keltirib, xulosalaydigan bo‘lsak, inson degan mavjudot o‘ta murakkab bo‘lib, ham biologik, ham ijtimoiy mohiyatlarga ega ekanligini bildik. Shuning uchun uning ilmiy atamasi “bioijtimoiy mavjudot“. Kishi dastlab individ bo‘lib, u shaxs bo‘lishga nomzod bo‘lib tug‘iladi xolos. So‘ng, o‘ziga berilgan tarbiyaga qarab, turli shaxs maqomiga ega bo‘ladi. Ma’lum bo‘lishicha, kishi shaxs bo‘lib

shakllanishida, unga uch turdagi tabiiy quvvatlar, aql kuchi va hamfikrlar kuchi ta'sir ko'rsatar ekan. Tabiiy quvvat tanada o'z-o'zidan shakllansa, aql kuchi ta'lim-tarbiya orqali berilgan bilim natijasida paydo bo'ladi, do'stlar va hamfikrlarning birlashgan quvvati esa, ularning muayyan kishiga bo'lgan mehr-muhabbati natijasida shu odamda jamlanadi.

Eslaydigan bo'lsak, biologik rivojlanishni ta'minlovchi quvvatlarga – ozuqaga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun vujudda ishlab chiqiladigan quvvat, tashqi muhit va boshqa turdagi xavf-xatardan muhofazalanish uchun tanada ishlab chiqiladigan quvvat va nasl qoldirish uchun insonda ishlab chiqiladigan quvvat. Aqliy quvvatni oshiruvchi tarbiya omillariga – oila tarbiyasi, mahalla-ko'y, rasmiy ta'lim tizimi orqali beriladigan tarbiya, o'zini-o'zi tarbiyalash, ommaviy axborot vositalari orqali beriladigan tarbiya va jamoat tashkilotlari orqali beriladigan tarbiya degan bo'laklar kiradi. Shulardan oila, mahalla-ko'y va o'zini-o'zi tarbiyalash erkin xarakterga ega bo'lsa, rasmiy ta'lim-tarbiya, ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlari orqali ko'rsatiladigan tarbiya ma'lum bir reja asosida amalga oshirilib, majburiy xarakterga ega. Davlat boshqaruv organlarining va ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi barcha turdagi mutasaddi kishilarining, shu kundagi asosiy vazifasi, erkin xarakterdagi tarbiya bilan majburiy xarakterdagi tarbiya orasidagi tafovutni yo'qotmoq, ya'ni, ularni baravarlashtirmoqdir. Bu degani, erkin xarakterdagi tarbiyani ham rejaga solib, uni davlat va jamiyat nazoratiga olish, majburiy tarbiyaga esa erkinlik (demokratik) elementlarini singdirish kerak, Shundagina tarbiya ta'sirining umumiy kuchi oshib, jamiyatimiz o'zini oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi oson bo'ladi. Vujuddagi uch turdagi quvvatlarni bir tekis rivojlantirish va ularni kerakli yo'nalishda sarflash, faqat odamning pok niyatiga, oldiga qo'ygan maqsadiga, g'ayrat-shijoatiga, jasurligiga va shu yo'nalishda tinmay mehnat qilishligiga bog'liq. O'z ezgu maqsadi yo'lida tinmay aqliy va jismoniy mehnat qilgan odam, albatta, ko'zlagan niyatiga yetadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2012. I bob.
2. Erkayev A. Ma'naviyat - millat nishoni. T., 1997.
3. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. T.: Yozuvchi, 2001.38-bet.
4. Yusupov E., Yusupov O'. Oila – ma'naviyat bulog'i. Toshkent, 2003.
5. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning ahamiyati, tajribalari va muammolari. "Postda" gazetasi, 16 fevaral, 2013 yil.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent,"O'zbekiston", 1992 yil, 15-16-bet.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS

Abduganiyeva Djamila Rustamovna,
PhD, Associate Professor,
Uzbekistan State World Languages University

Abstract. This article explores how hermeneutic principles – contextual reading, the hermeneutic circle, and interpreter subjectivitycan enrich the post-editing of statistical and neural machine translation (SMT/NMT). A mixed-method study combined hermeneutic textual analysis, think-aloud protocols, and error annotation on parallel SMT/NMT outputs. Results show that while NMT reduces surface errors, both paradigms still require human intervention to restore omitted meanings, pragmatic tone, and cultural references. Experienced post-editors drew consciously on hermeneutic reasoning, supporting the claim that post-editing is an interpretive – not merely corrective – task. Recommendations include integrating translational hermeneutics into post-editor training and refining quality guidelines to foreground meaning fidelity.

Keywords: post-editing; machine translation; hermeneutics; interpretive fidelity; neural MT; statistical MT; translation quality; Uzbek studies.

MASHINA TARJIMASINI GERMENEVTIK NUQTAI NAZAR ORQALI TAHRIRLASH

Abdug‘anieva Jamila Rustamovna,
PhD, dotsent,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada statik va neyron mashina tarjimalari (SMT/NMT) tahririni boyitish uchun germenevtikaning asosiy tamoyillari kontekstual o‘qish, germenevtik doira va tarjimon subyektivligi qanday qo‘llanishi o‘rganiladi. Aralash metodologiya matnning germenevtik tahlili, «ovoz chiqarib fikrlash» protokollari va xatolarni belgilashni birlashtirdi. NMT sirt xatolarini kamaytirsa-da, ikkala tizim ham ma’no, pragmatik ohang va madaniy ishoralarni tiklash uchun insoniy aralashuvni talab qiladi. Tajribali post-muharrirlar germenevtik fikrlashni ongli ravishda ishga soldi. Tavsiyalar: tahrirchi tayyorlashda tarjima germenevtikasini kiritish va sifat ko‘rsatkichlarini ma’no aniqligi tomon kengaytirish.

Kalit so‘zlar: post-tahrirlash; mashina tarjimasi; germenevtika; ma’no sadoqati; neyron MT; statik MT; tarjima sifati; o‘zbek tadqiqotlari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N23

Introduction

Translation is widely understood as an **interpretive act** rather than a mere transfer of words. In hermeneutic terms, “every translation is an interpretation” and nothing can be translated without the translator first understanding and re–interpreting the source text. Modern translational hermeneutics emphasizes that translation involves the **subjective, creative engagement** of the translator – their intuition, cultural experience, imagination, and empathy. Gadamer’s philosophical hermeneutics famously introduced the *hermeneutic circle*,

wherein one grasps the whole text via its parts and vice versa. In practice, this means a translator (or post-editor) continually shuttles between **context and detail** to build an aligned understanding of meaning. Hermeneutic scholars argue that such holistic interpretation, integrating the translator's pre-understanding and "fusion of horizons" with the author's perspective, is crucial for meaning-making.

Machine translation (MT) output, however, is generated without true understanding; it often conveys literal content but may miss deeper intent, nuance or context. This has led scholars to frame the human–MT interaction itself as a *hermeneutic relation*: the MT system produces a "text" that a human must interpret and evaluate. In other words, post-editors function as interpreters of a machine-generated draft, responsible for ensuring it truly conveys the source meaning. As Elass [6] puts it, "there will be no translation without hermeneutic understanding/interpretation" guided by the translator's subjectivity and experience – a reminder that even with MT, human insight is indispensable. Indeed, Dadajanova [5] stresses that the **translator's hermeneutic analysis** of the source text (deep reading, inference of intent, cultural context) is a prerequisite to producing an accurate target text.

In the era of statistical MT (SMT) and neural MT (NMT), the need for interpretive alignment remains, albeit in different ways. **SMT** often produced more literal but broken translations, requiring significant reordering and correction; **NMT** yields fluent sentences but can introduce subtle shifts in meaning or omissions. For example, NMT systems have a well-known ability to *paraphrase* or rephrase content, which can make a translation read smoothly but also means the post-editor must verify that no nuance or emphasis from the original is lost. In Gadamer's terms, the post-editor must *anticipate* and *align* with the source intent, effectively fusing their understanding with the author's – something an MT alone cannot reliably do. This article examines how applying **hermeneutic principles** can inform post-editors' interventions for both SMT and NMT outputs, ensuring that the final translation is not only linguistically correct but interpretively faithful to the source. Key questions include: *How can hermeneutic concepts (contextualization, the hermeneutic circle, interpreter's subjectivity) guide the post-editing process?* and *In what ways do hermeneutic interventions address typical SMT vs. NMT deficiencies to achieve true meaning equivalence?*

Methods

To investigate post-editing through a hermeneutic lens, a mixed-method approach is appropriate, combining **qualitative analysis** of translations with insights from translation studies. This study builds on methods used in prior hermeneutic translation research. Notably, Stefanink and Bălăcescu propose a methodology "based on hermeneutic principles to study the translation process" – one that integrates subjective and intuitive factors alongside objective evaluation. Following this approach, the present research first undertakes a **hermeneutic textual analysis**: post-editors (professional translators) were asked to interpret several challenging source texts, produce MT outputs (using both an SMT system and an NMT system for comparison), and then post-edit the results [12]. During post-editing, they continuously applied the hermeneutic circle – reading the MT draft in context of the whole text, referring back to source passages, and noting any divergences in implied meaning or tone.

A **think-aloud protocol** was employed, where post-editors verbalized their decision process, to capture how interpretive reasoning guided their edits. This qualitative data was supplemented by an **error annotation framework** informed by hermeneutic categories.

Rather than only using standard MT error typologies (e.g. lexical, syntactic errors), we added categories for **"interpretive errors"**, such as *omitted meaning*, *wrong pragmatic tone*, or *cultural/reference misinterpretation*. For instance, if the MT output was grammatically correct but failed to convey an irony present in the source, it was tagged as an interpretive divergence.

To cover both SMT and NMT contexts, we applied this procedure to outputs from a phrase-based SMT system and a state-of-the-art NMT system on the same source texts. This allows a comparative analysis of how often and what kind of hermeneutic interventions were needed for each MT type. We also measured basic **post-editing effort** metrics for context – such as the number of edits (insertions, deletions, substitutions) and the **time** taken – but interpreted these through a qualitative lens. For example, a high number of deletions in MT output often signaled content omissions that post-editors had to restore, which is directly relevant to hermeneutic fidelity. Such quantitative indicators were secondary; the primary focus was on *how* post-editors resolved meaning issues. To enhance reliability, multiple translators edited each text, and an expert panel reviewed the final translations, checking if the **interpretive nuances** of the original were preserved. Any disagreements (e.g. whether an edit was necessary to convey tone) were discussed, echoing the hermeneutic idea of dialogue and consensus in understanding.

This methodology aligns with prior research that combined human evaluation and error analysis to compare SMT and NMT. For example, Mutal et al. had professional translators identify and rate differences between SMT and NMT outputs; their finding that many NMT "errors" were not corrected by editors (deemed stylistic or minor) informs our approach to distinguish mere wording differences from true interpretive errors [9]. By integrating such established evaluation techniques with hermeneutic analysis, our method aims to systematically reveal where **machine-generated drafts fail hermeneutically** – and how post-editors address those gaps. All source texts, MT outputs, edits, and think-aloud transcripts were collected for analysis, providing a rich dataset to answer our research questions.

Results

Literature Review Findings: Existing literature strongly supports the need for hermeneutic sensitivity in post-editing. Translators and scholars have observed that **MT often requires intervention at the level of meaning, not just wording**. For instance, Daems et al. found that inexperienced post-editors tend to focus on correcting superficial lexical issues, whereas professionals "paid more attention to coherence and style" – elements that require understanding the text's intent and context [4]. This indicates that expert post-editors naturally adopt a more hermeneutic approach, ensuring the translation reads cohesively and carries the original tone. Similarly, in news translation post-editing, beyond fixing terminology, key tasks include **"avoidance of ambiguity"** and making appropriate *cultural and ideological modifications* to align the translation with the source's meaning and the target audience's context. These are interpretive acts: resolving ambiguities demands understanding what the source truly intends, and cultural/ideological adjustments require insight into subtext and connotation.

Comparative studies of SMT vs. NMT outputs illustrate how hermeneutic challenges have shifted with neural models. Mutal et al. report that professional translators perceive far fewer outright errors in NMT output than in SMT output. In one evaluation, only about **15% of NMT-generated segments** were judged to need changes by the majority of human reviewers,

compared to **~69% for SMT segments** – a dramatic quality gap in favor of NMT [9]. Fluency and grammaticality have improved to the point that NMT often produces a **passable translation draft** on the surface. However, the same study noted an interesting nuance: there was *less inter-translator agreement* on what to fix in NMT translations, suggesting that NMT's errors are subtler and sometimes harder to detect. Our literature survey found that the **most common critical errors in both SMT and NMT are omissions** (deletions of content), which directly affect meaning. SMT engines frequently dropped or mistranslated segments under complexity constraints, and NMT, while better, still occasionally omits nuanced information or implies something the source didn't. Post-editors thus must be vigilant for what *isn't* said in the machine output as much as for what is – a clearly hermeneutic concern of *reading between the lines*.

Studies also highlight that **NMT's strength in paraphrasing** can be a double-edged sword for interpretation. Bentivogli et al. [3] and others observed NMT often uses alternative phrasing that differs from reference translations. This can improve readability but may introduce semantic subtle shifts. For example, an NMT system might render a colloquial phrase more idiomatically, yet in doing so, slightly change the emphasis or emotional coloring. One analysis showed that NMT outputs contained a higher proportion of *substitutions* (word/phrase changes) than SMT, presumably because the NMT was paraphrasing. Many of these substitutions were acceptable, but some required correction when the nuance was wrong. In our literature review, we found Guerberof & Toral even demonstrated that post-editing a literary text (a domain requiring high interpretive fidelity) **can** be done effectively – translators in their study achieved higher productivity with MT without losing overall quality [7]. However, this came with the caveat that certain creative elements might be constrained. Moorkens et al. reported that professional literary translators *prefer translating from scratch* over post-editing precisely because it "allowed them more creative freedom" and they did not feel as bound by the machine's wording [8]. This underscores a key hermeneutic point: translation as creation. If MT output is treated as inflexible, the translator's ability to interpret creatively could be stifled.

Study Results: The experimental component of our article (as outlined in Methods) yielded findings in line with the above scholarship. Post-editors frequently had to perform **"hermeneutic fixes"** on the MT outputs. These included: restoring omitted content, clarifying pronoun references based on context, adjusting tone/formality levels to match the source's intent, and occasionally reinterpreting a sentence that the MT had misconstrued. Quantitatively, NMT outputs required fewer total edits than SMT outputs, echoing prior studies. Yet, interestingly, a higher proportion of NMT edits were *meaning-driven*. For example, in an SMT translation of an Uzbek proverb, the system produced a very literal (but awkward) English sentence; post-editors mainly had to rearrange it and correct grammar. The NMT, by contrast, produced a fluent sentence that *misinterpreted* the proverb's metaphor – a far less obvious issue. In this case, every post-editor flagged the mistranslation only after reflecting on the broader context and realizing the proverbial meaning was lost. This aligns with the notion that **MT post-editing is a comprehension task**: one must fully grasp the source message (hermeneutic understanding) to judge if the MT's rendition aligns.

Another result was that **translators' attitudes and approaches differed markedly with experience**, confirming Daems et al. [4]. In think-aloud sessions, novice translators

tended to trust the MT output's wording and made minimal changes, sometimes leaving an incorrect nuance intact. In contrast, experienced translators often paused to reread the source, indicating where they felt the "hermeneutic gap" – the feeling that *something* in the MT draft did not capture the source's full intent. For instance, one senior post-editor noted: *"The MT is grammatically fine, but I sense the emphasis is wrong – I need to check the source again."* Such instincts led to edits that might not be obvious from a purely lexical standpoint (e.g. choosing a more emotionally charged word to reflect the source's tone).

Across both SMT and NMT, the **hermeneutic interventions improved the final translations' accuracy and richness of meaning**. In evaluation, the expert panel rated the post-edited translations very high in adequacy (meaning equivalence). Many of the improvements were precisely in areas that automated metrics or superficial checks might overlook – idiomatic connotations, implicit meanings made explicit, cultural references correctly conveyed. For example, an NMT system translating Russian to English had rendered a sentence literally, missing a cultural idiom about "carrying water to the sea" (meaning a futile task). The post-editor recognized the idiom and replaced the literal translation with "pouring water into the ocean," which is more intelligible to English readers. Such edits require cultural-literary insight and confirm that **human post-editors act as mediators of meaning, not just proofreaders of grammar**.

In summary, the literature and our findings converge on the idea that **hermeneutic awareness is crucial in MT post-editing**. NMT has reduced the rote technical effort of fixing syntax, allowing post-editors to focus more on **interpretive alignment** – ensuring the target text resonates with the same meaning and intent as the source. However, this also demands that post-editors be skilled readers and culturally aware interpreters. The next section discusses what these findings imply for translation practice and research, including training post-editors in hermeneutics and refining MT systems to better support meaning preservation.

Discussion

Applying a hermeneutic lens to MT post-editing reveals both challenges and opportunities for improving translation quality. One key insight is that **post-editing is not merely a technical correction task, but fundamentally an interpretive one**. This shifts how we should train and guide post-editors. Traditional post-editing guidelines often distinguish "light" vs "full" post-editing – focusing on what level of correctness is needed (understandable vs publication-quality). However, as Rico Pérez [11] argues, such binary guidelines may be too simplistic in the age of NMT, because even a fluently translated text might harbor *interpretive inaccuracies* that a "light" pass could miss. Our review suggests that **post-editing guidelines need to explicitly incorporate hermeneutic checks**. For example, beyond instructing editors to fix terminology and grammar, guidelines should prompt them to consider: *Did the MT correctly capture the message? Are there hidden implications or cultural cues in the source that the MT glossed over?*

The difference observed between novice and expert post-editors – with experts ensuring coherence and style – indicates that **hermeneutic competence comes with experience and should be cultivated**. Training programs for translators should include modules on *translational hermeneutics*, emphasizing skills like contextual analysis, inferencing beyond the text, and maintaining authorial intent. Abduganiyeva [1], in studying interpreting, proposed embodying hermeneutic principles in training to improve meaning transfer. Likewise, for MT

post-editing, exercises that force students to justify *why* a machine translation is wrong (not just where) can build this awareness. For instance, presenting a subtly flawed MT output and having trainees articulate what interpretation the machine missed – is it the wrong tone? an idiom translated literally? – engages their hermeneutic reasoning. Such practices echo the hermeneutic circle: students move between parts (specific words) and the whole (overall meaning) to truly understand translation quality.

From a research perspective, incorporating hermeneutics leads us to evaluate MT in more nuanced ways. Automated metrics like BLEU or even edit distance do not capture **interpretive alignment**. As noted, NMT often paraphrases, which might lower BLEU while still conveying meaning, or conversely might preserve words but lose subtext. Therefore, human evaluation remains vital. The concept of **"MT literacy"** becomes important: users of MT (translators, and even lay users using tools like Google Translate) need to be literate about what MT can and cannot do – essentially aware that MT lacks human hermeneutic ability. Bowker & Buitrago Ciro outline components of MT literacy, such as understanding common MT errors and assessing text suitability for MT. We would add that part of MT literacy is learning a *hermeneutic skepticism*: never assuming the MT's interpretation is fully correct, especially when dealing with figurative language, context-dependent meanings, or texts with pragmatic subtleties. Our findings showed that even high-quality NMT outputs benefited from a careful human eye to catch subtle misinterpretations. This suggests that instead of viewing post-editing as a low-skill task of cleaning up machine output, the industry should recognize it as a **high-skill task of meaning negotiation**. Post-editors are, in effect, co-authors with the original – or as Abduvoitov [2] phrased it, "at least a co-author of the work, since [the translator] constructs and interprets the original meanings… in a way acceptable to the receiving culture". This co-authoring role is exactly what a hermeneutic lens highlights, and it holds whether one is translating from scratch or post-editing an MT draft.

Considering SMT and NMT contexts, **hermeneutic interventions differ in emphasis**. With older SMT outputs, issues were often glaring (garbled syntax, missing words) – the *"what"* to fix was obvious, though fixing it still required knowing the intended meaning. With NMT, grammar is correct and errors lurk in the *"what is implied."* Our results showed lower inter-editor agreement on NMT corrections, meaning post-editors might disagree on whether a fluent sentence is acceptable. This underlines the need for clear **quality criteria that include meaning preservation**. Translation companies and clients should specify that fidelity includes capturing nuances, not just literal content. Perhaps new QA metrics could be developed, guided by hermeneutic principles – for example, a checklist for reviewers: *Does the translation reflect the tone (satire, formality, emotion) of the source? Are all implications either preserved or consciously adapted?* These are questions a hermeneutically-minded reviewer would ask.

Brown va Levinson tahdid aktlarining “face-threatening acts” (FTA) sifatida tasniflanishini ko‘rsatib, ularning jamiyatdagi qabul qilinadigan me’yorlarga zid keltirish ehtimoli haqida so‘z yuritadilar [4; 78-б.]. Yashirin va ochiq tahdidlar farqlanadi: ochiq tahdidlar bevosita ifodalanadi, yashirin tahdidlar esa kontekst orqali anglashiladi [13; 115-б.].

Blum-Kulka tahdid aktlarining tildagi yashirin shakllarini, ularning ijtimoiy hurmat va odob me’yorlariga qanday mos kelishini tahlil qiladi [3; 41-б.]. Bu holat ayniqsa o‘zbek madaniy kontekstida muhim ahamiyatga ega, chunki ijtimoiy me’yorlar kuchli bo‘lgan jamiyatlarda tahdid ochiq emas, balki bilvosita tarzda beriladi [18; 83-б.].

TADQIQOT USULLARI

Lingvopragmatik tahlil: Tahdid aktlarining tilshunoslikda qanday ifodalanishini va ularning ijtimoiy kontekstdagi rolini tahlil qilish uchun lingvistik metodlar, xususan pragmatika va nutq tahlili qo‘llanildi [5; 69-б.].

Diskurs tahlili: Real hayotdagi suhbatlardan namunalar olinib, ularning kontekstual ifodalanishi va suhbatdoshga ta’siri o‘rganildi [4; 55-б.].

Psixolingvistik kuzatuv: So‘rovnomalar va tajribalar orqali tinglovchilarning tahdid aktlariga qanday emotsional va psixologik javob berishi aniqlashtirildi [8; 92-б.].

Eksperimentlar: Belgilangan nutqiy vaziyatlar asosida empirik kuzatuvlar olib borildi va tahdid aktlarining perlokutiv ta’siri o‘lchandi [11; 104-б.].

ASOSIY NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahdid (menasiv) nutqiy aktlari odatda quyidagi shakllarda ifodalanadi:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdidlar:

“Men seni ishdan bo‘shataman.“

“Yana bir marta urinsang, yomon oqibatlarga olib keladi.“ Bunday tahdidlar ochiq shaklda ifodalanadi va ularning illokutiv kuchi yuqori bo‘ladi [12; 48-б.].

Yashirin (indirekt) tahdidlar:

“Buning oqibatlari seni ajablantirishi mumkin.“

“Bu qaror uchun kimdir javob beradi.“ Ular bevosita bo‘lmagan tarzda suhbatdoshga psixologik bosim o‘tkazadi [13; 57-б.].

Ogohlantirish ko‘rinishidagi tahdidlar:

“Bu oxirgi imkoning.“

“Ehtiyot bo‘l, yana ko‘rishamiz.“ Bu tahdidlar qisqa va noaniq bo‘lsa-da, kuchli perlokutiv ta’sirga ega bo‘ladi [14; 61-б.].

Bunday aktlarning asosiy illokutiv kuchi — gapiruvchining suhbatdoshga xavf tug‘dirishi yoki uni ogohlantirishidir. Perlokutiv ta’siri esa — qo‘rquv, ogohlik, itoat, qarshilik, yoki hujum kabi emotsional va psixologik reaksiyalarni yuzaga keltiradi [15; 76-б.].

Shuningdek, tahdid aktlarining ijtimoiy kontekstdagi ifodasi madaniy qadriyatlarga bevosita bog‘liq. O‘zbek madaniyatida ochiq tahdiddan ko‘ra yashirin ogohlantirishlar ko‘proq ishlatiladi, bu esa hurmat va andisha qadriyatlari bilan bog‘liq [18; 83-б.]. Gapiruvchining ijtimoiy mavqeyi, yoshi va vaziyat tahdid aktining tanlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi [20; 91-б.].

Bunday nutq aktlari eshituvchiga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatadi. V. I. Karasik ta’kidlaganidek, tahdid — bu ijtimoiy ta’sir etish vositasi bo‘lib, u qo‘rquv, itoat yoki qarshi ta’sir ko‘rsatishni maqsad qiladi [8; 78-b.].

Tahdid nutq aktlari pragmatik jihatdan murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Nutqdan foydalanish va undan anglashdagi qiyinchiliklar, shuningdek, ularning qanday qabul qilinishi, ko‘plab omillarga, jumladan, madaniy, ijtimoiy va individual omillarga bog‘liqdir. Tahdidlar, masalan, “agar buni qilmasang, salbiy oqibatlarga duch kelasiz” kabi ogohlantirishlar orqali, ko‘pincha muloqotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va noaniq tahdidlar sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, tahdidlarning pragmatik ta’siri shundaki, ularning qabul qilinishi, eshituvchi va gapiruvchi o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, jamiyatdagi o‘rni va pozitsiyalariga bog‘liq ravishda farq qiladi [9; 78-b.]. Pragmatik nuqtai nazardan tahdidlar, eng avvalo, gapiruvchining ijtimoiy maqomi va uning o‘zaro munosabatlardagi o‘rni bilan bog‘liqdir. Misol uchun, rahbar yoki avtoritar shaxs tomonidan berilgan tahdidlar boshqacha ta’sir ko‘rsatishi mumkin, chunki uning nutqidagi kuch va ta’sir normativ ijtimoiy rollar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun, tahdid nutq aktlari faqatgina kommunikativ jihatga emas, balki ijtimoiy va psixologik jihatga ham ega bo‘lishi kerak [4; 45-b.].

Bundan tashqari, tahdid nutq aktlari madaniyatlararo farqlarni ham o‘z ichiga oladi. G‘arb madaniyatida, masalan, bevosita tahdidlar kamroq qo‘llaniladi, chunki ular kuchli ijtimoiy

qoidalar bilan cheklangan va koʻpincha qabul qilinmaydi. Biroq, Sharq madaniyatlarida, tahdidlar koʻproq ijtimoiy muloqotning qismi sifatida ishlatiladi. Bu madaniyatlarda tahdidlar ijtimoiy tartibni saqlash uchun zarur vosita sifatida qaraladi [8; 112-b.].

Shu bilan birga, tahdidlar oʻrtasida ijtimoiy iyerarxiya va oʻzaro tenglik nuqtai nazaridan farqlar mavjud. Agar tahdid kuchli ijtimoiy mavqega ega shaxs tomonidan qilingan boʻlsa, uning ta'siri kuchliroq boʻlishi mumkin, chunki bunday holatda eshituvchi tahdidni jiddiy qabul qiladi. Boshqa tomondan, ijtimoiy tengsizlik mavjud boʻlsa, tahdidlar unchalik jiddiy qabul qilinmasligi mumkin [17; 200-b.].

Pragmatik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, tahdid nutq aktlarining samaradorligi, koʻpincha, ularning vazifasiga va kontekstga qarab oʻzgaradi. Odamlarning oʻzaro munosabatlarida, ehtiyotkorlik va ehtimoliy oqibatlar haqida ogohlantirishlar berish koʻpincha samara beradi, chunki bunday tahdidlar, umumiy ijtimoiy doiradagi muvozanatni saqlab qolish uchun zarur vosita sifatida qaraladi. Biroq, tahdidlarning kuchi va ta'siri ular qaysi kontekstda va qanday maqsadda ishlatilishiga bogʻliqdir [19; 134-b.].

Pragmatik jihatdan tahdidlarni faqat tilshunoslar emas, balki psixologlar va sotsiologlar ham oʻrganishi zarur, chunki ularning ta'siri koʻpincha inson psixologiyasiga va jamiyatdagi oʻrni bilan bogʻliq boʻladi. Shuning uchun, nutq aktlarining har biri, ayniqsa tahdidlar, ijtimoiy va psixologik omillarning chuqur oʻrganilishini talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahdid (menasiv) nutqiy aktlari muloqotda juda kuchli pragmatik bosimga ega boʻlib, ular yordamida gapiruvchi suhbatdoshga bevosita yoki bilvosita xavf signalini koʻrsatadi. Shu sababli, bunday aktlar jamiyatda axloqiy me'yorlar, hokimiyat va kuch munosabatlari, shuningdek, madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bogʻliqdir.

Kelgusidagi tadqiqotlarda tahdid nutq aktlarining madaniyatlararo farqlarini chuqurroq tahlil qilish zaruriyat boʻlib qolmoqda. Har bir madaniyatda tahdidning oʻziga xos xususiyatlari turlichadir VA turlicha ta'sirga ega. Shu bois, kelgusida tahdid nutq aktlarining madaniyatlararo farqlarini yanada kengroq tadqiq etish zarur. Bu, masalan, xalqaro munosabatlar yoki koʻp madaniyatli jamiyatlarda til ishlatish jarayonlarini yaxshiroq tushunishga VA mustahkamlashga yordam beradi.

Tahdid Nutq Aktlarining Pragmalingvistik Tahlili ham oʻz javobi kutayotgan tahdid nutqiy aktining muhim bir qismi hisoblanadi. Bu, nutqning funksional maqsadini tahlil qilish, shuningdek, nutq aktlarining samarasini me'yorlashda yordam beradi. Nutqning turli pragmatik kontekstlarda qanday foydalanishi qanday yuklamalarga ega boʻlishi mumkinligi haqida qoʻshimcha tadqiqotlar olib borilishi tavsiya etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Austin, J.L. How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press, 1962. [1]
2. Blum-Kulka, Shoshana. “Indirectness and Politeness in Requests.” Journal of Pragmatics, 1987. [7]
3. Brown, Penelope, and Stephen C. Levinson. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. [6]
4. Вежбицка А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. [9]
5. Crystal, David. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell, 2008. [5]
6. Kasymova, M. Tilshunoslikda kommunikativ pragmatika. Toshkent: Noshir, 2022. [10]

7. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. [16]
8. Nazarova, Z. Nutq madaniyati va pragmatik yondashuv. Samarqand: SamDU, 2020. [13]
9. Rahimova, D. Tahdid aktlari va ularning nutqiy funksiyasi. Qarshi: QarDU, 2023. [14]
10. Попов Г. М. Лингвопрагматика: Теория и практика. – Москва: Наука, 2008. [17]
11. Saidov, M. Pragmatik tahlil va nutqiy faoliyat. Buxoro: BDU, 2019. [15]
12. Searle, John R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969. [2]
13. Serl J. Tanlangan asarlar. Til falsafasi. – M.: Progress, 2000. [4]
14. Tursunov, A. Zamonaviy lingvistikaning dolzarb muammolari. Toshkent: Akademnashr, 2021. [18]
15. Yule, George. Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 1996. [20]
16. Vejbitska A. Til. Madaniyat. Bilish. – M.: Russkie slovari, 1996. [3]
17. Шнайдер Г. Психология языка и общения. – СПб: Питер, 2004. [19]

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

THE PENITENTIARY SYSTEM AND ITS ROLE IN STATE GOVERNANCE

Salaev Nodirbek Saparbaevich
Professor, Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption Studies
Tashkent State University of Law,
Doctor of Sciences in Law
E-mail: salaev.nodirbek@gmail.com

Abstract. This article examines the concept of the penitentiary system, tracing its historical development and analyzing its role within the criminal-executive legislation of the Republic of Uzbekistan. The author explores the penitentiary system from structural-legal, socio-economic, and political perspectives. Additionally, the article discusses the functions of penitentiary institutions, their contribution to ensuring social justice, and their significance in combating crime. Drawing upon international experiences, the study proposes methods to enhance the effectiveness of the penitentiary system.

Keywords: penitentiary system, criminal-executive system, penology, execution of punishment, deprivation of liberty, social justice, penal policies, public safety, crime prevention, criminal law.

PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI

Salayev Nodirbek Saparbayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi professori,
y.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada penitensiar tizim tushunchasi, uning tarixi, rivojlanish yo‘nalishlari va O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya qonunchiligidagi o‘rni tahlil qilinadi. Muallif penitensiar tizimni tarkibiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatlaridan kelib chiqib ko‘rib chiqadi. Shuningdek, maqolada penitensiar muassasalarning vazifalari, ularning ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi roli va jinoyatchilikka qarshi kurashdagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada xalqaro tajribaga murojaat qilingan holda penitensiar tizimning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: penitensiar tizim, jinoyat-ijroiya tizimi, penologiya, jazo ijrosi, ozodlikdan mahrum qilish, ijtimoiy adolat, jazo siyosatlari, jamiyat xavfsizligi, jinoyatchilik profilaktikasi, jinoyat huquqi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N28

Ko‘plab davlatlar, xususan AQSH va aksariyat G‘arbiy Yevropa davlatlari zamonaviy penitensiar tizimlarining paydo bo‘lishiga jazo tayinlash va uni ijro etishga oid jinoyat huquqining ijtimoiy maktabi g‘oyalari, shuningdek, penologiya hamda penitensiar tizimga oid ilmiy qarashlarning vujudga kelishi o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida «penitensiar tizim», «penitensiar muassasa», «penitensiar siyosat» atamalari qo‘llanilmagan. Respublikamizda jinoyat-ijroiya qonunchiligining rivojlanish bosqichlarida ushbu

tushunchalarga muqobil atamalardan foydalanib kelingan: mehnat-axloq tuzatish tizimi, jinoiy jazolarni ijro etish tizimi, jazoni ijro etuvchi muassasalar tizimi, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi organlar tizimi va h.k.

Penitensiarizm uzoq tarixga ega bo‘lib[1], ushbu so‘z lotincha «poenitentia» – tavba qilish so‘zidan olingan bo‘lib, jazoni ijro etish tizimi[2] mazmunini anglatadi. Bugungi kunda “penitensiar tizim” atamasi ikki holatda keng qo‘llanib kelinmoqda: 1) jinoiy jazolarni ijro etish tizimini tadqiqot qilishga oid ishlarda[3]; 2) xalqaro huquqiy hujjatlarda, jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlangan Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari (1955-yil)[4], Yevropa penitensiar qoidalari (1987)[5] va boshqalar.

Olimlar tomonidan mazkur tizimga oid turli fikrlar bildirilgan. Jumladan, I.Kamaliyeva davlat va jamiyat rivojlanishida penitensiar tizimni ijtimoiy normalarni tartibga solib turuvchi elementlardan biri sifatida tavsiflaydi[6]. Aksariyat olimlar tomonidan penitensiar muassasalar va penitensiar tizim deganda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi organlar va muassasalar tizimi tushuniladi[7]. Bizningcha ushbu ta’rifda penitensiar tizim tushunchasi tor talqin qilingan. M.Melentevaning fikricha, penitensiar tizim – bu mahkumlarni turmalarda saqlash tizimi emas, balki ijtimoiy adolatni ta’minlash, mahkumni axloqan tuzatish va jinoyatchilikning oldini olish maqsadida mahkumlar bilan muomala qilishga oid usul va vositalarni qamrab olgan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish bilan bog‘liq barcha choralar tizimi hisoblanadi [8].

Xuddi shuningdek, V.Spitsnadel, S.Velejev, S.Salomatin penitensiar muassasalar va penitensiar tizim deganda, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etuvchi organ va muassasalarni tushunishadi [9]. Bizningcha mazkur yondashuv ham penitensiar tizim tushunchasiga nisbatan tor yondashuvdir.

Aksariyat olimlar tomonidan penitensiar tizim «huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi» yoki «sud tizimi» tushunchasiga singdirib yuboriladi va alohida e’tirof etilmaydi. Bizningcha, bunday yondashuv ham to‘g‘ri emas. Aslida, penitensiar tizim jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatlarning oldini olish va jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatish bilan bog‘liq kompleks tadbirlarni qamrab olgan alohida tizim hisoblanadi.

Ayrim olimlar penitensiar tizim atamasiga nisbatan tor va keng yondashuvni tahlil qilgan holda penitensiar tizim barcha turdagi jinoiy jazolarni ijro etuvchi davlat organlari va muassasalarini, mahkumlarni axloqan tuzatish maqsadiga erishishni ta’minlaydigan tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy va jamoat tuzilmalarini o‘z ichiga olishini[10] ta’kidlaydi. T.Sinelnikova ham bugungi kunda penitensiar tizim deganda, nafaqat ozodlikdan mahrum qilish jazosi, balki jinoiy jazolarni ijro etuvchi barcha tuzilmalar tizimini tushunish lozimligini[11] qayd etadi. A.Ovchinnikova tomonidan ham shu mazmundagi fikr bildiriladi[12].

Lekin guvohi bo‘layotganimizdek, ushbu ta’riflarning hech biri mazkur tushuncha haqida aniq va to‘liq tasavvur paydo bo‘lishiga zamin yaratmaydi. Ushbu ta’riflarning turlicha ekanligini inobatga olsak, haqli savollar tug‘iladi: birinchidan, aslida penitensiar tizim nima, ikkinchidan uning jinoyat-ijroiya tizimidan farqi bormi yoki yo‘qmi, uchinchidan, nima sababdan dunyoning aksariyat rivojlangan davlatlarida jinoyat-ijroiya tizimini penitensiar tizim deb atash odat tusini olgan va hokazo.

Demak, birinchi masalaga oydinlik kiritadigan bo‘lsak, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, “Penitensiar tizim – bu jinoiy jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralari ijro etuvchi davlat organlari va muassasalarini hamda ularning mahkumlarni axloqan

tuzalishi va qayta ijtimoiylashuvi maqsadiga erishishga qaratilgan tarbiyaviy-axloqiy, pedagogik-psixologik, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa faoliyat yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab olgan tizim”dir.

“Penitensiar tizim” atamasi ilmiy muomalada va umumiy ma’noda qo‘llash uchun zarur, chunki u jinoiy jazolarni ijro etish subyektlari, mahkumlarni axloqan tuzatishda ishtirok etadigan tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy va jamoat tuzilmalarini to‘liq belgilash imkonini beradi.

Shu tariqa ikkinchi va uchinchi masalalarga o‘z-o‘zidan oydinlik kiritiladi. Ya’ni, gap jinoyat-ijroiya tizimidan farqi hamda jinoyat-ijroiya tizimini penitensiar tizim deb atalishi haqida ketmoqda. Bizningcha, “jinoyat-ijroiya” atamasi, garchand jazo ijrosini nazarda tutsa ham, lingvistik nuqtai nazardan unchalik aniq emas. Mohiyatan ushbu tushuncha aynan jazolar ijrosini anglatadi, shu sababli ushbu tushunchani kodeks nomlanishida belgilanishi ham to‘g‘ri emas. Bizning fikrimizcha, “Jinoyat-ijroiya kodeksi” so‘zlarini “Jinoiy jazolarni ijro etish kodeksi” deb o‘zgartirish to‘g‘ri bo‘ladi. Shuningdek, ilmiy va amaliy muomalaga “jinoyat-ijroiya” tushunchasi o‘rniga “penitensiar tizim” tushunchasining kiritilishi ushbu tizim falsafasini tubdan o‘zgartirish uchun asos bo‘ladi. Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, jinoyat-ijroiya atamasida asosiy urg‘u jazoni ijro etish bilan bog‘langan bo‘lsa, penitensiar tizim atamasida, uning lug‘aviy ma’nosida ham jazoni ijro etish bilan bir qatorda mahkumga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish orqali jazo maqsadlariga erishish ko‘zga tashlanadi. Aynan shu sababli ham ko‘plab davlatlarda va xalqaro-huquqiy hujjatlarda ushbu atama qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi penitensiar tizimining muhim elementi jinoiy jazolarni ijro etish tizimidir. JIKning 3-bobi qoidalariga muvofiq, jinoyat-ijroiya tizimiga jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralari ijro etuvchi muassasalar va organlar kiradi.

Jinoyat-ijroiya tizimi ko‘p tarmoqli, ko‘p funksiyali ijtimoiy tizim hisoblanadi. Mazkur ta’rif penitensiar tizimga nisbatan ham o‘rinlidir.

Penitensiar tizimning samaradorligi muammolari ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda maqbullikni ta’minlash, huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatini yaxshilash va mazkur kurashning samaradorligini oshirish vazifalari birinchi o‘ringa chiqayotgan hozirgi sharoitda ularni chuqur tadqiq etish zaruriyatini ko‘rsatadi. Har qanday faoliyat, shu jumladan, penitensiar tizim faoliyatini ham uning pirovard natijalariga ko‘ra baholash davr talabidir.

Penitensiar tizimning bir elementini samarador deyish o‘rinli bo‘lmaydi. Chunki jinoyat-ijroiya munosabatlari va amaldagi penitensiar tizim doimiy ravishda rivojlanayotgani bois, tizimning o‘zgaruvchi elementlari eskirishi va o‘zgargan yangi sharoitlar bilan mos kelmasligi mumkin. Shu sababli, amaldagi penitensiar tizimning samaradorligini o‘rganish, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi tendensiyalarini aniqlash, penitensiar tizimni takomillashtirish maqsadida ularni yanada rivojlantirish yo‘llarini prognoz qilish borasida izchil tadqiqot olib borish zarur.

Davlat, umuman olganda, qo‘riqlash funksiyasini bajaradi. Ammo ayrim organlar uchun bu asosiy emas, balki qo‘shimcha vazifa bo‘lsa, boshqa organlar uchun aynan shu funksiya ularning bosh maqsadini belgilaydi, ayni shu funksiyani amalga oshirish uchun ham ular tashkil etiladi. Davlat mexanizmining turli bo‘g‘inlari huquqiy tartibotni qo‘riqlash, ta’minlash, himoya qilishni amalga oshiradi, bunda mazkur elementlar birikmasi ayni bir organ doirasida har xil bo‘ladi. Bu to‘laligicha penitensiar tizimga ham tegishli: uning turli elementlari huquqiy

tartibotni ham qo‘riqlash, ham ta’minlash, ham himoya qilishni u yoki bu darajada amalga oshiradi, biroq asosan bu vazifalardan birini bajarishni maqsad qiladi.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida hokimiyat bo‘linishi prinsipi davlat mexanizmi faoliyati va uni tashkil etishning muhim prinsipi hisoblanadi. Davlat hokimiyati davlat organlari va davlat hokimiyatining mansabdor shaxslari – vakillari siymosida davlatga uyushgan hamjamiyat yoki uning muayyan qismi irodasini o‘ziga bo‘ysundirish qobiliyatidir.

Davlat hokimiyati yuridik jihatiga ko‘ra faqat ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki davlat hokimiyatini tashkil etish shakllarini, uni amalga oshirish usullarini mustahkamlovchi, davlat organlari tuzilmasini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida ham qaraladi.

Mamlakat iqtisodiy va siyosiy tizimlaridagi o‘zgarishlar xususiyatini hisobga olganda, penitensiar tizim maqomining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish hozirgi vaqtda alohida qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu yerda huquqiy davlat g‘oyasini idrok etish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy davlatda jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalarida qonun hukmronligi, shaxs erkinligi, inson huquqlari va manfaatlarining daxlsizligi, davlat va shaxsning o‘zaro javobgarligi prinsiplari, davlat va jamiyat hayotining muhim prinsiplaridan biri – qonuniylikning mazmuniga jiddiy qo‘shimchalar kiritilishi talab qilinadi.

Qonuniylik barcha davlat va jamoat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun qonunlarning majburiyligi, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning izchilligi va ular uchun javobgarlikning muqarrarligi singari talablarning bajarilishidir.

Hozirgi davrda penitensiar tizim mamlakatimizda islohotlarni ma’rifatli vositalar yordamida, qonuniy tartib-taomillar doirasida, hech kimning huquqlari va manfaatlarini kamsitmasdan amalga oshirish, ammo shu bilan bir vaqtda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirishning kafolatlaridan biri bo‘lishi lozim.

Penitensiar tizim bir-biri va boshqa davlat organlari bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan, jinoyatchilikka qarshi kurash olib boradigan davlat organlari tizimini o‘zida ifodalaydi. Bu o‘zaro hamkorlik (aloqadorlik), ular faoliyatining huquqiy asoslari, shakllari va usullarida mavjud farqlarga qaramay, ular oldida turgan, mamlakatda jinoyatchilikka qarshi kurashishdan iborat bo‘lgan umumiy vazifa bilan belgilanadi. Ko‘rsatilgan davlat organlaridan har birining muvaffaqiyatli ishlashi mazkur tizimning boshqa bo‘g‘inlari o‘z vazifalarini samarali bajarishlarining zaruriy shartidir. Ular jinoyatchilikka qarshi kurashning barcha bosqichlarida, jumladan, jazoni ijro etishda ham o‘zaro hamkorlik qilishlari lozim.

Ulardan har biri faoliyati o‘zaro aloqador bo‘lib, u jamiyat iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining umumiy darajasi, turli bosqichlarda jinoyatchilikka qarshi kurashning xususiyatlari, mazkur organning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi o‘rni va roli, ularni huquqiy tartibga solish va faoliyat sharoitlari, ularning aniq vazifalari xususiyati bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda penitensiar tizim bir qator belgilariga ega:

– O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy asosining elementlaridan biri sifatidagi qonuniylikni muhofaza qilish maqsadida, alohida vakolatlarga ega bo‘lgan, maxsus tuzilgan davlat hokimiyati organi tomonidan amalga oshiriladi;

– penitensiar tizim qonun bilan tartibga solingan penitensiar munosabatlarning barcha sohalarida amal qiladi;

– qoida tariqasida, qonunlarning buzilishi tufayli amalga oshiriladi;

– o‘z vazifalarini davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlari, jamoat birlashmalaridan qat’i nazar amalga oshiradi.

Huquqiy davlat mexanizmida penitensiar tizimning yana bir jihatiga e’tiborni qaratish lozim. Bu jihat huquqiy davlatning muhim belgisi – hokimiyat bo‘linishi: qonunchilik, ijro va sud hokimiyati bilan bog‘liq. Huquqiy davlatda boshqa, jumladan, politsiya hokimiyati bo‘lishi mumkin emas. Shu sababli, penitensiar muassasalar mustaqil hokimiyat sifatida qaralishi mumkin emas. Ular yuqoridagi uchlikka kiradigan hokimiyat tarmoqlaridan biriga mansubdir. Aksariyat hollarda mazkur organlar tarkibiy jihatdan ijro hokimiyati organlariga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida jinoiy jazoni ijro etadigan organlar va muassasalar asosan Ichki ishlar vazirligi hamda prokuraturada jamlangan bo‘lib, ushbu organlarga Mudofaa vazirligining intizomiy harbiy qismlari ham kiradi. Ichki ishlar vazirligi, prokuratura va Mudofaa vazirligi ijro etuvchi hokimiyat organlari hisoblanadi.

Har qanday ijtimoiy jarayonning samaradorligi, eng avvalo, uni tashkil etuvchi huquqiy munosabatlar subyektlari tizimi qay darajada oqilona tashkil etilgani va ularning o‘z vazifalarini qay darajada bajarishlari bilan belgilanadi. Jinoiy jazoni ijro etish tizimi o‘zaro aloqador subyektlar – ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jinoiy jazolarni ijro etadigan muassasalar va organlarning yagona boshqaruv kompleksidir. Shunga o‘xshash fikrni A.A. Ignatyev va N.I. Petrenko ham bildirganlar.

JIK 3-bobining mazmunidan O‘zbekiston Respublikasining jinoiy jazoni ijro etish tizimi jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralari ijro etuvchi muassasalar va organlardan iborat, degan xulosa kelib chiqadi.

JIK 14-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining jazolarni ijro etuvchi muassasalari va organlariga quyidagilar kiradi:

– jarima O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan ijro etiladi;

– muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolari ichki ishlar organlari tomonidan yoki sud hukmida ko‘rsatilgan boshqa organ tomonidan ijro etiladi. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi mahkumning ish joyidagi ma’muriyat tomonidan, shuningdek tegishli faoliyat turlari bilan shug‘ullanish vakolati berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organlar tomonidan ijro etiladi;

Harbiy xizmatchilarga nisbatan:

– xizmat bo‘yicha cheklash tariqasidagi jazo – harbiy xizmatchi xizmatni o‘tayotgan joydagi harbiy qismlarning (muassasalarning) qo‘mondonligi tomonidan;

– intizomiy qismga jo‘natish tariqasidagi jazo – maxsus tashkil etilgan harbiy qismlar tomonidan ijro etiladi;

– harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi qo‘shimcha jazo mazkur unvonni bergan organ tomonidan ijro etiladi.

JIK 15-moddasida O‘zbekiston Respublikasining boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralari ijro etuvchi muassasalari va organlari ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi JIKda belgilangan jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralari ijro etuvchi muassasalar va organlarning vazifalaridan kelib chiqib, jinoyat-ijroiya tizimining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– jarima, majburiy jamoat ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash, ozodlikni cheklash, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jinoiy jazolarni ijro etish;

– shartli hukm qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari, voyaga yetmaganlarga tayinlangan jabrlanuvchidan uzr so‘rash, yetkazilgan zararni to‘lash yoki bartaraf etish majburiyatini yuklash, maxsus o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish singari boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralari ijro etish;

– jinoiy jazolarni ijro etuvchi organlar va muassasalarda huquqiy tartibot va qonuniylikni, ularda saqlanayotgan mahkumlar, ularning hududida bo‘lgan ishchi-xodimlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;

– mahkumlarni mehnatga jalb qilish, ularning umumiy va kasb-hunar ta’limi, kasbiy tayyorgarligini ta’minlash;

– mahkumlarning sog‘ligini saqlashni ta’minlash;

– tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlariga yordam ko‘rsatish.

Jinoiy jazoni ijro etish tizimining tuzilmasi haqida gapirganda, shuni qayd etib o‘tish lozimki, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– jinoiy jazolarni ijro etuvchi muassasalarni;

– mazkur tizimning hududiy boshqaruv organlarini;

– jinoyat-ijroiya tizimining markaziy boshqaruv organlarini.

Bundan tashqari, jinoyat-ijroiya tizimiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan tuziladigan, mazkur tizimning normal ishlashini ta’minlaydigan muassasalar va organlar: tergov hibsxonalari; jinoyat-ijroiya tizimi faoliyatini ta’minlash uchun maxsus tashkil etilgan korxonalar; ilmiy-tadqiqot, loyihalash, davolash, ta’lim muassasalari va boshqa muassasalar ham kirishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarining turlari:

1. umumiy, qattiq va maxsus tartibdagi jazoni ijro etish koloniyalari;
2. tarbiya koloniyalari;
3. turmalar;
4. tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari ijro etadigan davolash muassasalari;
5. manzil-koloniyalari JIK 9-bobida ko‘rsatib o‘tilgan.

Bundan tashqari, tergov hibsxonalari ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va xo‘jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muassasalari vazifasini bajaradi.

Demak, jinoiy jazolarning aksariyati Ichki ishlar vazirligining muassasalari tomonidan ijro etiladi.

Ta’kidlash lozimki, jahonda jazolarni ijro etish tizimlarining bir nechta turli institutsional modellari mavjud. Jazolarni ijro etish tizimining u yoki bu davlat idorasiga qarashli ekanligiga qarab, bunday tizimlarni tashkil etishning besh modelini farqlash mumkin:

1. jazolarni ijro etish tizimi to‘laligicha Ichki ishlar vazirligi oldida hisobdor bo‘lgan model;
2. jazolarni ijro etish tizimi to‘laligicha Adliya vazirligi tomonidan boshqariladigan model;
3. jazolarni ijro etish tizimi birlashtirilgan Adliya va ichki ishlar (politsiya) vazirligi boshqaruvi ostida bo‘lgan birlashtirilgan model;

4. jazolarni ijro etish tizimi Adliya vazirligi tomonidan ham Ichki ishlar vazirligi tomonidan ham nazorat qilinmaydigan alohida davlat departamentining tarkibida bo‘lgan model;
5. jazolarning turlari yoki protsessual majburlov choralari turli idoralarning ixtiyoriga berilgan aralash model: hukm qilingan shaxslar saqlanadigan penitensiar muassasalar Adliya vazirligining, dastlabki qamoq joylari esa Ichki ishlar vazirligining ixtiyorida bo‘ladi.

Sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan bir qator mamlakatlarda, shu jumladan Belarus Respublikasi, Turkmanistonda penitensiar tizim to‘liq Ichki ishlar vazirligi tomonidan boshqariladi. Mazkur davlatlarda jazolarning ijrosini Ichki ishlar vaziriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunadigan Jazolarni ijro etish tizimi departamenti amalga oshiradi. Bu model Sobiq Ittifoqdan “meros” qolgan va u SSSRning boshqa respublikalarida ham qo‘llanilgan.

Ammo Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin mazkur mamlakatlarning aksariyatida undan penitensiar tizimni boshqarish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan model foydasiga voz kechdilar. Jazolarni ijro etish vakolatlarini Adliya vazirligiga o‘tkazish 1993-yil Ozarbayjon va Estoniyada, 1996-yilda Moldovada, 1998-yilda Rossiyada, 2000-yilda Gruziya, Latviya va Litvada, 2001-yilda Armanistonda, 2003-yilda Qirg‘izistonda amalga oshirildi. Shunga o‘xshash islohotlar 90-yillarning boshlarida sobiq sotsialistik davlatlarning jazolarni ijro etish bilan Ichki ishlar vazirligi shug‘ullangan boshqa mamlakatlarida ham amalga oshirildi, masalan, 1990-yilda Bolgariyada, 1991-yilda Ruminiyada, 1993-yilda Albaniyada.

Bugungi kunda O‘zbekistonda tom ma’nodagi penitensiar tizim shakllanishi uchun asta-sekin zarur ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy asoslar yaratilmoqda. Penitensiar tizim shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari shundan iboratki, davlatda jinoiy jazolarni ijro etish bo‘yicha maxsus ijtimoiy institutlar paydo bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, hozirgi bosqichda jazoni ijro etish tizimi tahlili uning insonparvarlashuvi, mahkumning insoniy qadri, qimmati va sha’ni tan olinishi, uning ajralmas huquq va erkinliklari to‘laqonli kafolatlanishi tendensiyasi mavjudligidan dalolat bermoqda.

Shu bilan birga, tan olish zarurki, qariyb barcha davrlarda penitensiar muassasalar nafaqat davlat mexanizmi, balki jamiyat siyosiy tizimining eng muhim elementlaridan biri hisoblangan. Ammo, biz eski “sovet” tizimi xatolaridan uzoq bo‘lishimiz, penitensiar tizimning davlat hokimiyati bilan yaqinligi, davlat siyosiy repressiv kuchiga va quroliga aylanib qolish xavfini oldini olishimiz darkor.

Bizningcha, huquqiy davlatda penitensiar tizim roli mutlaqo yangicha sifat kasb etishi lozim. Represiv, jazolovchi organlar turkumidan, u tom ma’noda huquqni muhofaza qiluvchi organga aylanishi shart, ya’ni uning butun faoliyati to‘la-to‘kis fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza etishga qaratilishi lozim.

Shu orqali, penitensiar tizim davlat hokimiyatini emas, qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘z hissasini qo‘shadi.

Shunday qilib, penitensiar tizim mohiyatini tushunishga oid fikr va muammolarining tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

– Huquqiy davlatda penitensiar tizimning o‘rni va ahamiyati butunlay o‘zgarishi lozim.

– U tom ma’nodagi huquqni muhofaza qilish organiga aylanishi kerak.

– Bu penitensiar tizimning faoliyati to‘laligicha fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilishi lozimligini anglatadi.

– Shu tariqa, penitensiar tizim davlatning hukmronligini emas, balki qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. The Philosophy and History of Prisons. Philosophers of Punishment and Penology. // 29043_CH01_1_21.qxd 9/28/05 8:51 AM Page 6.
2. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. / Масъул муҳаррир: Н.Тойчиев. – Тошкент: Адолат, 2011. – Б. 365.
3. Samuel H. Pillsbury. Understanding Penal Reform: The Dynamic of Change.Journal of Criminal Law and Criminology. Volume 80 Issue 3FallArticle 3 – P.729; Шамансуров А.А. Теоретические и прикладные проблемы модернизации пенитенциарной системы. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2015. – 216 с.; Борзенко Ю.А. Пенитенциарное правосознание в российском обществе: современное состояние и проблемы развития. Дисс… канд. юрид. наук. – Владимир, 2008. – 176 с.; Оганесян С.М. Пенитенциарная система государства: Историко-теоретический и правовой анализ. Дис. … докт. юрид. наук. – СПб., 2005. – 315 с.
4. Маҳкумлар ҳуқуқлари: халқаро ва миллий стандартлар. / Ф.Бакаева ва бошқ. – Тошкент: Тафаккур, 2011. – Б. 98.
5. Европейские пенитенциарные правила Комитета министров ООН. – М., 2016. – 136 с.
6. Wilson, David & Reuss, Anne, eds. (2000). "Introduction". Prison(Er) Education: Stories of Change and Transformation. Waterside Press. pp. 12–15; Carlson, Peter M., ed. (2013). "Correctional Academic, Career, and Reentry Education".Prison and Jail Administration: Practice and Theory. Jones & Bartlett. p. 108;.Камалиева И.Р. Система исполнения наказаний как регулятор социальной нормы. // Вестник Челябинского государственного университета, 2015, № 26 (381). – С. 54.
7. Горбань Д.В. «Комплексные» исправительные учреждения в пенитенциарной системы России на современном этапе её реформирования. // Актуальные вопросы борьбы с преступлениями, 2015 г., № 1. – С. 38.
8. Пенитенциарные системы зарубежных стран. / Под общ. ред. М.П.Мелентьева. – Киев, 1993. – С. 166. (319 с.)
9. Kevin I. Minor and Stephen Parson, "Protective Custody", in *Carlson, Peter M. (2015).*Prison and Jail Administration : Practice and Theory *(Third ed.). Burlington, Massachusetts: Jones & Bartlett Learning.* ISBN 1449653057. OCLC 848267914., p. 379.; Спицнадель В.Б., Вележев С.И. Пенитенциарная система: понятие и общая характеристика, соотношение с пенитенциарным правом. // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. – 2003, № 1. – С. 143–151.; Саломатин С.В. Перспективы гуманизации современной российской пенитенциарной системы. // Научные ведомости БелГУ. – 2014. № 16 (187). – С. 214.
10. Vogel, Brenda (2009). *The Prison Library Primer: A Program for the Twenty-First Century*. Scarecrow Press. p. 176.; Drucker, Ernest (2011). A Plague of Prisons: The Epidemiology of Mass Incarceration in America. The New Press. pp. 115–116.; Балуев Е.Н. «Пенитенциарная система»: плюрализм подходов к обозначению социально-юридического феномена и средства охраны и защиты законности и правопорядка. // Общество. Среда. Развитие (Terra Humana). – 2010, № 3. – С. 113.
11. Sinel’nikova T.V. Penitentiary System: Theoretical Problems of Definition. // Вестник Владимирского юридического института. – 2014, № 3 (32). – С. 170.
12. Овчинникова А. Пенитенциарная система как форма правовой коммуникации. // Вестник Самарского юридического института. – 2015, № 2. – С. 53.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

INTERNATIONAL LEGAL REGULATION OF COOPERATION AMONG THE STATES OF THE CENTRAL ASIAN REGION

Tursunov Oybek Batirovich
Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Abstract. The article explores the international legal framework and institutional mechanisms for cooperation among Central Asian states in managing transboundary water resources. It analyzes the role of the International Fund for Saving the Aral Sea (IFAS), the Interstate Coordination Water Commission (ICWC), and other regional bodies. The paper highlights conflicts of interest between upstream and downstream states and suggests resolving them through IFAS reform and increased participation in international legal instruments, such as the Helsinki Convention. It emphasizes the need for water cooperation beyond mere allocation, toward sustainable development and regional security.

Keywords: Central Asia, transboundary water resources, international law, IFAS, ICWC, sustainable development, Helsinki Convention, water diplomacy.

KORRUPSIYAGA QARSHI MONITORING TAMOYILLARINI TUSHUNISHGA YONDASHUVLAR

Турсунов Ойбек Батирович
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Аннотация. В статье рассматриваются международно-правовые основы и институциональные механизмы сотрудничества государств Центральной Азии в сфере управления трансграничными водными ресурсами. Анализируются деятельность Международного Фонда спасения Арала (МФСА), Межгосударственной координационной водохозяйственной комиссии (МКВК) и других региональных структур. Обращается внимание на конфликт интересов между странами «верховья» и «низовья», и предлагаются пути его разрешения через реформу МФСА и активизацию участия в международных правовых инструментах, таких как Хельсинская конвенция. Подчеркивается необходимость перехода к устойчивому водному сотрудничеству в контексте устойчивого развития и безопасности.

Ключевые слова: Центральная Азия, трансграничные водные ресурсы, международное право, МФСА, МКВК, устойчивое развитие, Хельсинская конвенция, водная дипломатия.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N29

В начале 1990-х гг. государства Центральной Азии – региона, на основе заключенных международных договоров создали систему региональных организаций по управлению водными ресурсами, которая действует в настоящее время под эгидой Международного Фонда спасения Арала.

В рамках Соглашения о сотрудничестве в сфере совместного управления использованием и охраной водных ресурсов межгосударственных источников 1992 г. [1.], положения которого предусматривают обязательства по недопущению на своей территории действий, затрагивающих интересы других сторон и способных привести к изменению согласованных величин расхода воды и загрязнению водоисточников (ст. 3),

а также по совместному принятию решений об использовании производственного потенциала водного хозяйства (ст. 6) был создан механизм сотрудничества государств Центральной Азии - **Межгосударственная координационная водохозяйственная комиссия по проблемам регулирования, рационального использования и охраны водных ресурсов межгосударственных источников (далее - МКВК**). К задачам МКВК [2.] относится поиск взаимоприемлемых решений для регулирования речного стока и распределения водных ресурсов региона, в то время как государства «низовья» (Казахстан, Туркменистан, Узбекистан) стремятся сохранить ирригационный режим стока рек Амударья и Сырдарья, а государства «верховья» (Кыргызстан и Таджикистан) считают такой режим экологически и социально не выгодным.

Соглашение о совместных действиях по решению проблемы Аральского моря и Приаралья 1993 г. [3.] создало ныне упраздненный **Межгосударственный Совет по проблемам бассейна Аральского моря**, и Комиссию по социально-экономическому развитию, научно-техническому и экологическому сотрудничеству, впоследствии преобразованную в **Межгосударственную комиссию по устойчивому развитию** [4.] (МКУР).

С 1999 г. МКВК и другой региональный орган сотрудничества МКУР входят в состав **Международного Фонда спасения Арала** [5.] (далее - МФСА) - региональной организации государств Центральной Азии, стратегические направления деятельности которой формируются Советом Глав государств [6.]. В каждом из государств-участников созданы филиалы МФСА, взаимодействующие с государственными, общественными и другими организациями в целях расширения сотрудничества по проблемам бассейна Аральского моря. С 2009 г. МФСА обладает статусом наблюдателя в Генеральной Ассамблее ООН [7.], что является признанием этой организации в качестве партнера по сотрудничеству в регионе. МФСА удалось консолидировать на межгосударственном уровне усилия по урегулированию проблем, связанных с совместным использованием водных ресурсов трансграничных рек в бассейне Аральского моря, а также привлечь внимание мировых финансовых институтов [8.] к аральской проблеме.

В то же время существующий институциональный механизм, фактически состоящий из трех организационных структур, не достаточно эффективен. Намерение совершенствовать его структуру и договорно-правовую базу МФСА с тем, чтобы выработать взаимоприемлемый механизм по комплексному использованию водных ресурсов и охране окружающей среды в Центральной Азии с учетом интересов всех государств региона, высказали Главы государств региона [9.].

Хотелось бы обратить внимание на то, что создание региональной организации не привело к формированию системы международных договоров в пятистороннем формате. В число инструментов регионального уровня, помимо вышеуказанных Соглашений 1992 и 1993 гг., закрепляющих общие принципы и задачи сотрудничества посредством организации совместного управления водораспределением, и Соглашения 1999 г., создавшего региональную организацию, входит также Рамочная конвенция об охране окружающей среды для устойчивого развития в Центральной Азии [10.].

Конвенция является рамочным договором, в котором нашли свое отражение современные принципы сотрудничества государств. Предполагается, что в ее развитие будут приняты протоколы по отдельным направлениям сотрудничества, в том числе в

области охраны вод и устойчивого использования водных ресурсов [11.]. Одновременно предусмотрено создание самостоятельного организационного механизма - Конференции Сторон и постоянно действующего Секретариата, а также других вспомогательных органов. Как представляется, со вступлением Конвенции в силу в регионе могут возникнуть два параллельно функционирующих институциональных механизма с возможным дублированием ряда функций, чего, безусловно, следовало бы избежать.

Будучи государствами-членами ЕЭК ООН, страны Центральной Азии не в достаточной мере участвуют в природоохранных инструментах, которые могли бы оказать важное влияние на достижение взаимоприемлемых решений в урегулировании актуальных вопросов совместного использования водных ресурсов. Только Республика Казахстан является стороной всех четырех вышерассмотренных конвенций, участниками Хельсинской Конвенции являются также Туркменистан и Узбекистан [12.].

Ввиду признаваемой необходимости совершенствования как международно-правовой базы трансграничного водного сотрудничества [13.], так и существующей региональной организации, по мнению автора, в сложившейся ситуации было бы более продуктивным не разрабатывать новый международный договор, а способствовать присоединению государств региона к существующим международно-правовым инструментам в области водопользования. Реформирование структуры и организации деятельности МФСА, а не создание параллельных институциональных механизмов, способствовало бы поиску взаимоприемлемых развязок для существующих разногласий между государствами «верховья» и «низовья».

Конфликт интересов в видах и режимах использования трансграничных водотоков в Центральной Азии возникает по причине того, что страны нижнего течения с доминирующим орошаемым сельским хозяйством нуждаются в летний период в заборе больших объемов воды, тогда как государства верхнего течения, сильно зависящие от гидроэнергетики, заинтересованы в этот период в накоплении воды в водохранилищах для последующего ее использования в выработке электроэнергии в зимнее время [14.].

Попытка урегулирования этой проблемы была предпринята четырьмя государствами региона в рамках бассейна реки Сырдарья посредством заключения Соглашения об использовании водно-энергетических ресурсов ее бассейна [15.]. В основу Соглашения положен механизм согласования режима работы гидротехнических объектов и водохранилищ Нарын-Сырдарьинского каскада в интересах подачи достаточного количества воды для ирригационных целей, при этом выработан механизм обмена электрической энергии сверх нужд Кыргызской Республики на компенсационные поставки или соответствующее финансирование.

Новая эра требует международно-правого сотрудничества «за пределами воды» в контексте устойчивого развития, безопасности, социально-экономического развития и, соответственно, новых подходов к научной кооперации [16.].

Существует несколько **возможных механизмов решения проблемы трансграничного водопользования** [17.].

Во-первых, государства низовья могут финансово компенсировать государствам верховья за летнее высвобождение воды, собранной за зиму. Такая практика

использовалась в советское время, когда нижние по течению регионы выделяли верхним бесплатный газ и уголь для обеспечения их электричеством и теплом во время зимних месяцев. После распада СССР эти договоренности были отменены [18.]. В то время как государства, находящиеся в верховьях, утверждают, что вода должна рассматриваться как услуга, за которую должны платить страны, расположенные в низовьях, последние опровергают эти требования, заявляя, что вода трансграничных рек не является собственностью какой-либо страны, а представляет собой общее благо, на использование которого все имеют равные права.

Во-вторых, страны, расположенные в нижнем течении рек, могут строить дамбы и резервуары на своей территории, чтобы собирать воду, сбрасываемую государствами верховья в зимний период для использования летом. Такие резервуары уже построены (например, в Узбекистане), строятся в настоящее время (например, «Озеро золотого века» в Туркмении) или находятся в стадии проектирования (Коксерай в Казахстане). Однако проблема этих резервуаров заключается в их низкой эффективности: они расположены на плоских, неглубоких равнинах, подвержены высокому уровню испарения, и использование их для производства электроэнергии представляет собой сложную задачу.

Третья возможность состоит в строительстве «каскадных» плотин и водохранилищ. Это позволяет использовать верхние плотины для производства электроэнергии в зимний период, одновременно собирая воду для орошения в нижних водохранилищах летом. В случае с Рогунской плотиной, например, таким резервуаром мог бы быть водоем, расположенный ниже Нурекской плотины.

Исходя из выше рассмотреннего, мы пришли к **следующим выводам.**

Во-первых, действующая правовая основа межгосударственного сотрудничества в области управления и использования трансграничных водных ресурсов в Центральной Азии требует доработки. Участие стран региона в международных правовых инициативах по водопользованию, включая рамки ЕЭК ООН, могло бы способствовать этому.

Во-вторых, опыт институциональных механизмов природоохранных конвенций ЕЭК ООН, включая Хельсинскую Конвенцию, может быть полезен при реорганизации структуры и деятельности МФСА.

В-третьих, для нахождения взаимоприемлемых решений существующих разногласий между государствами «верховья» и «низовья» по важнейшему вопросу использования водно-энергетических ресурсов в Центральной Азии, полезным может стать проведение независимых экологических экспертиз крупных проектов и поддержание постоянного многостороннего открытого диалога.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Соглашение между Республикой Казахстан, Республикой Кыргызстан, Республикой Узбекистан, Республикой Таджикистан и Туркменистаном о сотрудничестве в сфере совместного управления использованием и охраной водных ресурсов межгосудар ственных источников (Алма-Ата, 18 февраля 1992 г.). - URL: http://www.icwc-aral.uz/statute1_ru.htm
2. В соответствии со ст. 8 и 9 Соглашения 1992 года были сохранены принципы и объемы вододеления советского периода, рассчитанные на поддержание орошаемого земледелия в низовьях этих рек. В ведение МКВК в качестве ее

исполнительных органов были переданы два бассейновых водохозяйственных объединения "Сырдарья" и "Амударья", созданные еще в середине 1980- х годов для управления межреспубликанским распределением водных ресурсов этих рек.
3. Соглашение о совместных действиях по решению проблемы Аральского моря и Приаралья, экологическому оздоровлению и обеспечению социально - экономического развития Аральского региона (Кзыл-Орда, 26 марта 1993 г.). - URL: http://www.icwc- aral.uz/statute13 ru.htm Участниками являются все пять государств Центральной Азии.
4. Решение Глав государств Центральной Азии - Межгосударственного Совета по проблемам
1. бассейна Аральского моря о создании Межгосударственной комиссии по устойчивому развитию от 19.07.1994г., Ашгабат. - URL: http://www.cawater-info.net/library/rus/ifas/10 ifas.pdf
5. Соглашение между Правительством Республики Казахстан, Правительством Кыргызской Республики, Правительством Республики Таджикиста н, Правительством Туркменистана и Правительством Республики Узбекистан о Статусе Международного Фонда спасения Арала (МФСА) и его организаций (Ашгабат, 9 апреля 1999 г.). - URL: http://www.icwc-aral.uz/statute3 ru.htm
6. В структуру МФСА входят также: Президент Фонда (один из глав государств Центральной Азии на ротационной основе), Правление (представитель от государств-учредителей МФСА на уровне заместителя премьера-министра), а также Исполнительный Комитет - постоянно действующий исполнительный орган, расположен в г. Ташкент.
7. Резолюция 63/133 Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций от 11 декабря 2008 г. «Предоставление Международному фонду спасения Арала статуса наблюдателя в Генеральной Ассамблее» - URL: https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N08/478/79/PDF/N0847879.pdf?OpenElement
8. Проекты в рамках Программы действий по оказанию помощи странам бассейна Аральского моря на период 2011-2015 годы (ПБАМ-3) финансируются донорами: Всемирный банк, Азиатский банк развития, Швейцарское Агентство по развитию и сотрудничеству, Немецкое общество Международного сотрудничества. Официальный сайт МФСА www.ec-ifas.org
9. Совместное заявление Глав государств-учредителей Международного фонда спасения Арала от 28.04.2009 г., Алматы [Электронный ресурс]. - URL: http://www.cawater-info.net/library/rus/ifas/10 ifas.pdf
10. Рамочная конвенция об охране окружающей среды для устойчивого развития в Центральной Азии (Ашхабад, 22 ноября 2006 г.) - URL: http://cawater-info.net/library/rus/ca_convention_2006_ru.pdf Участники Кыргызская Республика, Республика Таджикистан, Туркменистан и Республика Узбекистан.
11. В соответствии со ст. 9 Конвенции Договаривающиеся Стороны сотрудничают в разработке Протоколов, устанавливающих правила и процедуры в частности, в отношении совершенствования национальных структур и создания региональной системы мониторинга качества вод в трансграничных водотоках, совместных действий по обеспечению надлежащего снабжения качественной питьевой водой; принятия мер и действий для предотвращения и снижения загрязнения вод.
12. Сторонами Конвенции Эспо являются Казахстан и Киргизия; Участн иками Орхусской Конвенции являются Казахстан, Киргизия, Таджикистан и Туркменистан. В Конвенции о промышленных авариях из государств региона участвует только Казахстан.
13. Документ «Достижение и поддержание справедливого и разумного баланса в использовании общих водных ресурсов в бассейне Аральского моря. Предложение

по модернизации нормативно - правовой базы управления трансграничными водными ресурсами бассейна Аральского моря», Региональный Центр ООН по превентивной дипломатии для Центральной Азии [Электронный ресурс]. - URL: http://unrcca.unmissions.org (дата обращения - 15.08.2016).
14. Совершенствование управления водными ресурсами и трансграничного водного сотрудничества в Центральной Азии: роль природоохранных конвенций ЕЭК ООН. - Европейская Экономическая Комиссия Организации Объединенных Наций, Женева, 2012. ECE/MP.WAT/35 URL: http://www.unece.org/fileadmin/DAM/env/water/publications/documents/Water_Management_Ru.pdf С. 13.
15. Соглашение между Правительством Республики Казахстан; Правительством Кыргызской Республики и Правительством Республики Узбекистан об использовании водно-энергетических ресурсов бассейна реки Сырдарья (Бишкек, 17 марта 1998 г.) - URL: http://www.cawater-info.net/library/rus/gov1.pdf и Протокол о внесении изменений и дополнений в Соглашение между Правительством Республики Казахстан, Правительством Кыргызской Республики и Правительством Республики Узбекистан об использовании водно-энергетических ресурсов бассейна реки Сырдарья от 17 марта 1998 года (Бишкек, 17 июня 1999 г.) - URL: http://www.cawater-info.net/library/rus/gov1
16. Гулимов А.Б. Международно-правовое сотрудничество в сфере экологии и охраны окружающей среды в регионе Аральского моря // Дис. … докт. юр. наук. – Ташкент: Университет мировой экономики и дипломатии, 2024. – С.170.
17. Linn. J. F. Water-Energy Links in Central Asia: A Long-Term Opportunity and Challenge - URL: http:// www.brookings.edu
18. Торкунов, А.В., Орлов А.А. Проблема пресной воды. Глобальный контекст политики России. Аналитический доклад Института международных исследований МГИМО - Университет- М.: МГИМО-Университет, 2011. - С. 11.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S RIGHTS WITHIN THE FRAMEWORK OF INTERNATIONAL LAW

Khakimova Inobatkhon Marksovna
Chief specialist of the "Development Strategy" Center

Abstract. This article discusses the issue of ensuring the rights of women in the world. Based on the analysis of international acts aimed at protecting the rights and interests of women, in particular, in the UN Charter and the Universal Declaration of Human Rights, as well as in a number of other international treaties and conventions created on the basis of these acts, conclusions are given regarding discrimination against women.

Keywords: women, CEDAW, declaration, convention, women's movement, feminism, discrimination, gender discrimination, equality, gender equality.

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Xakimova Inobatxon Marksovna
"Taraqqiyot strategiyasi" markazi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon hamjamiyatida xotin-qizlarning huquqlarini ta'minlash masalasi ko'rib chiqilgan. Xotin-qizlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlarning, xususan BMTning Nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda ushbu qonun hujjatlari asosida vujudga kelgan boshqa qator xalqaro shartnomalar va konvensiyalarda xotin-qizlarning tabiiy huquqlari ta'minlash bilan bir qatorda, siyosiy va iqtisodiy hayotda xotin-qizlarni kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligini ilmiy tahlil qilingan va xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, CEDAW, deklaratsiya, konvensiya, ayollar harakati, feminizm, diskriminatsiya, jinsga ko'ra kamsitish, teng huquqlilik, gender tenglik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N30

Kirish. Inson huquqlari har bir insonning munosib va erkin hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan sharoitlardan kelib chiqadi. Bu huquqlar ikki asrdan ortiq vaqt davomida bosqichma-bosqich shakllangan. Xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi o'rni masalasi qadimgi davr faylasuflarini ham doimo o'ylantirib kelgan. O'rta asrlarda ayollar jamiyat hayotida faol ishtirok etish, mulkka egalik qilish, shartnomalar tuzish kabi huquqlarga ega bo'lgan. Ana shu tarixiy yondashuvlar keyinchalik feminizm nazariyasining shakllanishiga zamin yaratdi. Keyinchalik feministik harakatlar ayollarning boshqa huquqlarini himoya qilishlarini talab qilishlarida namoyon bo'ldi.

Bu yo'nalishda sezilarli o'zgarishlarga XX asrda xotin-qizlarning saylov huquqi harakati (sufrajizm) kengaygan paytda erishildi. XX asrning birinchi yarmidagi ayollarning ommaviy harakati natijasida bir qator davlatlar qonunchiligida ayollar huquqlariga oid qoidalar mustahkamlangan [8]. Ularning ushbu harakatlarida siyosiy va iqtisodiy hayotda xotin-qizlarni kamsitilishiga qarshi chiqishganligini ko'rishimiz mumkin.

Xotin-qizlar huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikning yuqori darajasining boshlanishi Ikkinchi jahon urushidan keyin BMTning tashkil etilishi bilan birga qo‘yildi [9]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil topganidan beri erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik inson huquqlarining eng asosiy kafolatlaridan biri bo‘lib kelmoqda. 1945-yilda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi uning oldiga “insonning asosiy huquqlariga, inson sha’ni va qadr-qimmatiga, erkaklar va ayollarning teng huquqliligiga ishonchni yana bir bor tasdiqlash” vazifasini qo‘ydi. Nizomning 1-moddasida [1] Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsadlaridan biri “irqi, jinsi, tili va dinidan qat’iy nazar” barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni rag‘batlantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Jinsga ko‘ra kamsitishning ta’qiqlanishi Nizomning 13- va 55- moddalarida [1] yana bir bor tasdiqlangan.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining eng muhim qoidalaridan biri 2-moddada mustahkamlangan. Unga ko‘ra, har bir shaxs Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va erkinliklarga irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulki yoki boshqa holatidan qat’iy nazar ajratilmasligi belgilangan [14]. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining ushbu moddasiga asoslanib, diskriminatsiyaga qarshi xalqaro qonunchilik rivojlandi hamda aksar davlatlarning Konstitutsiyalarida hamda milliy qonunchiligida o‘z ifodasini topdi.

Erkaklar va ayollar o‘zlarining inson huquqlaridan teng ravishda foydalana olishlari kerakligi haqidagi tushuncha inson huquqlari bo‘yicha barcha asosiy xalqaro hujjatlarning bir qismidir. Inson huquqlari to‘g‘risidagi Bill deb ataladigan hujjatlar — Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va ikkita Pakt: “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt” va “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt” nafaqat ochiq-oydin kamsitmaslik va tenglik tamoyillariga, balki, inson huquqlariga oid yanada ixtisoslashgan shartnomalar ishtirokchi-davlatlari ularda ko‘rsatilgan huquqlarni hech qanday o‘zgartirmasdan hurmat qilishlari va ta’minlashlari kerakligini belgilaydi [6].

Erkaklar va ayollarning barcha inson huquqlaridan foydalanish tengligi xalqaro huquq tomonidan tan olingan asosiy tamoyillardan biridir va inson huquqlari bo‘yicha yirik xalqaro shartnomalarda mustahkamlangan. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt har bir insonning insoniy qadr-qimmati uchun asos bo‘lgan inson huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi [11]. 3-moddada “ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollarning ushbu Paktda nazarda tutilgan barcha iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlardan foydalanishda teng huquqliligini ta’minlash majburiyatini oladilar” deb ta’kidlanadi. 7-modda esa mehnat munosabatlarida tenglik bilan bog‘liq bo‘lib, “bir xil ish uchun teng haq olishlari” talab qilinadi. 10-modda turmush qurgan va ziyoli ayollarning huquqlarini hisobga olgan holda onalarni tug‘ilishgacha va tug‘ruqdan keyin himoya qilish hamda ziyoli ayollarning ish joyidagi farovonligini ta’minlaydi. 13-modda Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 26-moddasiga mos holda ishtirokchi davlatlardan har bir insonning ta’lim olish huquqini tan olishni talab qiladi.

Pakt huquqiy jihatdan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga doir xalqaro kelishuvlarning huquqiy shaklini birinchi bo‘lib tasdiqladi hamda ayollarning erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo‘lishini talab qiladi. Shuningdek, bir tomonlama nazarda tutilgan fuqarolik va siyosiy huquqlarini va ayollarga bevosita nomlanmaydigan cheklovlarni ifodalaydigan an’anaviy inson huquqlari tamoyillarini yo‘q qildi va xotin-qizlarning inson huquqlarini shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo‘shdi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar

to‘g‘risidagi xalqaro Paktda uning har bir ishtirokchi-davlati o‘z hududida va uning yurisdiksiyasi ostidagi barcha shaxslar Paktda e’tirof etilgan barcha huquqlardan foydalanishini va irqi, terisining rangi jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, millati yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati yoki boshqa holatidan hech qanday farq qilmasligini hurmat qilishi va kafolatlashi shartligi ta’kidlangan.

Ikkala Paktda belgilangan asosiy tamoyillar tenglik va kamsitmaslik tamoyillaridir. Bu tamoyil gender tengligiga urg‘u berdi. Har ikki pakt ham o‘z muqaddimasida “...barcha insoniyat oilasining a’zolariga xos qadr-qimmatni hamda ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish ozodlik, adolat va yalpi tinchlikning asosi ekanligini e’tiborga oladi. Shuningdek, barcha insoniyat oilasining a’zolariga xos qadr-qimmatni hamda ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish ozodlik, adolat va yalpi tinchlikning asosi ekanligini e’tiborga olib, bu huquqlar inson shaxsiga xos bo‘lgan qadr-qimmatdan kelib chiqishini e’tirof etib, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga muvofiq, qo‘rquv va muhtojlikdan ozod bo‘lgan, fuqarolik va siyosiy erkinlikdan foydalanuvchi ozod inson shaxsi ideali har bir odam o‘z iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlaridan foydalanishi mumkin bo‘lgan sharoit yaratilgandagina ro‘yobga chiqishi mumkinligini ta’kidlaydi...” [2]. Ya’ni, ushbu inson huquqlari Paktlari va Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining shukuhi shundaki, ayollar erkaklar bilan bir qatorda teng huquqlilik asosida fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlaridan foydalanadilar. Inson huquqlarini baholash, amalga oshirish, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish hamda inson huquqlari bilan bog‘liq vaziyatni baholash keng qamrovli bo‘lishi kerak.

Dastlabki o‘ttiz yillikda BMTning ayollar muammolari bo‘yicha faoliyati, birinchi navbatda, ayollarning qonuniy va fuqarolik huquqlarini belgilashga va butun dunyo bo‘ylab ayollarning ahvoli haqida ma’lumot to‘plashga qaratilgan. Biroq, vaqt o‘tishi bilan xotin-qizlarning teng huquqlarini ta’minlash uchun faqat qonunlar yetarli emasligi tobora ayon bo‘lib borgan. Gender tengligi uchun kurashning ikkinchi bosqichi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan ayollarni rivojlantirish bo‘yicha strategiya va harakatlar rejalarini ishlab chiqish uchun to‘rtta jahon konferensiyasini chaqirish bo‘ldi. Amalga oshirilgan sa’y-harakatlar ayollarga faqat ularning rivojlanish ehtiyojlari nuqtai nazaridan qarashdan boshlab, insoniyat faoliyatining barcha sohalarida va bosqichlarida to‘laqonli ishtirok etish huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga doir bir necha bosqich va o‘zgarishlarni bosib o‘tdi [3]. BMT ushbu muddat ichida ayollarning erkaklar bilan tengligi rad etilgan va huquqlari poymol etilib kelgan barcha sohalarni aniqlashda muhim rol o‘ynadi.

1995-yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan Xotin-qizlar bo‘yicha to‘rtinchi Xalqaro konferensiyada qabul qilingan Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi [4] ayollarning inson huquqlarini amalda ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ishning 12 yo‘nalishiga e’tibor qaratadi va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha qator vazifalarni belgilaydi. Ayollar bo‘yicha o‘tkazilgan uchta jahon konferensiyasi natijalariga asoslanib, ular o‘z-o‘zidan ayollar huquqlarini inson huquqlari sifatida aniq tasdiqlash yo‘lidagi muhim qadam sifatida ko‘rilmoqda. Harakatlar platformasi ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish, ayollar va erkaklar o‘rtasida tenglikka erishishga qaratilgan qator strategik vazifalarni belgilab beradi. U inson huquqlari tamoyillariga asoslangan global siyosiy va huquqiy strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Aynan harakatlar platformasida davlatlar ayollarning inson huquqlarini himoya qilish majburiyatlarini umumlashtiruvchi ifodasini topdi. Ko‘rinib turibdiki, strategik maqsad va

harakatlar ayollar bilan bog‘liq barcha jihatlarni qamrab oladi, shuni tushunish mumkinki, xalqaro hamjamiyatning ayollar muammolari va ayollar huquqlariga e’tibori ortib bormoqda — ayollarning asosiy inson huquqlari sohasidagi taraqqiyotga e’tibor qaratishdan tortib, ayollarga nisbatan kamsitishlarga e’tibor qaratishgacha. Harakatlar platformasi butun dunyo bo‘ylab gender tengligi umumiy maqsadiga erishish yo‘lida ayollar umumiy muammolarga duch kelayotganini, bunga faqat erkaklar bilan birgalikda va hamkorlikda erishish mumkinligini ta’kidladi.

Yangi ming yillikning kelishi bilan jahon hamjamiyati gender tengligiga erishish maqsadi va dunyodagi boshqa dolzarb global vujudga kelgan masalalarni, xususan, ushbu maqsadni amalga oshirish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tobora ko‘proq anglab yetmoqda va ta’kidlamoqda [16]. 2000-yil sentyabr oyida BMTga a’zo davlatlar sammitida qabul qilingan “Mingyillik deklaratsiyasi”da aniq aytilganki, gender tengligini targ‘ib qilish qashshoqlik va ochlikni kamaytirishning muhim sharoiti va rivojlanish sharti hisoblanadi. 2000-yilda xalqaro hamjamiyat 2015-yilning aniq muddatlari bilan erishilishi kerak bo‘lgan sakkizta rivojlanish maqsadini kelishib oldi. Yetti maqsad bo‘yicha ularga erishishning aniq ko‘rsatkichlari aniqlandi. Inson huquqlari nuqtai nazaridan kamchiliklardan xoli bo‘lmasa-da, Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari muhim siyosiy majburiyat bo‘lib, dunyoning eng katta muammolarini hal qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarni xalqaro qo‘llab-quvvatlagan. Ayollar huquqlari nuqtai nazaridan “Mingyillik rivojlanish maqsadi”ning 3-maqsadi gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirishga qaratilgan. Biroq unga hamroh bo‘lgan o‘ziga xos ko‘rsatkich faqat 2015-yilga qadar ta’limdagi gender tafovutlarini yo‘q qilishni talab qilgan. Qizlarning ta’lim olish imkoniyati gender tengligining zaruriy sharti bo‘lsa-da, bunday tor chora gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirish yo‘lidagi taraqqiyotni o‘lchash uchun yetarli emas. 5-maqsad 1990-yildan 2015-yilgacha bo‘lgan davrda onalar o‘limi koeffitsiyentini to‘rtdan uchga qisqartirishdan iborat. Afsuski, 2010-yilda Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo‘yicha Bosh Assambleyaning Oliy darajadagi yalpi majlisida ma’lum bo‘ldiki, homilador ayollar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning hayotiga xavf soluvchi tahdidlarni bartaraf etish uchun yetarli bilim va ko‘nikmalar mavjud bolishidan qat’iy nazar, belgilangan maqsadlarning barchasidan ushbu maqsadni amalga oshirish eng murakkabidir. 2010-yilda Bosh kotib butun dunyo bo‘ylab ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan asosiy harakatlar sanab o‘tilgan ayollar va bolalar salomatligi bo‘yicha Global strategiyani ishlab chiqdi.

Turli hududlar va mamlakatlarning notekis rivojlanishi tufayli 2015-yil 25-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi shtab-kvartirasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Sammiti ochildi va rasman “Dunyomizni o‘zgartirish: Barqaror rivojlanish bo‘yicha 2030 kun tartibi”ni, jumladan, 17 ta rivojlanish maqsadlarini qabul qildi. Beshinchi maqsad – “Gender tengligiga erishish va barcha ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish”. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Kun tartibida shunday ta’kidlangan: “Gender tengligi va ayollar va qizlarning huquqlarini kengaytirish barcha maqsad va maqsadlarga erishish yo‘lidagi taraqqiyotga hal qiluvchi hissa qo‘shadi. Agar insoniyatning yarmi o‘zining barcha huquq va imkoniyatlaridan mahrum bo‘lishda davom etsa, inson salohiyatini to‘liq ishga solish va barqaror rivojlanishga erishish mumkin bo‘lmaydi... Ayollar va qizlarga nisbatan kamsitish va zo‘ravonlikning barcha shakllari, shu jumladan erkaklar va o‘g‘il bolalar tomonidan ham barham topadi“ [5]. Demak, butun dunyoda barqaror rivojlanishga erishish uchun umuman inson huquqlarini hurmat qiladigan va teng imkoniyatlarni hurmat qiladigan

dunyoni barpo etish zarur. Shu bilan birga, xotin-qizlarning o‘rni, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy hayotdagi mavqeyini oshirish, ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tengligini ta’minlashga e’tibor qaratishimiz zarur.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti vakili bo‘lgan xalqaro hamjamiyat ayollarning ijtimoiy holatini obyektiv baholash uchun maxsus ko‘rsatkichlarni ishlab chiqdi. Siyosiy sohada, bu xotin-qizlarning siyosiy va fuqarolik huquqlari, ularning siyosiy ishtiroki darajasi, noroziligini ko‘rsata olish erkinligi. Kasbiy sohada bu mehnat qilish huquqini amalga oshirish darajasi, unga haq to‘lashning adolatliligi, ish joyida lavozimida ko‘tarilish imkoniyati, ishlab chiqarish va oilaviy rollarni birlashtirish shartlari. Shuningdek, oila, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, zo‘ravonlikdan himoya qilish kabi ko‘rsatkichlar ham muhim ahamiyatga ega [16]. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, xotin-qizlar jamiyat hayotiga alohida hissa qo‘shib kelmoqda. Ular nafaqat o‘z manfaatlarini erkaklarga qaraganda yaxshiroq ifodalaydilar, balki yetakchilik lavozimlarini egallab, siyosiy tizimga ta’sir o‘tkaza oladilar.

Xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash va himoya qilish sohasida xalqaro huquqiy hamkorlikning doimiy ravishda kengayishi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq doirasida alohida institutning shakllanishiga olib keldi. Bir qator mualliflar ayollar huquqlarining xalqaro himoyasini xalqaro inson huquqlari huquqi instituti sifatida ko‘rib chiqadilar [12]. Biroq, ba’zi G‘arb olimlari ayollar uchun xalqaro inson huquqlari huquqini xalqaro huquqning alohida tarmog‘i sifatida ajratib ko‘rsatishadi. Masalan, R.Kuk ushbu sohaning mavjudligini ayol huquqlari inson huquqlari haqidagi an’anaviy tushunchaga to‘g‘ri kelmasligi va shuning uchun inson huquqlarini xalqaro himoya qilishning mavjud doktrinasi doirasida ta’minlanishi mumkin emasligi bilan asoslaydi [13]. F.Xamdamovaning fikricha, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlik juda ko‘p sonli xalqaro hujjatlar va mexanizmlarga qaramasdan, xalqaro huquqning alohida tarmog‘i emas, balki xalqaro inson huquqlari huquqi doirasidagi kichik tarmoq hisoblanadi. Buni asoslash uchun 1993 yildagi Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturiga murojaat qilish mumkin, unga ko‘ra: “Ayollar va qizlarning inson huquqlari umuminsoniy huquqning ajralmas, tarkibiy qismidir (18-p). Shundan kelib chiqib, ayollar huquqlarini himoya qilishni xalqaro huquqning alohida sohasi sifatida qarash o‘rinli emas [7]. Bu borada biz F.Xamdamovaning qarashlariga qo‘shilgan holda, ayollarning huquqlarini Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham inson huquqlarini jinsiga ko‘ra ajratishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilanganini qo‘shimcha qilishni lozim topdik.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 30 ta moddadan iborat bo‘lib, ularning har biri insonni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik tamoyiliga asoslanadi. Ushbu moddalarda insonning irqi, teri rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, tug‘ilishi yoki boshqa sabablar bo‘yicha farqlanishsiz, barcha uchun teng huquq va erkinliklar kafolatlanadi.

Shuningdek, turli jinsdagi shaxslar ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan barcha huquq va erkinliklarga ega ekanligi, shuningdek, xotin-qizlarga inson huquqlarining universalligi va tengligi ularni subyekt sifatida tan olinishini ta’minlaydi.

Xalqaro miqyosda ayollar huquqlari harakati ikki asosiy bosqichdan iborat. Birinchi bosqich diskriminatsiyaga qarshi kurash bilan bog‘liq bo‘lib, u ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi Konvensiyaning qabul qilinishi bilan yakunlangan. Ushbu davrda sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida, ijtimoiy munosabatlar, siyosiy ishtirok hamda oiladagi tenglik masalalarida kamsitishlarga qarshi chora-tadbirlar

muhim o‘rin egallagan. Shu bilan birga, bu Konvensiyada ayollarga nisbatan zo‘ravonlik masalasi alohida ko‘rib chiqilmagan edi.

Ikkinchi bosqich esa 1980-yillarda boshlanadi. Bu davrda ayollar huquqlariga inson huquqlari doirasida yondashish va ayollarga qarshi zo‘ravonlikka qarshi kurashish ustuvor mavzularga aylandi. Xalqaro xotin-qizlar harakati esa jamiyatda real ta’sir kuchiga ega bo‘lgan subyekt sifatida qaralib, u huquqiy normalarni xalqaro standartlarga mos ravishda isloh qilishga turtki berdi. Ushbu bosqichning yakuniy nuqtasi sifatida BMT tomonidan ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish to‘g‘risidagi deklaratsiyaning qabul qilinishi hamda BMT Inson huquqlari qo‘mitasi qoshida ayollarga nisbatan zo‘ravonlik masalalari bo‘yicha maxsus ma’ruzachi lavozimining ta’sis etilishi qayd etiladi.

Xalqaro hamjamiyatning xotin-qizlar huquqlariga e’tiborining rivojlanishi va yuqorida qayd etilgan xalqaro mexanizmlarning mavzusi va mazmunidan kelib chiqib, biz shuni ko‘ramizki, ayollar huquqlariga bo‘lgan talab asta-sekin tenglik va asosiy inson huquqlaridan foydalanishga asoslangan dastlabki talablardan erkaklar kabi siyosiy, hayotıoiy va iqtisodiy huquqlarga e’tibor qarata boshladi. Garchi Konventsiyada oiladagi zo‘ravonlik va ayollarga nisbatan zo‘ravonlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri tilga olinmagan bo‘lsa-da, ushbu hujjat xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini, shu jumladan maishiy zo‘ravonlikni bartaraf etish bo‘yicha keyingi rezolyutsiya va tavsiyalar uchun asos bo‘ldi [10].

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xotin-qizlarning inson huquqlari o‘rta asrlardan rivojlanib keldi va BMTning tashkil etilishi hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi uni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu deklaratsiya qabul qilingandan keyin diskriminatsiyaga qarshi xalqaro qonunchilik rivojlandi hamda aksar davlatlarning Konstitutsiyalarida hamda milliy qonunchiligida o‘z ifodasini topdi. Lekin ushbu normalarning qabul qilinishi va asosiy qonunlarda belgilanishi muammoning hal etilishi hisoblanmaydi. Amaliyotda hali-hanuz xotin-qizlar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy faoliyat va siyosiy ishtirokda teng huquqlilikdan to‘liq foydalana olmayapti. Bu esa, xalqaro huquqiy majburiyatlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilinishi bilan birga, ularning real hayotda amalga oshirilish mexanizmlarining kuchaytirilishini taqozo etadi.

Inson huquqlari jinsiga, irqiga yoki ijtimoiy-siyosiy jihatdan kelib chiqishiga qarab bo‘linmas ekan, bu huquqlarning ba’zilarini tan olish yoki himoya qilish va ba’zilarini e’tiborsiz qoldirish mumkin emas. Xotin-qizlarning huquqlari boshqa huquqlar kabi e’tiborga olinishi va eng dolzarb yoki muhim deb hisoblangan huquqlar bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi kerak. Inson huquqlariga kompleks yondashish bu huquqlarning har biriga hurmatni ta’minlashning yagona yo‘li bo‘lib, ularni mazmuni yo‘q, shunchaki rasmiy toifalarga aylanib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. BMTning Nizomi. //URL: https://www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text (Murojaat qilingan sana: 20.04.2025).
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt 1966-yil 16 dekabr. // Rezolyutsiya 2200 A (XXI) Bosh Assambleya. -1966. Muqaddima. //URL:https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml (Murojaat qilingan sana: 20.04.2025).
3. BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari sayti (УВКПЧ ООН).// URL: https://www.un.org/ru/conferences/women (Murojaat qilingan sana: 17.04.2025).

4. Доклад четвертой Всемирной конференции по положению женщин, Пекин, 4–15 сентября 1995 года (издание Организации Объединенных Наций, в продаже под № R.96.IV.13), глава I, резолюция 1, приложения I и II.). // URL: https://www.un.org/womenwatch/daw/beijing/pdf/Beijing%20full%20report%20R.pdf (Murojaat qilingan sana: 02.04.2025).
5. Преобразование нашего мира: Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года от 25 сентября 2015 г. // Резолюция 70/1 Генеральной Ассамблеи). -2015. - Ст. 4/44. С.8. //URL: https://unctad.org/system/files/official-document/ares70d1_ru.pdf (Murojaat qilingan sana: 03.003.2025).
6. Article 2(1) and Article 3 ICCPR; and Article 2(2) and Article 3 ICESCR. See with regard to the 15specialised treaties for example Article 2(1) CRC and Article 1(1) CMW. See on the matter also M. Pentikäinen, The Applicability of the Human Rights Model to Address Concerns and the Status of Women (Helsinki: The Erik Castrén Institute of International Law and Human Rights Research Reports, Publications of the Faculty of Law University of Helsinki, 1999) at 17
7. Xamdamova F.O‘. O‘zbekiston Respublikasining ayollar huquqlarini ta’minlash va himoya qilish masalalari bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorligi. Avtoref. dis. …yur.fan.nom. - Toshkent, 2021.- B.15
8. Хамдамова Ф.У., Мирхамидова М.Н. Права женщин: международные стандарты и национальное законодательство республики УЗБЕКИСТАН.-Т.: 2021г. –С.10
9. Гончарова Ю. В. Становление и развитие института защиты прав женщин в системе обеспечения прав человека// Национальный юридический журнал: теория и практика. Декабрь, 2014. – С.47;
10. Давтян М.Д. Борьба с домашним насилием: развитие содержания обязательств государства в рекомендациях Комитета по ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин//Право и современные государства.-2018. -№ 4.-С. 43-66.
11. Заколдаева Е.В. Права женщин на защиту от различных форм дискриминации//Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Юридические науки, no. 1, 2011, pp. 156-163.
12. Рубина И. Е. Международная защита прав женщин. Автореф. дис. ... канд. юр. наук - Петрозаводск, 2001.- 251с.
13. Rebecca Cook. Human Rights of Women: National and International Perspectives. University of Pennsylvania Press, 1994 – 634 p.
14. Поленина С.В. Права женщин в системе прав человека: международный и национальный аспект. – М.: ХПИ “ЭСЛАН”, 2000. //URL: http://www.owl.ru/win/books/polenina/11.htm (Murojaat qilingan sana: 23.04.2025).
15. Чеботырева А.С. Международная защита прав женщин: автореф. дис. ... канд. юр. наук. - Москва, 1994.- 21 с.
16. Шведова Н. А. Билль о правах женщин: тридцатилетний юбилей // Женщина в российском обществе. – 2009. – № 3. – С.62.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

LEGAL MECHANISMS FOR RISK MANAGEMENT WHEN USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE BANK SCORING SYSTEM

Mardonov Amirjon Sherzod oglu
Teacher of the Department of "Cyber Law"
Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines legal mechanisms for risk management when implementing artificial intelligence (AI) systems in banking scoring. International standards and approaches are analyzed - GDPR, the draft EU AI Act, ISO/IEC 23894:2023 - as well as the legislation of the Republic of Uzbekistan (Law on Personal Data, AI Development Strategy until 2030, etc.). Based on a comparative analysis and case study (Apple Card in the USA, SCHUFA in Germany, Asia Alliance Bank in Uzbekistan), the key risks of using AI in credit scoring are identified: discrimination, lack of transparency of algorithms, violation of consumer rights and inadequacy of models. Existing legal measures to minimize these risks are considered, such as requirements to prevent algorithmic discrimination, ensuring transparency and explainability of decisions, protecting personal data and the rights of consumers to appeal automated decisions. The discussion section offers recommendations for improving the regulation of AI use in banking lending in Uzbekistan, taking into account international experience - including the development of special regulations on high-risk AI systems, mandatory risk assessments and algorithm audits, and increased oversight of compliance with the principles of fairness and transparency. The implementation of these measures will reduce the likelihood of algorithmic errors and abuses, increase the level of trust in AI systems in the financial sector, and ensure a balance between innovation and the protection of citizens' rights..

Keywords: artificial intelligence, credit scoring, algorithmic risk, discrimination, transparency, regulation and personal data.

ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА

Мардонов Амиржон Шерзод угли,
преподаватель кафедры «Кибер право», ТГЮУ
E-mail: amirmardonov39@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются правовые механизмы управления рисками при внедрении систем искусственного интеллекта (ИИ) в банковский скоринг. Проанализированы международные стандарты и подходы – GDPR, проект Регламента ЕС об ИИ (EU AI Act), стандарт ISO/IEC 23894:2023 – а также законодательство Республики Узбекистан (Закон «О персональных данных», Стратегия развития ИИ до 2030 года и др.). На основе сравнительного анализа и изучения кейсов (Apple Card в США, SCHUFA в Германии, Asia Alliance Bank в Узбекистане) выявлены ключевые риски применения ИИ в кредитном скоринге: дискриминация, непрозрачность алгоритмов, нарушение прав потребителей и неадекватность моделей. Рассматриваются существующие правовые меры для минимизации данных рисков, такие как требования по недопущению алгоритмической дискриминации, обеспечение прозрачности и объяснимости решений, защита персональных данных и права потребителей на обжалование автоматизированных решений. В разделе обсуждения предложены рекомендации по совершенствованию регулирования использования ИИ в сфере банковского кредитования в Узбекистане с учётом международного опыта – включая разработку специальных нормативных актов по высокорисковым ИИ-системам, обязательное проведение оценок рисков и аудитов алгоритмов, усиление надзора за соблюдением принципов справедливости и прозрачности. Реализация данных мер позволит уменьшить вероятность алгоритмических ошибок и злоупотреблений, повысить уровень доверия к ИИ-системам в финансовом секторе и обеспечить баланс между инновациями и защитой прав граждан.

Ключевые слова: искусственный интеллект, кредитный скоринг, алгоритмический риск, дискриминация, прозрачность, регулирование и персональные данные.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N31

ВВЕДЕНИЕ

Активное внедрение технологий искусственного интеллекта в банковской сфере открывает новые возможности для повышения эффективности и доступности финансовых услуг. Одним из ключевых примеров является использование алгоритмов машинного обучения [1] для кредитного скоринга – автоматизированной оценки платёжеспособности заемщиков. ИИ-модели способны оперативно анализировать большие объемы данных и выявлять сложные корреляции, что потенциально повышает точность прогнозирования кредитных рисков и расширяет доступ к кредитам для клиентов без кредитной истории. Однако наряду с этими преимуществами применение ИИ несёт и серьёзные риски. Исследования и практика показывают, что алгоритмы скоринга могут страдать от системной предвзятости (bias), приводящей к дискриминации определённых групп заемщиков, работать как «чёрный ящик» без прозрачного объяснения принятого решения, а также нарушать права потребителей – в частности, право на неприкосновенность персональных данных и справедливое рассмотрение заявки [2].

В последние годы получили огласку резонансные случаи, подчеркнувшие реальность указанных рисков. Так, в 2019 г. алгоритм кредитного скоринга, используемый Apple Card (совместный проект Apple и Goldman Sachs), подвергся обвинениям в гендерной дискриминации [3]: известные ИТ-специалисты сообщили, что кредитные лимиты их жен были в разы ниже, чем у них самих при прочих равных финансовых показателях. Эта ситуация вызвала широкий общественный резонанс и привела к началу расследования регуляторами финансового рынка Нью-Йорка. Другой пример – деятельность немецкого кредитного бюро SCHUFA [4], чья закрытая модель расчёта кредитного рейтинга критиковалась за непрозрачность и возможную несправедливость. В 2023 г. по делу клиента SCHUFA Суд ЕС вынес прецедентное решение о том, что полностью автоматизированное присвоение кредитного балла, существенно влияющего на возможность получения займа, подпадает под запрет статьи 22 GDPR. Компания SCHUFA, ссылаясь на коммерческую тайну, отказывалась раскрыть клиентам детали алгоритма и учитываемые факторы, что породило дискуссию о конфликте между правом на информацию и защитой ноу-хау.

Возникает научно-практический вопрос: **какими правовыми средствами можно управлять рисками алгоритмического скоринга** [5], чтобы максимально использовать преимущества ИИ в кредитовании, минимизируя сопутствующие угрозы? В разных юрисдикциях уже формируются подходы к регулированию ИИ-систем. Европейский союз в рамках комплексного **риско-ориентированного подхода** [6] планирует ввести специальные требования для «систем высокого риска», к которым отнесены и алгоритмы оценки кредитоспособности. Международные организации по стандартизации разрабатывают руководства по **управлению рисками ИИ** [7] (например, недавно опубликован стандарт ISO/IEC 23894:2023). В Узбекистане действует законодательство о персональных данных, частично затрагивающее вопросы автоматизированных решений, и принята Стратегия развития ИИ, намечающая шаги по

развитию и регулированию данной сферы. **Целью исследования** является анализ и сравнение правовых механизмов, направленных на идентификацию и минимизацию рисков при применении искусственного интеллекта в системе банковского скоринга.

МЕТОДОЛОГИЯ И МАТЕРИАЛЫ

Исследование выполнено по схеме **сравнительного правового анализа** (comparative analysis) [8]. В качестве основных объектов сравнения выбраны регуляторные подходы Европейского союза (как региона, активно внедряющего специальные нормы об ИИ) и Республики Узбекистан (как государства, где применение ИИ-технологий в финансах находится в начальной стадии развития). Анализ международных стандартов проводится преимущественно на материале права ЕС и рекомендаций профильных организаций. Рассмотрены нормативные акты: Общий регламент ЕС о защите данных 2016/679 (далее – GDPR) [9] – в части ограничений автоматизированного принятия решений; проект Регламента ЕС «Об искусственном интеллекте» – в части требований к высокорисковым ИИ-системам; международный стандарт ISO/IEC 23894:2023 «Artificial intelligence — Guidance on risk management» – как свод лучших практик по управлению рисками ИИ. С узбекской стороны проанализированы Закон Республики Узбекистан «О персональных данных» №ЗРУ-547 от 02.07.2019 (особенно нормы об автоматизированной обработке данных), а также стратегические и программные документы (например, Постановление Президента РУз от 14.10.2024 №ПП-358, утвердившее Стратегию развития технологий ИИ до 2030 года).

РЕЗУЛЬТАТЫ

GDPR устанавливает базовые рамки, влияющие на использование ИИ в скоринге, через призму защиты персональных данных и прав субъектов. Ключевое значение имеет **статья 22 GDPR**, которая предусматривает, что субъект данных имеет право не подвергаться решению, основанному исключительно на автоматизированной обработке, если оно производит для него юридические последствия или иным образом существенно затрагивает его права и законные интересы. Кредитный скоринг, определяющий возможность выдачи займа, прямо подпадает под эту норму, что подтверждено Судом ЕС в деле OQ vs. SCHUFA (2023) [10] – **присвоение кредитного балла** признано автоматизированным решением, способным существенно влиять на права субъекта. GDPR не вводит полного запрета на такие решения, но разрешает их **только при соблюдении дополнительных условий** (ст.22(2)): когда автоматизированное решение необходимо для заключения или исполнения договора с субъектом, либо прямо разрешено законом, либо основано на явном согласии субъекта.

Следующим этапом развития европейского регулирования ИИ является готовящийся **Акт об искусственном интеллекте** (Artificial Intelligence Act) [11], представленный Еврокомиссией в 2021 г. (далее - AI Act). Это первый комплексный законопроект, специально посвященный ИИ. Он вводит классификацию систем ИИ по уровням риска и устанавливает наиболее строгие требования к так называемым системам высокого риска**.** Приложение III к проекту прямо относит системы, предназначенные для оценки кредитоспособности физических лиц или для установления их кредитного рейтинга, к категории высокорисковых (раздел 5(b) Annex III).

Перед вводом в эксплуатацию поставщик высокорисковой системы ИИ должен пройти оценку соответствия всем этим требованиям и получить маркировку CE, подтверждающую безопасность/легальность продукта для рынка ЕС. Непосредственно для банков-пользователей AI Act также накладывает обязанности – эксплуатировать систему в соответствии с инструкцией, мониторить ее работу и сообщать о серьезных инцидентах регуляторам. Таким образом, будущий европейский режим является **проактивным** – он стремится заранее встроить механизмы управления рисками (от этапа разработки до применения), особенно против **дискриминации и непрозрачности**. Хотя AI Act еще не вступил в силу (ожидается окончательное утверждение в 2024–2025 гг.), многие эксперты отмечают, что он станет образцом для других стран при создании аналогичных правил.

В сфере «мягкого права» важным ориентиром служат международные стандарты. В 2023 году Международная организация по стандартизации (ISO) совместно с Международной электротехнической комиссией (IEC) выпустила первый специальный стандарт, посвящённый рискам ИИ – **ISO/IEC 23894:2023 «Artificial Intelligence – Guidance on Risk Management»** [12]. Этот документ не носит обязательного характера, но предлагает организациям систематический подход к выявлению и минимизации рисков при создании и использовании систем ИИ. Стандарт включает основные принципы управления рисками (Clause 4), рамочную структуру risk-management (Clause 5) и описание процесса управления рисками применительно к ИИ (Clause 6). Для финансовых организаций, внедряющих ИИ-скоринг, ISO 23894 дает ряд полезных рекомендаций:

- Руководство организации должно признать специфические риски ИИ и встроить их мониторинг в общую систему **управления рисками** и внутреннего контроля. Речь идет о формировании политики по ИИ, определении зон ответственности (назначение ответственных за этичность ИИ, создание комитетов по ИИ-рискам) и культуры, поддерживающей осознанное использование ИИ.
- Стандарт призывает учитывать риски не только при эксплуатации модели, но и на стадиях **проекта, разработки, тестирования и внедрения**. В частности, Annexes к стандарту содержат перечни типичных источников рисков в ИИ-системах – таких как **смещение данных (data bias)**, ошибки алгоритмов, риски кибербезопасности, нарушения конфиденциальности, юридические и регуляторные риски. Организация должна проанализировать, какие из этих рисков актуальны для конкретного приложения (например, для кредитного скоринга – риск дискриминации, утечки персональных данных, неверной классификации клиентов и др.), и **оценить их вероятности и последствия**.
- Для значимых рисков нужно планировать **мероприятия по снижению**: это может включать улучшение качества данных (отсеивание предвзятых признаков), введение автоматических и ручных проверок результатов модели, ограничение сфер применения алгоритма, обучение персонала правильной интерпретации выводов ИИ. Стандарт указывает на важность обеспечения **прозрачности и подотчетности** алгоритмов как одного из методов снижения риска. Также рекомендуется предусмотреть **план реагирования** на инциденты с

участием ИИ (например, если выявлена скрытая дискриминация, есть процедура оперативного приостановления использования модели и разбирательства).

- Управление рисками должно быть **непрерывным процессом**. После внедрения скоринговой ИИ-системы банк обязан регулярно **отслеживать качество** ее решений, собирая статистику ошибок, жалоб клиентов, случаев неоднозначных результатов. По данным мониторинга необходимо периодически **пересматривать модель** – например, обновлять ее на новых данных, если обнаружено ухудшение точности или появление систематического перекоса. Отдельно подчёркивается готовность организации **отключить или модифицировать** алгоритм, если риски выйдут на недопустимый уровень.

Применение стандарта ISO 23894 само по себе не гарантирует решение всех проблем, но способствует созданию у разработчиков и пользователей ИИ осознанного отношения к возможным негативным эффектам. Отмечается, что основные риски ИИ в финансах – это усиление уже существующих перекосов данных, проблемы приватности и воспроизводства **системной дискриминации**. Например, если исторические данные кредитования отражают дискриминационные практики прошлого, то без специальных мер ИИ их унаследует и даже усугубит. Стандарт призывает выявлять такие латентные проблемы и устранять их до того, как они повлияют на результат работы алгоритма. Также подчеркивается, что совокупность правовых ограничений (GDPR и др.) требует учёта при разработке ИИ – несоответствие им само по себе является риском (юридическим, репутационным). В целом ISO 23894:2023 обеспечивает методическую поддержку для реализации тех требований, которые закрепляются на уровне законодательства в ЕС. Банки, придерживающиеся этих рекомендаций, снижают вероятность столкнуться с регуляторными санкциями **и** этическими скандалами из-за ИИ-скоринга.

Закон «О персональных данных» и автоматизированный скоринг. Ключевым действующим актом, затрагивающим применение ИИ в обработке клиентских данных, является Закон Республики Узбекистан «О персональных данных» №ЗРУ-547 от 2 июля 2019 года [13]. Этот Закон, во многом основанный на моделях зарубежных законов о данных, также содержит нормы об автоматизированной обработке. В статье 24 прямо закреплено право субъекта на отказ от принятия решения, основанного исключительно на автоматизированной обработке его персональных данных, если такое решение затрагивает его права и законные интересы и влечет юридические последствия. Исключения аналогичны GDPR: автоматизированное решение допускается с письменного согласия субъекта; при заключении или исполнении договора с ним; либо в случаях, предусмотренных законодательством. Таким образом, заявитель на кредит в Узбекистане формально тоже защищён от полностью автоматического отказа – банк должен либо получить согласие на скоринг, либо предусмотреть участие человека. Важно отметить, что узбекский закон идёт чуть дальше GDPR в детализации гарантий: он обязывает владельца/оператора данных разъяснить субъекту порядок принятия решения на основе ИИ, его возможные правовые последствия, предоставить возможность заявить возражение, а также разъяснить порядок защиты субъектом своих прав**.** Эта норма фактически закрепляет право на информацию об алгоритме и на оспаривание решения. Более того, при поступлении возражения оператор обязан

рассмотреть его и уведомить заявителя о результате в письменной форме в 10-дневный срок. Для сравнения, GDPR лишь общими словами говорит о «праве получить вмешательство человека» и «оспорить решение», тогда как Закон РУз прописывает конкретную обязанность оператора дать разъяснения и ответить на жалобу.

Важно учитывать, что контроль за соблюдением Закона о персональных данных осуществляет уполномоченный госорган – в настоящее время это *Государственный центр персонализации при Кабинете Министров* (ранее – Государственный инспектор по надзору в сфере информатизации). В случае жалоб потребителей на алгоритмический скоринг этот орган теоретически мог бы провести проверку банка и выдать предписание. Однако на 2025 г. прецедентов таких разбирательств в публичном поле не отмечено, что объясняется пока невысокой распространенностью автоматизированного скоринга и низкой осведомлённостью населения о своих правах в этой сфере.

14 октября 2024 г. Президент Республики Узбекистан утвердил **Стратегию развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года** (ПП-358-сон) [14]. Этот программный документ, помимо задач развития ИИ-индустрии, содержит и ряд положений, касающихся **регулирования и управления рисками** при применении ИИ. В частности, Стратегия провозглашает целью создание необходимых условий для широкого внедрения ИИ, включая **формирование правовых основ** и механизмов обеспечения безопасности. Для финансового сектора прямо предусмотрено заимствование международного опыта: Центральному банку и коммерческим банкам поручено внедрять ИИ-технологии в управление рисками, в том числе для оценки кредитоспособности клиентов на основе больших данных. Одновременно особый акцент сделан на **защите персональных данных** при использовании ИИ. Так, в плане реализации Стратегии поставлена задача разработки отдельного нормативно-правового акта, направленного на обеспечение безопасности персональных данных при внедрении и использовании ИИ, *с опорой на передовую международную практику* (срок – до мая 2025 г.). Это означает, что уже в ближайшее время в Узбекистане ожидается принятие подзаконного акта или поправок, конкретизирующих требования к обработке персональных данных именно в ИИ-системах (вероятно, речь будет о порядке анонимизации данных, проведении оценок воздействия на приватность при внедрении ИИ и т.п., по аналогии с подходами GDPR).

Кроме того, Стратегия учреждает Научно-исследовательский институт по развитию цифровых технологий и искусственного интеллекта (при Министерстве цифровых технологий) и указывает на его роль в экспертизе ИИ-систем. Все информационные системы и программное обеспечение на основе ИИ, внедряемые в стране, должны проходить **экспертную оценку** данного Центра. Это фактически вводит механизм предварительного контроля алгоритмов со стороны государства. Например, если банк захочет запустить новую скоринговую модель, он обязан будет предоставить ее в Центр ИИ на экспертизу. Предмет такой экспертизы – соответствие технологии установленным требованиям (вероятно, тем самым, что будут закреплены в новом акте о безопасности персональных данных при ИИ). Хотя конкретные методики проверки пока не опубликованы, можно предположить, что Центр будет оценивать, не нарушает

ли модель права граждан, нет ли в ней явных ошибок или biais. Такой подход созвучен требованию **конформности** в AI Act, но реализуется силами национального института.

ОБСУЖДЕНИЕ

Обобщая результаты анализа, можно выделить четыре основных **категории рисков** при использовании ИИ в банковском скоринге и оценить, насколько эффективно они покрываются существующими правовыми мерами, а также что ещё следует сделать.

Алгоритмы машинного обучения могут непреднамеренно унаследовать **систематические предубеждения**, присутствующие в исходных данных или возникшие из-за особенностей модели. В кредитовании это ведёт к **неравному обращению с разными группами клиентов** [15]. Например, как показал случай Apple Card, женщины могут получать менее выгодные условия кредита по сравнению с мужчинами при аналогичных финансовых показателях. Традиционное антидискриминационное законодательство (как в США и ЕС) уже распространяется на такие ситуации, но его применение постфактум затруднено из-за сложности доказать причинно-следственную связь между работой алгоритма и фактом дискриминации. Инструменты GDPR (ст.5 – принцип справедливости обработки, ст.9 – запрет обработки чувствительных данных о расе, здоровье и т.д.) дают косвенную защиту, но прямого упоминания «алгоритмической дискриминации» нет. Проект AI Act восполняет этот пробел, требуя проверки датасетов и результатов на отсутствие смещения против защищенных групп. В национальном праве Узбекистана также отсутствуют нормы, прямо запрещающие bias модели, хотя Конституция и Закон «О гарантиях равных прав и возможностей женщин и мужчин» (2019 г.) декларируют равноправие.

Большинство ИИ-моделей, особенно глубокие нейронные сети, функционируют как «черный ящик» [16], выдавая результат без человечесочитаемого обоснования. Для заемщика (да и для кредитного офицера) это означает непонимание, почему отказано в кредите. Правовой аспект прозрачности отражен в нормах о **праве на информацию** [17]. GDPR и Закон РУз «О персональных данных» фактически дают человеку право узнать, по каким данным и по какой логике вынесено автоматическое решение. Однако реализация этого права сложна: как показать «логику» нейросети в понятной форме? На практике банки могут предоставлять общие причины: например, «недостаточный доход» или «неполная кредитная история». Этого может быть недостаточно для реальной прозрачности – клиент не способен проверить или опровергнуть такой вердикт. В кейсе SCHUFA видна крайность непрозрачности: под предлогом коммерческой тайны алгоритм практически **неконтролируем** извне. Необходимо искать баланс. Международный опыт предлагает несколько решений:

а) использовать методы **Explainable AI (XAI)** – специальные алгоритмы, которые строят наглядные объяснения к выводам сложной модели (например, определяют, сколько процентного влияния на скор скоринга оказали доход, долги, возраст и т.д.). В научных работах по XAI для кредитного скоринга демонстрируется, что это повышает доверие и позволяет выявить скрытые проблемы модели [18].

б) Закрепить регуляторно минимальный набор информации, предоставляемой клиенту при автоматическом отказе. Например, в США действует требование рассылать «Adverse Action Notice» с указанием до четырех основных причин отказа по данным

кредитного отчета. В Узбекистане можно аналогично обязать банки информировать заемщика об основных факторах, повлиявших на отрицательное решение (например: «низкий кредитный рейтинг», «нестабильный доход» и т.п.) [19].

в) Усилить независимый надзор за алгоритмами: чтобы компенсировать невозможность полного раскрытия модели всем, регулятор или уполномоченный орган (например, создаваемый Центр ИИ) должны иметь доступ к информации о алгоритме. Если модель приобретена у внешнего вендора, банк обязан получить от него достаточные сведения и поделиться с регулятором при запросе. Это должно быть закреплено нормативно – в лицензионных требованиях или в том специальном акте, что разрабатывается в развитие Стратегии.

Традиционно права заемщиков защищаются нормами о потребительском кредитовании, которые обязывают кредитора действовать добросовестно и предоставлять информацию. С появлением AI-систем возникло опасение, что клиенты могут сталкиваться с несправедливым решением и не иметь возможности его оспорить [20]. Именно поэтому законодательно введено право на человеческое вмешательство и обжалование автоматизированного решения (в GDPR и Законе о персональных данных РУз). Однако реальное упражнение этого права требует налаженного процессуального механизма. Банк должен иметь внутреннюю процедуру рассмотрения обращений по итогам скоринга: например, клиент, не согласный с отказом, подает заявление, после чего другой кредитный эксперт или комитет повторно оценивает заявку уже без участия ИИ либо с его участием, но критически переоценивая вывод. В Узбекистане целесообразно разработать стандарт обслуживания для таких ситуаций (возможно, силами Центрального банка или Ассоциации банков). Без четкой процедуры право на обжалование может остаться декларацией.

Под неадекватностью подразумевается ситуация, когда модель ИИ дает существенно некорректные или устаревшие результаты [21], не соответствующие реальной платежеспособности клиентов. Причины могут быть разными: модель обучена на нерелевантных данных, условия экономики изменились (например, пандемия изменила корреляции, а скоринг не перенастроен), или модель используется за пределами ожидаемой области (например, зарубежный алгоритм применен к другой стране без адаптации). Последствия – рост ошибок второго рода (незаслуженно отказанных хороших заемщиков) или первого рода (одобрение плохих рисков). Для банка это чревато убытками, для клиентов – несправедливостью и потерей возможностей [22]. Правовые механизмы здесь включают как рыночные стимулы (банк сам не хочет ошибаться, иначе потеряет прибыль), так и нормативные требования надежности. В EU AI Act требование точности и постоянного мониторинга предназначено для обеспечения адекватности моделей. В узбекской практике пока нет специальных норм, требующих от банков проверять качество своих ИИ-моделей, но этот выводится из общей обязанности банков управлять рисками (нормы регулятора по управлению кредитным риском). Хорошим решением было бы обязать банки при внедрении ИИ-скоринга проводить его валидацию – например, испытательный период, когда решения ИИ сверяются с решениями традиционной скоринговой системы или с экспертными оценками. Если выявляются значимые расхождения, модель дорабатывается. Стандарт ISO 23894 рекомендует именно такой итеративный подход к

тестированию и улучшению ИИ-моделей. Также стоит требовать регулярного обновления модели: мир меняется, и вес факторов в скоринге должен пересматриваться (как отмечалось в исследовании OpenSCHUFA, использование старых версий алгоритма приводило к необоснованному занижению рейтингов). Законодательно можно ввести норму о том, что провайдеры кредитного скоринга (включая внешние бюро) обязаны ежегодно ревизовать методики с учетом актуальных данных и научно-технического прогресса. Еще одна грань – киберриски и манипулирование алгоритмом: если злоумышленник узнает принципы скоринга, он может «оптимизировать» поведение для получения высокого балла, не будучи добросовестным заемщиком. Поэтому алгоритм должен быть устойчив к таким попыткам (например, не придавать чрезмерный вес легко инсценируемым факторам). Этот вопрос тоже стоит включить в повестку регулятора: контролировать, чтобы использование ИИ не порождало новых возможностей для мошенничества. Наконец, должна существовать обратная связь: если клиенту отказали, а потом выяснилось, что он надежный (например, предоставил дополнительные гарантии или другой банк его профинансировал, и он успешно вернул долг), то система должна учиться на таких ошибках. Юридически это не прописано, но бизнес-логика подсказывает внедрение подобных механизмов самообучения. В комплексе, обеспечение адекватности – это зона ответственности как создателей ИИ (их профессионализм), так и регуляторов (их внимательного надзора за результатами применения новых технологий). Узбекистану, нацелившемуся стать одним из центров ИИ в регионе, важно не только поощрять креативность разработчиков, но и требовать от них должного уровня качества решений, особенно затрагивающих финансы граждан.

Подводя итог обсуждению, отметим: международный опыт демонстрирует, что эффективное правовое управление рисками ИИ-скоринга требует комплексного подхода [23]. Изолированные меры (только запреты или только требования качества) не дадут результата, если не подкреплены другими. Например, запрет дискриминации нужно сочетать с прозрачностью, иначе её не обнаружить; а требование объяснимости бесполезно без права на оспаривание и механизма исправления решения. В ЕС формируется такой комплекс через сочетание GDPR (права субъекта), AI Act (требования к разработчикам и пользователям) и отраслевых норм (финансовое регулирование, антидискриминационные законы). В Узбекистане предстоит выстроить свою систему, учитывая национальные реалии – относительно невысокую цифровую грамотность населения, малое число местных разработчиков ИИ, но с другой стороны – большую роль государства в инициировании инноваций. При правильном подходе Узбекистан может избежать многих ошибок, допущенных на Западе, и сразу встроить принципы этичного и ответственного ИИ в развивающуюся экосистему финтех.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В ходе исследования установлено, что внедрение искусственного интеллекта в систему банковского скоринга сопряжено с четырьмя основными группами рисков: дискриминация**,** непрозрачность**,** нарушение прав потребителей и неадекватность алгоритмов. Сравнительный анализ показал, что на международном уровне сформировались правовые механизмы для управления каждым из этих рисков, хотя они еще находятся в процессе совершенствования. Европейский опыт (GDPR, проект AI Act, практика судебных решений) демонстрирует стремление обеспечить баланс между

инновациями и защитой граждан: вводятся гарантии против необоснованных автоматизированных решений, требования к качеству и прозрачности ИИ, процедуры надзора и ответственности разработчиков. Национальное законодательство Узбекистана в настоящее время предоставляет лишь общую основу (в виде прав в сфере персональных данных), но планируемые реформы и стратегия развития ИИ свидетельствуют о намерении внедрить более специализированное регулирование, основанное на лучших мировых практиках.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Jordan, M. I., & Mitchell, T. M. (2015). Machine learning: Trends, perspectives, and prospects. Science, 349(6245), 255-260.
2. Citron, D. K., & Pasquale, F. (2014). The scored society: Due process for automated predictions. Washington Law Review, 89, 1-33.
3. Hanson, M., Cook, S., & Vaidhyanathan, S. (2019). The Apple Card Didn't 'See' Gender—and That's the Problem. Wired.
4. Bode, M., & Helberger, N. (2020). The GDPR and algorithmic decision-making – Safeguarding individual rights but forgetting society. Journal of Consumer Policy, 43, 525-542.
5. Kearns, M., & Roth, A. (2019). The ethical algorithm: The science of socially aware algorithm design. Oxford University Press.
6. Kaminski, M. E., & Malgieri, G. (2021). Multi-layered explanations from algorithmic impact assessments in the GDPR. In Proceedings of the 2021 ACM Conference on Fairness, Accountability, and Transparency.
7. Felländer, A., Siri, S., & Teigland, R. (2018). The three phases of regulatory development for AI: A proposed model for balancing innovation and risk. Scandinavian Journal of Risk and Insurance, 34(2), 76-95.
8. Zweigert, K., & Kötz, H. (1998). Introduction to comparative law. Oxford University Press.
9. Article 29 Working Party. (2018). Guidelines on Automated individual decision-making and Profiling for the purposes of Regulation 2016/679.
10. Malgieri, G. (2023). The CJEU's SCHUFA Decision: Automated Credit Scoring Under Art. 22 GDPR. European Data Protection Law Review, 9(3), 386-395.
11. Veale, M., & Borgesius, F. Z. (2021). Demystifying the Draft EU Artificial Intelligence Act. Computer Law Review International, 22(4), 97-112.
12. Dignum, V. (2023). A comprehensive approach to AI risk management. Nature Machine Intelligence, 5, 706-714.
13. Бегматов, А. С. (2020). Правовые аспекты защиты персональных данных в Республике Узбекистан. Вестник ТГЮУ, 4, 56-67.
14. Министерство цифровых технологий Республики Узбекистан. Стратегия развития искусственного интеллекта URL: https://gov.uz/ru/digital/pages/about
15. Fuster, A., Goldsmith-Pinkham, P., Ramadorai, T., & Walther, A. (2022). Predictably unequal? The effects of machine learning on credit markets. The Journal of Finance, 77(1), 5-47.
16. Zednik, C. (2021). Solving the black box problem: A normative framework for explainable artificial intelligence. Philosophy & Technology, 34, 265-288.
17. Edwards, L., & Veale, M. (2017). Slave to the algorithm? Why a 'right to an explanation' is probably not the remedy you are looking for. Duke Law & Technology Review, 16, 18.
18. Arrieta, A. B., Díaz-Rodríguez, N., Del Ser, J., Bennetot, A., Tabik, S., Barbado, A., ... & Herrera, F. (2020). Explainable Artificial Intelligence (XAI): Concepts, taxonomies, opportunities and challenges toward responsible AI. Information Fusion, 58, 82-115.

19. Federal Trade Commission. (2018). Fair Credit Reporting Act provisions and requirements relating to consumer notifications.
20. Ramsay, I. (2016). Consumer law and policy: Text and materials on regulating consumer markets. Bloomsbury Publishing.
21. Hand, D. J., & Henley, W. E. (1997). Statistical classification methods in consumer credit scoring: a review. Journal of the Royal Statistical Society: Series A (Statistics in Society), 160(3), 523-541.
22. Thomas, L. C. (2009). Consumer credit models: Pricing, profit and portfolios. Oxford University Press, 228-236.
23. Waldman, A. E. (2020). Power, process, and automated decision-making. Fordham Law Review, 88(2), 613-648.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

IMPROVING CONVENTIONAL AND INSTITUTIONAL MECHANISMS FOR COMBATING TRANSNATIONAL CRIMES IN THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGY

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla kizi,
Doctorol student of University of World Economy and Diplomacy

Abstract. Modern society is experiencing the rapid development of information technologies. This is fundamentally transforming not only communication but also the nature of criminal activity. Transnational crimes in the field of information technology have become a global issue, crossing national borders and allowing criminal networks to operate simultaneously across multiple jurisdictions. Given the complex nature of the digital space and the rapid pace of technological advancement, there is an urgent need to improve conventional and institutional mechanisms for combating transnational crimes in the field of information technology.

Keywords: Information technologies, institutions, documents, transnational crimes, international law, treaties, combating, cybercrimes.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti doktoranti

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyat axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishini boshdan kechirmoqda. Bu nafaqat kommunikatsiyani, balki jinoiy faoliyatning tabiatini ham tubdan o‘zgartiradi. Axborot texnologiyalar sohasida transmilliy jinoyatlar global muammo tug‘dirib, milliy chegaralardan o‘tib, jinoiy tarmoqlar bir vaqtning o‘zida bir nechta yurisdiksiyalarni qamrab oladi. Raqamli makonning o‘ziga xos murakkab holati va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotganligidan kelib chiqib, axborot texnologiyalari sohasidagi transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashishda konvensional va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, institutlar, hujjatlar, transmilliy jinoyatlar, xalqaro huquq, shartnomalar, kurashish, kiberjinoyatlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N32

2001-yilda qabul qilingan **“Kiberjinoyatchilik to‘g‘risida”gi Budapesht konvensiyasi** axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashga qaratilgan birinchi xalqaro shartnoma bo‘ldi. Hujjat xakerlik, zararli dasturlarni tarqatish, kiberfiribgarlik va intellektual mulk huquqlarini buzish kabi kiberjinoyatlarni ta’qib qilishda mamlakatlar o‘rtasida huquqiy asos va muvofiqlashtirishni o‘rnatish uchun mo‘ljallangan. [1]

Budapesht konvensiyasining yuqorida qayd etib o‘tilgan muammolaridan kelib chiqib, mazkur hujjatni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni keltirib o‘tish mumkin:

Birinchidan, milliy suverenitet kafolatlarini mustahkamlash. Budapesht konvensiyasining eng bahsli normalaridan biri 32-moddaning “b” bandi bo‘lib, u bir davlatning

huquqni muhofaza qilish organlariga boshqa davlat hududida joylashgan ma’lumotlarga, ushbu ma’lumotlarni nazorat qiluvchi shaxsning ixtiyoriy roziligi asosida, davlat hokimiyat organlarini xabardor qilmasdan kirish imkoniyatini beradi. Bu qoida tanqidlarga sabab bo‘lmoqda. Chunki u milliy suverenitetni zaiflashtiradi va bunday harakatlarni amalga oshirayotgan davlatlar tomonidan suiiste’mol qilinishi mumkin. [2]

Mazkur muammoni hal etish uchun ma’lumotlar joylashgan davlat hokimiyatlarini majburiy ravishda xabardor qilish tartibini joriy etish taklif qilinmoqda. Hatto ma’lumotlarni nazorat qiluvchi shaxsning roziligi mavjud bo‘lganda ham, davlatni majburiy xabardor qilish nazarda tutilgan bo‘lishi kerak. Bu nizolarning oldini olish va huquqni muhofaza qilish organlarining harakatlari xalqaro huquq prinsiplariga muvofiq bo‘lishini kafolatlaydi. [3]

Ikkinchidan, shaffoflik mexanizmlarini joriy etish. Xalqaro tergovlarga va davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikka ishonchni oshirish uchun Konvensiya bilan tartibga solinadigan jarayonlarning shaffofligini ta’minlash zarur. Bu quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

– Barcha harakatlarni hujjatlashtirish. Huquqni muhofaza qilish organlarining boshqa davlat hududidagi ma’lumotlarga kirish bilan bog‘liq har bir harakati hujjatlashtirilishi va har ikki davlatning vakolatli organlari tomonidan tekshirish uchun mavjud bo‘lishi kerak.

– Mustaqil audit. Konvensiya davlatlarning uning qoidalarini qanday qo‘llayotganini tekshiradigan va inson huquqlari hamda xalqaro huquqiy normalarga rioya etilishini kafolatlaydigan mustaqil xalqaro audit mexanizmlarini nazarda tutishi mumkin.

Uchinchidan, yangi texnologiyalarni hisobga olgan holda modernizatsiya qilish. Budapesht konvensiyasi qabul qilinganidan beri texnologiyalar sezilarli rivojlandi. Bulutli hisoblash tizimlari, sun’iy intellekt, blokcheyn va kvantli hisoblashlar kibermakon muhitini tubdan o‘zgartirdi. Konvensiya ushbu o‘zgarishlarni aks ettirish uchun zamonaviylashtirilishi kerak.

Bulutli hisoblashlar. Bulutli texnologiyalari bilan bog‘liq eng jiddiy muammolardan biri bu — ma’lumotlarning yurisdiksiyasi. Ma’lumotlar turli davlatlarda joylashgan serverlarda saqlanishi mumkin. Bu ularning qaysi yurisdiksiyaga tegishliligini aniqlashni qiyinlashtiradi. Konvensiyada bunday ma’lumotlarga kirish uchun qoidalar aniq belgilab qo‘yilishi kerak. Bunda xalqaro kelishuvlarga rioya qilish zaruriyatini hisobga olish zarur. [4]

Sun’iy intellekt. Sun’iy intellektdan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlar, masalan, avtomatlashtirilgan kiberhujumlar yoki ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish kabi jinoyatlar tartibga solishning yangi yondashuvlarini talab qiladi. Konvensiya sun’iy intellekt yordamida sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni o‘z ichiga olishi kerak.

Blokcheyn va kriptovalyutalar. Kiberjinoyatchilar blokcheyn texnologiyalari va kriptovalyutalarni ko‘proq anonim tranzaksiyalar va pul yuvish maqsadida qo‘llay boshladilar. Budapesht konvensiyasi ushbu texnologiyalardan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash uchun qoidalarni nazarda tutishi kerak. [5]

To‘rtinchidan, mustaqil xalqaro organni yaratish zarur. Konvensiya qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish va mamlakatlar o‘rtasidagi nizolarni hal qilish uchun mustaqil xalqaro organni yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu organ quyidagi asosiy vazifalarni bajarishi zarur:

– Konvensiya qoidalarining bajarilishini nazorat qilish. Davlatlarning milliy tergov va xalqaro hamkorlikda Konvensiyani qanday qo‘llashini baholash;

– Nizolarni hal qilish. Konvensiyani talqin qilish va qo‘llash bilan bog‘liq mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni, shuningdek, suverenitet va inson huquqlarining mumkin bo‘lgan buzilishini ko‘rib chiqish;

– Shikoyatlarni ko‘rib chiqish. Jismoniy shaxslar va davlatlarga xalqaro kibertekshiruvlarda o‘z huquqlarini buzadi deb hisoblagan amaliyotlar ustidan shikoyat qilish imkonini berish.

Beshinchidan, davlatlar o‘rtasida ishonchni oshirish. ko‘pgina davlatlar, jumladan, Rossiya va Xitoy Budapesht konvensiyasini ratifikatsiya qilishdan bosh tortgan. Chunki bu konvensiyaning bahsli qoidalari va suvereniteti yetarli darajada himoyalanmagani sabab bo‘ldi. Konvensiyaga ishonchni oshirish uchun davlatlar o‘z muammolarini muhokama qilishlari va o‘zgartirishlar taklif qilishlari mumkin bo‘lgan muloqot platformalarini yaratish zarur. Bunga quyidagilar kiradi: [6]

– Doimiy maslahatlashuvlar. Axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlar va Konvensiyani qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish uchun xalqaro konferensiyalar va davra suhbatlari o‘tkazish;

– Qo‘shimcha kafolatlarni kiritish. Konvensiyaga xalqaro tergovlarda milliy suverenitet va inson huquqlarini himoya qiladigan qoidalarni kiritish ko‘proq mamlakatlarni jalb qilishga yordam beradi.

Oltinchidan, xususiy kompaniyalar faoliyatini tartibga solish. bugungi raqamli ekotizim asosan internet provayderlari, bulutli xizmat provayderlari va ijtimoiy media platformalari kabi xususiy kompaniyalarga tayanadi. Ushbu kompaniyalar ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlashda muhim rol o‘ynaydi va ularni kiber tergovda muhim ishtirokchilarga aylantiradi. Biroq, bu kompaniyalarning faoliyati ko‘pincha Budapesht konvensiyasi kabi xalqaro shartnomalarda yetarli darajada tartibga solinmagan. Xalqaro kiber tekshiruvlarda xususiy kompaniyalar bilan ishlash uchun aniq qoidalar bo‘lishi kerak. Bu hamkorlikning majburiy talablarini, shuningdek, ma’lumotlari tergov predmeti bo‘lishi mumkin bo‘lgan foydalanuvchilarning shaxsiy hayoti va huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Yettinchidan, ma’lumotlarni himoya qilish va inson huquqlarini mustahkamlash. Axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlar himoyasi hurmat qilinishi kerak. Sohada jinoyatlar ortib borayotgan bir paytda, davlatlar yanada samaraliroq tergov o‘tkazish uchun bu huquqlarni rad etishi mumkin emas. Buning oldini olish uchun Budapesht konvensiyasiga quyidagi qoidalarni kiritish zarur: [7]

– ma’lumotlarga kirishni cheklash. Huquqni muhofaza qilish organlari ma’lumotlarga faqat tergov uchun zarur bo‘lganda va qonuniy tartib-qoidalarga qat’iy rioya qilgan holda kirishlari kerak.

– maxfiylik himoyasini kafolatlash. Ma’lumotlarga kirish bilan bog‘liq har qanday harakatlar shaxsiy ma’lumotlar va foydalanuvchi maxfiyligini himoya qilish choralari bilan birga bo‘lishi kerak.

Sakkizinchidan, muhim infratuzilmalarni himoya qilish. Bugungi kunda muhim infratuzilmalarga (masalan, energiya tizimlari, transport, telekommunikatsiyalar) kiberhujumlar keng tarqalgan bo‘lib, xavfli holga aylanib bormoqda. Shundan kelib chiqib,

Budapesht konvensiyasiga muhim infratuzilmani himoya qilishga oid qat'iy qoidalar hamda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari uchun majburiy kiberxavfsizlik standartlarini kiritishi zarur.

Xulosa qilinsa, Budapesht konvensiyasi axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda muhim vosita bo'lib qolmoqda. Biroq u zamonaviy chaqiriqlarga moslashish uchun muhim yangilanishga muhtoj. Suverenitet kafolatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikning shaffof mexanizmlarini joriy etish, yangi texnologiyalarni takomillashtirish va mustaqil xalqaro organni yaratish kabi taklif etilayotgan o'zgarishlarni amalga oshirish Konvensiya samaradorligini oshirishi va mamlakatlar o'rtasida ishonchni mustahkamlashi mumkin. Bu milliy xavfsizlik va inson huquqlarini himoya qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda xalqaro miqyosda raqamli makonda jinoyatlarga qarshi yanada muvofiqlashtirilgan va adolatli kurashni ta'minlaydi.

Axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlar huquqni muhofaza qilish organlari, sud tizimlari, xalqaro tashkilotlar va xususiy kompaniyalar kabi turli institutlarning muvofiqlashtirilgan harakatlarini talab qiladi. Biroq, mavjud institutsional mexanizmlar jinoyatlarga qarshi samarali kurashishni qiyinlashtiradigan qator muammolarga duch kelmoqda. [8]

Asosiy muammolardan biri bu raqamli makonda jinoyatchilikka qarshi kurashda ishtirok etuvchi turli institutlarning tarqoqligidir. Milliy huquq-tartibot idoralari va sud tizimlari ko'pincha transmilliy kiberjinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarli resurslar yoki tajribaga ega emas. [9] Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi muammolarni hal qilishga qodir ixtisoslashgan kiber birliklar yetishmaydi. Bu esa raqamli makonda jinoyatchilikka qarshi kurashning xalqaro tizimida bo'shliqni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, turli mamlakatlar va tashkilotlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarning yo'qligi sababli xalqaro hamkorlik ko'pincha qiyin kechadi. [10]

Xulosa qilib qayd etish joizki, axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlar zamonaviy jamiyat uchun eng jiddiy tahdidlardan biridir. Ushbu tahdidga qarshi samarali kurashish uchun milliy va xalqaro darajadagi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Bunda ixtisoslashgan idoralar tashkil etish, yagona strategiya ishlab chiqish, qonunchilikni yangilash, mutaxassislar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kiradi. Faqatgina kompleks yondashuv raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida kibertahdidlarga qarshi kurashish va fuqarolar va davlatlar xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Council of Europe. (2001). Convention on Cybercrime. https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list/-/conventions/rms/0900001680081561
2. Gercke M. Ten Years Convention on Cybercrime // Computer Law Review International. 2011. Vol.15. Issue.
3. Council of Europe. The Functioning of 24/7 Contact Points for Cybercrime. Discussion Paper. URL: http://www.coe.int/t/dghl/cooperation/economiccrime/cybercrime/documents/567_24_7report4public_april09a.pdf (дата обращения: 25.09.2024)
4. Development Gateway's Special Report, Information Society – Next Steps? 2005. URL: http://topics.developmentgateway.org/special/informationsociety (дата обращения: 25.09.2024)
5. Gercke M. Ten Years Convention on Cybercrime // Computer Law Review International. 2011. Vol. 15. Issue 5.

6. Report of the Latin American and Caribbean Regional Preparatory Meeting for the Twelfth United Nations Congress. P.10. URL: http://www.unodc.org/documents/treaties/Congress12RPM/2009-RPMLatinAmerica/V0984371_E.pdf (дата обращения: 25.09.2024
7. Report of the Western Asian Regional Preparatory Meeting for the Twelfth United Nations Congress on Crime Prevention and Criminal Justice. P.10. URL: http://www.unodc.org/documents/treaties/Congress12RPM/2009-RPM-WesternAsia/V0984377e.pdf (дата обращения: 25.09.2024
8. Gercke M. Ten Years Convention on Cybercrime // Computer Law Review International. 2011. Vol.15. Issue 5
9. T-CY (2008) 01, Compilation of responses to questionnaire for the Parties concerning the practical implementation of the Convention on Cybercrime. Strasbourg, March 2008, P.28. URL: http://www.coe.int/t/dghl/standardsetting/t-cy/T-CY%20(2008)%2001%20E.PDF (дата обращения: 25.09.2024)
10. Digital Transformation of AML/CFT // https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Digitaltransformation/Digital-transformation.html

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

IMPORTANT INITIATIVES IN THE SPHERE OF LEGAL PROTECTION OF ENVIRONMENTAL SAFETY AND ISSUES OF THEIR IMPROVEMENT

Khalmuminov Shavkat Dzhumaevich
Independent applicant of the department
"Environmental Law"
Tashkent State Law University
E-mail: savkatholmuminov@gmail.com

Abstract. In the context of modern climate change, important initiatives in the field of legal protection of environmental safety are of particular importance; large projects are being implemented to introduce the principles of a “green economy”, “green” energy,"Green space", national project, "smart" agriculture, which play an important role in the socio-economic development of our country. The article examines significant initiatives in the field of legal support for environmental safety and issues of their improvement, analyzes the legal nature and current state of legal regulation of related relations.

Keywords: environmental safety, environment, climate change, green spaces, green economy, environmental pollution, greenhouse gases, Aral Sea disaster, green surfaces.

EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA’MINLASh SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xolmo‘minov Shavkat Jumaevich
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Ekologiya huquqi” kafedrasi
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Bugungi iqlim o‘zgarishlari sharoitida ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash sohasidagi muhim tashabbuslar alohida ahamiyatga ega bo‘lib,mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi “yashil iqtisodiyot”, “yashil” energetika, “Yashil makon” umummilliy loyihasi,“aqlli” qishloq xo‘jaligi tamoyillarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.Maqolada ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash sohasidagi muhim tashabbuslar va ularni takomillashtirish masalalari o‘rganilib, unga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishning yuridik tabiati va hozirgi holati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ekologik xavfsizlik, atrof-muhit, iqlim o‘zgarishi, yashil makon, yashil iqtisodiyot, ekologik ifloslanish, issiqxona gazlari, Orol dengizi fojiasi, yashil qoplamalar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N33

Kirish. Iqlim o‘zgarishlari sharoitda aholining qulay atrof muhitda yashashi va ekologik xavfsizlikni ta’minlash oldimizda turgan eng dolzarb masalalardan biridir. So‘nggi yillarda atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikning oldini olish masalalariga mamlakatimizda jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Zero, fuqarolarning munosib atrof muhitga bo‘lgan huquqlari ta’minlanmasdan turib ularning salomatligi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash o‘ta imkonsiz vaziyatga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisning 20-noyabr 2024-yilda bo‘lib o‘tgan majlisida **2025-yilni** O‘zbekistonda **“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili**”[1] deb e’lon qilganligi ham betakror ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur tashabbus, bevosita **“Atrof-muhitni asrash”, “ekologik xavfsizlikni ta’minlash”, “globallashuv”** va **“yashil” iqtisodiyot** talablarini o‘zida mujassam etadi.

Shunday ekan mamlakatimizda ekologik vaziyat va atrof muhit holatini yaxshilash, mavjud muammolarni bartaraf etish, salbiy ta’sirlarning oldini olib ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi “mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...”[2] degan jumlalar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanligini anglatadi. Bundan tashqari Bosh Qomusimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlash maqsadida, ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori “ekologik huquq” tushunchasi ham kiritilganligi xalqaro andozalarga mos jarayondir.

Ayniqsa,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni[3]bu sohada tub burilish yasaganligi ma’lumdir.

E’tiborli tomoni shundaki, 2002-yili Yoxanesburgda (VSUR 2002) Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan Butunjahon sammitida “Siyosiy deklaratsiya” va “Barqaror rivojlanish bo‘yicha oliy darajada Butun jahon uchrashuvlar qarorlarini bajarilish rejasi”[4] qabul qilinib bu sohada bir qator yangi vazifalarni qo‘ygan edi.

Ma’lumki, 2023-yilning 6-noyabrdan 18-noyabrga qadar Misrning Sharm-ed-Sheyx shahrida BMT Iqlim o‘zgarishlari to‘g‘risidagi Hadli konvensiyasi doirasida SOR27 sammiti bo‘lib o‘tdi[5]. Bugun jahon hamjamiyati iqlim o‘zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb tan olinmoqda va o‘z vaqtida bu borada choralar qabul qilmaslik va atmosferada issiqxona gazlari miqdorini bundan keyin ham ko‘payishi oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida mutaxassislar tomonidan ogohlantirilmoqda.

Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida Parij Bitimi qabul ham qabul qilindi. Yangi kelishuvning asosiy qirralaridan biri rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda rivojlanayotgan davlatlar ham tashlanmalar miqdorini kamaytirish majburiyatini olishi belgilab qo‘yildi. Kelishuvning asosiy maqsadi issiqxona gazlari tashlanmalarini sezilarli darajada kamaytirib, sayyoramizda global isishni industrial rivojlanish davridagi o‘rtacha haroratga nisbatan selsiy shkalasi bo‘yicha 1,5-2 gradus chegarasida ushlab turishga erishishdan iborat. Mutaxassislarning fikrlariga ko‘ra, agar bu amalga oshirilmasa, sayyoramiz yildan yilga ko‘proq keskin iqlim o‘zgarishlariga duchor bo‘ladi.

2017-yil 19-aprelida BMT ning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida O‘zbekiston Parij Bitimini imzolagan edi[6]. Bitimni imzolash uchun BMT Iqlim o‘zgarishlari to‘g‘risidagi Hadli Konvensiyasi kotibiyatiga issiqxona gazlar tashlanmalaridagi milliy miqyosda belgilanadigan hissasini kamaytirish to‘g‘risida hujjat taqdim etildi. Mazkur bitim 2018-yili 3-oktyabrda ratifikatsiya qilinib, 2030-yilgacha uzoq muddatli istiqbolda O‘zbekiston Respublikasi iqlim

o‘zgarishiga qarshi kurash chora va harakatlarni kuchaytirishni-2030-yilga kelib issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010-yildagi darajaga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligiga 10 foizga qisqartirishni rejalashtirgan edi. 2021-yil noyabr oyida Glazgo shahrida o‘tkazilgan BMT Iqlim o‘zgarishlari to‘g‘risidagi Hadli Konvensiyasining 26-yig‘ilishida milliy delegatsiyamiz tomonidan bu ko‘rsatkichni 35 foizgacha belgilanganligi ma’lum qilindi. Darhaqiqat, iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining taqchilligi, cho‘llanish, biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi ekologik muammolar kuchayayotgani ertangi taraqqiyotga jiddiy raxna solmoqda. Shu bois atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal etish har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Muhokama. Iqlim o‘zgarishlari sharoitida ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash tushunchasi va uni huquqiy ta’minlash masalasida, olimlar bir qator yo‘nalishlarni belgilaydilar. Kundalik hayotda ishlatiladigan terminlardan farqli o‘laroq, noyuridik ilmiy adabiyotlarda ekologik xavfsizlik atamasining maxsus tushunchasi mavjud.

Uning ko‘pchilik mualliflar tomonidan ma’qullangan noyuridik ilmiy tushunchasi “Ekologiya. Ensiklopedicheskiy slovar”da berilgan. Ushbu ta’rifga ko‘ra, ekologik xavfsizlik-bu inson, jamiyat va atrof muhitning eng muhim hayotiy manfaatlariga zarar yetkazuvchi xavfdan himoyalanganlik holatidir. Ushbu xavf tabiatga zararli va texnogen ta’sirlar hamda ekologik huquqbuzarliklar natijasida vujudga keladi[7].

D.J.Markovich fikriga ko‘ra, “tabiat-jamiyat” munosabatlaridagi **birinchi**, davrda-inson tabiatni o‘zgartiradi va yangi “sun’iy tabiatni” yaratadi, lekin tabiatga qaram bo‘ladi. **Ikkinchi**, davrda-inson o‘zini tabiat hukmdori hisoblab, undan cheksiz foydalanish mumkin, deb biladi. Bu davr o‘z ichiga keyingi uch asrni oladi. **Uchinchisi**-hozirgi davr bo‘lib, inson tabiatni shunday o‘zgartiradiki, natijada bu o‘zgarish, nafaqat ekologik ziddiyatlarni, balki ular orqali ijtimoiy-siyosiy muammolarni keskinlashtirib yuborishi mumkin[8].

G.P.Serov fikricha, ekologik xavfsizlik “himoyalangan tabiat obyektlari tomonidan bo‘ladigan xavfdan shaxsning, aholining, hududning, sanoat va tabiat obyektlarining himoyalanganlik holatidir”[9].

N.A.Geyt fanda ekologik xavfsizlikning tor doirada berilgan tushunchasini ham uchratishimiz mumkin, unga ko‘ra ekologik xavfsizlik deganda “texnogen halokatlarning oldini olish, tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish” tushuniladi[10].

Yu.Ye.Vinokurov tomonidan ekologik xavfsizlikka juda ixcham, lekin shu bilan birga, ilmiy asosga ega izoh berilgan, unga ko‘ra ekologik xavfsizlik-bu antropogen faoliyat (halokat, mudofaa va boshqalar) amalga oshirilish chog‘ida ifloslangan tabiiy obyektlardan, shuningdek tabiat hodisalari va tabiiy ofatlardan keladigan xatarlardan hayot uchun muhim ekoxavfsiz obyektlarining (shaxs, aholi, hudud) muhofaza qilinganlik holatidir[11].

Fikrimizcha,ekologik xavfsizlikning noyuridik ma’nodagi tushunchasini oddiy qilib tushuntiradigan bo‘lsak, ushbu iboralarning o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu yerda u atrof tabiiy muhit (ekologiya) sifati buzilishining inson va jamiyatga yetkazishi mumkin bo‘lgan xavf-xatardan himoyalanganligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, ekologik xavfsizlik-atrof tabiiy muhit (ekologiya) obyektlarining xavfli tarzda sifati buzilishining, agar shunday xavf vujudga kelgan bo‘lsa, odamlarga, jamiyatga, ayrim hududlarga salbiy ta’sirining oldini olishga qaratilgan faoliyatdir.

Ilmiy usul va materiallar. Yuqoridagilar asosida, maqolada, iqlim o‘zgarishlari sharoitida ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlashning ilmiy-nazariy jihatlari, qonunchilik

asoslari va bu sohadagi o‘zaro xalqaro hamkorlik kelishuvlari, hamda kelajakdagi istiqbollari imkon doirasida yoritib berilgan.

Ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash sohasidagi muhim tashabbuslar va ularni takomillashtirish masalalari mavzuni tadqiq qilish va uni kengroq o‘rganish jarayonida:

birinchidan-iqlim o‘zgarishlari sharoitida ekologik xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy asoslarini o‘rganib chiqishda imkon beradigan empirik metodlarga alohida e’tibor berildi;

ikkinchidan-BMTning Konvensiyalari boshqa mamlakatlarning qonunchiligida ekologik xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy asoslarini nazariy va amaliyotidagi tajribalarini o‘rganib chiqish imkoniyatini beradigan tarixiy metod usullaridan foydalanildi;

uchinchidan-ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash borasidagi xalqaro qonunchilikdagi ushbu soha qonunlarini qiyoslash metodlaridan foydalanildi.Umuman olganda mazkur maqolada umumlashtirish, tarixiylik, analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish muammoni kengroq tahlil qilishga yordam berdi.

Shuningdek, ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishda xorijiy mamlakatlarning qonunchilik tajribasini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etishi o‘rganildi.

Jumladan, Yevropa davlatlaridan avvalambor, **Fransiyaning** ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasidagi, tajribasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning Ekologiya kodeksini[12]ishlab chiqish tajribasi o‘ta muhimdir.

Ekologik xavfsizlikni huquqiy tartibga solish sohasidagi munosabatlarni mujassamlashda **Kot d’Ivuar** Respublikasida 1996-yil 3-oktyabrda qabul qilingan **Atrof muhit kodeksi[13]ning** ahamiyati katta bo‘lib, 6-bo‘lim va 113- moddadan tashkil topganligi ham e’tiborga loyiqdir.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash va ekologik qonunchilikni kodifikatsiyalash bo‘yicha, **Shvetsiya** jahonda muayyan tajribaga ega. Xususan, Shvetsiyada Atrof muhit kodeksi 1999-yil 1 yanvardan kuchga kirgan. U shved mutaxassislari tomonidan atrof tabiiy muhit to‘g‘risidagi qonunchilik doirasini cheklangan darajada belgilab beradigan yaxlit zamonaviy hujjat sifatida tavsiflanadi[14].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonning ekologik xavfsizlik sohasida olib borayotgan siyosati respublika taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib, xalqaro andozalarga mos va zamonaviy talablarga javob beradigan sifat ko‘rsatkichlariga ega deb baholash mumkin.

Natijalar. Mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning yangi bosqichida bunday global ekologik muammolarning oldini olish, barqaror rivojlanishga erishishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada yurtboshimiz tomonidan ilgari surilayotgan konstruktiv takliflar hamda tashabbuslar nafaqat mamlakatimizda balki xalqaro jamoatchilik tomonidan ham katta qiziqish bildirilib, e’tirof etilishi jahonshumul ahamiyatga egadir.

Joriy yil iyul oyida Qirg‘izistonda o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to‘rtinchi maslahat uchrashuvida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan taklif, ya’ni “Markaziy Osiyo davlatlari uchun **“yashil” kun tartibi”** dasturi qabul qilindi[15].

Iqlim o‘zgarishlarining oldini olish va unga moslashishga yo‘naltirilgan ushbu dastur iqtisodiyotni is gazidan holi qilish bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish, muqobil energetika, jumladan suv, quyosh va shamoldan elektr olishni jadal rivojlantirish, elektr

energiyasini o‘zaro yetkazib berishni tashkil etish, suv tejaydigan va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga qaratilganligi bilan o‘ta muhimdir.

Shuningdek, xalqaro diplomatiya markaziga aylanib borayotgan Samarqand shahrida sentyabr oyida o‘tkazilgan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining majlisida davlatimiz rahbari tomonidan **“**Shanxay hamkorlik tashkiloti Iqlim kengashi”ni tuzish, oktyabr oyida o‘tkazilgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning VI sammitida “Yashil Osiyo” konseptual dasturlari doirasida doimiy ekspert maslahatlashuvlarini yo‘lga qo‘yish tashabbuslari ham ilgari surildi.

Shu o‘rinda Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqand sammiti doirasida tashkilotga a’zo va kuzatuvchi davlatlarda bir vaqtning o‘zida daraxt ekish marosimi ham bo‘lib o‘tdi. Turkiy sivilizatsiya poytaxti deb e’lon qilingan-Samarqandning Registon maydonida davlat rahbarlari shaxsiy namuna ko‘rsatganliklarini alohida ta’kidlash lozim[16].

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini saqlash sohasida bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi.

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga kompleks yondashish, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, **“Yashil makon”** umummilliy loyihasini amalga oshirish 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi[17].

Mazkur maqsadlarning amaliyotga tatbiq etilishi mavjud ekologik muammolarni hal etilishi bilan bir qatorda mintaqamizdagi ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun xizmat qiladi va ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlashga yordam beradi.

Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi[18], O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi[19], 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi[20], O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi[21]sohani rivojlantirishda asosiy dasturilamal bo‘lib, ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash sohasidagi global iqlim o‘zgarishlarini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda atrof muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarga e’tibor yanada kuchaydi. Shu jumladan, iqlim o‘zgarishlarini oldini olish va unga moslashish bo‘yicha qator amaliy ishlar amalga oshirilganligi ham o‘ta ijobiy hol bo‘lib,yana bir qator masalalarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, sohaga oid yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.“Suv kodeksi”, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi, “Gidrometeorologiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, shular jumlasidandir. Ehtimol kelajakda, O‘zbekiston Respublikasining **“Ekologik xavfsizlik to‘g‘risida”gi** qonunini ishlab chiqish ham ijobiy natija berishi mumkin.

Ikkinchidan, mintaqamizda iqlim o‘zgarishlariga sabab bo‘luvchi omillaridan biri Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish, Orolning qurigan tubida o‘rmonlashtirish ishlarini amalga oshirish, Orolbo‘yi hududi aholisi farovonligini oshirish bo‘yicha Yurtboshimiz tashabbuslari bilan ulkan ishlar amalga oshirilmoqda va bir qator huquqiy chora tadbirlar belgilanmoqda. Birgina misol, so‘nggi 4 yil davomida Orolning qurigan tubida qariyb 1,7 mln gektardan ortiq maydonga saksovul, cherkas va boshqa sho‘rga va qurg‘oqchilikka chidamli o‘simlik urug‘lari sepildi va ko‘chatlari ekildi. Ushbu hududlarda cho‘l o‘simliklaridan “yashil qoplamalar”-himoya o‘rmonzorlari barpo etish ishlarining olib borilishi o‘z navbatida Orol dengizining suvi qurigan tubidan ko‘tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta’sirini kamaytirish, global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayoti va faoliyatiga salbiy ta’sirini yanada yumshatish imkonini beradi. Bu masalada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-sentyabr, PQ-338-sonli “Chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi[22] qarori o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Unga asosan, O‘zbekiston Respublikasida chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo‘yicha 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan Milliy Dastur qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi doirasida keyingi besh yilda 1 mlrd. daraxt va buta ko‘chatlarini ekilishi ham shaharlarimizga, mahallalarimizga fayz bag‘ishlovchi yashillikka burkangan yangi yashil hududlar barpo etilishi bilan birga, yurtimiz iqlimini mo‘tadil saqlashga, pirovardida ona tabiatimizni asrash, aholimiz salomatligini yaxshilash, xalqimizning farovonligini ta’minlashga xizmat qilishi xalqaro andozalarga mosligi o‘ta muhimdir.

To‘rtinchidan, ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash va suv resurslarining taqchilligini oldini olish borasida ham mamlakatimizda aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, birgina 2021-yilning o‘zida 433 ming gektardan ortiq maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan bo‘lsa, joriy yilda 478 ming gektarda shunday texnologiyalar joriy etish hisobiga 534 mln kub metr suvni iqtisod qilish belgilangan. Bu o‘z navbatida mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish bilan bir qatorda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxining pasayishiga ham xizmat qiladi.

Beshinchidan, iqlim o‘zgarishlari sharoitida ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi “yashil iqtisodiyot”, “yashil” energetika, “aqlli” qishloq xo‘jaligi tamoyillarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi tomonidan Navoiy viloyatining Tomdi tumanida umumiy qiymati 600 million dollarni tashkil etuvchi, 2024 yil yakuniga qadar ishga tushirilishi rejalashtirilgan quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi qurilyapti. Mega loyihani amalga oshirilishi natijasida yiliga 1 milliard 800 million kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Buning natijasida yiliga 540 million kub/metr tabiiy gaz tejalishiga erishiladi hamda atmosferaga 720 ming tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinadi.

Jumladan, 2026-yilga borib O‘zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalarining umumiy quvvatini 8000 MVtga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. Bu o‘z navbatida mamlakatimiz

aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashni yanada yaxshilanishiga imkoniyat yaratish bilan bir qatorda mintaqada energetik barqarorlikni ta’minlashga hamda respublikamizning Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha Parij bitimi doirasida olgan majburiyatlari ijrosini va ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlashga xizmat qiladi.

Oltinchidan, atmosfera havosini ifloslanishini oldini olishda ekologik toza transport vositalari miqdorini oshirish, yoqilg‘i sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan,Toshkent shahrida elektrobuslarning harakati yo‘lga qo‘yilganligi va tramvay liniyalarini qayta tiklash ishlarini olib borilayotganligi ham betakror ahamiyat kasb etadi.

nashida va qo‘shiqlari mavjudligi, ushbu materiallar diniy mazmunda ekanligi ko‘rsatilgan. Sudda so‘roq qilingan sudlanuvchi X.N ismli shaxso‘z aybiga to‘liq iqrorlik bildirib, dastlabki tergovda bergan ko‘rsatuvlarini tasdiqlab, jinoyat ishlari bo‘yicha O‘zbekiston tuman sudining 2023-yil dekabrdagi qaroriga ko‘ra, “Telegram” ijtimoiy tarmog‘idan “X.N” nomli profili orqali Hindistoniy, Alijon qori, Azizxon domla, Rustamjon domlaga tegishli bo‘lgan diniy mazmundagi ma’ruza va videolarni, shuningdek nashida-salovatlarni tarqatib, joylab kelayotganligi sababli unga nisbatan MJtKning 184^2-moddasi bilan ma’muriy jarima jazosi tayinlanganligini, shundan keyin o‘zining “Redmi Note 9” rusumli telefoniga ochilgan “X.N” nomli Telegramm profilidan tanishlariga diniy mazmundagi materilallarni yuborib turganligini, asosan “Gap jo‘ralar” nomli telegram guruhi foydalanuvchilariga, “Ismoilov”, “Qorakam”, “Muxammad aka”, “Akam!”nomli Telegramm profil foydalanuvchilariga audio va videofayl ko‘rinishidagi diniy mazmundagi materiallarni tarqatib kelganligini, 2023-yil dekabr oyida ma’muriy tartibda javobgarlikka tortilganida IIB xodimlari va sudda bu harakatlarni qayta sodir etganida, jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantirilganligini, 2023-yil dekabr oyidan keyingi tarqatgan diniy mazmundagi materiallarni tarqatish qonunga xilof ekanligini bilmaganligini, Isoqjon Begmatov, Ma’murjon domla, Abror Muxtor Aliy kabi o‘zbek domlalarini diniy imomlar sifatida bilishini, ularning ma’ruzalarini tarqatish ham qonuniy yoki noqonuniy ekanligini bilmasligini, ularni tarqatishga ruxsat bor yoki yo‘qligini bilmasligini, diniy materiallarni tarqatishning qonuniy tomonlarini ham bilmasligini, hozirda har qanday diniy mazmundagi ma’ruza va materiallarni asl manbadan olib tarqatish mumkin emasligini tushunib yetganligini, kitob shaklida yoki elektron shakldagi diniy materiallarni tarqatishdan oldin Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning ruxsatini olish kerakligini tushunib yetganligini, hozirda o‘ziga to‘g‘ri xulosa chiqarganligini, aybiga iqrorligini, qilmishidan pushaymonligini inobatga olib, jazodan ozod qilishni so‘ragan. Sud, sudlanuvchi X.N ning ish bo‘yicha aybi, uning aybiga to‘liq iqrorlik bildirib bergan ko‘rsatuvidan tashqari, sudda muhokama qilingan ishdagi O‘zbekiston tuman IIB TQX TChXTG tezkor vakilining bildirgisi (i.v. 3), X.N foydalanib kelgan “Red-mi Note 9” rusumli telefon apparatidagi “Telegram” ilovasidagi “N.Tolibovich” nomli profil orqali tarqatib kelingan ma’ruza, videorolik, audio fayl hamda matn yozuvlarni ko‘zdan kechirish va ashyoviy dalilni olish bayonnomasi va fotosuratlar (i.v. 10-17), dastlabki tushuntirish xatlari (i.v. 18-29, 39-40), M.Mamatqulovga tegishli “Red-mi” telefon apparatidagi “Telegram” ilovasida ochilgan “MUXAMMAD” nomli profildan kirilib, “Gap jo‘ralar” nomli guruhga X.N ning profilidan yuborilgan diniy mazmundagi materiallarni ko‘zdan kechirish va diskka ko‘chirib olish bayonnomasi va fotosuratlar (i.v. 32-38), sudga oid dinshunoslik ekspertizasining 2024-yil 9-martdagi IG-299-sonli xulosasi (i.v. 53-55), ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi qaror (i.v. 58-60) hamda jinoyat ishida to‘plangan boshqa barcha dalillar majmui bilan to‘liq isbotlangan deb hisoblagan. O‘zbekiston Respublikasi JK 244^3-moddasi dispozitsiyasining mazmuniga ko‘ra, shunday qilmishlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida diniy mazmundagi materiallarni tarqatishning har qanday shakli jiniy javobgarlikka sabab bo‘lishi nazarda tutilgan. Sud hukmida fuqaro X.N ismli shaxs O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244^3-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilib va unga ushbu modda bilan ish haqining 15 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 2 (ikki) yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan.

NATIJALAR

Ushbu misoldan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash lozimki, diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish jinoyatlari O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan jinoiy huquqiy jihatlar bilan tartibga solinadi. Ushbu jinoyatlar quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Jinoyatning mohiyati: Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish, davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin va bunday materiallar taqiqlanmagan bo‘lishi lozim. Bunday harakatlar ekstremistik yoki radikal g‘oyalarni tarqatishga olib kelishi mumkin.

2. Jinoyat uchun javobgarlik: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244-3-moddasiga ko‘ra, diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.[11].

3. Ma’muriy javobgarlik: Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash yoki tarqatish maqsadida amalga oshirilgan harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilishi mumkin. Agar bunday qilmishlar ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin takrorlansa, jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. [11].

4. Jazo: O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 184-2-moddasi sanksiyasiga ko‘ra fuqarolar uchun jarima miqdori BHMning 20 baravaridan 100 baravarigacha, mansabdor shaxslar uchun esa BHMning 50 baravaridan 150 baravarigacha belgilangan. [11].

5. Qonunni bilmaslik: Qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi, ya’ni har bir shaxs qonunlarni bilishi va ularga amal qilishi kerak.

Ushbu jihatlar diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish bilan bog‘liq jinoyatlarning jinoiy huquqiy jihatlarini belgilaydi va davlat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rsatadi.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish davlatning huquqni muhofaza qilish organlari jinoyat qonunini qo‘llash jarayonida hal qiladigan markaziy masalalardan biridir. Uning mohiyatini qilmishni jinoyat huquqi nuqtai nazaridan baholash tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlarda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish nazariyasi bilan amalda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish o‘rtasidagi farq to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Bunda ta’kidlanishicha, “nazariy qoidalarda jinoyatlarning turlarini kvalifikatsiya qilish jinoiy-huquqiy normalarni tavsiflash doirasida hamda ularning sodir etilishiga xos tipik vaziyatlarda umumlashgan holda aks ettiriladi. Jinoyatlarni amaliyotda kvalifikatsiya qilishda esa individual ko‘rinishda namoyon bo‘ladigan qilmishning istisnosiz barcha aniqlangan va isbotlangan haqiqiy holatlari, ularga xos xususiyatlar va nozik jihatlar inobatga olinadi” [12; b.11.].

Ushbu qoida jinoyatlar majmuiga ham to‘lig‘icha taalluqlidir, zero u qat’iyroq huquqiy oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini belgilab bergani bois to‘g‘ri kvalifikatsiyaning ahamiyati nazariy darajada ham, amaliy faoliyatda ham kuchayib boradi.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy darajalari mavjudligi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidalarining umumiy, maxsus va yakka turlarga tasniflanishini belgilab berdi.[13; b.3.]. Ayni vaqtda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidalari jinoyat qonunining o‘zida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy qarorlarida nazarda tutilgan ushbu qoidalarni qo‘llashning muayyan yo‘llari, shuningdek boshqa sud amaliyotida va jinoyat

huquqi nazariyasida ishlab chiqilgan usullar sifatida ifodalanib, “ularning xususiyati shundaki, ular birgalikda jinoyat qonunida ham, jinoyat huquqi nazariyasining biror mustaqil bo‘limida ham jamlanmagan va yuridik fan ushbu tarmog‘ining ayrim qoidalariga nisbatan ko‘rib chiqiladi”[12; b.266.], deya to‘g‘ri ta’kidlanadi.

Shuningdek ta’kidlash lozimki, jinoyat tarkibining qo‘shimcha belgilari, qonunda yozilishiga qarab, turlicha ahamiyat kasb etadi. Ushbu belgilar jinoyatning asosiy tarkibida zaruriy belgi sifatida, shuningdek, yengillashtiruvchi, og‘irlashtiruvchi yoki alohida og‘irlashtiruvchi tarkiblarida kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida nazarda tutilgan bo‘lishi ham mumkin.

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab diniy ekstremizm va radikalizm tahdidlari kuchaydi. Bu jarayon internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan noqonuniy diniy mazmundagi materiallar tufayli yanada murakkablashmoqda. O‘zbekiston ham ushbu muammoga qarshi kurashni kuchaytirish yo‘lida qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 184-2-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244-3-moddasida diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash yoki tarqatish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan.

Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatishning sodir etilish usullari quyidagicha tasniflanishi mumkin. Ushbu usullar O‘zbekiston Jinoyat kodeksi va xalqaro huquqiy tajriba asosida o‘rganiladi.

1. Bosma materiallarni noqonuniy tayyorlash

Asos: Qonunga xilof diniy mazmunni o‘z ichiga olgan kitoblar, bukletlar yoki jurnallarni maxfiy bosmaxonalarda ishlab chiqarish.

Jinoyatning mohiyati: Matbaa xizmatlaridan noqonuniy foydalanish va qonun bilan taqiqlangan materiallarni tarqatish niyati.

2. Elektron vositalar orqali tarqatish

Asos: Ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar yoki messenjerlar orqali taqiqlangan diniy mazmunni keng ommaga tarqatish.

Jinoyatning mohiyati: Onlayn platformalardan foydalanib din bilan bog‘liq g‘oyalarni ommalashtirish.

3. Chet eldan olib kirish

Asos: Chegara punktlari orqali diniy mazmundagi materiallarni mamlakat hududiga noqonuniy olib kirish.

Jinoyatning mohiyati: Chegara qonunchiligini buzish.

4. Qo‘lbola usullarda material tayyorlash

Asos: diniy g‘oyalarga asoslangan qo‘lda yozilgan varaqlar, eslatmalar yoki boshqa materiallarni ishlab chiqarish va tarqatish.

Jinoyatning mohiyati: Oddiy vositalardan foydalanib qonunbuzarlikka qo‘l urish.

5. Jamoat joylarida targ‘ibot qilish

Asos: Ommaviy yig‘inlar, masjidlar yoki boshqa jamoat joylarida diniy mazmundagi taqiqlangan materiallarni tarqatish yoki targ‘ib qilish.

Jinoyatning mohiyati: Jamoat joylaridan foydalangan holda noqonuniy diniy faoliyatni kengaytirish.

6. Dasturiy ta’minotlardan foydalanish

Asos: Maxsus ilovalar, fayllar yoki kompyuter dasturlari orqali diniy g‘oyalarni tarqatish.

Jinoyatning mohiyati: Zamonaviy texnologiyalardan noqonuniy maqsadlarda foydalanish.

7. Mobil aloqa orqali xabar tarqatish

Asos: SMS yoki messenjerlar orqali diniy mazmunni shaxsiy aloqalar orqali tarqatish.

Jinoyatning mohiyati: Maxfiylikni ta’minlash maqsadida texnologik vositalardan foydalanish.

8. Materiallarni saqlash va keyinchalik tarqatish

Asos: Diniy mazmundagi noqonuniy materiallarni turli joylarda (masalan, uyda yoki omborxonalarda, shaxsning o‘ziga tegishli bo‘lgan axborot texnika vositalarida) yashirincha saqlash.

Jinoyatning mohiyati: Materiallarni qonunga xilof ravishda kelajakda tarqatish niyati bilan saqlash.

10. O‘smirlar va yoshlarni jalb qilish

Asos: Yoshlar orasida diniy mazmundagi materiallarni tarqatish yoki radikal targ‘ibot o‘tkazish.

Jinoyatning mohiyati: Yoshlarni o‘z maqsadlariga jalb qilish va ta’sir ko‘rsatish.

Jinoyat sodir etish vositalari: Zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy aloqalar va chet el vositalaridan foydalanish.

11. Tugallanmagan mahsulotlarni tarqatish

Asos: Tushunchalarga zid diniy qoidalarni qo‘llash maqsadida noto‘liq mahsulotlarni targ‘ib qilish.

Huquqiy asos: Foydalanuvchilarni chalg‘itishga qaratilgan harakatlar.

12. Tasodifiy foydalanuvchilarga jo‘natish

Asos: Elektron pochta yoki boshqa kanallar orqali noqonuniy materiallarni ommaviy jo‘natish.

Huquqiy asos: Aloqa xizmatlarini noqonuniy foydalanish.

Ma’naviy xavf: Jamiyatda millatlararo va dinlararo nizolarni kuchaytirish.

Bu usullarning har biri bo‘yicha aniqlangan jinoyatlar maxsus tekshiruv va ekspertiza asosida baholanadi va tegishli jazo belgilanadi.

Diniy materiallarni qonunga xilof tarqatishning amaliy misollari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Radikal diniy materiallar tarqatilishi: Ba’zi shaxslar yoki guruhlar diniy ekstremizm g‘oyalarini yoyish maqsadida radikal materiallarni tarqatishadi. Bu materiallar ko‘pincha qonuniy nazoratdan o‘tmaydi va jamiyatda diniy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

2. Diniy nashrlar va broshyuralar: Qonuniy ruxsat olmadan diniy nashrlar, maqolalar yoki broshyuralar tarqatilishi. Bunday materiallar ko‘pincha boshqa din vakillariga nisbatan nafrat va tajovuzni targ‘ib qiladi. [11].

3. Diniy ma’ruzalar va videolar: Internet orqali yoki jamoat joylarida diniy ma’ruzalar va videolarni tarqatish, agar ular qonuniy ekspertizadan o‘tmagan bo‘lsa, qonunga xilof hisoblanadi. Bunday materiallar ko‘pincha ekstremistik g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. [15].

4. Diniy materiallarni noqonuniy olib kirish: O‘zbekiston hududiga diniy materiallarni qonunga xilof ravishda olib kirish holatlari. Bunday holatlar ko‘pincha bojxona nazoratidan o‘tmaydi va jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkin. [11].

Ushbu misollar diniy materiallarni qonunga xilof ravishda tarqatishning turli jihatlarini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida” Qonuni, 05.07.2021-yildagi OʻRQ-699-son qonuning 10-modda. Diniy mazmundagi materiallar, ularni tayyorlash, olib kirish va tarqatish

Diniy mazmundagi materiallar diniy ta’limotning aqidaviy asoslarini, tarixini, diniy ta’limot mafkurasini va sharhlarni, turli diniy ta’limotlarning marosimlar oʻtkazish amaliyotini, shuningdek alohida shaxslarning, tarixiy faktlar va hodisalarning diniy nuqtai nazardan bahosini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqalar, boshqa bosma nashrlar, belgilar, predmetlar, ramzlar, audiovizual asarlar (tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozuvlari, multfilmlar va boshqalar), elektron axborot tashuvchilardan (disketlar, CD, DVD disklari, oʻrnatilgan va yechib olinadigan xotira kartalari, Internet jahon axborot tarmogʻida joylashtirilgan materiallar va boshqalar) iboratdir.

Oʻzbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish jamiyatda konfessiyalararo totuvlik hamda diniy bagʻrikenglik buzilishiga olib keladigan, diniy zoʻravonlik va boshboshdoqlikka chorlaydigan gʻoyalar hamda qarashlar tarqalishining oldini olish maqsadida dinshunoslik ekspertizasining ijobiy xulosasi olinganidan keyin amalga oshiriladi.

Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. [17].

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.04.2022 yildagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan “Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish hamda dinshunoslik ekspertizasini oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida NIZOM” da Materiallarni Oʻzbekiston Respublikasi hududida tarqatish boʻyicha quyidagicha tartib belgilangan.

13-bandi. Materiallarni Oʻzbekiston Respublikasi hududida tarqatish yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan turgʻun savdo shoxobchalari orqali fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa onlayn nazorat-kassa mashinalari yoki virtual kassa, toʻlov terminallarini qoʻllash va pul tushumlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bankka inkassatsiya qilish (banklarga topshirish) yoʻli bilan yoxud onlayn toʻlov tizimlari orqali amalga oshiriladi.

14-bandi. Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari, davlat boshqaruvi organlari, xoʻjalik birlashmalari kutubxonalari, shuningdek, boshqa kutubxonalar, veb-saytlar tahririyatlari va jismoniy shaxslar tomonidan ijobiy xulosa olmasdan, xorijda tayyorlangan materiallarni aholiga umumiy foydalanish uchun taqdim etish taqiqlanadi.

15-bandi. Vakolatli organ materiallarni noqonuniy tayyorlash, olib kirish va tarqatish holatlarini aniqlash va oldini olish maqsadida doimiy ravishda nazorat tadbirlarini oʻtkazadi va natijasi boʻyicha hujjatlarni koʻrib chiqish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qiladi. [18].

XULOSA

Diniy mazmundagi materiallar tayyorlash, olib kirish va tarqatish jamiyatda konfessiyalararo totuvlik hamda diniy bagʻrikenglik buzilishiga olib keladigan, diniy zoʻravonlik va boshboshdoqlikka chorlaydigan gʻoyalar hamda qarashlar tarqalishining oldini olish maqsadida dinshunoslik ekspertizasining ijobiy xulosasi olingandan keyin amalga

oshiriladi.[16]. Diniy mazmundagi materiallar diniy ta'limotning aqidaviy asoslarini, tarixini, diniy ta'limot mafkurasini va sharhlarni, turli diniy ta'limotlarning marosimlar o'tkazish amaliyotini, shuningdek, alohida shaxslarning, tarixiy faktlar va hodisalarning diniy nuqtai nazardan bahosini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqalar, boshqa bosma nashrlar, belgilar, predmetlar, ramzlar, audiovizual asarlar (tele, kino va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozuvlari, multfilmlar va boshqalar), elektron axborot tashuvchilar (disketlar, CD, DVD disklari, o'rnatilgan va yechib olinadigan xotira kartalari, Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirilgan materiallar va boshqalar deb tushunish lozim.

Mazkur jinoyatlarga nisbatan javobgarlikni belgilashda obyektiv va subyektiv tomon belgilarining zarurligi, kvalifikatsiya qilishda motiv va maqsadning zaruriyligi hamda yangi texnologiyalarga asoslangan holda boshqa sodir etish usullarini aniqlashtirish lozim. Ushbu diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish hamda tarqatish jinoyatlarida "qonunga xiloflik" tushunchasini oydinlashtirish hamda mamlakatimiz fuqarolariga rasmiy tarzda qonunchilikda belgilangan tizim tushuntirish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. *M.X.Rustamboyev*., Jinoyat huquqi 5-tom.2018 y. 26-27, 30 b. https://renessans-edu.uz/files/books/2024-12-01-06-02-23_82a6498df108f4e4b48c55eac2f64a7e.pdf
2. *Rustamboev M.H.* O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Tom I. Jinoyat haqida ma'lumot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy-texnika instituti, 2018 – B-163.
3. *Rustamboyev M.H.* O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. I tom. Maxsus qism. Jinoyat to'g'risida ta'limot: Darslik. – T.: ILM ZIYO, 2011. – B. 139.
4. *Якубов А.С.* Учение о преступлении по законодательству Республики Узбекистан. – Ташкент, 1995. – С. 55.
5. *Usmonaliyev M.* Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. —T., «Yangi asr avlodi», – 2010. – B. 161.
6. Уголовное право России. Общая часть. /Под ред. Н.Ф.Кузнецовой и И.М.Тяжковой. - М.: Зерцало, 2005. – 213, 246 с
7. Уголовное право. Часть общая. Часть Особенная. Учебник. / Под ред. Н.И.Ветрова, Ю.И.Ляпунова. - М.: Юриспруденция, 2007. – 103, 121 с.
8. Abduqodirov Sh.Yo. Qonunga xilof tadbirkorlik bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik muammolari (jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari). Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: TDYuI, 2006. –79 b.
9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 1997. – 31 b.
10. A.Sabirov, K.Ismoilov, G.Mirahmadova., O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonuning vazifalari. 2023 y. https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/18893
11. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tarqatish javobgarlikka sabab bo'ladi. https://adu.uz/uz/news/article/2759
12. Гаухман Л.Д. Квалификатsiя преступлений: закон, теория, практика. – М., 2001. – С.11.
13. Matlyubov B. B. Jinoyatlar majmui: kvalifikatsiya qilish: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – B 3.
14. Гаухман Л.Д. Квалификатsiя преступлений: закон, теория, практика. – М., 2001. – С. 266.
15. YouTube](https://www.youtube.com/watch?v=Ce2Q222gqeo
16. (https://daryo.uz/2024/03/11/din-ishlari-boyicha-qomita-fuqarolardan-shubhali-diniy-mazmundagi-materiallarni-tarqatmaslikni-soramoqda).

17. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” Qonuni, 05.07.2021 yildagi O‘RQ-699-son. https://lex.uz/docs/-5491534
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.04.2022 yildagi 180-son., Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish hamda dinshunoslik ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida NIZOM, 4-bobi, 13-15-bandlari; https://lex.uz/uz/docs/-5957921

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

VIRTUAL VIOLENCE: LEGAL ASSESSMENT AND RESPONSIBILITY ISSUES

Shagilov Pulatbek Koptleuovich
National Guard of the Republic of Uzbekistan
Head of the "Cycle of Legal Sciences"
Regional Training Center of the Republic of Karakalpakstan

Abstract. This article analyzes cyber hooliganism as a modern manifestation of social media offenses such as threats, insults, slander, personal data dissemination, and collective condemnation carried out using information and communication technologies. The author examined the concept, types, legal features of cyber hooliganism, and existing relations in the legislation of the Republic of Uzbekistan on a scientific basis. Legal trends were also analyzed, and practical proposals for improving national legislation were put forward. The article identifies forms of liability, legal gaps, and problems in law enforcement practice, and recommends measures at the legislative, educational, and platform levels to address them.

Keywords: Cyber hooliganism, cyberbullying, legal assessment, slander, insult, personal data, digital environment, information security, forms of responsibility, national legislation, foreign experience.

BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI: HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI

Shagilov Pulatbek Koptleuovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi
“Huquqiy fanlar sikli” boshlig‘i

Annotatsiya. Mazkur maqolada kiberbezorilik — ijtimoiy tarmoqlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan tahdid, haqorat, tuhmat, shaxsiy ma’lumotlarni tarqatish va jamoaviy qoralash kabi huquqbuzarliklarning zamonaviy ko‘rinishi sifatida tahlil qilinadi. Muallif tomonidan kiberbezorilikning tushunchasi, turlari, huquqiy xususiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi mavjud munosabatlar ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Shuningdek huquqiy tendensiyalar tahlil etilib, milliy qonunchilikni takomillashtirishga oid amaliy takliflar ilgari surilgan. Maqolada javobgarlik shakllari, huquqiy bo‘shliqlar va huquqni qo‘llash amaliyotidagi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun qonunchilik, ta’lim va platformalar darajasidagi chora-tadbirlar tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: Kiberbezorilik, kiberbulling, huquqiy baholash, tuhmat, haqorat, shaxsiy ma’lumot, raqamli muhit, axborot xavfsizligi, javobgarlik shakllari, milliy qonunchilik, xorijiy tajriba.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N38

Kirish. Hozirgi global raqamli transformatsiya sharoitida insonning axborot muhitidagi ishtiroki kengayib bormoqda. Bu jarayon, bir tomondan, fuqarolarning so‘z erkinligi, axborot olish huquqi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga turtki bersa, ikkinchi tomondan, yangi ijtimoiy xavf-xatarlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi bezorilik — ya’ni kiberbulling, tahdid, haqorat, shaxsiy ma’lumotlarni tarqatish

va ommaviy linch holatlari — axborot muhitining muttasil tarzda zaharlanishiga sabab boʻlmoqda.

Kiberbezorilik fenomeni axloqiy, huquqiy va psixosotsial muammolar tufayli jamiyatda yangi ilmiy tahlillarni talab etmoqda. Bir qator xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, YUNISEF, YEXHT va Yevroparlament oʻz hisobotlarida internetdagi zoʻravonlikning oʻsib borayotgani va uning ayniqsa bolalar, oʻsmirlar va ayollar uchun jiddiy tahdid ekanini qayd etganlar [1]. Shu bilan birga, kiberbezorilik faqat shaxsga emas, balki jamoaviy tinchlikka, jamoatchilik fikriga ta’sir koʻrsatuvchi omil sifatida ham qaralishi zarur.

Oʻzbekistonda raqamli makonning tez sur’atlarda kengayishi, aholining ijtimoiy tarmoqlarga ommaviy jalb etilishi bu muammoning milliy miqyosda ham ahamiyatli ekanini koʻrsatmoqda. Biroq, amaldagi qonunchilikda “kiberbulling” tushunchasi aniq ta’riflanmagani va javobgarlik mexanizmlarining yetarlicha ishlamayotgani, ushbu ilmiy tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Kiberbezorilik (ing. *cyberbullying*) — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali shaxsga nisbatan buzgʻunchi, tahqirlovchi, tahdid qiluvchi yoki kamsituvchi mazmundagi ma’lumotlarni tarqatish, uning shaxsiy hayotiga aralashish yoki ommaviy muhitda uni sharmanda qilish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar majmuasidir. Bu tushuncha avvalo psixosotsial jarayon sifatida paydo boʻlgan boʻlsa-da, soʻnggi yillarda uning huquqiy-siyosiy ahamiyati ham orta boshladi.

YUNESKO ta’rifiga koʻra, kiberbezorilik — bu raqamli texnologiyalar orqali biror shaxsni qasddan tahqirlash, tahdid qilish, masxara qilish yoki uning izolyatsiyaga uchrashiga sabab boʻladigan barcha harakatlardir [2]. Bu faoliyat koʻpincha turli platforma va kanallar orqali amalga oshiriladi: ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Telegram), messenjerlar (WhatsApp, Viber), video platformalar (YouTube, TikTok) va hatto onlayn oʻyinlar muhitida ham olib boriladi.

Bu haqda psixologiya sohasidagi yetakchi mutaxassislardan biri, Buyuk Britaniyaning tan olingan professori Lorreyn Sheridan shunday xulosa qiladi: *"Kiberstalking — bu shunchaki virtual kuzatuv emas. U qurbonning onlayn faoliyatini izchil nazorat qilish, doimiy ravishda aloqa oʻrnatishga urinish va shu orqali ruhiy ustunlikka erishishga intilish kabi koʻrinishlarda namoyon boʻladi. Bu — shaxsiy hayot daxlsizligiga bevosita tajovuz va jiddiy ruhiy tahdiddir"[3].*

Jinoyatshunoslik yoʻnalishida tadqiqot olib borayotgan amerikalik olim Bredford Reyns esa kiberstalkingning ijtimoiy xavfini quyidagicha tavsiflaydi: *"Bu turdagi tahdid koʻpincha ayollar va yoshlar orasida keng tarqalgan boʻlib, uning ommalashuvi an’anaviy stalkingga nisbatan ancha yuqori. Eng xavfli jihati — u anonimlik imkoniyatiga ega boʻlgan va joy boʻyicha cheklovlarsiz amalga oshiriladigan shaklda sodir etiladi [4]*.

Kiberstalking qurbonlarining psixologik holati haqida esa amerikalik huquq sotsiologlari Fon T. Ngo va R. Paternoster shunday fikr bildiradilar: *"Koʻpgina hollarda qurbonlar bunday tajovuzni dastlab jiddiy qabul qilmaydilar. Biroq vaqt oʻtishi bilan ularda xavotir, uyqu buzilishi, xatto posttravmatik stress alomatlari yuzaga kelishi mumkin" [5]*.

Kiberbezorilik: soʻzli tahdid va haqorat, shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilish (doxxing), soxta va manipulyativ kontentni tarqatish, ommaviy ta’qib va jamiyatdan chetlashtirish madaniyati (cancel culture), kiberquvgʻin (cyberstalking) kabi asosiy turlarilarga ajratilgan.

Verbal abuse **–** Internet orqali amalga oshiriladigan tahdid va haqoratlar — kiberbezorilikning keng tarqalgan va ehtimolan birinchi namoyon boʻladigan shakli

hisoblanadi. Ushbu turda shaxsga nisbatan haqoratli ifoda, qo‘rqitish, mazammat, so‘kinish kabi yozma yoki vizual tarzdagi muloqot shakllari onlayn platformalarda tarqatiladi. Bu — ruhiy ta’sirga ega bo‘lgan zo‘ravonlik shakli bo‘lib, jabrlanuvchining shaxsiy daxlsizligi, obro‘-e’tibori va ijtimoiy mavqeiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu holat **O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi**ning **139-moddasi** (tuhmat) va **140-moddasi** (haqorat) doirasida huquqiy bahoga ega. Xususan, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, shaxsni obro‘sizlantiruvchi ma’lumotlarni tarqatish tuhmat deb qaralsa, shaxsni sha’niga haqoratli so‘zlar aytish yoki yozish haqorat sifatida kvalifikatsiya qilinadi [6].

YE.V. Shestakova ta’kidlaganidek, “virtual agressiya qurbonning shaxsiy erkinligi va ichki dunyosiga tajovuzdir, u ko‘p holatlarda jismoniy zo‘ravonlikdan ham og‘ir psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkin” [7].

Psixologik nuqtai nazardan, virtual tahdid va haqorat real hayotdagi ruhiy zo‘ravonlikdan kam emas. Ular qurbonda uzoq muddatli stress, xavotir, o‘zini yakkalangandek his qilish, hatto depressiyaga olib keluvchi holatlarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar orasida ushbu turdagi zo‘ravonlikga uchrash holati ko‘proq kuzatiladi.

Doxxing — bu shaxsning shaxsiy va identifikatsiyalovchi ma’lumotlarini (FIO, yashash manzili, telefon raqami, elektron pochtasi, ijtimoiy tarmoq profillari, shaxsiy suratlari va boshqa ma’lumotlarini) **uning roziligisiz** keng jamoatchilikka oshkor qilish amaliyotidir. Bu harakatning asosiy maqsadi – qurbonni sharmanda qilish, tahdid qilish, ta’qib qilish yoki jamoat bosimiga duchor etishdan iborat bo‘ladi.

Ushbu holat **shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining jiddiy buzilishi** hisoblanadi va **O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 141¹-moddasi** (“Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish”) bilan huquqiy jihatdan javobgarlikka tortiladi. Shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019-yildagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida” O‘RQ-547-son Qonun[8]ida ham subyekt roziligisiz ularni yig‘ish va tarqatish qat’iyan taqiqlanadi.

Doxxing – shaxsni virtual kenglikda “yalang‘ochlash” orqali uning xavfsizlik hissini yo‘qotish, jamoatchilik oldida izolyatsiya qilish va ruhiy bosim ostida qoldirishga yo‘naltirilgan. Jabrlanuvchilar ko‘p hollarda onlayn faoliyatini to‘xtatadi, yashash joyini o‘zgartiradi yoki hatto ish joyidan bo‘shatilish holatlariga duch keladi.

D.M. Duglas ta’kidlaganidek, doxxing – axborot zo‘ravonligining noan’anaviy shakli bo‘lib, shaxsiy ma’lumotlardan foydalanib qurbonda qo‘rquv, tahqir yoki intiqom hissini uyg‘otishga qaratilgan. U raqamli tajovuz va so‘z erkinligi o‘rtasidagi huquqiy noaniq hududda amalga oshiriladi[9].

Daniel K. Sitron ta’kidlaganidek, shaxsiy va identifikatsiya qiluvchi ma’lumotlarni ruxsatsiz tarqatish ko‘p holatlarda an’anaviy tuhmatdan ham xavfliroq oqibatlarga olib keladi. Ayniqsa bu holat tahdidlar va ommaviy ta’qib bilan birga yuz bersa, jabrlanuvchining ijtimoiy, ruhiy va huquqiy xavfsizligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin [10].

Feyk (yolg‘on) va manipulyativ kontent tarqatish — shaxsga nisbatan ma’lumotni bilib turib buzib ko‘rsatish, montaj qilingan surat yoki videolar, soxta xabarlar, kontekstdan uzib olingan ifodalarni targ‘ib qilish orqali uni obro‘sizlantirish, mazammat qilish yoki jamoat oldida behayo qilib ko‘rsatishga qaratilgan kiberbezorlik turidir. Bu turdagi harakatlar, ayniqsa, **ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali tez tarqalishi**, jabrlanuvchiga nisbatan keng jamoatchilikning nosog‘lom munosabatini shakllantiradi.

Ushbu holat **O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 183-moddasi** (jamoat tartibiga zid xatti-harakatlar) va **202²-moddasi** (Yolg‘on axborot tarqatish) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotni tarqatish **“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun[**11**]**da ta’qiqlangan.

Bunday kontentning tarqatilishi shaxsda o‘zini yakkalangandek his qilish, ruhiy jarohat, xavotir va ijtimoiy izolyatsiya simptomlarini keltirib chiqaradi. Yolg‘on axborot qurbonning shaxsiy va kasbiy hayotiga, oilaviy munosabatlariga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kler Uordl va Huseyn Deraxshan ta’kidlashicha, axborot manipulyatsiyasi faqatgina ma’lumotlarning buzib ko‘rsatilishi emas, balki u jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish maqsadida **emotsiya, kontekstni buzish va qo‘rquvdan foydalanish** orqali amalga oshiriladigan rejali jarayondir.

Ularning fikricha, feyk kontent ko‘p hollarda shaxs yoki guruhlarni **ijtimoiy va reputatsion jihatdan zaiflashtirish**, ularga qarshi jamoaviy salbiy munosabat shakllantirish uchun yaratiladi. Bunday axborot turlari — ratsional fikrlashni cheklab, aholining emotsional holatidan foydalangan holda uning reallikni idrok qilish qobiliyatiga putur yetkazadi[12].

Elis Marvik va Rebekka Lyuis ta’kidlaydilar: manipulyatsiya qilingan media kontent — jamoat ishonchini izdan chiqarish, shaxsda sharmandalik hissini uyg‘otish yoki unga qarshi jamoaviy g‘azabni qo‘zg‘atish uchun qasddan qo‘llaniladigan vositadir.

Ularga ko‘ra, bunday media materiallar ayniqsa **ayollar va ijtimoiy jihatdan kamsitilgan guruhlarga** nisbatan ishlatiladi. Bu axborotlar shaxsni jamoat oldida obro‘sizlantirish, uning faoliyatini yoki mavqeini so‘roq ostiga olish, va keng ommaviy muhitda uning manfur tusda qabul qilinishiga yo‘naltirilgan[13].

Jamoaviy linch — ijtimoiy tarmoqlarda, messenjerlarda yoki onlayn platformalarda bir shaxsga nisbatan **katta miqdordagi foydalanuvchilar tomonidan ommaviy ravishda tanqid, haqorat va “virtual ta’qib” uyushtirish holatidir**. Bu jarayon, ko‘p hollarda, ma’lum bir voqea, bildirilgan fikr yoki shaxsiy xatti-harakatga nisbatan jamoatchilikning hissiy reaksiyasi orqali boshlanadi, ammo tezda irratsional shaklga aylanib ketadi[14].

Kensel madaniyati (cancel culture) esa mazkur jarayonning davomi bo‘lib, shaxsni ijtimoiy platformalar, faoliyat maydonlari yoki jamoatchilik muhitidan **ommaviy ravishda chetlatish**, uning so‘z erkinligi va ishtirok huquqini cheklashga urinish shaklida namoyon bo‘ladi. Bu — noinstitusional, ammo jiddiy ijtimoiy bosim vositasidir.

O‘zbekiston qonunchiligida bu holatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlanmagan bo‘lsa-da, **Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 183-moddasi** (jamoat tartibini buzish, behayolik) va **202-moddasi** (obro‘ga tajovuz) doirasida baholanishi mumkin. Shuningdek, shaxsning shaxsiy hayoti va fikr erkinligiga aralashish **Konstitusiyaviy huquqlarning buzilishi**ga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, bunday bosim oqibatida shaxsda ruhiy shikast, o‘z-o‘zini yakkalash, ijtimoiy faollikni yo‘qotish, hatto klinik depressiya holatlari rivojlanishi mumkin. Bu jarayon "tolpa psixologiyasi" ta’siridagi raqamli muhitda inson qadrini deformatsiyalashtirishga olib keladi.

Natali Uinn (ContraPoints) ta’kidlaganidek, kensel madaniyati — shaxsni mas’uliyatga tortish vositasi emas, balki raqamli muhitdagi **axloqiy namoyish va virtual tomoshabozlik** shaklidir. Unga ko‘ra, ushbu jarayonda haqiqatda murakkab va ko‘p qirrali insonlar **qasddan**

soddalashtiriladi, ularning shaxsiyati **karikatura darajasigacha kamaytiriladi** va nihoyat, ommaviy jamoaviy “ahloqiy yengillik” hissi uchun yo‘q qilinadi". Bunday jarayon shaxs emas, balki jamoaning hissiy tozalanish ehtiyoji (catharsis) uchun xizmat qiladi[15].

AQSH media tadqiqotchisi **Iv Ng** fikricha: **kensel madaniyati adolatni ta’minlash vositasi** sifatida emas, balki **ommaviy ramziy jazolash shakli** sifatida faoliyat yuritadi. Uning fikriga ko‘ra, bu jarayon markazlashmagan, qoidalar bilan cheklanmagan, **internetdagi parchalangan muhitlarda amalga oshadi**. YA’ni, kensel madaniyati huquqiy yoki institusional tizimlarga emas, balki subyektiv his-tuyg‘ular va virtual guruhlar hissiy reaksiyasiga tayanib ishlaydi. Bunday tizim — shaxs huquqlarini himoya qilish emas, balki jamoaviy ma’naviy nazoratning shakli sifatida namoyon bo‘ladi[16].

Kiberstalking — bu foydalanuvchining onlayn faoliyatini majburiy nazorat qilish, ijtimoiy tarmoqlarda, elektron pochta va messenjerlar orqali unga doimiy ravishda yozish, shaxsiy suratlarini yig‘ish, tahdid qilish, yolg‘on akkauntlar orqali kuzatish kabi zo‘ravonlikka asoslangan harakatlar yig‘indisidir. Uning maqsadi — shaxsga ruhiy bosim o‘tkazish, xavfsizlik hissini yo‘qotish, uni nazorat ostida ushlashdir[17].

Kiberstalking ko‘p hollarda yakka shaxs (odatda tanish yoki sobiq juft) tomonidan amalga oshiriladi, biroq uning ta’siri nafaqat shaxsiy hayotga, balki shaxsning sog‘lig‘i, mehnat faoliyati va ijtimoiy aloqalariga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Kiberstalking jabrlanuvchida **uzoq muddatli ruhiy shikast**, xavotir sindromi, uyqu buzilishi, o‘zini muhitdan yakkalash va hatto **posttravmatik stress (PTSD)** alomatlariga olib kelishi mumkin. Bu holat ko‘pincha ayollar, yoshlar va jismoniy yoki ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarga qarshi yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Kiberbezorilikning murakkab tabiati uning psixologik, ijtimoiy va huquqiy jihatdan chuqur o‘rganilishini taqozo etadi. Ayniqsa, onlayn muhitdagi anonimlik tufayli bunday harakatlarni isbotlash, huquqiy baho berish va aybdorni aniqlash murakkablik kasb etadi. Xususan, O‘zbekistonda hozircha "kiberbulling" atamasi amaldagi qonun hujjatlarida aniq belgilanmagan, bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida turli tafovutlarga sabab bo‘ladi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kiberbezorilik jabrlanuvchining nafaqat psixoemotsional holatiga, balki uning ijtimoiy munosabatlari, ta’lim olishi va mehnat faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi[18]. Shu boisdan, uni ma’muriy va jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi va axborot huquqi kesishuvida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kiberbezorilikka nisbatan huquqiy munosabat, avvalo, uning mazmuniy xususiyati va jamiyatdagi ijtimoiy xatar darajasiga bog‘liq holda baholanadi. Bu huquqbuzarlik axloqiy normalarni buzish bilan birga, shaxsning sha’ni, qadr-qimmati, shaxsiy hayoti daxlsizligi hamda axborot xavfsizligi huquqlariga ham tahdid soladi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida "kiberbulling" yoki "kiberbezorilik" atamalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’riflanmagan bo‘lsa-da, ushbu hodisaning ayrim huquqbuzarlik shakllari mavjud normalar asosida huquqiy bahoga tortiladi.

Jinoiy huquq normalari doirasida mazkur harakatlarga birinchi navbatda Jinoyat kodeksining 139-moddasida nazarda tutilgan tuhmat javob beradi. Unga ko‘ra, shaxs haqida haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, uni obro‘sizlantiruvchi yolg‘on ma’lumotlarni bilib turib tarqatish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi[6]. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsni behayo qilib ko‘rsatish maqsadida soxta ma’lumotlar, fotomontajlar, videolar yoki yolg‘on kontent tarqatish ana shu modda asosida baholanishi mumkin.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 140-moddasida haqorat, ya’ni shaxsni kamsituvchi, sha’niga dog‘ tushiradigan ifoda va bildirishlar, xususan ommaviy axborot vositalari va internet orqali tarqatilgan holatlarda jinoiy javobgarlikka olib kelishi belgilangan[6]. Bunday holatlar ko‘pincha shaxsiy postlar, sharhlar yoki axborot saytlaridagi muhokamalarda yuzaga chiqadi.

Kiberbezorilikning yana bir huquqiy ko‘rinishi — shaxsiy hayot daxlsizligiga qarshi qilingan jinoyatlardir. Jinoyat kodeksining 141^1-moddasiga muvofiq, shaxsning ruxsatiga ega bo‘lmasdan uning shaxsiy fotosuratlari, audio yozuvlari yoki shaxsiy xatlarini tarqatish, ommaviy muhokama qilish, majlislarda yoki ommaviy kanallarda yoyish shaxsiy hayotga aralashish hisoblanadi va jinoiy jazo choralarini talab etadi[6].

Agar mazkur harakatlar jinoiy tarkibga ega bo‘lmasa, ular Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks asosida baholanadi. Unga ko‘ra, shaxsni haqorat qilish holatlari 41-moddada, tuhmat qilish esa 40-moddada nazarda tutilgan. Shuningdek, jamoat tartibini buzuvchi mayda bezorilik holatlari 183-modda doirasida huquqiy baho oladi[8]. Bu holatlar uchun, odatda, jarima, ma’muriy qamoq jazosi ko‘riladi.

Axborot sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi maxsus qonunlar ham kiberbezorilikka qarshi kurashishda muhim huquqiy poydevor hisoblanadi. Xususan, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida axborot xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarni yolg‘on va tahdidli ma’lumotlardan muhofaza qilish, shuningdek, axborot tarqatish jarayonidagi etik va huquqiy chegaralarni belgilash bo‘yicha muhim normalar belgilangan[19]. Ushbu qonun axborot muhitining ijtimoiy mas’uliyat va shaffoflik asosida shakllanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, kiberbezorlik holatlarida tarqatilgan yolg‘on, haqoratli yoki psixologik bosimga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni huquqiy baholashda asosiy mezonlardan biri sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019-yildagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son Qonuni shaxsiy ma’lumotlarni qonuniy asoslarsiz yig‘ish, qayta ishlash va tarqatishni taqiqlaydi[8]. Ushbu qonun shaxsning axborot xususiyatidagi daxlsizligiga kafolat beradigan zamonaviy huquqiy mexanizm bo‘lib, kiberbezorlik kontekstida — ayniqsa, **doxxing**, ya’ni shaxsiy ma’lumotlarni ruxsatsiz oshkor qilish holatlarida — markaziy himoya vositalaridan biri sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Amaliy jihatdan qaralganda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida “kiberbulling” yoki “kiberbezorilik” degan alohida huquqiy kategoriya mavjud emas. Bu holat amalda sud-tergov organlari tomonidan ushbu hodisaning turli elementlarini mavjud jinoiy yoki ma’muriy moddalar doirasida baholash amaliyotiga olib kelmoqda. Ammo bunday yondashuv amaliyotda bir qator tizimli muammolarni keltirib chiqaradi.

Avvalo, mazkur tushunchaning aniq huquqiy ta’rifi mavjud emasligi sud va tergov organlari tomonidan uning mazmunini subyektiv tarzda talqin qilishga sabab bo‘ladi. Bu esa huquqbuzarlikni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda noaniqliklar va bir xil holatlar bo‘yicha turlicha qarorlar qabul qilinishiga olib keladi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli muhitda yuzaga kelayotgan tahdidlar va axborot zo‘ravonligi turlariga nisbatan mavjud huquqiy vositalar, ayniqsa profilaktika va profilaktik himoya mexanizmlari, ko‘p hollarda mos kelmaydi. Bu esa qurbonlarni himoya qilishda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning harakatlarini aniq belgilashda hamda sud amaliyotida umumiy yechimlar shakllantirishda huquqiy bo‘shliqni yuzaga keltiradi.

Kiberbezorilikka qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston qonunchiligida mavjud bo‘shliqlar va amaliyotdagi muammolarni hisobga olgan holda, ushbu sohani huquqiy jihatdan mustahkamlash dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Birinchi navbatda, kiberbezorilikni mustaqil huquqiy kategoriya sifatida qonunchilikda mustahkamlash lozim. Buning uchun “kiberbulling” yoki “kiberbezorilik” tushunchasiga aniq va huquqiy jihatdan ishonchli ta’rif berish zarur. Ushbu ta’rifda zo‘ravonlikning maqsadi, shakli, vositalari va jabrlanuvchining holati hisobga olinishi kerak.

Shuningdek, Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga kiberbezorilikka oid maxsus moddalar kiritish maqsadga muvofiq. Bunda tahdid, haqorat, shaxsiy ma’lumotlarni tarqatish, ommaviy qoralash, manipulyativ kontent tarqatish, kiberstalking kabi amallar alohida jinoiy va ma’muriy tarkib sifatida belgilanishi zarur. Bu nafaqat huquqbuzarlikni aniq kvalifikatsiya qilishni ta’minlaydi, balki uning profilaktikasida ham samarali huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, “Shaxsiy doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi va “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlarga ham amaldagi raqamli tahdidlarga javob beradigan normalarni kiritish lozim. Jumladan, shaxsiy ma’lumotlarni ruxsatsiz yig‘ish va tarqatish holatlari uchun aniq sanksiyalar, kontent platformalari uchun majburiy monitoring mexanizmlari va jamoatchilik shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibi belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim va profilaktika sohasida esa, aholi, ayniqsa o‘smirlar va yoshlar o‘rtasida kiberadob va raqamli axloq qoidalarini shakllantirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Ichki ishlar, prokuratura va ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlikda profilaktik mexanizmlar, “kibermuhitda xulq-atvor madaniyati”ni shakllantirishga qaratilgan o‘quv seminarlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, kiberbezorilikni faqat individual muammo sifatida emas, balki jamiyat va davlat xavfsizligi uchun dolzarb tahdid sifatida baholab, unga nisbatan samarali va integral huquqiy yondashuvni ishlab chiqish — zamonaviy huquqiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. YUNISEF (2021). *Cyber Violence against Women and Girls: A World-Wide Wake-Up Call.* https://www.unicef.org/
2. UNESCO (2020). *Tackling Cyberbullying: Best Practices.* https://unesdoc.unesco.org
3. Sheridan, L., & Grant, T. (2005). Is cyberstalking different? Psychology, Crime & Law, 11(1), 61–69. DOI: 10.1080/10683160410001729664
4. Reyns, B. W. (2010). A situational crime prevention approach to cyberstalking victimization: Preventive tactics for Internet users and online place managers. Crime Prevention and Community Safety, 12(2), 99–118. DOI: 10.1057/cpcs.2010.2
5. Ngo, F. T., & Paternoster, R. (2011). Cybercrime victimization: An examination of individual and situational level factors. International Journal of Cyber Criminology, 5(1), 773–793.
6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi https://lex.uz/docs/111453
7. Shestakova YE.V. (2018). Kiberbulling kak fenomen informatsionnogo obshestva. Moskva: RUDN.
8. O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-547-son https://lex.uz/docs/4396419
9. Douglas, D. M. (2016). Doxing: A conceptual analysis. Ethics and Information Technology, 18(3), 199–210. https://doi.org/10.1007/s10676-016-9406-0

10. Citron, D. K. (2014). Hate Crimes in Cyberspace. Harvard University Press.
11. O‘zbekiston Respublikasining 12.12.2002 yildagi “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida” 439-II-son Qonuni https://lex.uz/docs/52268
12. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). Information Disorder: Toward an interdisciplinary framework for research and policy making. Council of Europe. https://rm.coe.int/information-disorder-report/1680764666
13. Marwick, A., & Lewis, R. (2017). Media Manipulation and Disinformation Online. Data & Society Research Institute. https://datasociety.net/pubs/oh/DataAndSociety_MediaManipulationAndDisinformationOnline.pdf
14. Citron, D.K. (2014). *Hate Crimes in Cyberspace.* Harvard University Press.
15. Wynn, N. (2020). Shame, Canceling and Justice in the Digital Age. YouTube public lecture.
16. Ng, E. (2020). No Grand Pronouncements Here… Just Little Gestures of Refusal: Cancel Culture and Digital Media Participation. Television & New Media, 21(6), 621–627. https://doi.org/10.1177/1527476420918828
17. European Union Agency for Fundamental Rights (2021). *Online harassment and cyberstalking in Europe.* https://fra.europa.eu
18. Kowalski, R. M., Giumetti, G. W., Schroeder, A. N., & Lattanner, M. R. (2014). *Bullying in the digital age: A critical review and meta-analysis of cyberbullying research among youth. Psychological Bulletin*, 140(4), 1073–1137.
19. O‘zbekiston Respublikasining 12.12.2002 yildagi “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida” 439-II-son Qonuni https://lex.uz/docs/52268

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL SUPPORT IN TRAINING SPORTS SPECIALISTS

Imomov Sirojiddin Ilxomovich
Acting Associate Professor of the Department of Sports Activities
Navoi State University
E-mail: imomov.sirojiddin@mail.ru

Abstract. This article discusses the socio-economic, scientific-technical, and psychological-pedagogical reasons for modernizing the development of professional-pedagogical competent support in the field of physical education and sports. It examines the psychological-pedagogical aspects of didactic support, analyzes contemporary issues related to the development of professional-pedagogical competent support, and provides suggestions and recommendations for its implementation in the educational process.

Keywords: specialist, methodology, physical education, sport, component, technology, provision, modernization, development, personality, didactics, tool, technique, opportunity, content, action, structure, approach.

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA’MINOTINING AHAMIYATI

Imomov Sirojiddin Ilxomovich
Sport faoliyati turlari kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchisi
Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta’minotini rivojlantirishni modernizatsiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va psixologik-pedagogik sabablari, didaktik ta’minotning psixologik — pedagogik jihatlari, kasbiy-pedagogik kompetentli ta’minotini rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy muammolarning tahlili, kasbiy-pedagogik kompetentli ta’minotini rivojlantirishni o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mutaxassis, texnika, jismoniy tarbiya, sport, komponent, texnologiya, ta’minot, modernizatsiya, rivojlantirish, shaxs, didaktika, vosita, texnika, imkoniyat, mazmun, harakat, tuzilma, yondashuv.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N39

Kirish. Jahonda sodir bo‘layotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy o‘zgarishlar jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Xususan, zamonaviy sharoitda kasbiy-pedagogik kompetentlik yondashuvi asosida mutaxassislarni tayyorlash tizimini isloh qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bu sport sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy ta’lim usullarini qo‘llash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayoni nafaqat jismoniy mashqlar va texnik bilimlarni o‘rgatish, balki ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini ham shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Kasbiy-pedagogik ta’minot sport murabbiylari, o‘qituvchilari va sport menejerlarini tayyorlashda asosiy omillardan biri bo‘lib, ularning nazariy bilimlari, metodik ko‘nikmalari va amaliy tajribalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Xususan, zamonaviy sharoitda kasbiy-pedagogik kompetentlik yondashuvi asosida mutaxassislarni tayyorlash tizimini isloh qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlash jarayoni, uning didaktik ta’minotini amaliy-faol va madaniyatlilik yo‘nalishida kasbiy-pedagogik ta’minotni modernizatsiyalash asosida amalga oshirilmoqda. Bu yondashuv sport sohasidagi mutaxassislarning nafaqat jismoniy va texnik, balki pedagogik va psixologik tayyorgarligini ham rivojlantirishga qaratilgan.

Bu jarayon sport sohasidagi mutaxassislarning nafaqat jismoniy va texnik, balki pedagogik va psixologik tayyorgarligini ham rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Ta’lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarning huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik va moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlashga ehtiyoj sezildi. Davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari tatbiq etila boshlandi. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbiy-pedagogik kompetensiyani rivojlantirish ehtiyoji tobora ortib bormoqda.

Kasbiy-pedagogik ta’minot – bu sport sohasi mutaxassislarini o‘qitish jarayonida nazariy bilimlar, metodik yondashuvlar va amaliy mashg‘ulotlar yordamida ularning kasbiy kompetensiyasini oshirish tizimidir. Bugungi globallashuv sharoitida bu ta’minotni kompetentlik yondashuvi asosida tashkil etish zarurati kuchaymoqda.

Dunyoning yetakchi davlatlarida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashning zamonaviy modellari ishlab chiqilib, unda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratilmoqda:

Amaliy-faol yondashuv – sport mutaxassislarini tayyorlashda amaliy mashg‘ulotlar va innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash;

Madaniyatlilik tamoyili – sport pedagogikasida milliy va xalqaro madaniyatni hisobga olgan holda, universal yondashuvlar asosida ta’lim berish;

Ilmiy innovatsiyalarni tatbiq etish – sport psixologiyasi, biotexnologiya va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish.

Dunyo miqyosida rivojlanayotgan jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida kasbiy-pedagogik ta’minotning ahamiyati ortib bormoqda.

Bu jarayonning quyidagi jihatlari mavjud:

- murabbiylar va o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish – yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish;

- ilmiy yondashuv va innovatsiyalarni joriy etish – global texnologik o‘zgarishlar bilan hamnafas metodlarni ishlab chiqish va sport mashg‘ulotlarini modernizatsiya qilish;

- xalqaro tajribadan foydalanish – AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlardagi ilg‘or tajribalarni sport ta’lim tizimiga tatbiq etish;

- murabbiylarning muloqot va pedagogik mahoratini rivojlantirish – sportchilar bilan individual ishlash, ularning jismoniy va psixologik rivojlanishiga yordam berish.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlarning tezlashishi sport sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayoni kasbiy-pedagogik ta’minotni modernizatsiyalash, amaliy-faol va madaniy tamoyillarga asoslanib amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston ham xalqaro tajribadan kelib chiqib, sport sohasida innovatsion ta’lim metodlarini joriy etishi zarur. Shu sababli, jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash tizimida kasbiy-pedagogik ta’minotni takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahon va mamlakatimiz amaliyotining jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy-pedagogik kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy muammolarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, fan va ishlab chiqarishning zamon talablariga mos keladigan yangi ta’lim konsepsiyasi talabalarda shaxsiy-kasbiy, ijodiy imkoniyatlarni va integrativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Mavjud "bilimli" konsepsiyaga asoslangan an’anaviy didaktik ta’minot esa bu jihatlarni talabalarda rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishda yetarli emas. Ushbu sharoitda kompetentlik ta’lim konsepsiyasiga asoslangan didaktik ta’minotini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Ushbu dolzarblik quyidagi maqsadlarni belgilashni taqozo etadi, ya’ni:

- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta’minotini rivojlantirishning didaktik ta’minot tizimini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni;

- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta’minotini rivojlantirishga ta’sir etuvchi didaktik ta’minotning asosiy parametrlarini belgilashni.

Oldinga qo‘yilgan maqsadlar quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozimligini taqozo etadi, bular:

- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta’minotini rivojlantirishning didaktik ta’minotiga qo‘yiladigan asosiy talablarni aniqlash;

- zamon talablariga mos bo‘lgan bakalavr bitiruvchisining shaxs modelini rivojlantirish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta’minotini rivojlantirish, didaktik ta’minotini modernizatsiyalash;

- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta’minotini rivojlantirilganligining pedagogik-diagnostikasini takomillashtirish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta’minotini rivojlantirishning didaktik ta’minotini o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oliy ta’limni boshqarish sifatiga va didaktikasiga doir muammolarni hamda kompetentli yondashuvni oliy maktabda shakllanishi va

rivojlanishiga qaratilgan tadqiqotlar V.Baydenko[1;], A.Verbitskiy[2;], R.Djurayev[3;] va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli hamda didaktik ta’minotning psixologik — pedagogik jihatlari, jumladan, mutaxassis modelini umummetodologik yondashuvlar asosida ishlab chiqish va shaxsni ijodiy rivojlantirish kabi muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar R.Sunnatova[4;], V.Shadrikov[5;], N.Egamberdiyeva[6;] va boshqa pedagog olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimi chuqur o‘rganilganda, uning kasbiy-pedagogik ta’minotini rivojlantirishga yo‘naltirilgan asosiy tamoyillar aniqlandi. Ushbu tizimni kompetentlik yondashuvi asosida baholash quyidagi didaktik jihatlarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi:

- o‘qitish jarayoni va uning mazmuni talabalar orasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

- pedagogik texnologiyalar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi;

- o‘quv dasturlari moslashuvchan bo‘lib, ta’lim jarayonida kasbiy ko‘nikma va malakalarning bosqichma-bosqich rivojlanishiga imkoniyat yaratishi;

- kompetentlik darajasini baholash uchun aniq miqdoriy mezonlarning qo‘llanilishi;

- ta’lim jarayoni individual yondashuv asosida tashkil qilinishi;

- ta’lim, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyaning yuqori darajada bo‘lishi.

Tahlil va natijalar. Jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbiy-pedagogik ta’minot quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Normativ-huquqiy asos – davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlar, litsenziyalash va attestatsiya tizimi.

Ilmiy-metodik ta’minot – ilg‘or pedagogik texnologiyalar, innovatsion o‘quv-uslubiy materiallar va zamonaviy trening usullari.

Moddiy-texnik baza – sport inshootlari, laboratoriyalar, trening zallari va multimediya vositalari.

Pedagogik va kasbiy kompetensiyalar – o‘qituvchilarning malakasi, zamonaviy metodlarni qo‘llash qobiliyati va ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar.

Integratsiya va hamkorlik – ta’lim, ilm-fan va amaliyotning uzviy bog‘liqligi, xorijiy tajribalarni o‘rganish va qo‘llash, ishlab chiqarish va sport tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

Kasbiy-pedagogik ta’minotning rivojlanishi natijasida ta’lim sifati oshib, jismoniy tarbiya va sport sohasida raqobatbardosh mutaxassislar yetishtirish imkoniyati kengayadi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishni modernizatsiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va psixologik-pedagogik sabablari quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy-iqtisodiy sabablar:

- Globallashuv va internatsionalizatsiya — zamonaviy dunyoda ta’lim jarayonlari globallashib, turli mamlakatlar o‘rtasida integratsiya kuchaymoqda. Bu esa pedagoglarning xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlanishini talab etadi.

- Bozor iqtisodiyoti talablari — mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish uchun ta’lim tizimi doimiy ravishda yangilanib, kasbiy kompetentlikni oshirishga yo‘naltirilishi lozim.

Ilmiy-texnik sabablar:

- Texnologik taraqqiyot — axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etishni taqozo etadi. Bu esa pedagoglarning texnologik kompetentligini oshirishni talab qiladi.

- Innovatsion yondashuvlar – ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar va metodikalar paydo bo‘lishi bilan, ularni amaliyotga tatbiq etish uchun pedagoglarning ilmiy salohiyati va yangiliklarni qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik-pedagogik sabablar:

- Ta’lim sifatini oshirish ehtiyoji – o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagoglarning psixologik-pedagogik bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borish zarur.

- Pedagogik kreativlikni rivojlantirish – ta’lim jarayonida ijodiy yondashuvlarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va samaradorlikni ta’minlash uchun pedagoglarning kreativlik salohiyatini oshirish muhimdir.

Zamonaviy jamiyatda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Buning sababi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o‘zgarishlar natijasida sport ta’limi tizimida kompetentli kadrlarni tayyorlash zaruratining kuchayishidir. An’anaviy “bilimli” ta’lim konsepsiyasiga asoslangan didaktik ta’minot esa ushbu ehtiyojga to‘liq javob bera olmaydi. Shu sababli, sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlash jarayonida kasbiy-pedagogik ta’minotni modernizatsiya qilish dolzarb masalaga aylandi.

Kasbiy-pedagogik ta’minotning ahamiyati shundaki, u ta’lim jarayonining maqsad, mazmun, metod va texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, natijada talabalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarga ham ega bo‘ladilar. Shuningdek, zamonaviy baholash tizimlari joriy etilishi sport pedagogikasida natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Mavjud an’anaviy didaktik ta’minotni tizimli tahlil qilish natijasida, sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlash jarayonida talabalarda kompetentlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi muhim omillar aniqlangan. Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim modeli zamonaviy talab va ehtiyojlarga to‘liq javob bera olmaydi.

Birinchidan, “maqsadli parametrlar” bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy didaktik ta’minot ko‘proq nazariy bilimlarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, amaliy kompetensiyalarni shakllantirish ikkinchi darajali bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda esa, sport sohasi mutaxassislaridan nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etilmoqda.

Ikkinchidan, “mazmunli parametrlar” jihatidan olib qaraganda, mavjud ta’lim dasturlari va metodikalari ko‘pincha zamonaviy ilmiy-texnikaviy yutuqlarni va innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘z ichiga olmagan. Bu esa talabalar bilimining amaliyot bilan integratsiyalashuvini sekinlashtiradi.

Uchinchidan, “tuzilmaviy parametrlar” bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy didaktik ta’minotda interaktiv ta’lim metodlari, zamonaviy texnologiyalar va individual

yondashuv yetarlicha qo‘llanilmaydi. Natijada, talabalar mustaqil va tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish kabi kasbiy kompetensiyalarni yetarlicha rivojlantira olmaydilar.

Shunday qilib, an’anaviy didaktik ta’minotni modernizatsiya qilish, uni sport mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga moslashtirish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu jarayonda ta’lim maqsadlarini qayta ko‘rib chiqish, mazmunni zamonaviy talablar asosida boyitish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda kasbiy-pedagogik ta’minotning ahamiyati beqiyos bo‘lib, bu jarayon malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi mutaxassislarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda sport ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlash va jismoniy tarbiya pedagogikasini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, sport mutaxassislarini tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish, individual yondashuvlarni joriy etish hamda psixologik-pedagogik jihatdan tayyorgarlik darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Jismoniy madaniyatni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish sport pedagogikasining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Shu tarzda, sport sohasi mutaxassislarini tayyorlashda kasbiy-pedagogik ta’minotni takomillashtirish nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, balki jamiyatda sport va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga, yoshlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar qo‘llanilgan bo‘lsa-da, mavjud tizim hali ham an’anaviy "bilimli" yondashuvga asoslanib, ushbu yondashuv quyidagi didaktik xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

- bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga yo‘naltirilgan holda, tayyor bilimlar tizimini o‘zlashtirish tamoyili ustunlik qiladi;

- o‘quv dasturlari asosan reproduktiv mazmunga ega bo‘lib, talabalar mustaqil tahlil qilish va innovatsion fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlariga cheklangan;

- o‘qitish jarayoni fanlarga markazlashgan tarzda tashkil etilib, ekstensiv pedagogik texnologiyalar ustunlik qilmoqda;

- kasbiy tayyorgarlik darajasi asosan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar orqali baholanadi.

Bunday yondashuvni rivojlantirish uchun interfaol va innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng qo‘llash, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarni real sharoitlarda baholash tizimini yaxshilash zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государст-венных образовательных стандартов высшего профессионального образования (методологические и методические вопросы).-М.: 2005. -114 С.
2. Вербицкий А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения.- М.: Изд. ИЦПКПС, 2004. - 84 С.
3. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. –T.: Voris-Nashriyot, 2012.-167 b.

4. Суннатова Р.И. Индивидуальнотипологические особенности мыслитель-ной деятельности. Автореф. дис. … док.псих.наук. -Т., 2001.-41 С.
5. Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход // Высшее образование сегодня. -М., 2004. -№ 8. -С. 26-31.
6. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida): Dis. ... ped. fan. d-ri. – T., 2010. -332 b.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

RECONSTRUCTIVE ANALYSIS OF WORKS BY ARTISTS WHO WORKED IN THE STILL LIFE GENRE

Khayrova Madina Rasimovna
Gulistan State Pedagogical Institute
1st-year Master's Student in Fine Arts

Abstract. This article is dedicated to analyzing the role of the still life genre in visual art and exploring its aesthetic and artistic potential. It examines the works of artists who have contributed to this genre through a reconstructive analysis approach. This method allows for a comprehensive study of artworks not only in terms of their external form and subject matter but also by considering the historical context of their creation, the spirit of the era, the individual artistic style of the painter, and the embedded aesthetic concept. The article provides a scholarly and theoretical evaluation of still life works by Western artists such as Pieter Claesz, Jean-Baptiste-Siméon Chardin, Frans Snyders, Igor Grabar, Pavel Kuznetsov, and Pyotr Konchalovsky. At the same time, it analyzes the works of prominent Uzbek artists - including Chingiz Akhmarov, Rauf Tulyaganov, Akmal Nur, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, and Bobur Ismoilov - who have contributed significantly to the still life genre. Their works are explored for the interplay of national identity, aesthetic reflection, color harmony, and elements of modernity.

Keywords: esthetic thinking, professional competence, national identity, still life, modernity, pedagogical approach.

NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI

Khayrova Madina Rasimovna
Guliston davlat pedagogika instituti
Tasviriy san’at 1-bosqich magistranti
E-mail: madinaxayrova050@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola natyurmort janrining tasviriy san’atdagi o‘rni va uning estetik-badiiy imkoniyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, rassomlarning ushbu yo‘nalishda yaratgan asarlari rekonstruktiv tahlil asosida o‘rganiladi. Rekonstruktiv tahlil metodikasi orqali san’at asarlari faqat tashqi shakli va mavzusi bilan emas, balki ularning yaratilish sharoiti, davr ruhiyati, individual rassomlik uslubi va estetik g‘oyasi bilan birgalikda chuqur tahlil qilinadi. Maqolada G‘arb san’ati vakillari — Piter Klays, Jan Batist Sharden, Frants Snyders, Igor Grabar, Pavel Kuznetsov, Pyotr Konchalovskiy kabi rassomlar natyurmortlariga ilmiy-nazariy baho berilishi bilan birga, o‘zbek tasviriy san’ati vakillari — Chingiz Ahmarov, Rauf Tulyaganov, Akmal Nur, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Bobur Ismoilov kabi san’atkorlarning natyurmort janridagi asarlari ham tahlil qilinadi. Ularning asarlarida milliylik, estetik mushohada, ranglar uyg‘unligi va zamonaviylik unsurlarining o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: estetik tafakkur, kasbiy kompetensiya, milliylik, natyurmort, zamonaviylik, pedagogik yondashuv.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N40

KIRISH

Hozirgi zamon tasviriy san’at ta’limida natyurmort janri o‘quvchilarning badiiy didini shakllantirish, kompozitsion tafakkurini rivojlantirish, ranglar uyg‘unligini anglash va realistik tasvirlash malakasini mustahkamlashda muhim vositalardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolada aynan shu janrning tarixiy-estetik o‘rni va pedagogik ahamiyati chuqur ilmiy tahlil etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi - turli davrlarda va maktablarda natyurmort janrida ishlagan rassomlar asarlarini rekonstruktiv yondashuv asosida tahlil qilish, ya’ni ularni faqat tashqi ko‘rinish yoki mazmun bilan emas, balki ularning yaratilgan davri, ijtimoiy-madaniy konteksti, individual uslubiyati va estetik qarashlari bilan birga o‘rganishdir. Rassomdan imkon qadar aniq, minimal vositalardan foydalangan holda tasvirni, haqiqiy modeldagi taassurotni yetkazish talab etiladi. Klassik modellashtirishga murojaat qilmasdan, obyektning hajmini, materialini, teksturasini ko‘rsatish kerak. Predmetning shaklini tahlil qilingan holda, obyektni real tasvirdan rang tekisligiga o‘tkazadigan sivilizatsiyalashgan modellashtirish va tanlash kerak bo‘ladi [1, 104-b.]. Bunday tahlil natyurmort asarlarini oddiy predmetlar to‘plamidan iborat tasvir deb emas, balki zamon ruhi, rassom shaxsiyati va badiiy tafakkurning bir butun ifodasi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Insonning atrofini o‘rab turgan real maishiy, joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi. Shuningdek, bu janrda yaratilgan rassomlik asari ham natyurmort deb ataladi. Asosan, dastgohli rassomlik (rangtasvir va grafika)da, qisman haykaltaroshlik (asosan, relyef)da ishlanadi. Natyurmortda “jonsiz buyumlar” (Masalan, uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurol-aslahalar va boshqalar)dan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari (stoldagi baliq, vazadagi gul va boshqalar) ham tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to‘ldirish uchun ba’zan natyurmortga odamlar, hayvonlar, qushlarni ham kiritish mumkin. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan natyurmortda namoyon bo‘ladi.[2, 26-b.]. Maqolada G‘arb san’atining mashhur vakillari - Piter Klays, Jan Batist Sharden, Frants Snyders, Igor Grabar, Pavel Kuznetsov, Pyotr Konchalovskiy kabi rassomlarning natyurmort asarlari tahlil qilinadi. Ularning har biri ushbu janrga o‘ziga xos yondashuv olib kirgan: Sharden oddiy maishiy predmetlarni go‘zallik timsoliga aylantirgan bo‘lsa, Snyders ulkan ovqat sahnalarini hayotiy detallar bilan boyitgan, Grabar va Kuznetsov esa rus realizmi va postimpressionizm yo‘nalishlarida ish olib borgan. Shu bilan birga, maqolada o‘zbek tasviriy san’ati vakillari - Chingiz Ahmarov, Rauf Tulyaganov, Akmal Nur, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Bobur Ismoilov kabi rassomlarning natyurmort janrida yaratgan asarlari ham tahlil qilinadi. Bu rassomlar milliylik, madaniy qadriyatlar, ranglar uyg‘unligi va zamonaviy san’at uslublarini sintez qilish orqali o‘zbek natyurmort san’atini rivojlantirdilar. Ularning asarlarida xalq hunarmandchiligi, an’anaviy hayot tarzi, estetik mushohada va falsafiy ramzlar o‘z ifodasini topgan. Natyurmort san’atini bu tarzda rekonstruktiv tahlil qilish, ayniqsa, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bu ularning nafaqat kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi, balki o‘quvchilarga san’atni anglash va estetik fikrlash malakalarini singdirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, maqolada taqdim etilgan tahlillar natyurmort janrining chuqur badiiy va tarbiyaviy salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu janr orqali san’atshunoslik bilimlari, ranglar bilan ishlash madaniyati, kompozitsion fikrlash va milliy qadriyatlarga asoslangan estetik dunyoqarash shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda natyurmort janrida ijod qilgan G‘arb va o‘zbek rassomlarining asarlari rekonstruktiv, san’atshunoslik, pedagogik va empirik yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilindi. Har bir metod o‘ziga xos izlanish tamoyillariga asoslangan bo‘lib, quyidagicha amaliy misollar bilan boyitilgan:

1. Rekonstruktiv tahlil metodi: Mazkur metod orqali rassomning ijodi va asar yaratilgan davr konteksti o‘zaro bog‘liq holda o‘rganildi. Misol: Jan Batist Shardenning “Kichik nonushta” (1739) asari XVII-XVIII asr Fransiya jamiyatidagi o‘rta qatlamning hayot tarzi, ularning badiiy-estetik qadriyatlari asosida rekonstruksiya qilindi. Asardagi oddiy predmetlar orqali davrning oddiylikka qaytish g‘oyasi va “g‘amxo‘rlik estetikasini” ko‘rsatish maqsadi yoritildi.

2. San’atshunoslik tahlil metodi: Asarlarning shakl, rang, yorug‘lik va kompozitsion qurilishi texnik jihatdan tahlil qilindi. Misol: Bahodir Jalolovning “Yozgi mevalar” nomli natyurmorti rang-barang mevalar orqali o‘zbek milliyligining yorqinligini ko‘rsatadi. Ushbu asarda yorug‘lik manbasining tabiiylik bilan uyg‘unligi, mevalarning fakturasini aniqlik bilan aks ettiruvchi yozma uslub tahlil qilindi.

3. Komparativ (taqqosiy) metod: G‘arbiy va o‘zbek san’atkorlarining asarlari o‘zaro solishtirildi. Misol: Piter Klaysning barokko uslubidagi “Soat va tasbehli natyurmorti” bilan Rauf Tulyaganovning “Qadim buyumlar bilan natyurmorti” taqqoslandi. Ikkala rassomda ham vaqt, xotira va hayotiylik ramziy obrazlar orqali aks ettirilgan bo‘lib, biri yevropacha dramatik nuqtai nazardan, ikkinchisi esa milliy xotira va qadriyatlar timsoli sifatida talqin qilindi.

4. Tafsilotli vizual tahlil metodi: Asardagi har bir detal, uning joylashuvi va ramziy ifodasi o‘rganildi. Misol: Chingiz Ahmarovning natyurmortidagi sopol idish, ipak mato, non va mevalar — o‘zbek madaniyati, mehmondo‘stlik va hayot falsafasining badiiy ifodasidir. Bu elementlar oddiy predmet bo‘lib ko‘rinsa-da, milliy identitetni vizual kodlar orqali ifodalaydi.

5. Pedagogik-analitik yondashuv: Asarlarning ta’limiy ahamiyati va didaktik imkoniyatlari aniqlanib, pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi. Misol: Akmal Nurning rangtasvirdagi natyurmortlari san’at darslarida talabalarga hayotiy kuzatuvchanlikni, predmet fakturasini tasvirlashda noziklikni o‘rgatish uchun o‘quv materiali sifatida foydalanildi. Talabalar ushbu asarlar orqali ranglar uyg‘unligi va kompozitsion markazni belgilash ko‘nikmasini shakllantirdilar.

6. Ilmiy-empirik kuzatuv va tahlil:

San’at muzeylari, kataloglar va raqamli arxivlar orqali amaliy kuzatuvlar o‘tkazildi. Misol: Toshkent San’at muzeyi va O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi fondidagi o‘zbek rassomlarining natyurmort asarlari tahlil qilinib, ularning katalog tavsiflari bilan solishtirildi, asarlar yaratilgan yillar, texnika va materiallar haqidagi ma’lumotlar umumlashtirildi. Bu metodlar asosida amalga oshirilgan tahlil natyurmort janrining nafaqat badiiy, balki pedagogik, estetik va ma’naviy tarbiyaviy salohiyatini ochib beradi. Bu yondashuv bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

NATIJALAR

Mazkur ilmiy maqola doirasida amalga oshirilgan tahliliy, nazariy va empirik tadqiqotlar asosida natyurmort janrida ishlagan rassomlar asarlarini rekonstruktiv yondashuv asosida o‘rganish quyidagi muhim ilmiy-nazariy va amaliy natijalarni yuzaga chiqardi: Natyurmort janrining tasviriy san’atdagi mustaqil badiiy ifoda vositasi sifatidagi o‘rni mustahkamlandi. O‘rganilgan san’at asarlari asosida natyurmort nafaqat kompozitsion mashq yoki texnik ko‘nikmalarni mustahkamlash vositasi, balki rassomning estetik qarashlari, dunyoqarashi va ichki kechinmalarini vizual ifodalash imkonini beruvchi yuksak badiiy shakl ekani isbotlandi. Rekonstruktiv tahlil metodining natyurmort asarlarini tahlil qilishdagi samaradorligi tasdiqlandi. Rangtasvir san’atining tengsiz ustasi - fransiyalik rassom Jan Batist Simeon Shardenning «San’at atributlari» asarini kuzatganimizda, unda oddiy buyumlarning yuksak

badiiy tasviri aks etganligining guvohi bo‘lamiz. N. Kashina, Z. Kovalevskaya, Yu. Yelizarov , R. Ahmedov, G‘.Abdurahmonov, N. Ten, A. Yunusov, A. Mirzayev, A. Ikromjonov kabi ko‘plab natyurmort janrining ustalari va umidli yosh rassomlar tabiat yaratgan noz-ne’matlarga bo‘lgan mehrlarini o‘z asarlarida ifodalaganlar. Natyurmort tasviriy san’ atning alohida janri hisoblanadi. Natyurm ortda shakli, mazmuniga qarab har bir buyumning tutgan o‘rnini yoritib berish lozim. Tasvirlanayotgan buyumlarning shakli, rangi, tuzilishi, fazoviy holati jihatdan bir-biridan farq qilishiga alohida ahamiyat berish kerak. [3, 24-b.]. Mazkur metod yordamida rassomning asari san’atshunoslik tahlili bilan birga, madaniy-falsafiy, tarixiy va psixologik qatlamlar bilan boyitilgan holda o‘rganildi. Bu esa asarning chuqur ma’nosini ochish, uni kontekstual talqin qilish imkonini berdi. Masalan, Pyotr Konchalovskiyning “Oq xalatli natyurmorti” orqali XX asr boshidagi rus jamiyatidagi zamonaviylik va uy muhitining uyg‘unligi ifodalangan. O‘zbek rassomlarining natyurmortga yondashuvida milliy qadriyatlar, hayotiylik va ramziylik kuchli ifodalangani aniqlandi. Chingiz Ahmarov, Javlon Umarbekov, Akmal Nur kabi rassomlarning asarlarida qadimiy buyumlar, non, choynak, meva va matolar tasvirlanib, o‘zbek xalqining kundalik hayotidagi go‘zallik va ramzlar badiiy ifoda topgan. Bu esa milliy identitetni vizual ifodalashning samarali usuli sifatida e’tirof etildi. Talabalar bilan olib borilgan kuzatuv va tajriba ishlari natyurmort asarlarini tahlil qilish orqali ularning badiiy-estetik tafakkuri va ijodiy yondashuvi rivojlanishini ko‘rsatdi. Amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etgan talabalar rassom asarini faqat nusxa ko‘chirish emas, balki uni tahlil qilish, mazmun va ramziy qatlamlarini tushunishga intilishdi. Bu esa talabalarda kuzatuvchanlik, fikr bildirish, badiiy tafsir qilish va mustaqil ijod qilish qobiliyatini rivojlantirdi. San’at asaridagi predmet tanlovi orqali ijtimoiy-estetik g‘oyalar ochib berilishi mumkinligi isbotlandi. G‘arbiy rassomlar - Sharden, Kalf, Grabar asarlarida kitob, musiqiy asbob, o‘lchov moslamalari kabi predmetlar orqali ilm-fan, ma’rifat va madaniyat qadriyatlari targ‘ib qilingan bo‘lsa, o‘zbek rassomlari asarlarida milliy urf-odatlar, mehmondo‘stlik, tabiat bilan uyg‘unlik ramziy tarzda berilgan. [4, 82-b.] Milliy san’at asarlarini rekonstruktiv tahlil qilish orqali didaktik material sifatida foydalanish bo‘yicha metodik asoslar ishlab chiqildi. Rassomlik ta’limida natyurmortni o‘rganish uchun vizual tahlil kartochkalari, savol-javobli metodikalar, ramzlarni aniqlash mashqlari, milliy qadriyatlar asosida mavzu tanlash kabi amaliy usullar ishlab chiqildi. Bu orqali talabalarning tanqidiy fikrlash va badiiy tafsirga tayangan yondashuvlari shakllandi.

Maqola mazmunida o‘zbek san’at maktabining natyurmortda o‘ziga xos estetik tamoyillari shakllangani dalillandi. Bu maktabda asosan oddiy, ammo chuqur ma’no yuklaydigan predmetlar orqali badiiy mushohada, rang va ritm orqali his-tuyg‘ularning nozik ifodasi, rang tanlashda esa milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi ustuvorlik qilmoqda. Bu esa o‘zbek natyurmort san’atining mustaqil uslubiy maktab sifatida qaralishini ta’minlaydi. Natyurmort janri orqali xalqning madaniy xotirasi va tarixiy ongini san’at vositasida uzluksiz ifodalab borish imkoniyati asoslandi. Har bir asarda o‘z zamonasi, hayot falsafasi va jamiyat ko‘rinadi. Demakki, natyurmort oddiy ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, u tarixiy hujjat sifatida ham qaralishi mumkin. Bu esa san’atshunoslikni tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya fanlari bilan integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natyurmort janrining tasviriy san’atdagi estetik, pedagogik va madaniy-falsafiy ahamiyatini keng yoritishga xizmat qildi. Rekonstruktiv tahlil yondashuvi orqali rassomlar ijodi faqat tasviriy vositalar darajasida emas, balki ularning ichki mazmuni, tarixiy konteksti va estetik g‘oyalari nuqtai nazaridan keng muhokama qilindi. Avvalo, natyurmortning vizual tafakkurni rivojlantiruvchi vosita sifatidagi o‘rni tasdiqlandi. Bu janr o‘quvchi va tomoshabinni realistik tasvirlar orqali hayotiy tafsilotlarga chuqur e’tibor bilan qarashga, shakl va predmetlar ortidagi ramziy ma’nolarni ilg‘ashga undaydi. Ayniqsa, rekonstruktiv yondashuv orqali asardagi har bir detal mustaqil semantik yukka ega ekani aniqlandi. Tadqiqot davomida shuni ko‘rish mumkinki, G‘arb rassomlari natyurmort orqali diniy, ma’rifiy va ekzistensial g‘oyalarni ifodalashga moyil bo‘lgan, bu esa ularning asarlarida dramatizm va falsafiy chuqurlikni yuzaga keltirgan. Masalan, Sharden va Snyders asarlarida hayotning foniyligi, vaqtning o‘tkinchiligi, insoniy mehnat va mehnatkashlik madh etilgan. Bu jihatlar kompozitsiyadagi predmetlar tanlovi, yorug‘lik-soya bilan ishlash texnikasi va ranglar uyg‘unligi orqali ochib berilgan. O‘zbek rassomlarining natyurmortga yondashuvida esa estetik mushohada, milliy qadriyatlar va hayotiy realiyalarning ifodasi ustuvor bo‘lmoqda. Misol uchun, Chingiz Ahmarov yoki Rauf Tulyaganov asarlarida xalq amaliy san’ati unsurlarini - sopol idishlar, kashta, choynak, matolar kabi elementlarni tasvirlash orqali san’atda milliylikni aks ettirishga intilish ko‘zga tashlanadi. Bu jihatlar orqali natyurmort xalq hayotining vizual hujjatiga, madaniy xotira manbaiga aylanadi. Muhokama jarayonida aniqlanganki, natyurmort janri talabalarning estetik tafakkuri va badiiy idrokini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. [5, 56-b.] Rassomlar asarlarini tahlil qilish orqali talabalar badiiy asarni chuqur o‘rganish, ramziy qatlamlarni talqin qilish, individual fikr bildirish, milliy san’at maktablariga nisbatan estetik munosabat shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, natyurmort san’atini rekonstruktiv yondashuv asosida tahlil qilish uni faqat go‘zallikni ifodalovchi janr emas, balki axborot, ma’no va estetik qadriyatlarni yetkazuvchi vosita sifatida ko‘rishga yo‘l ochadi. Har bir predmet - u non bo‘ladimi, qadim idishmi, meva yoki kitob bo‘ladimi - rassom uchun bir vosita, tomoshabin uchun esa ko‘p qavatli ma’no tashuvchiga aylanadi. Shu bois, san’atshunoslikda bu yondashuvni chuqurlashtirish muhim ilmiy vazifa sifatida qaralmoqda. Shuningdek, muhokama davomida o‘quv jarayoniga oid ayrim kamchiliklar ham aniqlangan. [6, 38-b.] Jumladan, ba’zi o‘quv dasturlarida natyurmort janrining o‘rganilishi yuzaki, faqat nusxa ko‘chirish darajasida olib borilayotgani aniqlangan. Bu esa talabalarda asar mazmuniga kirib borish, tahliliy yondashuvni shakllantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, metodik tavsiyalarda rekonstruktiv, estetik va tafsiriy yondashuv asosida ishlab chiqilgan tahlil mashqlarini joriy qilish taklif etildi. Xulosa qilib aytganda, natyurmort janri faqat estetik zavq bag‘ishlovchi emas, balki tarixiy tafakkur, madaniy xotira, milliylik, pedagogik kompetentsiya va estetik mushohada shakllantirish vositasi ekanligi ilmiy asosda isbotlandi. Bu esa ushbu janrni tasviriy san’at ta’limida chuqur va zamonaviy yondashuv asosida o‘rganish zarurligini taqozo etadi.

XULOSA

Ushbu maqolada natyurmort janrining tasviriy san’atdagi badiiy, estetik va pedagogik imkoniyatlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida g‘arbiy va o‘zbek san’atkorlarining natyurmort asarlari rekonstruktiv yondashuv asosida o‘rganilib, ularning mazmuniy

qatlamlari, kompozitsion xususiyatlari va estetik niyatlari chuqur tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlar natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi: Natyurmort - mustaqil badiiy janr sifatida san'atda chuqur estetik va ramziy ma'no yuklaydigan shakldir. U nafaqat predmetlarning real tasviri, balki rassom dunyoqarashining, davr ruhining va falsafiy-estetik g'oyalarning ifodasidir. Shu bois, bu janrni o'rganish san'atshunoslik va pedagogik nuqtai nazardan nihoyatda dolzarbdir. Rekonstruktiv tahlil metodi natyurmort asarlarini kontekstual, tarixiy va shaxsiy ijodiy yondashuv asosida anglash imkonini beradi. Bu uslub yordamida rassomning asari uning biografiyasi, davr realiyalari, madaniy qadriyatlari va estetik qarashlari bilan bog'lanib talqin qilindi. Bu esa tasviriy san'at tahliliga ko'p qavatli yondashuvni ta'minladi. O'zbek rassomlari ijodida natyurmort janri milliy estetik tafakkurning ifodasi sifatida shakllangani isbotlandi. Chingiz Ahmarov, Rauf Tulyaganov, Akmal Nur, Javlon Umarbekov va boshqa san'atkorlarning asarlarida o'zbek xalqining hayoti, urf-odatlari, madaniy qadriyatlari badiiy obrazlar vositasida aks ettirilgani, ularning ranglar, shakllar va materiallar orqali vizual talqini ochib berildi. Natyurmort janri ta'limda estetik tarbiya va badiiy tafakkurni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi. Talabalar bilan olib borilgan amaliy mashg'ulotlar, tahliliy suhbatlar va kuzatuvlar natyurmort asarlarini rekonstruktiv tahlil qilish orqali ularning estetik didi, badiiy tafakkuri va ijodiy mushohada qilish ko'nikmalari rivojlanganini ko'rsatdi. San'at asaridagi predmetlar tanlovi orqali jamiyatdagi g'oyaviy, axloqiy va estetik qadriyatlar aks ettiriladi. G'arb rassomlarida vaqt va ma'rifat, inson va fan, hayot va o'lim kabi g'oyalar ustuvor bo'lsa, o'zbek rassomlarida milliy urf-odatlar, hayotiy quvonch, madaniy meros ramziy elementlar sifatida berilgan. Natyurmortning zamonaviy ta'limdagi o'rni faqat tasviriy ko'nikmalar emas, balki tafakkur, kuzatuvchanlik, madaniy ong va milliy identitetni shakllantirish bilan bog'liqdir. Bu esa mazkur janrni tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlov dasturlarida chuqur o'rganilishini, zamonaviy metodika asosida yondashilishini talab etadi. Tadqiqot natijalari tasviriy san'at ta'limida natyurmort janrini o'rganishga innovatsion va chuqur didaktik yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Rekonstruktiv, estetik, tafsiriy va taqqosiy metodlar asosida ishlab chiqilgan mashg'ulot shakllari orqali talabalar san'at asariga chuqur kirib borish, mustaqil fikr yuritish va badiiy mulohaza qilish malakasini egallaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xayrov R.Z. "Dekorativ Rangtasvir",T.:"Ilm Ziyo Zakovat",2022. -171 b.
2. Jumaboyev N. "Rangtasvir",T.:"Ilm Ziyo Zakovat",2023. -104 b.
3. Abdirasilov S. Boymetov B. N.Tolipov "Tasviriy san'at", T.:" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi",2006. -197 b.
4. Maxmudov B., Xasanova F. Rangtasvir va chizmatasvirda badiiy yechim. Qo'llanma. - Toshkent: Nodirabegim, 2019. - 120 b.
5. Nurmatov E. "Rangtasvir".-T.:"Info Capital Group", 2018.-141-b.
6. Mamatova A-X. "Rangtasvir va Chizmatasvir fanlaridan o'quv-uslubiy ko'rsatmalar".-T.:"Fan va texnologiya", 2017.-52-b.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

STAGES OF SPEECH DEVELOPMENT IN EARLY CHILDHOOD

Mirkasimova Zilola Alisherovna
English Language Instructor
State Preschool Educational Institution No. 330
E-mail: zilolaxakimova0083@gmail.com

Abstract. This article provides a step-by-step analysis of the stages of speech development in preschool-aged children. It discusses the expansion of a child's speech, the formation of grammatical structures, and the development of communication skills at each age stage. Additionally, the internal and external factors influencing speech development are also examined.

Keywords: preschool age, speech development, linguopsychology, language acquisition, grammatical development, child psychology, connected speech, vocabulary, communication skills, educational environment.

MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI

Mirkasimova Zilola Alisherovna
330-sonli DMTT ingliz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanish bosqichlari bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Har bir yosh oralig‘ida bola nutqining kengayishi, grammatik tuzilmalarning shakllanishi va muloqot ko‘nikmalarining rivojlanish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, nutq rivojiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, nutq rivoji, lingvopsixologiya, til o‘zlashtirish, grammatik rivojlanish, bola psixologiyasi, bog‘langan nutq, so‘z boyligi, muloqot ko‘nikmalari, tarbiyaviy muhit.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N41

KIRISH

Maktabgacha yosh (3–7 yosh) inson hayotidagi eng faol rivojlanish davridir. Bu davrda bola nafaqat jismonan, balki psixologik va lingvistik jihatdan ham jadal rivojlanadi. Nutq — bolaning ijtimoiylashuvi, fikrlashi va hissiy dunyosining ifodasi sifatida markaziy o‘rinni egallaydi. Bola til orqali atrofdagi dunyoni anglaydi va unda faol ishtirok eta boshlaydi. Shu sababli, bu davrda nutq rivojlanishini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Bola nutqining rivojlanishida jamiyat va uning yosh hususiyati alohida ahamiyatga ega. Shu bois Davlat talablarida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davrlari quyidagi bosqichlarga bo‘lib berilgan:

go‘daklik (tug‘ilgandan 1yoshgacha);
erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3yoshgacha);
kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);
o‘rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);
katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);
maktabgacha tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha) [6];

Psixolog olimlarning fikricha, bolaning kelajakda qanday inson bo‘lib yetishishi, asosan uning erta bolalik davrida unga qanday ta’lim va tarbiya berilganiga bog‘liq bo‘ladi. Har bir inson muayyan muhitda dunyoga keladi hamda shu jamiyat a’zosi sifatida atrofidagi odamlar ta’sirida katta bo‘ladi. Bunda, avvalo uning oilaviy muhiti, ota-onasi, aka-uka, opa-singillari, do‘stlarining roli katta. Bola oila va atrofidagi muhit ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Bolaning go‘daklik davridagi nutq muhiti uning ona tilini shakllantiradi. Ona tilini o‘zlashtirish, bola tug‘ilishdanoq amalga oshib boradi. Bola yashash muhitidagi nutqni o‘zlashtirib borar ekan, uning ongida tegishli til qurilmasini shakllantirib boradi. O‘zbek oilalaridagi bolalarda, tabiiyki, o‘zbek tili qurilmasi shakllanadi. Biroq bola hali to‘liq bo‘lmagan til qurilmasidan foydalanishga o‘rganadi, u hali so‘zlarning ma’nosini, ularning to‘g‘ri talaffuz me’yorlarini bilmaydi. Metodik adabiyotlarda qayd etilishicha, ko‘p martalab qaytariladigan so‘zlar yoki grammatik tuzilmalarni bola avval, gap qurilmasining bir elementi sifatida o‘zlashtirib oladi, keyinroq yaratuvchi qismga o‘tadi, ya’ni o‘rgangan so‘zlarini matnda qo‘llash orqali o‘zi gap tuzishni o‘rgana boshlaydi [3].

MUHOKAMA

Bola tilni va atrof-muhitni, avvalo, sezgi a’zolari orqali amalga osha boradi. Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy nutq ko‘nikmalarining shakllanishida insonni mavjud narsalar bilan bog‘laydigan omil uning his-tuyg‘usi, ya’ni sezgi a’zolari ekanligini qayd etganlar, ularga quyidagi 5 ta a’zoni kiritganlar: 1-bosira (ko‘z, ko‘ra bilish qobiliyati; 2-somia (quloq, eshitish a’zosi); 3-momisa (sezish a’zosi); 4 — shomia (hidlash bilish a’zosi); 5-zoiqa (ta’m bilish a’zosi).

Ko‘rinadiki, nutq inson bosh miyasi faoliyati boshqaradigan murakkab ruhiy jarayondir. Fiziolog olim I.P.Pavlov ham o‘z tadqiqotlarida, miyaning analiz-sintez qila olishi zaminida birinchi va ikkinchi signal sistemalari faoliyat ko‘rsatishi, bunda birinchi signal sistemasi eshituv, ko‘ruv, hid va ta’m bilish va boshqa sezgilar yordamida tashqi dunyoni his etib, bilishga imkon berishi, ikkinchi signal sistemasi esa til belgilari orqali voqelikni umumlashtirishini qayd etib o‘tgan [7].

Pedagogik-psixologik yo‘nalishlardagi tadqiqotlar inson miyasining 30 foizini vizual (ko‘rish), 3 foizini audial (eshitish) a’zolariga javob beruvchi neyronlar tashkil etishini, shaxs tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko‘rish retseptorlari yordamida amalga oshirilishini dalillaydi [1]. Shu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda bola sensomotorikaga (lotincha sensus–his qilish, motor-vosita) tayangan holda, buyum, narsa, uning masofaviy joylashishi, harakatlar kabilarni so‘z orqali ifodalashni o‘rganib borishi ta’kidlanadi [2]. Yangi so‘zlar beshta analizator: ko‘rish, tinglash, hid bilish, ta’m bilish, paypaslash asosida bola nutqiga kirib boradi va bola asta-sekin ularni nutqida to‘g‘ri qo‘llashga o‘rganib boradi. I.To‘ychiyevaning ta’kidlashicha, qabul qilinuvchi ma’lumot va xabarlar ko‘pincha birinchi taassurot, yuzaki, tartiblashmagan, to‘xtovsiz ravishda vaqti-vaqti bilan kelib turadigan bo‘lganligi uchun ular hofiza (miya)da to‘planadi, saqlab yuriladi. Shu asnoda, tafakkur ishga tushadi, u mazkur xabar va ma’lumotlarni o‘zicha ishlaydi, chuqurlashtiradi, kengaytiradi va muayyan xulosa chiqaradi [4]. Sh.Akbarova esa o‘z tadqiqotida “nutq inson bosh miyasining muayyan sohalari faoliyati hamdir. Nutq a’zolari bosh miyadan keladigan buyruqlarni bajaradi, bu jarayon turli sensor va motor reaksiyalari bilan birgalikda kechadi. Shu bois nutqqa o‘rgatishda sensor kanallar va motorikani mukammallashtirishga oid maxsus mashqlar g‘oyat muhimdir. Bosh miya ishiga va uning psixik jarayonlari rivojlanishida, ayniqsa nutqning shakllanishida sensor axborot va

emotsiyalar muhimligini yodda tutmoq zarur” [5], deya qayd etadi. Bolalar o‘z yoshiga muvofiq sensomotorika vositasini qo‘llash orqali yangi so‘zlarni narsa-buyumlar yordamida qabul qiladilar, ularning xotirasida ushbu buyumlar, harakatlar haqidagi tasavvur sifatida muhrlanib qolganidan so‘ng, ularning nomini atovchi so‘z bolada, eng avvalo, u mazkur narsa bilan bevosita to‘qnash kelganida muayyan his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Ko‘rinadiki, bolani tilga o‘rgatish jarayoni bevosita sezgi tuyg‘ulari orqali sodir bo‘ladi.

NATIJA

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari (DMTT) bilan nodavlat MTT faoliyatlarini qiyosiy o‘rganish, ko‘pchilik DMTTlarda ingliz tili pedagoglari, bolalarga asosan she’r, qo‘shiqlar hamda bir necha turkum (ot, olmosh, son,sifat,fe’l)so‘zlarni yodlatib, bolalarni so‘z boyligini oshirish bilangina cheklanib qolayotganliklarini ko‘rsatmoqda. Ilg‘or tajribalar Davlat maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan xorijiy til pedagoglarining maktabgacha yoshdagi bolalarga so‘z yodlatish bilan bir qatorda xorijiy tilda boshlang‘ich muloqotga kirishishga ham o‘rgatish kerakligini taqazo etmoqda.

Ma’lumki, ingliz tiliga ixtisoslashgan nodavlat MTT larda mashg‘ulotlar asosan ingliz tilida olib boriladi va bu bolalarning ingliz tilida muloqotga kirishish jarayonini tezlashtiradi. Kun davomida ingliz tilida muloqotda bo‘lgan bolajonlar uyga qaytgach, o‘z ona tillarida so‘zlashgani maqsadga muvofiq. Aks holda, ona tili asosiy faol til vazifasini boy beradi va chet tili ona tilining o‘rnini egallay boshlaydi, ona tili esa ikkinchi til vazifasini bajara boshlaydi. Bu esa bolaning ona tiliga putur yetkazadi, bolada o‘z ona tilini tushunish, ammo unda muloqot bo‘lmagani sabab ravon gapira olmaslikni keltirib chiqaradi.

Rus tiliga ixtisoslashgan MTT lardagi bolalarda tillararo chalkashlik ko‘proq kuzatiladi. Ya’ni, bolalar uy sharoitida ona tilida, bog‘chada rus tilida hamda haftasiga 2 marotaba ingliz tili mashg‘ulotlarida qatnashadilar. Shu tarzda bola uch til muhitida yashaydi. Tabiiyki, bola har bir tilga mansub so‘zlarni bir vaqtda ishlatishi mumkin bo‘ladi. Bunda ham, albatta, ota-onalarning ko‘magi kerak bo‘ladi. Lekin ota-onalar ko‘mak bera olishlari uchun esa ularga yordamchi o‘quv qo‘llanmalar bo‘lishi zarur.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy faoliyatining o‘ziga xos jihati ularda yangi so‘zlarni tez va mos talaffuzda o‘zlashtirish qobiliyatining mavjudligidir. Biroq bolalarda tez esdan chiqarish xususiyati ham mavjud bo‘lib, ikkinchi bir tilni o‘rganish jarayonida u avvalgi tilni unutib yuborishi ham mumkin. Bolaga chet tillarini o‘rgatish jarayonida ona tilini ham mustahkamlab borish dunyoni tanishi va kognitiv rivojlanishida nihoyatda muhim o‘rin tutadigan ona tilini unutmaslikka yordam beradi. Ona tilining unutilishi bolaning rivojlanishda bir necha yillar orqaga ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Berdialieva G.A. Maktabgacha ta’lim muassasalari nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish // dis… p.f.f.d. (PhD)– T., 2019. – 178 b.
2. Qodirova F.R. Bolalarga chet tilini o‘qitish nazariyasi va metodikasi. –T., 2009. – 251 b.
3. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish metodikasi. – T., 2004. – B. 8 (150 b).

4. Tuychieva I.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Diss… ped. fanlari b-cha falsafa doktori (PhD) – Toshkent, 2020. – B 115. – 194 b.
5. Akbarova Sh.H. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o‘rgatish metodikasi: Diss… p.f.f.d. (PhD). – T., 2020. – 165 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5179335
7. Павлов И.П. Лексика о роботе болъшиҳ полушарий головного мозга. – Полное собрание трудов .т. ИВ.-М.-Л., 1947. –В. 335-336.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

THE INTERACTION BETWEEN MORAL DEVELOPMENT AND NEUROPEDAGOGICAL METHODS

Khudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
Associate Professor, Department of Primary Education
E-mail: sahlohudojkulova@gmail.com

Abstract. This article explores the relationship between the moral development of future teachers and the application of neuropedagogical methods. The research focuses on identifying the impact of neuropedagogical approaches on fostering moral concepts among youth. The importance of cognitive development in the process of moral decision-making is analyzed. Findings indicate that integrating innovative approaches into the educational process not only improves teaching quality but also increases students' motivation to actively participate in the learning process. The article also identifies neuropedagogical methods that are applied in practice.

Keywords: moral development, neuropedagogical, cognitive development, moral decision, social responsibility, moral principles, personal duty.

AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O‘ZARO TA’SIRI

Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna
O‘zbekiston -Finlyandiya pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning axloqiy rivojlanish va neyropedagogik usullarning o‘zaro munosabati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot neyropedagogik usullar orqali yoshlarda axloqiy tushunchalarni rivojlantirishga ta’sirini aniqlashga qaratilgan. Kognitiv rivojlanishning axloqiy qaror qabul qilish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarning integratsiyasi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilashga, balki talabalarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Maqolada amaliyotda qo‘llaniladigan neyropedagogik usullar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: axloqiy rivojlanish, neyropedagogik, kognitiv rivojlanish, axloqiy qaror, ijtimoiy javobgarlik, axloqiy prinsiplar, shaxsiy burch.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N42

Kirish. Axloqiy rivojlanish shaxsning ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarga munosabatini, uning axloqiy mezonlarga sodiq qolishini shakllantiradi. Bu jarayonda insonda adolat, hurmat, mas’uliyat, mehr-shafqat kabi tamoyillar mustahkamlanadi. Axloqiy rivojlanish orqali shaxs turli axloqiy prinsiplarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham o‘zlashtiradi, bu esa uning turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutish qobiliyatini rivojlantiradi. Axloqiy rivojlanish jamiyatning umumiy axloqiy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga hissa qo‘shadi, chunki har bir shaxs o‘zi qabul qilgan axloqiy qoidalar orqali jamiyatdagi munosib o‘rnini topadi va ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar tahlili Psixolog Lourens Kolberg axloqiy rivojlanishni shaxsning ijtimoiy ongi rivojlanishi jarayoni sifatida ta’riflaydi. Uning ta’kidlashicha, “Axloqiy rivojlanishning asosi — shaxsning ma’lum bir qadriyatlarga sodiq qolishi va o‘zini jamiyat oldida mas’uliyatli shaxs sifatida his qilishida namoyon bo‘ladi”.[1] Kolbergning bu fikriga ko‘ra, axloqiy rivojlanish shaxsning turli ijtimoiy vazifalarga yondashuvini, uning munosabatini to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi.

Shaxs rivojlanishida axloqiy rivojlanishning o‘rni juda muhim, chunki u jamiyatdagi barqarorlik va birdamlikni ta’minlashga hissa qo‘shadi. Axloqiy rivojlanish orqali shaxs o‘zining ijtimoiy javobgarligini, shaxsiy burch va majburiyatlarini his qiladi, bu esa uning ijtimoiy munosabatlarda mustahkam va ishonchli inson bo‘lib shakllanishiga yordam beradi. Axloqiy rivojlanish jarayonida inson axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni o‘zining shaxsiy hayotiga tatbiq etish orqali ijtimoiy munosabatlarda o‘ziga xos axloqiy tamoyillarni saqlab qoladi. Bu jarayon axloqiy tarbiyaning ta’lim va tarbiya jarayonidagi asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u yoshlarni ma’naviy yetuklikka yetkazadi va shaxsning barkamol rivojlanishini ta’minlaydi.

Axloqiy rivojlanish jarayonida yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Axloqiy rivojlanish jarayonida har bir yoshning shaxsiy xususiyatlari, ya’ni individual kognitiv va emotsional rivojlanish darajasi, ijtimoiy muhitdagi o‘rni va tajribalari alohida o‘rin tutadi. Yoshlar har xil ruhiy, kognitiv va hissiy xususiyatlarga ega bo‘lgani sababli, ularning axloqiy qarashlarni qabul qilishi va ularga sodiq qolishi o‘ziga xos tarzda kechadi. Har bir shaxsning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularga yondashish axloqiy rivojlanishni yanada samarali qiladi va yoshlarning jamiyatda mas’uliyatli shaxslar bo‘lib yetishishiga yordam beradi.

Jan Piaje bolalarning axloqiy tushunchalarini shakllantirish uning kognitiv rivojlanish bosqichlariga bog‘liq deb ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, “Axloqiy rivojlanish jarayonida bolalar turli davrlarda turlicha yondashuvga ega bo‘ladi, chunki ularning fikrlash va tushunish qobiliyatlari bosqichma-bosqich rivojlanadi.[2] Piaje yoshlar axloqiy tushunchalarni nafaqat bilish, balki ularni ongli ravishda qabul qilish jarayonida katta individual xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’kidlaydi. Buning natijasida, yoshlar axloqiy normalarni har bir shaxsiy holatga tatbiq etish orqali mustaqil axloqiy qarashlarni shakllantiradilar.

Muhokama va natijalar. Axloqiy rivojlanishda yoshlarning kognitiv darajasi ularning axloqiy tushunchalarni qanday qabul qilishini belgilaydi. Misol uchun, analiz qilish, faktlarni tahlil qilish va to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyati yuqori bo‘lgan yoshlar axloqiy tushunchalarni tushunishda chuqurroq yondashuvga ega bo‘ladilar. Bu kabi kognitiv xususiyatlar ularga har bir vaziyatni to‘g‘ri baholash, axloqiy tamoyillarni anglab yetish va ijtimoiy munosabatlarda ularni tatbiq etish imkonini beradi. Emotsional jihatdan yuqori barqarorlikka ega yoshlar esa his-tuyg‘ularini boshqarish va boshqalarga empatiya bilan yondashishda kuchli bo‘ladilar, bu esa ularning axloqiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, emotsional barqarorlik yoshlarga turli ijtimoiy munosabatlarda hurmat, mehr-muhabbat va adolatni namoyon etishga yordam beradi.

Ijtimoiy munosabatlarda yoshlarning shaxsiy tajribalari ham muhim o‘rin tutadi, chunki ular orqali yoshlar axloqiy tushunchalarni hayotda qanday qo‘llashni o‘rganadilar. Har bir yoshning hayotiy tajribasi, oilaviy muhiti, o‘quv muassasalari va do‘stlar davrasi kabi omillar axloqiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ta’lim jarayonida har bir shaxsning o‘z xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashgan yondashuv qo‘llanilishi lozim. Axloqiy tarbiya

jarayonida individual yondashuv yoshlarga o‘z qadriyatlarini shakllantirish va ularga amal qilishda ko‘mak beradi.

Neyropedagogik usullar orqali yoshlarda axloqiy tushunchalarni rivojlantirish imkoniyatlari. Neyropedagogik usullar yoshlarning kognitiv va emotsional rivojlanishini hisobga olgan holda, ularda axloqiy tushunchalarni chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Neyropedagogikaning asosiy vazifalaridan biri yoshlarning neyrofiziologik xususiyatlariga moslashgan holda ularni ta’lim jarayoniga jalb qilishdir. Bu yoshlarning miyasidagi kognitiv jarayonlarni faollashtirish orqali axloqiy tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, **vizualizatsiya, rolli o‘yinlar, virtual reallik va simulyatsiya** kabi neyropedagogik usullar yoshlarda axloqiy prinsiplarni hissiy va intellektual jihatdan chuqur tushunib yetishga imkon beradi. Bunday usullar yoshlarga axloqiy tushunchalarni nafaqat bilish, balki ularni voqea va hodisalar bilan bog‘liq holda qabul qilish imkonini yaratadi. “Neyropedagogik usullar yoshlarning intellektual va emotsional rivojlanishini hisobga olish orqali ta’lim jarayonida ularning axloqiy tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Masalan, turli simulyatsiya va rolli o‘yinlar yoshlar ongida axloqiy tamoyillarni shakllantirishda hamda ularni hayotga tatbiq etishda ta’sirchan vositalardir”.[3]

D.Levitinning ushbu fikrlari neyropedagogik usullarning yoshlarning axloqiy rivojlanishidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Levitinning fikricha, simulyatsiya va rolli o‘yinlar kabi usullar yoshlar ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib, ular axloqiy tushunchalarni amaliy holatlarda anglash va qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday yondashuvlar yoshlarga axloqiy masalalarga chuqurroq munosabatda bo‘lishga yordam beradi, bu esa neyropedagogik usullarning axloqiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sirini yanada yorqinroq ko‘rsatadi.

Vaziyatli mashg‘ulotlar yordamida yoshlar turli axloqiy muammolar bilan to‘qnashib, ularni amalda qanday hal qilish mumkinligini o‘rganadilar. Bunda ular har bir qarorning natijasiga e’tibor qaratgan holda, axloqiy me’yorlarni tushunib, ularga sodiq qolish qobiliyatini rivojlantiradilar. Neyropedagogik yondashuv yoshlarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularga yechim topish jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu jarayon yoshlarni axloqiy masalalarga nisbatan chuqurroq va ongli yondashishga yo‘naltiradi, bu esa axloqiy tushunchalarning ularda mustahkam shakllanishiga yordam beradi.

Neyropedagogik usullar yoshlar ongida axloqiy tamoyillarni shakllantirish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Neyropedagogika yoshlarning emotsional rivojlanishini hisobga olgan holda, ularning axloqiy tushunchalarga bo‘lgan munosabatini mustaqil ravishda shakllantirishga yordam beradi. Miyaning emotsional va kognitiv funksiyalarini rag‘batlantirish orqali yoshlar turli axloqiy tamoyillarni anglab, turli vaziyatlarda ularni to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Neyropedagogika yoshlarning ongida axloqiy qadriyatlarni uyg‘otish va ularning turli ijtimoiy munosabatlarda bu qadriyatlarga mos yo‘l tutishlarini rag‘batlantiradi.

His-tuyg‘ular orqali axloqiy tamoyillarni shakllantirish yoshlarning shaxsiy tajribalari asosida shakllanadigan, turli axloqiy qarorlarni tanlash jarayonida qo‘l keladigan metoddir. Masalan, yoshlar murakkab vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va qarorlarning ijobiy yoki salbiy oqibatlarini to‘g‘ri baholash orqali axloqiy qarashlarni rivojlantiradilar. Neyropedagogik usullar orqali yoshlar axloqiy tamoyillarni tanqidiy va ijodiy fikrlash orqali

chuqurroq tushunish imkoniga ega bo‘ladilar, bu esa ularning axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida yordam beradi. “His-tuyg‘ular yoshlarda axloqiy qarashlarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi, chunki yoshlar o‘z his-tuyg‘ulari orqali axloqiy tamoyillarni tushunib yetadilar va ularni kundalik hayotda qo‘llay oladilar”.[4]

Ushbu fikrlar yoshlarda his-tuyg‘ular orqali axloqiy tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishning ahamiyatini tasdiqlaydi. Goulmanning ta’kidlashicha, his-tuyg‘ular insonning axloqiy tushunchalarni anglash va amalga oshirishida katta rol o‘ynaydi, chunki yoshlar shaxsiy tajribalari orqali ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni chuqurroq tushuna oladilar.[5]

Neyropedagogik yondashuvlarning yoshlar ongida axloqiy tamoyillarni shakllantirishdagi ahamiyati shundaki, u yoshlarning shaxsiy dunyoqarashiga ta’sir etib, ularni barkamol shaxs bo‘lib rivojlanishlariga yordam beradi. Axloqiy rivojlanish jarayonida neyropedagogika yoshlarda faqat ma’lumot va tushunchalarni bilish emas, balki ularni ongli va mas’uliyatli tarzda hayotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, neyropedagogik usullar yoshlarning axloqiy ongini rivojlantirishda, ularda mustahkam axloqiy qarashlar va mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Kognitiv rivojlanishning axloqiy qaror qabul qilish jarayonidagi ahamiyati. Kognitiv rivojlanish yoshlarda axloqiy qarashlarni chuqurroq anglash, tahlil qilish va qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy oqibatlarini baholash qobiliyatini shakllantiradi. Bu rivojlanish yoshlar uchun nafaqat axloqiy tushunchalarni bilish, balki ularni hayotda to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Kognitiv rivojlanish axloqiy qarorlarni mustaqil qabul qilish jarayonida yoshlarni tanqidiy va ijodiy fikrlashga undaydi. Tanqidiy fikrlash yoshlar uchun turli axloqiy holatlarda to‘g‘ri va noto‘g‘rini aniqlab, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish imkonini yaratadi. Zero, “Tanqidiy fikrlash yoshlarga nafaqat axloqiy tushunchalarni tushunib yetish, balki ularni hayotda amalda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim asos hisoblanadi”.[6]

Emotsional rivojlanish yoshlarda empatiya, hurmat, his-tuyg‘ularni anglash va ularni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu rivojlanish yoshlarga axloqiy qarashlarni his-tuyg‘ular orqali chuqurroq tushunish imkonini yaratadi. K.Rodjers ta’kidlaganidek, “Insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va ularni boshqarish qobiliyati uning ichki barqarorligi va axloqiy yetukligini ta’minlaydi. Empatiya, hurmat va emotsional barqarorlik shaxsning boshqalarga nisbatan munosabatlarida adolatli va insonparvar bo‘lishga yordam beradi.[7]

Emotsional rivojlanish yoshlarning ijtimoiy munosabatlarda mas’uliyatli va adolatli xulq-atvorini shakllantiradi, ularni o‘z his-tuyg‘ulari asosida to‘g‘ri yo‘nalishlarda qaror qabul qilishga yo‘naltiradi.

Amaliyotda qo‘llaniladigan neyropedagogik usullar.

Rolli o‘yinlar, vaziyatli mashg‘ulotlar, aks ettirish va muhokama qilish usullari. Neyropedagogik texnologiyalar yoshlarga axloqiy tushunchalarni na faqat nazariy jihatdan, balki amalda o‘zlashtirish imkonini beradi. Rolli o‘yinlar yoshlarni axloqiy qarorlarni qabul qilishda shaxsiy tajribalarni his qilish orqali chuqurroq tushunib yetishga yo‘naltiradi. Bunday mashg‘ulotlar ularga turli axloqiy vaziyatlarda boshqalarning nuqtai nazarini tushunish, empatiyani rivojlantirish va ijtimoiy munosabatlarda o‘zini xolis tutish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Psixolog Devid Kolbning ta’kidlashicha, “tajriba orqali o‘qish insonni turli nuqtai nazarlarni tushunishga va ularni amalda qo‘llashga yo‘naltiradi”.[8]

Xulosa. Tadqiqot asosida axloqiy rivojlanish va neyropedagogik usullarning o‘zaro ta’siri to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin.Neyropedagogik texnologiyalar yoshlarda axloqiy qadriyatlarni chuqurroq shakllantirish va ularni kundalik hayotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar orqali yoshlar axloqiy tushunchalarni yodda saqlash bilan cheklanmay, turli vaziyatlarda ularni amalda qo‘llashni o‘rganadilar. Neyropedagogik yondashuvlar yoshlarning axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni jamiyatda foydali va mas’uliyatli shaxslar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi.

Axloqiy qarashlarni shakllantirish jarayonida kognitiv va emotsional rivojlanish bir-birini to‘ldiruvchi muhim jihatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Kognitiv rivojlanish tanqidiy fikrlash va muammolarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirsa, emotsional rivojlanish yoshlarda empatiya, hurmat, adolat kabi axloqiy tuyg‘ularni rivojlantiradi. Neyropedagogik usullar yoshlar uchun axloqiy tamoyillarni intellektual va hissiy jihatdan tushunish imkoniyatini yaratib, ularning axloqiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullayev A. Axloqiy rivojlanish va ijtimoiy mas’uliyat // Huquq va burch. 2019, №3. 52-bet.
2. Abdurahimov Z. *Axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslari*. -Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019. – S. 87.
3. Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development. -San Francisco: Harper & Row, 1996, p. 72.
4. G‘oziyev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. -T.: O‘qituvchi. 1990 y. 59 b.
5. Golembo A. Psixologiya i neyropedagogika: integrativnыy podxod. -Moskva: Nauka, 2020. – S. 154.
6. Kolberg L. The Psychology of Moral Development.,-New York: Harper & Row, 1984. – p. 88.
7. Korlberg. Moral Development and Ethical Behavior. 1996, p. 89.
8. Levitin D. Neuroscience and the Classroom: Making Connections. -New York: Midas, 2016. – p. 198

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

ASSESSMENT OF EDUCATION QUALITY IN NON-STATE HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON INTERNATIONAL AND NATIONAL EXPERIENCE

Shakirova Dildora Abdumalikovna
Master's student at the International Nordic University

Abstract. The issue of quality in non-state educational organizations, which are becoming an integral and important part of the education system today, is considered one of the topical issues. The article discusses the issues of quality of education in non-state higher education institutions, a number of innovations aimed at increasing the effectiveness of education based on foreign experience, conclusions and recommendations as a result of their study.

Keywords: Non-state educational institutions, law, decision, system, quality education, world education system, foreign experience, method, certification and accreditation, management function, effectiveness.

NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH

Shakirova Dildora Abdumalikovna
Xalqaro Nordik Universiteti magistranti

Annotatsiya. Bugungi kun ta'lim tizimining ajralmas va muhim bir bo'g'iniga aylanib borayotgan nodavlat ta'lim tashkilotlaridagi sifat masalasi dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Maqolada nodavlat oliy ta'lim ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifati masalalari, xorijiy tajribalarga asoslangan ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator yangiliklar, ularni o'rganish natijasidagi xulosa va tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nodavlat ta'lim muassasalari, qonun, qaror, tizim, sifatli ta'lim, dunyo ta'lim tizimi, xorijiy tajriba, metod, attestatsiya va akkreditatsiya, boshqaruv funksiyasi, natijadorlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N43

Kirish.

Bugungi kunda ta'lim tizimi va undagi islohotlar dunyo taraqqiyoti markazida turgan eng ustuvor va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanmoqda. Har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy taraqqiyoti, siyosiy barqarorligi va umumiy yuksalishida ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, nodavlat oliy ta'lim muassasalarini samarali va tizimli tashkil etish ushbu sohadagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida qaralmoqda. Shu bois, oliy ta'limga bo'lgan ortib borayotgan ehtiyojni qondirish uchun nodavlat oliy ta'lim muassasalarining ulushi va ta'lim sifati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash maqsadida tadqiqotlar olib borish va ularni chuqur tahlil qilish zarur bo'lmoqda.

Ta'lim tizimini yangi bir bosqichga olib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan quyidagi bir qator qaror va farmonlar imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-avgustdagi qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risi”dagi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, 2017-yil 27-iyuldagi PQ3151-sonli “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 15-sentyabr PQ-3276-sonli “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash”, 2020-yil 7-avgustdagi 446-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror, qonun va farmoyishlari shular jumlasidandir. Ularning asosiy maqsadi, ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, yangi islohotlarni joriy etish va uni yangi bosqichga olib chiqish, xorijiy tajribalarni o‘rganish asnosida ta’limni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishdir.Shuningdek, vatanimiz rivojiga munosib hissa qo‘sha oladigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori salohiyatli, malakali kadrlarni tayyorlash, tizimning o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifasi sifatida belgilandi.Bu vazifalarni amalga oshirish, tizimda sifat ko‘rsatkichini baholash mexanizmini takomillashtirish, xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rgangan holda, ularni milliylashtirish va sohaga joriy qilishni taqozo etadi [2].

Bizga ma’lumki, nodavlat oliy o‘quv yurtlari xususiy sektordagi ta’lim muassasasi bo‘lib, u turli mamlakatlarda turlicha tartibga solinadi. Dunyo bo‘yicha nodavlat oliy ta’lim muassasalari ta’lim tizimining muhim qismi hisoblanib, ularning boshqaruv tizimi va nazorat qilish tartibi har bir mamlakatning ta’lim siyosati, iqtisodiy holati va qonunchiligiga qarab amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Har qanday davlatning milliy taraqqiyoti, iqtisodiy yuksalishi hamda ijtimoiy-madaniy jarayonlaridagi o‘zgarishlarda oliy ta’lim tizimi muhim o‘rin tutadi. Shu vaqtgacha ko‘plab tadqiqotchilar va olimlar tomonidan nodavlat oliy ta’lim muassasalarining oliy ta’lim sohasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim sifatini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, sohaga yo‘naltirilgan resurslardan oqilona foydalanish kabi bir qancha jihatlari ilmiy asosda o‘rganib chiqilgan. Xususan, R. Labanauskis, R. Ginevichius, B. Sanyal, S. Savzixanova kabilar nodavlat OTTlarining asosiy omillarini o‘rganish borasida izlanishlar olib borgan. Ushbu ilmiy izlanishlarda mualliflar quyidagi jihatlar borasida ham o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlar: nodavlat OTTlarining oliy ta’limda ishtiroki, ularni tashkil etish tartiblari, nodavlat OTTlari va davlat oliy ta’lim muassasalari (OTM) ishtirokida raqobat muhitini yaratishda imtiyozlar berish amaliyoti, ularni moliyalashtirishdagi o‘ziga xos jihatlar, boshqaruv sohasidagi farqlar, shuningdek xalqaro darajadagi tajribalar va yo‘nalishlar tahlil qilingan. Hozirgacha oliy ta’lim tizimi sohasida tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari OTMlarni samarali ishlashi uchun tashqi sharoitlarni muvofiqlashtirish bilan bog‘liq tashkiliy integratsiya, ichki va boshqaruv tuzilmalarni optimallashtirish, faoliyat natijalari asosida moliyaviy boshqaruv tamoyillariga o‘tish aks ettirilgan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan.Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo miqyosida jami oliy ta’lim xizmatlarining 1/3 qismidan ortig‘i nodavlat OTT hissasiga to‘g‘ri kelmoqda [4].

Nodavlat OTMlarida ta’lim sifatini baholash tahlilida quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: adabiyotlar sharhi tahlili; analiz uslubi; qiyosiy baholash uslubi; grafik tasvirlash; statistik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Shuningdek zarur ma’lumotlarni yig‘ish maqsadida elektron bazalar va statistik ma’lumotlar bazalaridan foydalanildi.

Maqolaning asosiy maqsadi, dunyo miqyosida yetakchi o‘rinlarda turuvchi nodavlat OTMlarining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish, tahlil qilish va qiyoslash asnosida ularni milliylashtirish. Xulosa qismida, tahlil natijasi asosida bir qator tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Muhokama.

Jahon miqyosida nodavlat OTMlar soni va ularda tahsil olayotgan talabalar soni yildan-yilga oshib bormoqda. UNESCOning tahliliga ko‘ra, 2025-yilda chet elda tahsil oladigan talabalar soni 8 millionga yetishi mumkin va ularning katta qismi nodavlat OTMlar talabalariga aylanishmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalari bo‘yicha departamenti ma’lumotlariga ko‘ra, aholi soni dunyo bo‘ylab barqaror o‘sib borishi kutilmoqda va 2100-yilda global aholi soni taxminan 10,87 milliardga yetishi bashorat qilinmoqda.

Dunyodagi ilk nodavlat OTMlar tarixiga nazar solsak, ularning rivojlanishi bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, 859-yilda Marokashda tashkil etilgan Karauyin universiteti avvaliga masjidga bog‘langan ta’lim muassasasi bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik uslublar va fanlar bo‘yicha rivojlanib, universitetga aylangan va hozirgi kungacha faoliyat yuritib kelmoqda.

Bolonya universiteti 1088-yilda Italiyada tashkil topgan bo‘lib, u Yevropadagi ilk universitet hisoblanadi. U olimlar va talabalar tomonidan boshqarilgan. Angliyadagi Oksford universiteti 1096-yilda tashkil etilgan bo‘lsa, AQSHdagi Garvard universiteti 1636-yilda tashkil etilgan qadimiy va boy tarixga ega universitetlardan sanaladi. Ularda shaxsiy mablag‘lar asosida ta’lim berish tizimi joriy etilgan [5].

Yaponiyada 1858-yilda tashkil etilgan Tokio Keyo universiteti ham birinchi nodavlat universitetlardan biri bo‘lib, u G‘arb ta’lim tizimi asosida tashkil etilgan. Bu kabi ilk nodavlat OTMlar tarixda yakka shaxslar, tadbirkorlar yoki diniy tashkilotlar tomonidan moliyalashtirilgan bo‘lib, ular ta’lim, fan va madaniyat rivoji tarixiga ulkan hissa qo‘shgan, bugungi kun ta’limi rivojiga ham eng ilg‘or ta’lim modellarga ega yetakchi nodavlat ta’lim tashkilotlari ekani ma’lum.

So‘nggi yillarda xorijda ham, mamlakatimizda ham oliy ta’lim tizimida nodavlat OTMlarning salmog‘i sezilarli darajada oshdi. 2024-yilgi holatga ko‘ra, Respublikamizda 211 ta OTM mavjud bo‘lib, ularning 69 tasi nodavlat OTMlar hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich esa yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrab olinishi darajasini 43 %ga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Ammo raqamlardagi o‘sish sifatdagi o‘sish bilan mutanosib bo‘lishi lozimligiga eng muhim masala sifatida yondashishimiz kerak. Buning uchun esa oliy ta’lim muassasalarining kadrlar tayyorlashga qaratilgan faoliyatini jahon talablari asosida tashkil etish va boshqarish, davlat ishtirokida oliy ta’lim sifatini kafolatlash talab etiladi.

Bu vazifani amalga oshirishda esa ta’lim sifatini muntazam monitoring qilish, nodavlat OTMlarda ta’lim sifatini baholash mexanizmlarini zamonaviy talablarga moslashtirib borish zarur ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’limda “sifat” tushunchasini nisbiy ma’noda qabul qilishimiz mumkin, chunki ta’limda “sifat” moddiy obyekt emas, balki hodisa yoki jarayondir. Oliy ta’limni rivojlanishiga

qaratilgan har qanday faoliyatning markazida sifatga tayanish zarurdir. Chunki har qanday ta’lim turini rivojlantirish asosida “sifat”ning mazmun-mohiyati yotadi. Demak, oliy ta’limni rivojlantirishda “sifat” tushunchasi fundamental ahamiyat kasb etadi [6].

Sifatni doimiy ravishda baholash masalasi tobora dolzarblashib bormoqda, shuning uchun G‘arbda — Yevropa va AQShda qo‘llaniladigan baholash usullarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Xorijiy tajribani ko‘rib chiqish, ushbu usullar O‘zbekiston uchun qanchalik maqbul ekanligini va yuqori sifatli oliy ta’lim yo‘lida qanday qadamlar qo‘yishimiz zarurligini tushunish imkonini beradi. Jahon amaliyotida universitetlar ishining sifatini baholash uchun turli xil yondashuvlar qo‘llaniladi.

“XXI asr uchun oliy ta’lim bo‘yicha Jahon deklaratsiyasi”da oliy ta’lim sifatiga quyidagi ta’rif berilgan: “Oliy ta’lim sifati ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uning barcha funksiyalari va faoliyatini, xususan, ta’lim va o‘quv dasturlari, ilmiy tadqiqotlar va stipendiyalar, kadrlar bilan ta’minlash, talabalar, bino, moddiy-texnik baza, uskunalar, jamiyat va akademik muhit manfaati uchun ishlash kabilarni qamrab olishi kerak”.

Natija.

Umuman olganda, ta’lim sifati tushunchasini iqtisodiy, ma’muriy, ijtimoiy, tashkiliy, texnik-texnologik, psixologik, huquqiy, ekologik, shaxsiy, tizimli va boshqa pozitsiyalardan ko‘rib chiqadigan ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Hozirgi kunda oliy ta’limda sifat va uni ta’minlashga oid bir qator zamonaviy yondashuvlarni alohida keltirish mumkin:

Oliy ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha Yevropa standartlari va yo‘riqnomalari (ESG)da oliy ta’lim muassasasining samarali ta’limni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan resurslar, jarayonlar va natijalarga egaligini baholash uchun foydalaniladigan ko‘rsatkichlar to‘plami sifatida ta’rif beriladi [7].

Malkolm Baldrij milliy sifat mukofoti (MBNQA)da mijozlar ehtiyojini qondirish, yuqori salohiyatli xodimlarni jalb qilish va innovatsiyalar orqali ta’lim jarayonining muttasil takomillashtirilishi nazarda tutiladi.

1995-yili YUNESKO tomonidan «Oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirish» nomli dastur ishlab chiqilgan bo‘lib, unda asrlar almashinuvi davrida oliy ta’limni rivojlantirishning dunyo miqyosidagi tendensiyalari va vazifalari bayon etilgan.

Dasturda mavjud 151 banddan 18 tasi bevosita ta’lim sifatiga bag‘ishlangan. Ularda, jumladan, sifat konsepsiyasining «Oliy ta’lim sifati — mazkur tizimning mazmun doirasi, vazifalari yoki tizimdagi sharoit va me’yorlarga bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali tushuncha» tarzida tavsiflovchi keng talqini keltirilgan.

Ta’lim sifatini baholash muammosi har doim dolzarb bo‘lgan, faqat keyingi yillarda bu masalaga tizimli va majmuaviy tarzda yondashila boshlandi. Chet el olimlari va amaliyotchilari ta’lim sifatini tadqiq qilish doirasida ta’lim sifati tushunchasining o‘zini aniqlashtirmoqdalar, baholash mezonlarini ishlab chiqmoqdalar, yuqori sifatni ta’minlovchi omillarni tasniflamoqdalar, ta’lim sifatini boshqarish va monitoringi muammolarini o‘rganmoqdalar.

Ta’limni baholashning o‘zaro tan olinadigan tizimlarini joriy etish orqali taqqoslash imkonini beruvchi ta’lim sifatini ta’minlash Yevropa mamlakatlari yagona ta’lim makonini shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Dunyoda mavjud ta’lim sifatini baholash tizimlarini shartli ravishda ikkita modelga bo‘lish mumkin [2].

Birinchi model – oliy ta’lim muassasasining jamiyat va davlat oldidagi mas’uliyatini attestatsiya, akkreditatsiya va nazorat qilish vositasida tashqi baholashga asoslangan

“fransuzcha” modeldir. Bunday model Skandinaviya mamlakatlari, Chexiya, Latviya, Estoniya va boshqa mamlakatlarda qo‘llaniladi. Ushbu mamlakatlarda davlat organlari tomonidan baholashning maqsadi shakllantiriladi, baholashning eng muhim jihatlari belgilanadi, ta’lim jarayonini tashkil etishga doir qarorlar qabul qilinadi. Ta’lim muassasasi tomonidan o‘zini-o‘zi baholashga yuzaki qaraladi, chunki asosiy e’tibor tashqi baholashni samarali o‘tkazishga qaratiladi.

Tashqi nazorat me’yoriy va ilmiy jihat dan ta’minlanish borasida jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsa-da, epizodik tarzda miqdoriy ko‘rsatkichlarni aniqlashga asoslangani sababli mavjud muammo va yutuqlarni aniqlash, ta’lim sifatini oshirishni rejalashtirish imkonini bermaydi.

Oliy ta’lim sifatini baholashning ikkinchi – «inglizcha» modelining asosini ta’lim muassasasi tomonidan o‘zini-o‘zi baholash tashkil qiladi. Bu model Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH, Lotin Amerika mamlakatlarida qo‘llaniladi.

Fransiyada oliy ta’lim muassasasi (OTM) faoliyatining tashqi nazorati OTMlarni baholash bo‘yicha Milliy qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur qo‘mitaning bosh vazifasi muayyan OTMlar va mamlakatdagi oliy ta’limning holatini davriy ravishda xolis baholashdan iborat. Baholash natijalari axborot va tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, dastlab prezident, parlament va hukumatga, so‘ngra nashrlar shaklida keng jamoatchilik e’tiboriga yetkaziladigan yillik hisobotlar tarzida bayon etiladi [8].

Germaniya va Buyuk Britaniyada yaqin davrlargacha ta’lim sifatini ta’minlashdagi bosh rol o‘quv muassasalari va bo‘linmalarining rahbarlari va o‘qituvchilar tarkibining kompetentligi va mas’uliyatiga asoslangan ichki nazoratga ajratilgan edi. Germaniyaning oliy ta’lim muassasalarida ichki nazorat asosan fakultetlar, aniqrog‘i ulardagi o‘quv jarayoniga javob beruvchi maxsus komissiyalar tomonidan olib borilar edi. Germaniyada davlat darajasida akkreditatsiya qilish yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lib, davlatga tegishli OTMlar avtomat tarzida akkreditatsiyaga ega bo‘lardi.

Oxirgi yillarda mamlakatda ichki nazoratning yetarli emasligi to‘g‘risidagi xulosaga kelindi va 1995-yildan boshlab OTM rektorlari konferensiyasi rahnamoligida ko‘p bosqichli murakkab tuzilmaga ega bo‘lgan sifatni tashqi nazorat qilish tizimi joriy qilina boshlandi.

Sloveniyada, aksincha, OTMlar birgalikda oliy ta’limda sifatni baholash Qo‘mitasini ta’sis etadilar va nazorat uchun o‘zlari javob beradilar. Polshada esa amaldagi qonunchilikka binoan OTMlar ta’lim sifatini o‘zlari baholaydilar.

Shunday qilib, G‘arbiy Yevropa oliy ta’lim tizimining kengayishi va uni rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashga sarflanayotgan xarajatlarning ortishi ta’lim muassasalarining oldiga mutaxassislarni tayyorlash sifatini namoyish qilish va shu orqali sarflanayotgan mablag‘larni oqlashni dolzarb vazifa qilib qo‘ydi. Shu bilan birga Yevropa oliy ta’limining baynalminallashuvi xalqaro miqyosda ta’lim jarayoni sifatini baholash tizimini yaratishning muhimligi va zaruriyatini belgilaydi [8].

Shimoliy Yevropa mamlakatlari (Daniya, Norvegiya, Finlyandiya, Shvetsiya) institutlari va universitetlarida tashkil etilgan nazorat va sifat tizimi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Norvegiyada asosiy e’tibor ta’lim jarayoni va o‘quv dasturlarini baholashga qaratiladi. Baholash jarayoni hukumat tomonidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadigan tashkilotlar orqali amalga oshiriladi. Hozirda ta’lim vazirligi tarkibida nazorat bo‘yicha Kengash tashkil etilgan

bo‘lib, u boshqa qo‘mitalardan mustaqil tarzda ta’lim makonining sifatini baholash siyosatini yuritadi.

Finlyandiyada ichki va tashqi baholash birgalikda amalga oshiriladi. Daniyada nazorat hukumat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanadigan tashqi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ichki o‘z-o‘zini baholashda tashqi ekspertlar tomonidan olingan ma’lumotlarga ham tayanadi [9].

Finlyandiyada oliy ta’lim nazorati va sifati bo‘yicha qo‘mita 1996-yilda tashkil etilgan. Qo‘mitaning bosh vazifasi – oliy ta’lim muassasalari va ta’lim vazirligiga baholash tizimini rivojlantirishga ko‘mak berish. Vazifasiga ko‘ra mazkur qo‘mita nazorat qilishdan ko‘ra ko‘proq maslahat beruvchi organga o‘xshaydi. Uning vazifalari qatoriga ta’lim muassasasi ichida sifatni baholash tizimida ishlash uchun mutaxassislarni tayyorlash, baholash tizimini ham davlat ham alohida ta’lim muassasalari darajasida ta’minlash, kasbga yo‘naltirilgan institutlarni attestatsiyalash uchun hujjatlarni tayyorlash kiradi.

Shvetsiyada oliy ta’lim sohasidagi milliy siyosat darajasida baholashning to‘rtta yo‘nalishi mavjud. Birinchi yo‘nalish ta’lim subyektlari va o‘quv dasturlarini mamlakat miqyosida baholash, ikkinchi yo‘nalish – akkreditatsiyalash uchun ta’lim dasturlarini baholash, uchinchi yo‘nalish – bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida yirik bo‘lmagan ta’lim muassasalarini baholash, to‘rtinchi yo‘nalish – butun ta’lim jarayonini umumiy baholashni qamrab oladi.

AQSHda ta’lim jarayoni sifatini nazorat qilish va baholash tizimi akkreditatsiya deb nomlanadi. Akkreditatsiya AQSH universitetlari va kollejlaridagi ta’lim sifatini baholashning yetakchi shakli sifatida qaraladi. Mazkur tizimda baholash ikkita yo‘nalishda olib boriladi: ichki va tashqi. Tashqi tizimga federal, tegishli shtatning organi, institutni akkreditatsiyalash agentligi, ta’lim muassasasi o‘quv dasturlarini akkreditatsiya qilish bo‘yicha ixtisoslashgan agentlik jalb qilinadi. Ichki baholash jarayoni o‘quv dasturlarining bajarilishi bo‘yicha universitet qo‘mitasining hisoboti, yangi o‘quv dasturlarini rejalashtirish va rivojlantirish, talabalarni ular o‘zlashtirishining natijalari bo‘yicha baholashdan iborat.

Akkreditatsiya natijasida ta’lim dasturi yoki institut faoliyatini davom ettirish huquqiga ega bo‘ladi yoki undan mahrum qilinadi [6].

Oxirgi yillarda «fransuz» modelini qo‘llayotgan Yevropa mamlakatlarida OTMlar tomonidan o‘zini-o‘zi baholash jarayonlarining joriy etilishi va rivojlantirilishi kuzatilmoqda. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida ta’limni baholash jarayoni ta’lim muassasasi tomonidan o‘z faoliyatini tartibga solish bo‘yicha to‘la javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi tomon siljimoqda va bunda hukumat ko‘makchi rolini o‘ynamoqda. O‘zini-o‘zi baholash tashqi kuzatuvchilarni ishontirish va qo‘shimcha moliyalashtirishni jalb qilishga tayyorgarlik nuqtai nazaridan o‘tkazilib, ta’lim muassasasi tomonidan o‘z faoliyatini takomillashtirish yuzasidan maxsus amalga oshiriladigan jarayon emas.

Turli mamlakatlarda amalda bo‘lgan sifatni baholash milliy tizimlari nafaqat maqsadlari, vazifalari, baholash mezonlari va tadbirlari bo‘yicha, balki mazkur jarayonga hukumat (davlat), jamoat va maxsus organlar va muassasalarning jalb etilganlik darajasi kabi ko‘plab ko‘rsatkichlar bo‘yicha bir-biridan farq qiladilar. Hamma joyda sifatni baholashning rasman e’lon qilingan maqsadlari sifatni belgilangan standartlar darajasida ushlab turish yoki undan oshirish bo‘lsa-da, amalda mazkur masalani tushunishning o‘zida (hisobotlarni kengaytirish va takomillashtirish evaziga nazoratni kuchaytirish zaruriyatidan to sifatni baholashni ta’lim

muassasasi tomonidan o‘zini-o‘zi baholashga qadar) turli-tumanlik kuzatiladi. Shunga qaramasdan, ta’lim sifatini baholash ikkita tarkibiy qismdan, ya’ni ichki (o‘z-o‘zini baholash) va tashqi baholashdan iborat bo‘lishi lozimligi, shuningdek, mazkur tashkil etuvchilarning aniq mexanizmlari har xil bo‘lishi mumkinligi barcha holatlarda tan olinadi.

Xulosa.

Hozirgi kunda ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida nodavlat oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini chuqur tahlil qilish, ularning mavjud imkoniyatlari va duch kelayotgan muammolarini aniqlash, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajriba asosida ularni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur bo‘lib qolmoqda. Xususan, ta’lim sifatini baholovchi reytinglar joriy etish, mustaqil akkreditatsiya agentliklari tashkil qilish, davlat-xususiy sheriklikni rag‘batlantirish va tadqiqot hamda innovatsiyalarni faol qo‘llab-quvvatlash zarur.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarining faoliyati shaffoflik, samaradorlik va innovatsion yondashuv asosida rivojlanishi ta’lim tizimida sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirib, umumiy ta’lim sifatining yuksalishiga xizmat qiladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy salohiyatining o‘sishiga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risi”dagi qonuni. 2020-yil 7-avgust.
2. Labanauskis R., Ginevichius R. “Role of stakeholders leading to development of higher education services”, Engineering Management in Production and Services, Volume 9, Issue 3, 2017. – pp. 63-75.
3. Lee Molly N. N., Wong S. Y. University education for national development. In J. P. Keeves & RWatanabe (Eds.), International handbook of educational research in the Asia- Pacific region. 2003. – Pp. 1207–1220.
4. Nicholas Barr. Alternative Funding Resources for Higher Education. The Economic Journal, May, 1993, Vol. 103, No. 418 (May, 1993), – Pp.718-728.
5. Rejepov X.X. Oliy ta’lim tizimida xorij tajribasi va ulardan foydalanish imkoiyatlari: “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali.№ 2, mart-aprel, 2017.
6. Sanyal B. C., Johnstone D. B. “International trends in the public and private financing of higher education”, Published online: 18 March 2011, UNESCO IBE 2011.
7. Wahlen S. Is there a Scandinavian model of evaluation of higher education? // Higher Education Management, November 1998, Vol. 10. No. 3. – P. 27-42.
8. Ахтамова М.Э., Уразов С.Ш. Негосударственные способы применения опыта развитых стран для повышения эффективности образовательных услуг в Узбекистане. // Архивариус. 2021.Т.7. №4 (58) – С.37-40.
9. Мотова Г.Н., Наводнов В.Г. Системы аккредитации за рубежом: Научное издание. – Йошкар-Ола: Центр государственной аккредитации, 2004. – С. 58.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

APPLICATION OF INTENSIVE METHODS IN ORGANIZING NATURAL SCIENCE LESSONS

Dzhurayeva Nargis Narkulovna
Economics and Pedagogical University,
NTM teacher

Abstract. Changes in the organization and implementation of Education have brought to the surface intensive techniques based on innovative pedagogical technologies. This article highlights the importance of intensive methodesnig and its use in natural science classes through practical methods.

Keywords: Intensive, innovation, pedagogical technologies, 3D golagram, interactive techniques, interactive activities, Virtual travel, integration.

TABIIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO‘LLANILISHI

Djurayeva Nargis Narkulovna
Iqtisodiyot va pedagogika universitet
NTM oqituvchi

Annotatsiya. Ta’limni tashkil etish va yo‘lga qo‘yish borasidagi o‘zgarishlar innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan intensiv metodlarni yuzaga keltirdi. Ushbu maqolada intensiv metodlarning ahamiyati va tabiiy fanlar darslarida qo‘llanilishi amaliy metodlar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Intensiv, innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, 3D gologramma, interfaol metodlar, interaktiv mashg‘ulotlar, Virtual sayohat, integratsiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N44

KIRISH

Intensiv metod – o‘zaro harakat, ya’ni hamkorlik asosida o‘qitish, shuningdek, eng sermahsul, eng ko‘p natija beradigan metod hisoblanadi. Intensiv metodlar erkin fikrlaydigan, mustaqil izlanadigan o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan e’tiborga loyiqdir. Ta’lim berishning bu usulida o‘qitish jarayonidagi asosiy ish o‘quvchilar tomonidan amalga oshirilishi, ular ta’limning obyekti emas, balki subyekti, ya’ni xuddi o‘qituvchi kabi ijrochisi bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Intensiv metodlar asosida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi ishlashigina emas, balki ta’lim olayotgan o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda didaktik faoliyat ko‘rsatishi turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Demak, intensiv metodlar ta’lim mazmunining to‘liq o‘zlashtirilishida o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari va o‘qituvchilar bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishlari ko‘zda tutiladi. Intensiv metodlar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga asoslanadi [**Error! Reference source not found.**]. Bu metodlardan foydalanilganda bilim olish o‘quvchi uchun

qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qitilmaydi, balki ularning o‘zlari o‘qituvchi bilan birgalikda muayyan yo‘nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishadi. Bu hol ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida erkin fikrlash, mustaqil izlanishga rag‘bat paydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta’lim jarayoni qatnashchilari o‘zaro bemalol tortishadilar, o‘quv materialini buyurilganiday emas, balki o‘zlari xohlaganday yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtiradilar.

Ta’lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlaydilar. O‘quv topshiriqlari alohida bir o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a’zolariga beriladi. O‘quvchilarda jamoa tuyg‘usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.

Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini mukammal loyihalashtirish, aniq masalalar qo‘yish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshiruvchi uzviy bog‘langan majmua hisoblanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiyaga e’tibor bermasdan turib, kelajagimiz bo‘lgan navqiron va sog‘lom avlodni, bilimli, savodli yoshlarni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Innovatsiya muhim ahamiyatga ega, u tizimli yangiliklardan iborat bo‘lib, ular turli tashabbus va yangilanish asosida yuzaga keladi hamda ta’limning tadrijiy ravishda tashkil topishi uchun istiqbolli hisoblanadi, shuningdek, ta’lim muhitining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [2].

Pedagogik innovatsion faoliyat o‘qitishning didaktik ta’minotini bir holatdan ikkinchi holatga o‘tkazishga olib keluvchi yangilikni tarqatish jarayonidan iborat.

Innovatsion ta’lim eng samarali shakl, vosita, metodlar, usullarni izlash yangi g‘oyalarni yaratish natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun innovatsiya ta’lim evolyutsiyasining muhim elementi hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishning innovatsion metodlardan foydalanib, tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi lozim. O‘qituvchi o‘zining ish shakllari va o‘quvchilarning ko‘nikmalar egallash jarayonidagi ishlar doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o‘qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega .X.Norbo‘tayevning ta’kidlashicha metod tanlashda ko‘proq interfaol metodlarga e’tibor qaratish ta’lim samaradorligini oshiradi [3].

Intensiv mashg‘ulotning asosiy metodlari:

interaktiv seminar, trening, aqliy hujum, ishchanlik o‘yini, rolli o‘yin, muhokama, bahs, munozara, tanqidiy fikrlash, bumerang, press, intervyu, zanjir, pinbord, insert, suratli diktant, muzyorar va boshqalar.

Ta’kidlash joizki, interaktiv mashg‘ulotlarda shakl va metodlar birgalikda mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishdagina ajratish mumkin.

Intensiv mashg‘ulotlar aniq rejalashtirilgan holda dars maqsadini belgilab, dars loyihasi va algoritmi ishlab chiqilganidan keyingina amalga oshiriladi. Interaktiv metodlarning barchasida ham o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati o‘rtasidagi hamkorlik, o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi[3].

M.Tojiyevning fikriga ko‘ra, sinf o‘quvchilari birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo‘linadi. Darsni o‘tish modelidan foydalanib birinchi hamkor ikkalasiga, ikkinchi hamkor esa birinchisiga modeldagi qismlarni o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ta’lim metodlari vositasida model qismlarini avval tushuntiradi, keyin ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘qituvchi aytgan va ko‘rsatganlarini takrorlaydilar va bajaradilar. O‘qituvchi sinfni nazorat qilish uchun o‘ziga ikki

nafar hamkorni tanlaydi. O‘qituvchi o‘z hamkorlariga modelni bosqichma-bosqich bajartirib ko‘radi, tushunmaganlarini tushuntirib, o‘rganishiga yordam beradi. O‘qituvchi sinfdagi hamkorlariga birinchi qismni bir-birlariga o‘rgatishlari va bajarishlarini aytadi. Ularning ishlarini nazorat qilib, kamchiliklarini bartaraf etishga yordamlashadi. Bu ish usuli modelning boshqa qismlarini ham bajarishda davom etadi deb izohlagan[4].

TADQIQOT METODOLOGİYASİ

Yuqoridagilardan kelib chiqib tadqiqot doirasida boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligini ta’minlashda mantiqiy fikrlash, induktiv, deduktiv mushohada qilish hamda mustaqil rivojlanishga bo‘lgan ehtiyoj, o‘quv jarayoni va natijalarini bashorat qilishda guruhli ish metodlaridan foydalanish asosida takomillashtirildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Quyida boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasining tarkibiy qismi sifatida ishlab chiqilgan boshlang‘ich sinf “Tabiiy fanlar” darslarida qo‘llashga doir ijodiy intensiv metodlarni keltiramiz.

Ona tili, o‘qish savodxonligi, matematika, tabiiy fani darslarida o‘quvchilar o‘quv-biluv va o‘yin faoliyatlarini integratsiyalash asosida mas’uliyatlilikni shakllantirishda quyidagi o‘yin-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

“Virtual sayohat”.

Metodning tavsifi. O‘quvchilarda raqamli media bilan sog‘lom munosabatlar shakllantirish ularni bundan cheklashdan ko‘ra muvaffaqiyatli hisoblanadi.

Sinf: II

Mavzu: Yulduzlar va sayyoralar

Metodning maqsadi: o‘quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

Metodning qo‘llanilishi: O‘quvchilarga ushbu mavzu yuzasidan video materialni virtual sayohat orqali namoyish etiladi. 3D gologramma ko‘zoynakda virtual ekspeditsiya jarayoni amalga oshiriladi.

Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzular soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster(yoki rangli qalam)lar, 3D gologramma ochki, virtual ekspeditsiya video material.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- o‘qituvchi o‘quvchilarni sayyoralar soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo‘lgani ma’qul);
- o‘quvchilar mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi.Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida sayyoralar nomi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi;
- o‘qituvchi guruh a’zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog‘ozdagi bo‘sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

- guruh a’zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan sayyoralar haqida yozma(yoki rasm, yoki chizma) ko‘rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a’zolari sayyoralar bo‘yicha imkon boricha to‘laroq ma’lumot berishlari kerak bo‘ladi.
- O‘qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, 3D gologramma ochki virtual ekspeditsiyaga taklif qiladi.
- Mavzuni yanada yaqqolroq his qilish uchun oquvchilar yulduzlar va sayyoralar koinotiga tashrif buyurishadi.
- o‘quvchilarga mavzu yuzasidan ijodiy topshiriqlar beriladi va bu topshiriqni sayt orqali bajarilishi aytiladi.

1.Osmon jismlariga nimalar kiradi?

2.Nega yulduz va sayyoralar kunduzi ko‘zga ko‘rinmaydi?

3.Sayyoraning yulduzdan farqi nima?

4.Quyosh atrofida nechta sayyora harakatlanadi?

5.Sayyoralar koinotda qanday vazifani bajaradi?

6.Yer quyosh sistemasidagi qaysi sayyoralar orasida joylashgan?

7.Yulduzlar va quyosh o‘rtasidagi o‘xshash jihatlarni ayting.

Talablar:.

O‘qituvchi dars davomida ushbu metoddan foydalanishda quyidagi talablarga amal qilishi lozim bo‘ladi:

tanlanadigan video materiallarning o‘quv materiali mazmuniga va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi;

o‘quvchilarni “virtual ekspeditsiyaga” tayyorlash;

video materialning tushunarli va rang-barangligiga e’tibor qaratish.

Natija:

O‘quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini kengaytiradi.

Atrofdagi koinot dunyosi,olam haqidagi tushunchalari rivojlanadi.

Ta’lim muassasasida innovatsiya jarayonlarini tashkil etishning pedagogik shartlarini quyidagicha izohlaymiz:

1. Innovatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy-pedagogik qoidalar majmuini ishlab chiqish;

2. Ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot salohiyatini shakllantirish;

3. Innovatsion faoliyatni tashkil etishni ta’minlashning asosiy shartlari, alohida boshqaruv jihatlari, ya’ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirilgan, yangilangan boshqaruv tizimini shakllantirish.

XULOSA

O‘qituvchilarni ta’lim tizimidagi innovatsion jarayonlarga va innovatsion faoliyatga tayyorlash o‘ziga xos pedagogik muammo bo‘lib, uning asosida o‘qituvchining o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishga intilishi, innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglashi, o‘zgarishlar va yangiliklarning mazmun-mohiyatini tushunishi va mantiqan zarurligini qabul qilishi kabi omillar yotadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xautullaueva S. “Redagogik qauta tauuorlash: Ta’limda axborot texnologiualari” moduli bo‘uisha o‘quv uslubiu majmua. TDRU huzuridagi redagogik kadrlarni qauta tauuorlash va ulurni malakasini oshirish tarmoq markazi, 2021 uil, 24 bet.
2. Jumaniyozova M.T. O‘qituvchilarni ta’limdagi innovatsiya jarayonlariga tayyorlash muammolari. // «Uzluksiz ta’lim tizimida innovatsiya texnologiyalaridan foydalanish». Maqolalar to‘plami. – T.: «Ekstremum press». 2010. -246-b.
3. Norbo‘tayev X., Eshquvvatov SH. Boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. // “Zamonaviy ta’lim”, 2015, 6-son. -67-68-b.
4. Tojiyev M., Xurramov A. Ta’lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim usullari // Metodik tavsiyanoma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2014. – 96 b.
5. Djo‘rayeva N.N. Boshlang‘ich sinflarga tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik tushunchalarni shakllantirishning ahamiyati.// “Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari” №14-sonli ko‘p tarmoqli, ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi. Vol.7No.1 2024, -b. 95-98 https://worldlyjournals.com/index.php/wkc/article/view/1153
6. Djurayeva N.N. Tabiiy fanlarni o`qitishda innovatsion yondashuv// Ilmiy tadqiqotlar va jamiyat muammolari. Vol. 5 No. 2. 07.10.2023. -b 67-70 https://wordlyknowledge.uz/index.php/ITJM/article/view/3473

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY

Baltayeva Ma'mura Baxtiyarovna
Lecturer at the Department of National Idea and Philosophy,
Urgench State Pedagogical Institute

Davletova Bikajon Tursunbayevna
Master's student at the Department of National Idea and Philosophy,
Urgench State Pedagogical Institute.
E-mail: davletovabikajon@gmail.com

Abstract. This article provides detailed information on effective teaching methods for improving students' media literacy. Media literacy is an essential skill in today's digital age, allowing people to analyze and evaluate media messages. The article emphasizes the importance of integrating media literacy education into the curriculum and highlights strategies for promoting these skills. Through active learning, critical analysis exercises, collaborative learning, real-world applications, and the development of digital skills, teachers can empower students to become informed consumers of media.

Keywords: teaching methodology, active learning, critical analysis, collaborative learning, real world, applications, digital skills development, education, students, information literacy.

MEDIA SAVODXONLIGINI O'QITISH METODIKASI

Baltaeva Ma'mura Baxtiyarovna
Urganch davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya va falsafa kafedrasi o'qituvchisi

Davletova Bikajon Tursunbayevna
Urganch davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya va falsafa kafedrasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar media savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan samarali o'qitish usullari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Media savodxonlik bugungi raqamli davrda muhim ko'nikma hisoblanadi, u insonlarga media xabarlarni tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Maqolada media savodxonligini o'quv dasturiga kiritish zarurligi ta'kidlanib, bu ko'nikmalarni rivojlantirish strategiyalari yoritib berilgan. Faol o'qitish, tanqidiy tahlil mashqlari, hamkorlikda ta'lim, real hayotga tatbiq qilish va raqamli ko'nikmalarni shakllantirish orqali o'qituvchilar talabalarni ongli media iste'molchilarga aylantira oladi.

Kalit so'zlar: o'qitish metodikasi, faol o'qitish, tanqidiy tahlil, hamkorlikda o'qitish, real hayotga tatbiq, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'lim, talabalar, axborot savodxonligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N45

Introduction

Media literacy plays a crucial role in today's society, with the proliferation of media outlets and sources of information. As people are exposed to a variety of media forms every day, the ability to critically analyze and evaluate these messages has never been more important. In response to this evolving media landscape, educators have a responsibility to

equip students with the skills they need to navigate this complex terrain effectively[1]. This introduction aims to explore the importance of media literacy education and explore the different teaching methods that can be used to enhance students' media literacy skills. By exploring the intersection of education and media literacy, this article aims to provide valuable insights into how educators can empower students to become intelligent consumers and producers of media content.

A large body of literature on media literacy education emphasizes the critical importance of equipping individuals with the skills to navigate an ever-expanding media landscape. Research has consistently highlighted the need to integrate media literacy into educational curricula to foster critical thinking, foster informed citizenship, and foster a deeper understanding of media messages.

One of the main points highlighted in the literature is the role of media literacy in enabling people to differentiate between reliable information and misinformation. With the proliferation of fake news and misinformation in digital spaces, the ability to critically evaluate media content has come to the fore. Research has shown that media literacy education empowers people to question sources of information, analyze misconceptions, and differentiate between reliable and unreliable sources.

Additionally, research has shown the effectiveness of hands-on activities in increasing students' media literacy.[2] Involving students in creating their own media content, analyzing advertisements, and deconstructing news articles can deepen their understanding of how media messages are constructed and distributed. By actively involving students in the production and analysis of media content, teachers can help them gain a deeper understanding of media dynamics.

Additionally, collaborative learning has emerged as a valuable approach in media literacy education. Creating spaces for students to engage in discussions, debates, and group projects about media content can enhance their critical thinking and communication skills.[3] Collaborative learning environments not only encourage students to explore diverse perspectives, but also foster community and shared learning experiences.

Connecting media literacy concepts to real-world examples and current events has been shown to enhance student engagement and understanding. By contextualizing media literacy within the broader social and political landscape, teachers can help students understand the relevance and impact of media on individuals and communities. Applying media literacy concepts to real-world situations can inspire students to become active and critical participants in the consumption and production of media.

In conclusion, the literature review highlights the critical need for media literacy education and highlights the different methodologies that can be used to enhance students' media literacy skills. Drawing on research insights and best practices in the field, educators can play a critical role in empowering students to navigate the complex media landscape with confidence and critical acumen[4].

An overview of effective teaching methodologies to improve media literacy among students:

Active learning strategies:

Engaging students in hands-on activities is a powerful way to deepen their understanding of media literacy concepts. By involving students in creating their own media

content, analyzing advertisements, and deconstructing news articles, teachers can provide hands-on experiences that illuminate how media messages are constructed and transmitted. Active learning encourages students to apply theoretical knowledge to real-world scenarios, helping them to deepen their understanding of media literacy principles.

Critical analysis exercises:

Encouraging students to critically analyze media texts, advertisements, and news articles is essential to developing their ability to distinguish between reliable and false information. By guiding students through structured analysis exercises, teachers can help them identify key misconceptions, assess the credibility of sources, and recognize persuasive techniques used in media content. Through systematic analysis, students can develop their critical thinking skills and develop a skeptical but intelligent approach to media consumption.

Collaborative learning:

Promoting collaborative learning environments in media literacy education can enrich students' learning experiences and enhance critical thinking skills. By facilitating group discussions, debates, and collaborative projects based on media content, teachers can encourage students to explore diverse perspectives, engage in constructive dialogue, and consider alternative viewpoints. Collaborative learning not only develops students' ability to work effectively in teams, but also fosters a sense of shared inquiry and collective learning in the classroom.

Real world applications:

Connecting media literacy concepts to real-world examples and current events helps students understand the importance and relevance of media literacy in their daily lives. By showing how media messages shape public discourse, influence societal attitudes, and influence individual decision-making, teachers can demonstrate the practical implications of media literacy skills. Integrating real-world applications into media literacy instruction helps students understand the broader implications of media content and encourages them to become more critical and informed consumers of information.

Developing digital skills:

In today's digital age, equipping students with practical digital skills is essential to fostering media literacy. Teaching students to verify information, evaluate online sources, and engage responsibly on digital platforms enables them to engage critically and ethically with media content.[5] By emphasizing the importance of digital literacy alongside traditional media literacy competencies, educators can prepare students to navigate the complexities of the digital landscape with confidence and insight.

In conclusion, incorporating these teaching methodologies can significantly enhance media literacy education and enable students to effectively navigate the media landscape. By adopting active learning strategies, developing critical analysis skills, promoting collaborative learning environments, emphasizing real-world applications, and fostering digital competencies, educators can equip students with the tools they need to become informed, intelligent, and responsible consumers and producers of media content[6].

Conclusion

In conclusion, the effective integration of diverse teaching methods is essential in increasing students' media literacy and preparing them to navigate the complex media landscape of today's digital age. By employing active learning strategies, such as engaging

students in hands-on activities and hands-on experiences, teachers can deepen their understanding of how messages are constructed and disseminated in the media. Encouraging critical analysis through structured exercises allows students to develop a rational approach to media content, empowering them to distinguish between reliable information and misinformation. In addition, promoting a collaborative learning environment develops critical thinking skills and encourages students to explore diverse perspectives and engage in constructive dialogue. Connecting media literacy concepts to real-world examples and current events highlights the relevance and practical importance of media literacy in students' daily lives, inspiring them to become more informed and critical consumers of media content. In addition, emphasizing the development of digital skills equips students with the necessary tools to act responsibly and ethically in the digital landscape.[7] By incorporating these methodologies into media literacy education, educators can empower students to become informed, intelligent, and active participants in the media ecosystem. Educational institutions must prioritize media literacy education to equip students with the essential skills needed to confidently and competently navigate the complex media landscape. Through a comprehensive and engaging approach to teaching media literacy, educators can create a generation of individuals who are skilled at analyzing, evaluating, and engaging with media content in a thoughtful and informed manner.

References/Литература/Adabiyotlar:

1. Potter, WJ (2010). Media Literacy. SAGE Publications.
2. Kellner, D., & Share, J. (2007). Critical media literacy is not an option. Learning Inquiry, 1(1), 59–69.
3. UNESCO (2011). Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
4. Qodirov, B. (2020). Fundamentals of Media Literacy. Tashkent: Publishing House of the National University of Uzbekistan.
5. Akhmedova, N. (2021). Media culture and its role in education. Pedagogical Education, 3(4), 112–118.
6. Tokhtayeva, Z. (2019). Experiences in introducing media literacy in schools of Uzbekistan. Education and Innovation, 2(1), 88–93.
7. Jenkins, H. (2006). Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. NYU Press.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).